

Kitoblar va maqolalar to'plami

K. G. Faustovskiy




Dengizdan esgan
shabada

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____

| | |
|--|--|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

Handwritten notes on a vertical strip of paper, including a ruler and illegible text.





821
P25

5.0.

Rus adabiyoti durdonalari

KONSTANTIN GEORGIYEVICH PAUSTOVSKIY



UMCAD

Dengizdan esgan shabada

739

Roman va hikoyalar

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2021

UO'K 821.161.1-31
KBK 84 (2Ros-Rus)
P 25

Rus tilidan
Jo'ra FOZIL
tarjimasi

Paustovskiy, Konstantin Georgiyevich


P 25 Dengizdan esgan shabada [Matn]: roman va hikoyalar /
K.G. Paustovskiy. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. –
296 b.

ISBN 978-9943-6583-6-3

Konstantin Georgiyevich Paustovskiy (1892–1968) XX asr rus adabiyoti-ning yirik namoyandalaridan biri. Uning «Sevgi», «Yaltiroq bulutlar» romanlari, «Qorabo'g'oz», «Kolxida», «Oltin gul», «Hayot haqida qissalar» kabi qissalari, yuzlab hikoyalari jahon xalqlarining ko'plab tillariga tarjima qilinib, katta shuhrat qozongan.

K.Paustovskiy asarlarida sevgi, xokisor insoniy muhabbat, yorqin va jozibali tasvirlanadi. Siz o'qishga kirishayotgan ushbu kitobda ham Sevgi, Vafo, Mehr-Oqibat hatto urush qabohatlaridan-da ustun ekani alohida ta'kidlanadi. Asar chuqur lirizm bilan sug'orilgan bo'lib, unda hayot falsafasi ufurib turadi.

UO'K 821.161.1-31
KBK 84 (2Ros-Rus)



ISBN 978-9943-6583-6-3

© Jo'ra Fozil (tarj.), 2021
© «O'zbekiston» NMIU, 2021





BIRINCHI QISM

HAYOT

Keksa Oskar

Keksa bastakor bilan qorong‘i qahvaxonadagi bu suhbatlarda azaliy bir hasrat, g‘ussa bor edi.

Chol o‘zining oltmish yoshiga qaramay, xiylagina xipcha ko‘rinardi. Mast bo‘lib qolganida obi-diyda qilar, xizmatini la‘natlar – u gimnaziyada nemis tili muallimi edi – va notalar yozib tashlangan yeng uchlarini hech kimga sezdirmay shimarmoqchi bo‘lardi.

U xayoliy opera yozgan edi. Chol bu asar Vagnerning «Tristana»sidan qolishmaydi, deya ishontirishiga qaramay, biror bir teatr uni sahnalashtirishga rozi bo‘lmasdi.

– Mening barmoqlaringa qarang! – qichqirardi u boshini arang qimirlatar ekan. – Bu barmoqlar klavish va torlar uchun yaratilgan. O, Henrix Heyne, Henrix Heyne, nechun u bunchalar erta o‘lib ketdi! Men G‘arbning ko‘hna hayotini, kula olgan, musiqani tushungan o‘sha odamlarni yaxshi ko‘raman. Men hatto sizlarni ham yaxshi ko‘raman, garchand, gimnaziyada Novalis ustidan kulgan bo‘lsangizlar-da. Sizga yuz martalab aytganmanki, «Hayotga yopishib olmag. Sarson-sargardon kezing, daydilik qiling, she‘rlar yozing, ayollarni seving, lekin jiddiy odamlarni ikki tosh naridan ay-lanib o‘ting».

Biz indamaygina nordon may sipqorib, tamaki tutatardik. Sunbu-laning oq yulduzlari ostida janub shahri shovqin solardi.

Stashevskiy keldi. U juda xotirjam va kulgili ko‘rinardi. Chol horg‘in jilmayganicha jim bo‘lib qoldi.

– Hayotning jilvasi va buyukligi! – dedi birdan Stashevskiy qalin tutun buruqsitib. – Hayotning jilvasi va buyukligi, – takrorladi u va jimib qoldi.



U uzuq-yuluq gapirar, yaxshi tanimagan kishi soʻzlari orasidagi bogʻlanishni ilgʻashi qiyin edi.

– Oskar! – qichqirdi u zavq-hayajon bilan. – Oskar, shunday opera yozingki, uning har bandida hayot gurkirab, gurillab tursin. Tushunyapsizmi, toʻtiqushlar toʻla qafasga oʻxshagan telbanamo, shovqin-suronli hayot. Nima, yomon mavzumi? Chit xalatli xotinlaringizni jin ursin! Qarqunoqlarni boʻgʻib tashlang-da, Venaga joʻnang. Bu shahar siz uchun yaratilgan. U yerda may noʻsh eting, taqdiri azaldan nolib, fohishalarga obi-diyda qiling, bozorlarni kezing, tong paytida gul va karam hidi anqib turgan xonangizga qayting. Ana oʻshanda siz albatta ajoyib opera yozasiz.

Oskarning qoʻllariga titroq kirdi.

– U mast, – dedim men sekingina Stashevskiyning stakanini chetga surib qoʻyar ekanman.

– Bu yerda oʻtirish, kana hidi anqib turgan konyak simirib, behuda oʻtgan umr haqida gʻingshish – ahmoqlik. Oʻlim barhaq, Alloh-taolodan nolishga hojat ham qolmagay, – dedi Stashevskiy va stolni mushtladi. Xizmatkorlar hushyor tortishdi. Olis shuʻla dengiz uzra bir yarqiradi-yu, soʻnib ketdi.

Oskar birdan taraddudlanib, koʻzidan oynagini oldi.

– Baqirmang, Stashevskiy, – dedi u alanglab. – Xudo haqqi, oʻn daqiqa jim turing. Soʻzlarimni boʻlmang, men hozir sizga ajoyib hayot haqida hikoya qilib beraman.

Uning koʻzlari qisilib, yaltirab ketdi va andak titradi. Qahvaxona sekin-asta boʻshay boshladi.

– Ha... hali bolaligimdayoq, – dedi Oskar sekingina, – tinglaganda boshni gir-gir aylantiradigan musiqa yaratish fikri xayolimni band etgandi. Bolalikdan barmoqlarim uzun, ovozim chiyildoq, fikr-u xayolim dadil edi. Men bir qarich chang bosgan, shiftigacha gʻalla toʻla qoplar bosib tashlangan omborlar orasida oʻsdim. Otam gʻalla ombori xoʻjayini edi. Uyimizda baland yozuv stollari turar, akalarim bir pud keladigan bosh hisob daftarlariga muk tushib, yuzlab, minglab raqamlar bitishardi. Hisob-kitob! Tiyin-tiyinga toʻgʻri kelishi kerak. Shu boisdan hisobchilar odatda juda maydakash boʻlishadi.

Soʻngra klassik gimnaziya, «ikki»lar, bolalik qusur-illatlari, ter bosgan, siyoh bulgʻagan qoʻllar. Men siyohni yalab olishni yaxshi koʻrardim. Siyoh juda nordon, terini taranglashtiradi.

Onanning ensasida bir tutamgina sochi bo'lib, rezina boshmoq kiyib yurar, yuziga qarasangiz, yavshan sharbati ichganmi, deb o'ylardingiz. Ha, sirasini aytganda, hech quvonarli joyi yo'q edi. Akalarim pishiq, jigarrang kostum-shim kiyib yurishar, tizzalariga qopchalar osilgan, ularning xonasidan paypoq va kreozotning bo'rsigan hidi kelar – katta akamning sil kasali bor edi. Men ularni yomon ko'rardim. Otam salobatli, kamgap va serjahl kishi bo'lib, o'zi yaxshi ko'rgan Kayzer singari ko'zoynak taqar, uchi ingichka mo'ylov qo'ygandi. Men, axir, ko'chmanchi nemislar avlodidan, o'sha malla, baquvvat va badjahl quloqlardanman! Otam savdogar bo'lishimni istardi.

– Men musiqani ixtiyor etmoqchidim, ota!

– Musiqa? Kallavaram! Sen xonimchalarni o'qitishni, bazmlarda raqs kuylari ijro etishni istaysanmi? Mashshoq bo'lmoqchimisan, hayvon!

O'shanda nimjon edim, tez-tez obi-diyda qilardim. Boshim liqilab turardi. Otam hol-jonimga qo'ymadi. Lekin baribir, savdogarlikdan ko'ra yaxshiroq kasbni tanladim – o'qituvchi bo'ldim.

So'ngra nikoh yuz berdi. Qanday qilib, nima uchun yuz berdi – bilmayman, xudo shohid. Xotinim – rangpar, kamqon «xonim», boy oiladan edi. U xonamga qirmizi upa, Mitssi nomli qarqunoq va ayolning ter hidini olib keldi. Hamon jirkanish hissini tuyaman, titrog'imni bosolmayman. Bu mijg'ov mehmon va qarindosh-urug'larni, bir umr piyoz hidi anqib turgan qandaydir sarg'imtir tusdagi yemakxonadagi tushliklarni aytmaysizmi? Uylangach, g'alati bir kashfiyot yaratdim. Bu, o'shanda hali naqadar tentakligimni ko'rsatadi. Men anglab yetdimki, oilaviy hayot – mehmon kutish, ovqatlanish, po'k ayolni izzat-ikrom bilan quchoqlash va yaqinlikdan so'ng shu zahotiyoc, katta xarajatlar deya arazlashib qolishga moslashtirilgan.

Lekin tunlar mening ixtiyorimda edi. Kechasi o'rnimdan turib, chiroqni yoqardim-da, sinfning badbo'y hididan, yuzlab turlanish-tuslanishlardan bezgan, charchagan holda yoza boshlardim. Ha... tun bo'yi yozardim, nota qog'ozi yetmasdi. Bu xuddi mo'jizadek edi. Bulutlar zamin uzra jaranglashi, fagotlar¹ telbavor hushtak chalishi, eski yalovlar shamolda shitirlashini eshitib turardim – siz kulmang! –

¹ Fagot – puflab chalinadigan musiqa asbobi.

aniq-ravshan eshitardim. Men yozardim-u, serquyosh, olis manzillar birin-ketin yuz ochadigan o'zga hayot haqidagi afsona barmoqlarim ostida gurkirab-gullashini tuyib turardim. Qora manzillarni dengizchilar va lo'li qizlarning quvnoq to'dalari bilan to'ldirardim. To'pponcha o'qlari tovushi nog'ora sozlariga qo'shilib ketar, qo'ng'iroqlar tebratib, o'rta asr qo'shiqlari sharafiga bong urishardi. Men zavq-shavq, shodlik nima ekanini tushunib yetdim. Siz zavq-shavq so'zini bilasizmi? – qichqirdi u va o'rnidan turdi. – Men hamma narsa to'g'risida yozardim: sevgi dard-alami, so'z bilan ifodalab bo'lmas hodisalarning buyukligi haqida, Alloh-taolo hamda o'zgarishlarga bo'lgan azaliy, mangu ishtiyoq haqida.

U o'rniga o'tirib, uzoq vaqt jim qoldi.

– So'ngra... – dedi u so'niq tovush bilan. – E-e, so'ngra nima ham bo'lardi... Teatrlarning direktorlari, taqrizchilar, xotininimning arazlab, jim yurishlari, dasturxonadagi qoq non, sinfdan sinfga ko'chish imtihonlari, ko'ngil aynishlari. U cho'ntagidan tamaki izlayotib, aftini bujmaytirdi.


– Bilasizmi, menga nima deyishdi?

«Sizning musiqangiz haddan tashqari xayoliy, tartibsiz, serhasam va dabdabali. Bunday operani sahnalashtirish qiyin». To'g'ri, nazokatli rad javoblari ham bo'lgandi, lekin aksar hollarda beadablik bilan rad etishardi. Konsertlarda ul-bul ijro etib tursam-da, bu juda azoblanarli edi. Ertalabdan kamzuldagi dog'larni tozalash, bo'yinbog' bog'lab, zarda bilan konsertga borish va bitta-yarimta qarsaklarga quloq tutish. Uyat! Gazetalarda bunday yozishardi: «Ohanglarning bo'g'iqligi». Eshityapsizmi, – «Harakatning yo'qligi! Iqtidor – ovqatga ishlatiladigan garmdoriday gap», hammadan yuksagi esa – «Tovushlar jilosi».

Do'stlarim muloyimgina zaharxanda kulishar, lekin bu qarindosh-urng'larning eng yomon istehzosidan o'n chandon battar edi. Xotininimning nigohlaridagi o'sha-o'sha uyqu aralash xotirjamlik va loqaydlik, bemaza musallas, arzon narx restoranlar hamda sizga o'xshagan bir necha yosh-yalang, – qolgan bor-budim – shu.

Men mag'lubman, lekin taslim bo'lmayman, zero, men – g'olibman.

Shamol keng quloch yoyib shovqin solar, allaqachon sarg'ish tus olgan qora qayin yaproqlarini stolchalarga irg'itardi.



Biz hech soʻz demay tashqariga chiqdik. Tun va dengiz shovqin solar, sevgi nimaligini bilmagan qizlar shivir-shivir qilib, ortlaridan chorlashar, oyoqlarimiz ostida barglar shigʻirlardi.

Ijod haqida

Pechka dudburoni guvillashidan uygʻonib ketdim. Bogʻda uyqusiragan kun sandiroqlab, tutunga burkanar, muzlab qolgan koʻlmaklarda xira nur sochardi.

Atrof juda sokin, butun shahar uyquda edi goʻyo. Men stolga oʻtirdim-u, bir necha qator yozdim. Nima haqda yozishni oʻzim ham bilmasdim. Hamma narsa toʻgʻrisida yozaman. Mana shu kuz haqida, qon yurakka qattiq urilishi va bogʻdagi hoʻl qumdan qish hidi kelishi haqida.

Ona oʻz bolasi qanaqa boʻlishini hech qachon bilmaydi. Men ham faqat bir narsani – yozgim kelayotganini bilaman, xolos. Uzoqda, ochiq dengizda kema zarda bilan oʻkirganiga quloq tutaman, de-raza ortida yalangʻoch shoxlardagi shamol uvillashini tinglayman. Qoʻllarim sovuq qotadi.

Issiq pechkaga yelkamni tirab, yengil paltoga oʻranib olganimcha miyamga nima kelsa, shuni yozaveraman. Yozadiganlarimning hammasi – tantiqlik, ermak. Stashevskiy shunday deydi. Lekin baʼzi-baʼzida ana shu gʻira-shiradan oddiy va ohorli timsollar tugʻiladi. Men buni bilaman, shu bois Stashevskiyning soʻzlari yurakka tegmay, yonginasidan sirgʻalib oʻtib ketadi. Nimaniki istasam, oʻsha haqda yozaman. Nega endi hikoya ikki varaqdan kam boʻlmasligi kerak ekan? Mayli, u bir qatorgina boʻlaqolsin – bundan qiymati kama-yib qolmaydi.

Tuman dengizning yashil suviga oʻxshab turibdi, tor koʻchalarga sariq kuz toʻkilyapti, ayollarning koʻzlari mitti bolakaylarga boʻlgan muhabbatdan qorayib bormoqda.

Men qoramtir suvdan ufurgan iliq harorat, suvosti oʻtlarining hidi tomchilab turgan kulrang va issiq oqshom haqida, koʻzlarida hayrat toʻla bolakaylarning injiqliklari haqida yozaman. Bularning hammasi pala-partish soʻzlar, qoramalar, lekin ana shu timsollar meni taʼqib etadi.

Men ayolning issiq nafasi, dengiz sohilidagi qahvaxonalardagi qorong'ulik, Shelli haqida, Grigning qorday musiqasi, Elladaning sariq sohillari va Bayron o'limi haqida yozaman. Xuddi kechikib qolishdan cho'chiganday, so'zlardan iborat bu qoralamalarni titrab-qaqshab qog'ozga tushiraman.

Dorilfunun tajribaxonalarida kristallashuv jarayonini kuzataman. Quyqa suyuqlikdan yupqa tekis yuza hosil bo'ladi va quyosh nuri ni sindiradigan shaffof, qattiq kristall o'sa boshlaydi. Hozir o'zimda ham ana shunday jarayon yuz beryapti. Har tong chumchuqlar chug'uridan uyg'onaman. Tanim hali bolalarnikiday yosh ekanini his etaman.

Aleksey boshini yostiqqa bosib, uzoq uxlaydi.

Biz uchalamiz ham talabalarmiz. Sinovlarni birga topshiramiz, oqshom ro'znomasida ishlaymiz. Oqshomlari Aleksey qatorlarni sanab chiqadi-da, ertalablari qalam haqi uchun tortishgani boradi. Hammadan ko'proq u dolzarb mavzular – Jakonda o'g'irlanishi, Blerio parvozlari, Amur yo'li qurilishi haqida uzundan uzoq feletonlar yozadi. Gazeta ishi uning so'zlarini siyqalashtirib, qirralarini tekislab qo'ygan. U bemalol bosh maqolalar, taqrizlar, daydilar hayotining go'zalliklari haqida hikoyalar yozaveradi. Ikkalamiz hamkorlikda «Odessada bir shisha djin» degan uzundan uzoq davomli roman yoz-yapmiz. Bularning hammasini nafas qisish kasaliga muhtalo qari no-shir Dnestropulo – sochi qirilgan xasis chol nashr etadi.

U hozircha chidab turibdi. Faqat, ahyon-ahyonda, yuzinchi parchani o'qir ekan, yolg'ondakam zarda bilan qichqiradi:

– Bu roman oxir-oqibat nima bilan tugaydi o'zi?! Sizlardan so'rayapman, nima bilan? Yosh-u juvonlaringiz ko'p noma'qul ishlar qilishadi, kun kelib, ular to'ppa-to'g'ri ariston rotalariga borishadi.

Bizni hayot bog'lab, birlashtirib turibdi. Ko'pincha bekordan bekorga sandiroqlaymiz, uzzukunlar mayxonalarda o'tiramiz, tutun rangiga qarab ingliz ko'mirini antratsitdan, jihozlanishiga qarab shxunani barkantindan, trambakni bark'dan farqlashni o'rganib oldik. Ularning qurt kemirgan tanalari bandargohning o'tkir namakobida chayqaladi. Ayniqsa, yomg'ir yog'ayotganda, tutun ho'l to'lqinto'sarga yopishib, kemalarning beg'am oshpazlari achchiq qahva qaynatayotganda kayfiyatimiz yanada yaxshi bo'ladi.

¹ *Kema turlari* – shxuna, barkantin, trambak, bark. (Tarj.)

Oqshomlari xiyobonlar chang va botayotgan quyosh nuridan qirmizi tus oladi.

Ulkan mis barkashga monand Oy nur sochadi, mayxonalarda skripka bo'g'iq nola qiladi.

Tun yuvosh fonarchiga o'xshab chiroqlarini yoqadi, shamol qopqora osmonda sarsari kezadi, mayxonalardan uloqtirib tashlangan araqzadalar ranj-alam bilan qichqiradilar.

Men ko'p yozaman. So'zlarning tovushi, ohangidan to'liqlanib ketaman.

Oskarning o'limi

Ertalab huzurimga Stashevskiy keldi: qari Oskar qazo qilibdi.

Cholning omadi yurishmayotgandi – o'limidan andak oldin u tramvayda o'z operasining yakka-yagona partiturasini yo'qotib qo'ydi. Bundan beadam iztirobga tushdi va surunkasiga bir necha kun araqxo'rlik qildi.

Biz Oskarning uyiga jo'nadik. Rutubatli zinalar qorong'i, sichqon hidi anqirdi. Moybo'yoq bilan bo'yalgan, chirkin panjalar izi qolgan devorlar sarg'ayib turardi.

Xonadondan sirka va nashatir spirt hidi kelar, kiraverishdagi oyna- kursida semiz mushuk uxlab yotardi.

Oskar ko'ksida yangigina orden vitsmundirda, yozuv stolida yotardi.

Uning yuzi sarg'aygan, tirikligida joziba baxsh etib turgan o'sha asabiyliги qolmagandi. Uchta sham yonib turardi. Shamlarning sariq tillariga nazar tashlar ekanman, tun qariyotgan chog'dagi vokzallarni esladim. Bunda yo'lovchilar qorong'idagi oromkursilarda uxlab yotgan bo'lishadi, keng oynalar ortida esa sovuq, zangori tong quyiladi.

Rangi o'chib, yuzi qiyshayib qolgan Stashevskiy Oskarga uzoq tikildi. Nafratomuz, jirkanuvchan zaharxanda uning lablarini titratardi.

– Ha, akaginam, – dedi u asta. – Bunaqa hissiyotparast, ko'ngli bo'sh iqtidor sohiblarini yoqtirmayman. Latta!

Devorda Betxoven, Grig, Motsart, Baxning suratlari osig'liq edi.

Biz gul olib kelgandik. Oppoq, durkun gullar Oskarning qog'oz-day quruq qo'llari yonida yotardi. Men bu qo'llar naqadar nozikligini endigina payqagandim.

Kimdir oshxonada oqsochni koyiyotgani eshilib turardi. Boshim og'rir, chakkalarim lo'qillar, bu yerdan tez ketgim kelardi. Stashevskiy deraza yoniga borib, chang bosgan notalarni varaqladi, rangi o'chgan devor gulqog'ozlaridagi Bax suratiga nazar tashladi. Biz Oskarning katta, do'ng peshonasidan o'pdik-da, xonadan chiqdik.

Shamol ko'zlarimizga chang, kungaboqar, beda urug'larini separ, sirka, iriyotgan tananing bad bo'yi ta'qib etardi.

– Qabohat! – dedi Stashevskiy va biroz jim turgach tupurdi. – Naqadar jirkanch!

Oskarni ertasiga ko'mishdi. Hammasi oddiy, g'aribona edi. Tobut ortidan arzon motam libosidagi xotini yurib borar, qalpog'idagi qora yupqa mato shaffof buyumdek yaltirardi. Oskarning akasi – ko'zlari quvnoq nemis, ko'mish marosimi ishqibozlari – kampirlar, gimnaziya talabalari va kumush hoshiyali shim, bahaybat, og'ir etik kiygan mash'albardorlar ham tobut ketidan borishardi. Chekkadan marhumning shogirdlari – Stashevskiy, Aleksey, men va qiz boladay nozikkina rassom Vinkler qadam tashlardik.

Baxmal yoqali chiroyli bashang palto kiygan ozg'ingina pastor¹ kitobchasini ochib, nemischada bir necha uzundan uzoq, zerikarli oyat o'qidi. Bulutli osmon yomg'ir va'da etardi.

Mayda g'isht tobut qopqog'iga tegib, taraqlaydi.

Qabrga tuproq tortib bo'lishgach, hamma darhol yengil tortdi.

– Nachora, – dedi Stashevskiy, – shundoq o'lim uchun yashasa arziydi.

Qarindosh-urug'lar ketib qolishdi, Vinkler qarag'ay xochga ushbu so'zlarni yozdi: «Nechun sen mangu, azaliy g'oyalar bilan haddan ziyod nimjon qalbingni qiynaysan?»

Qorong'i tushmoqda edi. Olisdagi shahar hayotning ajoyib ohanglari – tramvaylar gumbur-gumburi, kemalar o'kirigi, yo'llar g'ala-g'ovuri bilan shovqin solardi.

¹ Protestant ruhoniysi.

Juchok

Xona, ko'cha, bo'm-bo'sh hovlilardan kuz xazonlarining hidi anqir, dengiz olis xotiro misol shovqin solardi.

Kuzda omadimiz yurishib ketdi. Alekseyning cho'ntagi pul ko'rib qoldi. Uchalamiz – Aleksey, Stashevskiy va men tanish baliqchi bilan dengizga chiqmoqchi bo'ldik. Tanishimiz bandargoh yalangoyoqlariga o'xshab qop-qora, ozg'in edi.

Uni Qo'ng'izcha (Juchok) deyishar, bir machtali qayig'i eskirib, shalog'i chiqqan, yelkani butunlay yirtiq-yamoq edi.

Juchok Krivaya kosa degan joyda yashardi. Unikiga cho'l orqali jo'nardik. Polizlarda yetilib pishgan oshqovoqlar sariq tog'day bo'lib yotar, otlar tuyog'i ostidan oppoq chang ko'tarilar, jarliklar uzra erinchoq oftob qirmizi tus olgandi. Pastda, eritilgan shishaday shaffof dengiz yastanib yotardi.

Juchokning kulbasi qumlikda joylashgan, xivichdan to'qilgan devor ortida sokin dengiz shivirlardi.

Juchok so'qqabosh edi. Pachoq samovarga o't qaladik. Tutun osmon bo'ylab balandga o'rlay boshladi. Biz ancha vaqt achchiq choy ichib o'tirdik. Qumtepalar uzra zarg'aldoq oqshom mudrar, olisda qizlar ko'hna qo'shiqni kuylashardi:

Quddusda bong chalindi bevaqt:

O'g'il ko'rdi norasida qiz...¹

Juchokning xonasida, qog'oz gullar, ikona va beso'naqay kemalar suratleri orasida safarni uzoq muhokama etdik.

Kichik konga, suzuvchi mayoq tomonga jo'nashga qaror qildik.

Biz Juchokni anchadan buyon tanir va hurmat qilardik. Tevarak-atrofdagi u tentak, ovsar sifatida tanilgan, ortidan hamiyatga tegadigan laqab bilan atashardi. Uni kamgapligi, oz narsaga qanoat qilishi, shalvirab qolgan qayig'ida bir necha kunga ochiq dengizga chiqishga jur'at etishi uchun yomon ko'rishardi.

Ehtiyotkor va badavlat «qirg'oq» baliqchilari hamda eng chuqur joylarga ovga chiqadigan bebosh «tavakkalchilar» o'rtasida azaliy ra-

¹ She'rlarni Shodmon Sulaymon tarjima qilgan.

qobat bor edi. Har yili kuzda oqbalıq ovi paytida ko‘plab «tavakkalchilar» halok bo‘lishardi. Ular o‘ljalarini grek olibsohtarlariga hemiriga pullab, topgan-tutganlarini yog‘och mayxonalarda ichib bitirishardi.

Juchok tavakkalchi edi. O‘tgan yili Ilya kunida kutilmaganda tranbana¹ esib qoldi. Shamol qattiq kuch bilan yelar, suvni aylantirar va qora yomg‘irlar to‘dasini olib kelmoqda edi. Baliqchilar shoshilinch suratda qirg‘oq tomon yo‘l oldilar. Oldinma-keyin, yelkan-yelkanga tegay-tegay deb suzib borishardi. Bir kema to‘ntarilib ketdi. Hamma o‘z yo‘lida davom etdi, faqatgina Juchok, shaloq qayig‘i cho‘kib ketishi xavfi bo‘lsa-da, amallab yo‘ldan qayrildi-yu, suvdagi odamlarni qutqazib oldi. U shilta ho‘l, ko‘m-ko‘k ko‘karib, sovuqdan qo‘llari qaltirab qirg‘oqqa chiqdi. To‘rlarni osdi-da, hech narsa yuz bermaganday, go‘yo u ikki kishini qutqazmaganday, uyiga jo‘nab qoldi. Serajin, yuzlari quyoshda kuygan, ko‘zlari mug‘ombir, qari «qirg‘oq» baliqchilari yana uzoq vaysab yurdilar:

– Ovsar odam bu, xudo shohid. Ulardan loaqal uch so‘lkavoydan olsa bo‘lardi-ku...

Ertalabdan shamol pastlab esdi.

Dengiz qizil qirg‘oqlarga urilib, ko‘piklar, shovqin solardi. Simsiyo yelkanlar shatirlar, sariq shishaday kun polizlar uzra muallaq edi. Ikki mactali kichik kema moylangan burnini bir egib oldi-da, og‘ir chayqalib, suzib ketdi. Tomchilar yomg‘iri yuzga urilar, kema chayqalar, chag‘alaylar nola qilar, langar zanjiri dengiz tubida shaldirshuldur etardi. Hamma narsa – shamol, chag‘alaylar, to‘lqinlar ham jaranglayotganday edi.

Men kema burnidagi xonachada yotganimcha to‘rlardan anqiyotgan baliq hidini yutardim, yovvoyi bir ozodlik hissi vujudimni to‘ldirardi. Tamaki tutatib, quyosh to‘lqinlar va tumanlararo, huv, olisda, Tavridaning yovvoyi sohillarida botishini kutib yotardim.

U yerda – oqshom g‘ira-shirasida – mo‘ysafid Kerch, Kimmeriya jarliklari, qumloq sohillardagi yolg‘iz mayoqlar, nariroqda esa quyosh nurlari va tutunga chulg‘angan yasan-tusan bandargohlar, go‘zal yuzli ayollar, ummon kemalari, ola-bula xorijiy bayroqlar, boy zaminlar hidi hamda Orol bo‘sag‘asi yastanib yotadi.

¹ Shamol.

– Bakenni¹ tashla! – qichqirdi Juchok.

Bakenning qora bayrog‘i to‘lqinga o‘ralashib ketdi. Ho‘l zanjirdagi zang bosgan langar uzoqqa uchdi.

Qora to‘r yog‘och suzgichlari bilan yaltiroq sahnni taraqlatgani-cha suvga tushib borardi. Kulrang osmonda suzuvchi mayoqning yashil shu‘lasi nurlanardi. Kema tagxonasida kechki ovqat qildik. Biz sal suvi qochgan oq nonni ishtiyoq bilan yerdik. Qovurilgan baliqdan yog‘ oqib turar, zaytun milklarni kuydirardi.

Men dengizga nazar tashladim. Mayoq shu‘lasi qop-qora suvda dam torayib, dam kengayib turardi. Bir muddat quloq solib turdim-da, shunday dedim:

– Dengizning buyuk g‘am-g‘ussasi.

Juchok boshini sarak-sarak qilib, kulib yubordi:

– Juda ajoyib!

Kechki ovqatdan so‘ng Juchok kayutadan chang bosgan fonar olib chiqib, yoqdi-da, machtaga osib qo‘ydi. Qahrli osmonda mo‘jazzgina nur miltiradi.

Bulutlar o‘rmlab kela boshladilar. Suv qora tus oldi, undagi yulduzlarning oq jolasi asta-sekin o‘cha boshladi. Kema dirillab turgan zanjirda yulqinar, uning biqinida «Xudoyim, dengizda suzguvchilarni o‘z panohingda asragaysan» degan aji-buji yozuv oqarib turardi.

Tun yarmida uyg‘onib ketdim. Atrofdagi dengiz ham, osmon ham, kema ham yo‘q edi. Tepamizda tubsiz zulumat chayqalar, quloqlar baland shang‘illardi. Kema burnida papiros shu‘lasi miltirar, Juchok uxlamagandi.

Men uning yoniga o‘tib oldim-da, paltoga o‘ralib yonma-yon yotdim.

– Soat necha bo‘ldi? – so‘radi u bo‘g‘iq tovushda.

– Bir yarim.

– Bir soatdan so‘ng, tong ko‘kara boshlashi bilanoq langarni tortamiz.

Mayoq ko‘z qisdi va qora zanjirdagi kema chayqalib ketdi.

– Hech mazam bo‘lmayapti, bu aftidan, qarish alomati bo‘lsa kerak, – shikoyat qildi Juchok, – qulog‘im tom bitgan. Tun bo‘yi

¹ Langarga bog‘lab qo‘yiladigan suzgich.

uyqum kelmaydi. Tamaki chekib, o'z xayollarim bilan band bo'laman... Odamlar men to'g'rimda har xil gaplar aytishadi: «shtundist»¹, «duxobor»², «Injil»ni o'qiydi». Mendagi «Injil» juda ko'hna. Bu yerda, cho'lda bir odam yurardi – rohibmi, sayyohmi, kimligini bilib bo'lmaydi. O'sha kishi menga «Injil»ni sotdi. Ha... nasihatnomadan shunday so'zlarni o'qidim: «Qashshoqlar ruhan masrur, xushbaxtdirlar; zero, Alloh-taolo saltanati ularnikidir». Qayerda o'sha saltanat? Dengizda, bildingmi? Ba'zan o'ylanib qolasan kishi – Alloh-taolo saltanati, jannat makoni bormi o'zi? Dengizga, dengiz uzra tiniq osmonga, yengil havoga nazar tashlagach, borligiga imon keltirasan. Ehtimol, bu dengizdan yaxshiroqlari ham bordir. Bu saltanat yiroqda, xudoning o'zi esa, ukam, ko'rinmaydi...

– Ha, – dedi Juchok va tupurdi. – Har xil balo-battarlarni aytib yurishadi. Avvallari odamlardan juda achchiqlanardim – o'zlarini qay ko'yga solishgan – qaragani qo'rqasan kishi. Men o'z bilganimcha umr-basar qilaman. Fikr-o'ylarim, xayollarim ko'p, shunchalar ko'pki, umrim oxirigacha ularning adog'i bo'lmaydimi, deb qo'rqaman. Odamlardan xafa bo'lish, gina qilish esa besamar ish, o'z joningga jabr qilasan, xolos...

Peshinga tomon shamol qo'zg'alib, yomg'ir pardasi mayoqni to'sib qo'ydi. To'lqinlar shaloplab, shovqin solib o'tishardi. Biz yirtiq yomg'irpo'shlarimizni kiydik. Shamol yo'nalishiga qarab, qo'shni bandargoh tomon suza boshladik – uyga qaytishning iloji yo'q edi. Ko'p o'tmay to'lqinlar yaxlit devorlarday yugura boshladi, biz ular orasidagi havo yo'llarida yelardik. Bulutlar qora tutun singari zangor suv ustiga yopirildi. Shilta ho'l shamol yuzlarimizga urilar, tagxonada ko'm-ko'k baliqlar sakrab-sakrab qo'yishar, yorilgan lablarni tuz achishtirardi. Kema og'ir-og'ir botar, quyrug'idan suyuq ko'pik sharillab oqardi.

– Kechgacha yetib olamiz, – Juchok xotirjam etuvchi ohangda xirillar, siyrak mo'ylovini artib qo'yardi. Ho'l oyoqlar sovuq qo-

¹ *Shtundist* – XIX asrda Rossiyada paydo bo'lgan yevangeliya-baptistlar mazhabi a'zosi.

² *Duxobor* – pravoslav cherkovi tashqi libos va an'analarni inkor etuvchi sekta a'zosi.

tar, g'ira-shirada dengiz va shamol minglab ovozlarda qichqirishar, bo'ron shovqini qo'rqinchli tus olgan, kema dovul yo'liga tushib qolgandi.

Abadul-abad botgan Quyosh endi bu ko'rimsiz zaminga qaytmaydiganday, shamollar cho'yan zanjirlarni uzib yuborgandek tuyulardi. Nochor, jiqqa ho'l edik, bir-birimizga «churq» etmay, ko'zlarimiz yirtilguday bo'lib tun qorong'usidan mayoqning yonib bo'layozgan pilikka monand xira shu'lasini izlardik.

Lekin bu shu'la ko'rinmas, faqatgina shamol suvni shopirib, tumanning xira laxtaklarini yonimizdan uchirib o'tar, osmon gumbazi ostida yuzlab poyezdlar ko'z ko'rib, quloq eshitmagan tezlikda gumburlab ketib borishardi go'yo. Sharros yomg'ir ko'z ochgani qo'ymas, shamol kemanding old qismidagi yelkanni uzib yuborgandi. Men bak'ka chiqdim. Baliq tangasiga sirpanib ketib yiqildim, qo'lim lat yedi.

O'sha zahotiyoyq shamol tuz, suv o'tlari va zulumot sharsharasini ustimga yog'dirdi. Sahnga ag'anadim, yelkam kema to'sinidan zarb yedi.

«A-a-a-ax! – quvonch va hayajon bilan qichqirdi shamol.

Shamolni bo'ralatib so'kmoqchi bo'ldim. Lekin u haqorat so'zlarimni bo'g'zimga joyladi. Bir yumaloq jun yutganday tiqilib qoldim, hatto tomog'im og'rib ketdi. Dengiz olib borib, olib kelar, kemani ko'pik bilan sovunlardi.

Bakdagi katalakcha – «kayuta»ga kirib, tamaki tutatdim. Lat yegan yelkam zirqirab og'rir, qo'l-oyoqlarim sovqotar, tuz kuydirgan, shishib ketgan qovoqlarim zo'rg'a yopilardi. Uzib tashlangan eshikcha ortidan kema quyrug'iga boqib turardim. Juchok hamon o'sha yerda, oyoqlarini kergancha o'sha alpozda mahkam turar, yuzlari ho'l, toliqqan qiyofada edi.

To'lqin loyqa, serko'pik gumbazday chayqalar, bu yovvoyi bo'shliqda birorta baliqchi kemasi, biror tirik jon yo'qligini yaxshi bilardim.

– Shu'la ko'rinyapti! – qichqirdi Aleksey.

¹ Kemadagi yuqori palubaning old qismi.

Bir soatlardan so‘ng mayoqning ko‘m-ko‘k shu‘lasi kema biqini-
da loqaydgina yarqiray boshladi. Baliq va rutubatning o‘tkir hidi di-
moqqa urilar, dovul ortda qolgan edi.

Dengiz sohilidagi kuz, yomg‘ir ostida jiqqa ho‘l bo‘lib qolgan
qiz bolaga monand qora tiramoh binafsharang ko‘zlarini yarqiratar-
di. Shamol kema sahnidagi bir quchoq sariq barglarni shitirlatar, so-
hildagi qahvaxonalardan taralgan musiqa dengiz uzra yuksaklikda
charaqlab turgan shu‘lalar haqida, may shishasi po‘kagi hidi anqiydi-
gan yomg‘ir, qaynoq musallas no‘sh etgan ayollar qahqahasi haqida
mo‘jaz qissa aytardi.

Uchovlon, qo‘lma-qo‘l ushlab «ura» deya qichqirdik-da, qir-
g‘oqqa sakrab tushdik.

Santurin mayi

Biz bandargohning bo‘lmag‘ur mehmonxonasiga qo‘ndik.
Qo‘shni xonada xorda qo‘shiq aytuvchi lo‘lilar sochlari paxmoq xo-
tinlari bilan yashasharkan.

Lo‘li ayollar biz bilan uchrashishganda chorlovchi nigoh tashlab,
marjonlarini jiringlatishar, ba‘zi-ba‘zida raqsga tushib, qo‘shiq ayti-
shar, shunda mehmonxona nog‘oraning telbavor sadolari ostida zilzi-
ladan vayron bo‘layotganday tuyulardi.

Tunlari fohishalarni ushlab uchun tintuvlar bo‘lib turardi.

Yo‘lakda tunaydigan kema go‘lohlari ularning yonini olishar, ha-
qorat-dashnom, to‘polon tonggacha tinmasdi.


Biz pulimiz tugaguncha shu shaharda yashashga qaror qildik.

Kechqurun grek qahvaxonasida Aleksey va Stashevskiyini kutib
o‘tirardim. Qahvaxona devorlari qarqunoq rangiga bo‘yalgan, greklar
oshiq o‘ynashardi.

Deraza tokchasida o‘tirgan oq mushuk qo‘l-betini yuvar va grek-
larga nafrat bilan chimirilardi.

Aleksey va Stashevskiy shovqin-suron bilan kirib kelishdi, yo‘l-
yo‘lakay yonimizdagi stolchani turtib yuborishdi. Ular g‘ijimlangan
shlapa kiygan kulrang tusli kishini boshlab kelishgandi.

– Mana, bizning shoir, o‘tiribdi, tanishib qo‘y.



– Bu kishi yangi, yaqinda topdik – sobiq surgun qilinganlardan, eser. Hozir paroxod idorasida xizmat qiladi. O‘tir, ichamiz!

Ular eser bilan sensirab gaplashishardi.

Yonog‘i bog‘langan do‘mboqqina grek ayol ikki shisha san-turin mayi olib keldi. Eser Semyon Ivanovich shuursiz jilmayib, g‘ijim shlapasini deraza tokchasiga qo‘ydi-da, o‘tirdi. Mushuk panjasini shlapaga tekkizdi, so‘ngra xafa bo‘lganday to‘sin ortiga o‘tib ketdi.

Ular, aftidan, avval boshlangan suhbatni davom ettirib, darhol shovqin-suron bilan bahsga tushib ketdilar.

– O‘tgan asrdagi rus adabiyoti, – qichqirdi Stashevskiy, – bosh og‘rig‘iga muftalo bo‘lishning eng qulay vositasidir! Ikki og‘iz so‘z bilan ifodalash mumkin bo‘lgan narsa haqida gapni cho‘zib o‘tirishadi.

Dostoyevskiy asarlarini menga bering, ularning to‘rtidan uch qismini qisqartiraman, suvini siqib tashlayman. Qarabsizki, ular yangicha gul ochadi. Goncharov haqida ming‘irlab nima qilasiz? To‘g‘ri, ehtimol, bularning hammasi juda yaxshidir, lekin men o‘qiyolmayman, bildingizmi, o‘qiyolmayman. Unda ko‘zni qamash-tiruvchi kuch yo‘q, boshni aylantirmaydi. Yurak jimjit, tushunyapsiz-mi, yurak xapriqmaydi.

– Qani, Maksimov, – dedi menga Aleksey, – mayga zo‘r ber, Stashevskiy endi uch soat chakak uradi.

– Ular atrofidagi shovqin esa bir olam! – qichqirardi Stashevskiy Semyon Ivanovichga. – Professorchasiga silliqqina shovqin-suron ham, tantanavor, yig‘loqi, maqtanchoq to‘s-to‘polonlar ham yetib ortadi. Heyne ham, Verxarn, Gyugo ham bizga bir pul! Biz insoniyatga chin haqiqat yo‘lini ko‘rsatamiz. Biz – miyasi lat yegan, bezori, besa-vod dangasalar – insoniyat xaloskorlarimiz.

To‘g‘ri, ikki-uchtasi «yarq» etib ko‘zga tashlanishdi. Men ana o‘shalar uchun ichaman. Lermontov, Baratskiy, Pushkin uchun! Ularni eslasang, go‘yo ana shu botqoq uzra Quyosh chiqqanday bo‘ladi. Ularni o‘ldirdilar, yalab-yulqadilar, har bir mo‘yini silab-siypadilar, kamzullarida gard-g‘ubor qoldirmadilar va qimmatli mar-humlarga boqib to‘ymayptilar! Faqat Rossiyadagina adabiyotda

shallaqilar bo'lgan. «Ustoz, sening muborak noming oldida itoat bir-la tiz bukishga ijizat ber». Yozuvchilarga biz xuddi o'qituvchilarga qaraganday qaraymiz. Ular biz ovsarlarni o'qitishadi, ta'lim berishadi, shunisiga ham shukur. Bizda odamlar yo'q. Bizda ehtirosli, jasur, kula oladigan odam, oddiy, maftunkor odam yo'q. Hammamiz alohida-alohida qutilarga tiqilib olganmiz. Bizda, anglayapsizmi, aziz o'rtoqlar, hamma esdek, eser, tolstoychilar, narodniklar. Hamma o'zini yorliq yopishtirilgan qutilarga tiqishtirishga, u yerda o'tirib olib, qat'iyatli panjasini so'rishga oshiqadi. Haqiqatan ham, buyuk va qahrli g'oyalardan biz o'zimizga keragini – rus andozasiga mos buyuk g'oyani ajratib olamiz-da, u haqda ko'ngil ayniguncha, hatto o'zimizning jonimizga tekkuncha, butunlay pastkashlikka borguncha gapiraveramiz. Mana, sizga qabohat, g'am-g'ussa mamlakati, vah-shiylar yurti.

Semyon Ivanovich qizarib ketdi.

– Men, nafsilamriga, fikringizga unchalik qo'shilolmayman, garchand adabiyotdan yiroqlashganimga ancha bo'lganini e'tirof etsam-da, ko'proq partiyaviy doiralarda o'ralashib yurganimga qaramay, to'g'risini aytganda, yaxshi kishilar u yerda chiqishib ketolmaganlar.

– «Nafsilamriga – e'tirof etishmagan, e'tirof etadigan bo'lsak – chiqishib ketolmaganlar», – sekin-asta takrorladi Stashevskiy va Semyon Ivanovichga qahr bilan tikildi. – Eh, siz, in-qi-lob-chi-lar! Sizlar uvadaxonada chalvor tikishdan boshqasiga yaramaysizlar!

– Bularning hammasi o'z-o'zini kamsitish, badnom qilish, – suhbatga aralashdi Aleksey. – Bas qil! Jonimga tegding. G'ingshiganing-g'ingshigan, hatto quloqlarim shang'illab ketyapti.

– Aristoni! – dedi Stashevskiy va stakanidagi mayni bir ko'tarishda ichib yubordi.

Santurin mayidan boshim aylanar, to'xtovsiz gapirgim kelardi. Yonimizdagi stolchada o'tirgan qiz kattakon qizil havo sharini uchirdi. Tepamizda tutun chayqalar, greklar bahamjihat xaxolashardi.

Men o'rnimdan turdim.

– Siz bag'oyat go'zalsiz, – dedim qizga. Uning hamrohi o'rindiq bilan birga men tomonga o'girildi. – Lekin qanday yashash kerakligi-

ni umuman bilmaysiz. Hozir sizga aytib beraman, may quygunimcha bir daqiqa sabr qilsangiz, bo'lgani.

– Ura! – bemavrid qichqirdi qari grek.

Qizning hamrohi yelkalarini qisib, teskari o'girildi.

– Falsafani bas qil! – baqirdi Aleksey. – Ich! Tumanli miyang qizimasdan uni may bilan to'ldir. Kulsang-chi, sen, ey, maymunjon qiyomi, jin urgur, inqilobchi! Kim senlarga o'ylash kerak deb aytdi? Buning sirayam hojati yo'q. Bu umringizni bir daqiqagina ham uzaytirmaydi.

Dekchadek qalpoq, keng shim kiygan qari grek yonimizga kelib, hirlingladi. Burnining yuqori qismi yapasqi, qush tumshug'iga monand edi. U mening yelkamga qoqdi.

– Mana bunaqa mastika'ni ko'rganmisan? Ko'rganmisan shunaqasini? – U burni oldida yashil shishani aylantirdi. – Kala mera! Ich!

Yog'liq sharob tomoqni kuydirar, tun shamol va to'liqin bilan shovqin solardi. Qizil havo shari bujmayib, yerga quladi. Burchakda katta soyabonli qalpoq kiygan besaranjom yigitlar kursilarni xatarli tarzda u yoqdan bu yoqqa surishardi.

– Hey, venizelosliklar, tinchlaninglar! – qichqirdi Aleksey va ular jim bo'lishini biroz kutib turgach, kuylay boshladi:

Eh, umrimiz erur omonat,

Qo'ldan ketar har ne ixtiyor.

Yoshligimiz qilmaydi shafqat:

Yoy o'qidek uchmoqqa tayyor.

Greklar bo'sh qadahlarni qo'shiq ohangida jaranglata boshladilar. Ularning ter bosgan peshonalari xira ko'zguna o'xshab, mis chiroq nurini qaytarib turardi. Chiroqning shundoq yonginasida tepakal darg'a o'tirar, uning boshi bahaybat billiard soqqasiday yaltirardi.

Tamaki tutunidan hosil bo'lgan tuman shamol zarbalari ta'sirida xonada sargardon kezar va chirib ketgan shol ro'molga o'xshab yirtildirdi. Hammamiz qo'shiq ohangida chayqalardik. Chiroqlar, deraza-

¹ Mastika – sharobning bir turi.

lar, ular ortidagi akas daraxtlari ham tebranar, qahvaxona eski kema bo'lmasiga o'xshab ketardi.

Men o'rnimdan turib, qiz o'tirgan stol qarshisiga keldim va uning yoniga o'z qadahimni qo'ydim:

– Keling, almashtiramiz!

U menga hayrat bilan boqdi. Qizning qadahini oldim-da, bir ko'tarishda bo'shatdim. Tun soat kapgiriga o'xshab tebranib-tebranib qo'yardi. Kapgir tushganda – shamol qisqa, shiddatkor shovqin solar, ko'tarilganda – deraza pardalari tashqariga uchib ketishardi.

Qiz ko'zlarimga tikilib qaradi. Uning sherigi butunlay shalvirab qolgandi...

– Naqadar tentak va yoqimtoysiz, – dedi qiz, so'ngra barmoqlarining uchi bilan qo'llarimni siladi, kaftlarimni qisdi. – Bo'ldi, o'zingizni bosing, chayqalmang, tik qarang. Mana shunday. Endi-chi, meni tanidingizmi yoki yo'qmi?

– Xadicha! – qichqirdim men va kulib yubordim. – Yekaterina Vladimirovna. Sizni ko'rmaganimga besh yil bo'libdi. Qayerlardan so'rayin endi?

– Naqadar tentaksiz, – takrorladi qiz qo'llarimni qo'yib yubormay. – Men hozir ketaman, boshim og'riyapti. Yo'q, kuzatmang, hojati yo'q. Ertaga kunduzi sohil xiyobonida bo'laman. Keling, o'tgan-ketganni esga olamiz.

– Ura! – qichqirdi ayni vaqtda semiz grek va qalpog'ini tushirib yubordi.

Biz uch, to'rt, besh marotaba «ura» deya qichqirdik, qalpoq xona bo'ylab gir-gir aylandi. Xadicha ketdi.

– Qari Oskar uchun ichaman! – birdan qichqirib yubordi Stashevskiy. – Qari mayxo'r Oskar uchun!

Yuragimni pichoq tilib, chok-chok qilib yubordi go'yo.

Qari, mast-alast Oskar. U, axir, bizni yaxshi ko'rardi.

Oskar uchun, Juchokning eson-omon qaytishi uchun, Semyon Ivanovich surgun qilingan Vilyuy viloyati uchun, buyuk lattachaynar Vinkler uchun ichdik...

– Maksimov, qani, nutq irod et, pandavaqilar quloq solishsin!

Qarqunoqrang devorlardan ter tomchilar, tutun orasida chiroq yarim tungi quyoshdek bo'lib nur sochardi. So'z boshladim:

– Hayotni dilxushlik bilan zabt eting! – deya qichqirdim-da, shishani shishaga urdim. – Undan judo bo'layotganda ham, o'n chandon ziyod vaqtichog'lik qiling. Ajoyib, shubhali sarguzashtlarga xuddi sovuq suvga sho'ng'iganday sho'ng'ing. Sharmandalik va buyuklik – bu ikkalasi bir narsa. Boshdan kechishi bir xil bo'ladi. Siz greklar oltin terini topolmadingiz. Izlashni, izlanishni yaxshi ko'radigan, lekin juda kamdan kam topadiganlar uchun ichaman. Men mastika uchun, qizlar uchun, otaxonimiz Dnestropulo uchun, kefal¹ uchun va nihoyat, sevguchilar hamrohi bo'lmish odamiylik uchun, ilhom ato etgan muhabbat uchun ichaman.

Greklar o'rinlaridan irg'ib turib, baqira ketishdi. O'nlab paydor qo'llararo qahvaxona bekasining darg'azab yuzini ko'rib qoldim. Dekchasimon qalpoq yana gir aylana ketdi. «Ura, Dnestropulo, yashasin, Dnestropulo!» – qichqirardi ushoqqina grek domino donalarini havoga irg'itar ekan.

– Nima gap o'zi? Tekshirilsin! – ko'zlari xonasidan chiqquday bo'lib, bo'kirardi kumush kamarli gruzin. – Nega bizni qo'li bilan ko'rsatadi? Tekshirilsin!

Serpardoz, tulkiday sap-sariq qiz ortimdan quchoqladi-da, yonog'imdan o'pib oldi.

– Of-f-fa-rin, Mirka, qandingni ur! – qichqirdi qari grek, yaltirab turgan tizzalarini shapatilar ekan. U qattiq kulgidan chinqirib yubordi. – Hech baloni tushunmaysan-u, o'paverasan. Of-f-farin!

Burchakda surnay surbetlarcha g'o'ng'illay boshladi. Surnayni so'lg'in va serqahr turk chalardi. Raqs ilang-bilang to'daga qo'shilib ketdi-da, hammani jim bo'lishga majbur etdi.

Xa- xa, xotta-xotta!

Xa-xa, xotta-xotta!

Xona gir-gir aylana boshladi, stolchalar devorlarga qarab uchdi. Mushuk to'sin ortidan chiqib, dumini qisganicha deraza tomonga yu-

¹ Kefal – Qora va O'rta yer dengizida yashovchi mayda baliq.

gurdi. Men Mirka bilan raqs tushmoqda edim. Uning yuzimga urilayotgan nafasidan piyoz hidi va hirs ufurib turardi. Haddan tashqari qizil lablari kappa-kappa ochilib, havoning qolgan-qutganini yutmoqchi bo'lar, sariq sochlaridan gul hidi kelardi.

Xa- xa, xotta-xotta!

Xa-xa, xotta-xotta!

Bizni tonggi soat beshda qahvaxonadan uloqtirib tashlashdi. Chiroqlarning sariq jimir-jimiri, subhi sodiq darhol elita boshladi.

– Bularning hammasi uyushtirilgan, tekshirilsin! – qichqirdi ostonada darg'azab gruzin.

– Xob qilgani jo'nadik, bo'lmasa!

– Jo'nadik!

Bandargohda qum soatlari yoqimli ohang bilan qo'sh zarb urib turishardi: gum-gum... gum-gum...

Kim biladi deysiz, ehtimol, haqiqatan ham bari uyushtirilgandir. Lekin nima bo'lgandayam, yaxshi uyushtirilgan!

Notanish shahar

Derazani ochdim, xonaga shamol yopirilib kirdi. Pastda notanish shahar yastanib yotar, Quyosh tomalar uzra balandlab borar, bo'rondan so'ng zamin hidi yanada qattiqroq anqirdi.

Suvdon ostidan kemalar qatnovi jadvali bitilgan bir varaq sariq yaltiroq qog'ozni tortib oldim-da, orqa tomoniga yozdim: «Daydilik qilib, yo'lda uchraydigan barcha narsalar – tuman, odamlarning azob-uqubat, kasalliklar ajini tushgan yuzlari, hech kim o'qimaydigan she'rlarni yig'ishtirib olsang-da, bu haqda huzur qilib fikr yuritib, xuddi tushdagidek ajabtovur timsollar topsang, so'ngra mana shu varaqlarda ikkinchi hayotni boshlab yuborsang. Tevarak-atrofdagi ayanch, kulguli tarzda noma'qul va befarosat, yumdalayman deb turgan borliqqa qarama-qarshi o'laroq, unga butunlay begona o'z dunyoyingni yaratsang».

«Ko'ngling oynasiga nazar sol, masrurlik tuyasan. Sevgidan qanotlangan qalbing g'ururdan forig' bo'lib, olis, yuksak cho'qqilarga

parvoz qiladi. U yerda esa haqiqat nurli, yorug‘ qo‘llari bilan aql-idrok yuzidagi pardani tushiradi».

Bu fors hikmati haqida, men soatlab fikr yurita olaman. O‘ylaganim sayin, u yangi ma’no kasb etaveradi.

Men tasodiflar to‘g‘risida ko‘p o‘ylayman. Mana, moybo‘yoq bilan chizilgan kichik surat. U ham yonimda yotibdi. Pastki qismida «Gogenga – Vinklerdan» degan yozuv bitilgan.

Gogen. Men uning hayoti haqida o‘ylay boshlayman.

Gogenning onasi – ko‘kish sochli ispan ayoli Meksika sahosida tashnalikdan jon taslim qilgan qarochining evarasi edi. Mis sovutlar jarangi va may oltin-u zaxm kasalligi uning katolik oilasi o‘tmishini yo‘qqa chiqargandi. U o‘g‘lini iezuitlar¹ maktabiga berdi. Gogen lotin tilini, madhiyalarni o‘rgandi, bokira qiz homiladorligi va Iso payg‘ambar qonining Burgund mayiga aylanish tarixi bilan qiziqdi. Ozg‘in padarlarning buxo‘r va atir hidi anqib turadigan kiyimlarida uning shafqatsiz ajdodlariga o‘xshash nimadir bor edi. Abbatlar avliyo Pyotr buyuk saltanatining istilochilari edilar.

Maktabni tamomlaganda u dahriy edi. Bir muddat dengizlarda suzdi. Bepoyon kengliklar uni ajdodlarining elas-elas tovushi bilan chorlashardi. Tropik oqshomlarning qo‘pol, serhasham zarhali, ol manzaralari, tabiiy ekzotika nafasi xuddi shishadagi yoriqdek bo‘lib uning xotirasidan o‘tdi. Butun umr olis, xayoliy narsalar g‘ussasi, ularning hammasini yangi bo‘yoqlarda aks ettirish ishtiyoqi bilan yashash osonmi?

Gogen – besaranjom ko‘zlarining oqi sarg‘aygan, badani quyosh nuridan qahva rangini olgan parijlik yigit – ibtidoiy mamlakatlarni jon-dilidan yaxshi ko‘rardi.

U jami oddiy narsalar – bankdagi xizmati, oilasi, Parijning sokin dahasidagi ko‘k pardali kichkinagina uy, yakshanbalik daryo sayrlarini to‘satdan qashshoq rassom hayotiga almashtirdi. Kir-chir yostiq jildi, soqoli qirilmagan yuzlar, xiyobonlardagi afisha yopishtirishlar, hali ko‘rimsizgina ilk suratlar. Musavvirlik martabasining debochasi ana shunday edi.

¹ Katolik rohiblar tashkiloti a‘zolari.

U, madaniyatni juda yomon ko‘rardi. Unda qandaydir xunuklik, karaxtlik bordek. Shaharda yashab, yulduzli osmon xaritasini bilmasang, bu endi, borib turgan bedodlik! U Parijdan qochish oldidan shunday degandi. U, buyuk ishlar uchun yaratilgan inson, Taiti oroliga, buyuk ummonga qarab qochdi. Qochdi va o‘la-o‘lguncha bir umrga shu kengliklar asiri bo‘lib qoldi.

Quyosh uning suratlaridagi bo‘yoqlarni eritar, matolardan sharbat, yarqiroq va serzavq nur oqardi. Qora nilto‘tiyo, bolakay badaniga monand jigarrang qum, siynalarining uchlari o‘tkir qizlar, o‘rkach-o‘rkach og‘ir to‘lqinlar. Limonlar, gul-chechaklar, oqshomlar, ayollarning oltin suvi bilan yo‘g‘rilgan chiroyli sonlari.

U rasm chizar, bezgak qo‘llarini qaltiratardi. Musavvir ishdan to‘xtadi, qushlarning ulkan patlariga monand moybo‘yoq matolarga nazar tashladi va Dunyoning yaratilishi haqidagi «Injil» rivoyatiga birinchi marotaba imon keltirdi.

Ko‘z ko‘rmagan, jimjit, qalin bo‘yoq-chizgilarga to‘la bir olam unga, uning dahoga unchalik yarashmaydigan haddan tashqari nimjon gavdasiga ishtiyoq bilan tikilib turardi.

U jon berdi. Xotini – taitilik qiz sochlari bilan marhumning ko‘zlarini yopdi. Shamollar mavsumi edi, oppoq bulutlar orollar ustidan uchib o‘tishar, Gogen endigina uyquga ketgandi go‘yo.

Yovvoyilar yig‘lab, dod-faryod qilishardi. Ularning hayotini, tong nuriga ko‘milgan orollarini dumaloq ko‘zoynakli oq tanlidan, uning siyosiy tuzumlari, fisq-u fujuri, arag‘i va hisob-kitobidan qattiq turib himoya etgan boshqa bir oq tanli, ajoyib inson vafot etgandi.

O‘limi oldidan Gogen g‘arb istilosidan qattiq tashvishga tushdi.

G‘arbliliklar cho‘ntaklarida zirak va marjonlarni saralaganlaricha xush muomala, xotirjamlik bilan o‘rmlab kelishar, shahvoniy hirs ulardan so‘zak zahri bo‘lib yog‘ilardi. Qizlar zarg‘aldoq siynalarini arzongina chit mato bilan bekitadigan bo‘lishdi. Aholisi chig‘anoq va dengiz suviga sig‘inadigan orolda miltiqlar qarsillab qoldi. Gogen o‘zining ikkinchi vataniga birorta ham yevropalikni qo‘yishni istamadi. U Yevropaga kuchlar teng bo‘lmagan urush e‘lon qildi. Ana shu isyonchini, xochni tepkilagan xudobexabar

dahriyni cherkovning sodiq farzandi deya e'tirof etdilar va katolik rasm-rusumlarning barcha dabdabasi ila dafn etdilar. Qovoqlari soliq, ko'kraklari dengizchinikiday, qo'llaridan bo'yoq hidi anqib turgan, insoniyat bolaligini tiklash azaliy g'oyasi deya aziyat chekkan, boladek soddadil inson – Gogen umri ana shunday intiho topdi.

Moskvada, Shchukin uyining oqish gilamlar bilan qoplangan issiq xonalarida men uning suratlarini ko'rganman. Ularda shunday imzo bor: Paul Gauguin.

Rassomning avtoportreti xotiramda. Xotirjam va o'tkir nigoh, yaltirab turgan qora ko'zlar, qirrador tund chehra. Deraza ortida yog'ayotgan yumshoq, sokin qor esa butoqlar, cherkovlar raxlariga bosh qo'yardi.

Misli ko'rilmagan cho'qqilarga ko'tarilgan, o'z nomuntazamliklarida barqaror, deyarli unut bo'layozgan daholar g'ayrioddiy, bolalardek injiqdirlar. Men ularni eslashni, nomlarini birma-bir ko'ngildan o'tkazishni xush ko'raman. Ular haqidagi o'y-xayollar xuddi duodek ta'sirli, ko'ngilni iyydiradi.

Men ko'plab darbadarlar, shoirlarni yod etaman. Qashshoqlik, bir finjon suyuqqina qahva, buyuk yutuqlar quvonchi va beaded hasrat, g'am-g'ussa. Bu hasratdan zaifroqlarining qalbini zang bosadi. Ularning yozug'i – ta'na-dashnomlar, so'qqabosh, yakka-yolg'iz kishilarni to'lqinlantiradigan g'alati kitoblardir.

Har bir insonda daho bo'lish imkoni bor. Lekin bunga erishish yo'li og'ir. Men yurak titrog'i nima ekanini yaxshi bilaman. U kutilmaganda, ba'zan qizg'in suhbat paytida, ba'zida tungi o'y-xayollar girdobida yoki uyquga to'ygan bandargoh sokin tongotarida tashrif buyuradi. Shunda men bu kishilar taqdiridan tahlikaga tushaman.

Xadicha

Bog' adog'idagi dengiz sutga chayilganday oppoq edi. Xazonlar yerga ohista-ohista bosh qo'yishardi. G'ira-shirada xira osmonda fonarlar vishilladi, so'ngra kemalarda mo'jaz shu'lalar porladi. Oqshom zangori, g'amgin va jiqqa ho'l edi.

Men bog'da Xadichani kutardim. Uni hali yosh qizchalik paytidan bilardim. Shimolda, Oka sohilidagi shaharchada tanishgan edik. Bu yerda oyoq ostidagi sovuq xuddi yangi charmga o'xshab g'archillardi. Zarg'aldoq quyosh poli mumlangan xonalarda yastanib yotar, chiroqlarning piliklari chirsillar, o'ftobro'yalarda mushuklar uxlashar, yaxmalakda esa Xadicha xandon tashlab kulardi. Uning yonoqlari yal-yal yonardi. Qiz gimnaziyaning oltinchi sinfida, men esa yettinchida o'qirdim. Ta'til paytida buvimnikiga kelgandim. Qo'limga nina bilan langar tasviri tushirilgan, men kemalar, dengizchilar, Iskandariya haqida ko'pdan ko'p loflar urardim. Va nihoyat, kecha, qahvaxonadagi g'alati uchrashuv. Uning qora to'r parda ostidagi ko'zlarini, kulgisi, ovozini tanidim.

Endi-chi? Endi cho'ntagimda uch so'm pul qoldi. Aleksey to'polon qilgani uchun aristonga tushdi, Stashevskiy moyga bulg'angan xonaga o'tirib olib, bilmadim, kim uchundir buyuklik va mutaassiblik to'g'risida risola yozyapti. Uning uslubi Pshibishevskiy¹nikiday. Yaqinda Artur Rembo² haqida yozdi. Ocherkda Remboga taalluqli biror kalima ham so'z yo'q edi. U fillar kasalligi, o'qi o'n qadamdan «Injil»ni teshib o'tadigan amerika multiqlarining afzalliklari to'g'risida fikr yuritib, avantyurizmga hamd-u sano o'qir, Livan tog'larida salb yurishi ishtirokchilari qurgan gotik ibodatxona saqlanib qolgan, uning oldida Parijdagi Notr-Dam cherkovi bolalar o'yinchog'iday bir gap, deya surbetlarcha ta'kidlardi. Remboning bularga nima daxli bor – noma'lum.

Xadicha kech tushgandagina keldi. Uning sochlaridan shamol hidi anqirdi. Biz jiqqa ho'l yo'lkalarda uzoq sayr etdik.

– Qanday umr-basar qilding, deysizmi? Gimnaziyaning so'ng Parijda yashadim. Qarindoshlarim meni Sorbonnaga o'qishga jo'natishdi. Bundan keyin nima qilishimni bilmayman. Kecha, qahvaxonada siz, yashashni o'rgataman, deya menga va'da berdingiz.

Xadicha kulib yubordi.

¹ S.Pshibishevskiy – polyak yozuvchisi (1868–1927).

² Artur Rembo – fransuz shoiri (1854–1891).

– Bu yerda, qarindoshlarimnikida mehmondaman. Ko‘p kitob o‘qimoqchiman, Frans asarlarini tarjima qilaman. Umuman, sizni uchratganim yaxshi bo‘ldi.

U bir muddat jim qoldi.

– Onam yaqinda vafot etdi, – dedi u xotirjam ohangda. – Ibo-datxona yonidagi bog‘ni, yaxmalakni eslaysizmi? Siz ajoyib nar-salarni hikoya qilardingiz. Parijda bir serb muhojirini uchratdim. Uning ko‘zlari, burni siznikiga o‘xshardi. Oqshomlari u o‘tiradigan qahvaxonaga borardim. Siz haqingizda, meni unutgan Maksimov to‘g‘risida o‘ylardim. Siz jo‘nab ketganingizdan so‘ng, kunlar ilib, yo‘llardan o‘tib bo‘lmay qoldi. Otlar tanasidan bug‘ ko‘tarilar, men esam nuqul siz va dengiz haqida xayol surardim. O‘shanda kim bilan kelgandingiz?

– Stashevskiy va Aleksey bilan. Ular hozir shu yerda.

– Pastak chanalarda uchganimiz-chi, eslaysizmi? Stashevskiy cha-nalar ortidan yugurib, ularni bir yo‘lkadan ikkinchisiga irg‘itib yubo-rardi. U juda baquvvat-da, axir.

– Yo‘q, Stashevskiy emas, Aleksey shunday qilgandi.

– Jo‘nab ketishingizdan oldin, sohildagi bog‘da o‘tirganimiz esin-gizdami? Butoqlardan qor to‘kilar, biz bir-birimizning qo‘llarimizni isitardik.

– Nega sizni tatar qizi deyishadi?

– Buvim bog‘chasaroylik. O‘zim tatarlar orasida o‘sganman. Do‘stlarimning ismi Amet, Aysha va Useyn. Amet hamon menga magnoliya barglarida maktub bitadi. Ularning hammasi meni tatarcha ism bilan – Xadicha deb chaqirishadi. Rus qiziman, sochlarim somon-day sap-sariq bo‘lishiga qaramay, Xadichaligimcha qolib ketdim.

U jilmayib, men to‘g‘rimda gapira ketdi.

– So‘ngra men juda ko‘p kishilarni uchratdim. Jamiki erkaklar-ni allaqanday qirrası bor. Shu qirraga urilsang, joning og‘riydi. Sizda bunday qirra yo‘q, boshqachasiz. Buni har bir kishi ilg‘ay ola-di. Odamlar kamdan kam to‘g‘ri qarashadi. Ular yo qattiq tikilishadi yoki shundoq, ko‘z yugurtirishadi, xolos. Siz bo‘lsangiz, xuddi bosh-qa birovlar ko‘rmaydigan narsalarni izlaganday, sodda, xotirjam ni-goh tashlaysiz. O‘shanda ovozingiz bo‘g‘iq, tabassumingiz uyatchan, tortinchoq edi – kam o‘zgaribsiz.

– Yo‘q, men ulg‘aydim, kattaroq bo‘ldim. O‘zim kattalarni yoq-tirmayman. Qaytib bola bo‘lib qolish, konkida uchib yurish uchun ko‘p narsaning bahridan o‘tgan bo‘lardim.

Biz bog‘ni tark etdik. Shaharni rutubatli tun qamramoqda, panja-ralar ortida dengiz ko‘m-ko‘k sharobdek tovlanar, gaz chiroqlar til-chalari janub tomonga egilgan, shamol shimoldan esa boshlagandi.

– Kech kuzda bunday oqshomlar kamdan kam bo‘ladi, – dedi Xadicha astagina.

Qadamlarimiz tosh to‘sinlararo aks sado berardi.

– Qanaqa g‘alati nur bu?

Men tun jozibasida uning ko‘zlarini ko‘rib turardim.

– Bu yulduz burjlari yog‘dusi bo‘lishi kerak, Xadicha.

Yog‘du dengiz uzra pastak gumbazdek bo‘lib ko‘tarildi. U dam alanganar, dam xira yaltirar, dam qorong‘ilik, tuman qa‘riga singib ketardi.

– Yulduz burjlari yog‘dusi oxirgi marotoba qachon ko‘ringanini bilasizmi?

– Qachon, Maksimov?

– Dante Beatricheni uchratgan tunda.

– To‘qib chiqarishga juda usta ekansiz.

Xadicha kulib yubordi-yu, qo‘limdan ushladi. Qo‘lqop ustidan uning barmoqlari taftini sezib turardim. Cho‘yan ko‘prik bo‘ylab yu-rib borardik. Ko‘prik bandargoh nishabliklari yoriqlari uzra yengil yastanib yotar, olov urchuqlari qop-qora suvga qarab yugurgilardi. Uistler ana shunday tun haqida, vaznini yo‘qotgan ko‘prik toshlari, ko‘rfaz suvlari, tiniq osmon haqida yozgandi. Yulduzlar titrab, qaltirab, ana shu sovuq, havorang suvlarda nurlarini sindirishadi.

– Yaxshi, – dedim Xadichaga. – Rutubatli tun, dilga yaqin zamin hamda shunchalar yiroq, shunchalar qadrdon – sizning o‘zingiz. Bu-lar naqadar ajabtovur, g‘alati.

Yana ko‘p gapirdim. O‘zim shu turishimda emas, balki necha yil-lar qo‘msab yurgan siyratim gapirayotganday tuyulardi. Men shahar uzra yaltiroq yormaga monand sutdek oppoq yopinchiq yopayotgan ana shu tunni kutgandim go‘yo.

Biz bandargoh yoqalab o‘tdik. Dengiz sayozliklarida ko‘k nur o‘ynar, suv uyqu aralash shaloplardi.

Kichkina oq uy oldida xayrlashayotganimizda simobrang dengiz ko'zimizga tik boqib turar, butoqlar orasida zangori Vega yarqirardi.

Ko'cha musiqachisi

Vinkler keldi. U o'zi bilan pul hamda safarimizga bepisandlik hisini olib keldi. Do'stimiz odatdagidan ko'ra kamgaproq edi.

Biz juda quvonib ketib, shaharda yana bir hafta qolishga qaror qildik. Birinchi kuniyoq Vinkler Stashevskiy bilan arazlashib qoldi.

– Rassom bo'lganimda edi, – dedi choy ustida Stashevskiy, – ajoyib suratlar chizardim, senga o'xshab vaqtimni mayda-chuydaga sarflab o'tirmasdim. Masalan, kemaning sariq dudburonini, qop-qora osmonni tasvirlardim. Boshqa hech balo yo'q, vassalom! Zo'r taassurot qoldiradi, shunday emasmi? Sen bo'lsang, allaqanday rangin masalalarni hal etasan. Mayli, nima ham derdim! Chizaver suratlaringni, akaginam, mehnat qil. Yangilik ijod et, eskilari jonimga tegib ketdi!

– Sen tentaksan, ko'zlaring kuchukvachchanikidek ko'r. Qorong'ulik ko'rning ham joniga tekkan. Nuqul jangari xo'rozdek «men-men»lab kuymanasan. Hamma narsa bu kishining jonlariga tekkanmish. Skvirlik Lord Bayronni ko'rib qo'ying. Yer-u osmon emas, sen o'z-o'zingdan bezor bo'lgansan. Miyangni sal shamollatsang bo'lardi, is bosibdi.

– Nima haqda tortishyapsizlar, buncha? – so'radi Aleksey. – Jahonning buyuk shoirlari baqamti kep qopti-da. Vinkler, albatta, mag'zini chaqib ko'rishi kerak. Nega joniga tekkan, kimning joniga tekkan...

Qo'shni xonada qari mashshoq arfada kuy chalishga tushdi. Yo'lakda neapolitan qo'shig'i baralla, tantanavor yangray boshladi.

– Italiyalik qariya chalyapti, – dedi Aleksey va ko'zini qisdi. – G'alati qariya. Hammaga ta'zim bajo keltiradi, mehmonxona haqini to'lamaydi, to'ylarda arfa, skripka chaladi. Nima bilan tirikchilik qiladi, bilmayman.

Qariyaning go'zal Italiyaga bo'lgan mo'ysafid sog'inchi chordoqlarga parvoz etar, dengizchilarning xotinlari kir yuvishdan bir muddat

to‘xtab, qad rostlashar, mag‘zavali qo‘llari bilan terlarini sidirishardi. Serquyosh hovlichalar, salqin favvoralar sog‘inchi... Bu sog‘inch, bu g‘am, ehtimol, Rim yanglig‘ buyuk edi. Qariyaning boshi liqillab turar, u hech kimga yomonlik qilmas, yashil namat qalpog‘ini boshidan olib, barchaga ta‘zim bajo etardi. Uning begona yurtdagi hayoti juda achchiq, nochor edi.

– Aleksey, araq sotib olgin-da, qariyani shu yerga boshlab kel, – dedi Stashevskiy.

Chol skripkasini olib keldi. Skripka bo‘yog‘i qoramtir, quyosh nuri oltinrang pardalarda xira yaltirardi. Qariya simday soqolini kafti bilan artar, andak shodon, andakkina g‘amgin edi. U yoruqqa orqasini o‘girib, o‘tirib oldi-da, bir qadah aroq ichdi. Charmdek qalin shimi-ning shokilalari osilib yotar, ko‘m-ko‘k gardani qizil bo‘yinbog‘ bilan o‘ralgandi.

– Motsart? – xirqiroq ovozda so‘radi qariya skripkasini qo‘liga olar ekan. – Motsartdan chalaymi?

Men bosh qimirlatdim.

Motsart musiqasi ko‘hna Vena lahjasiday g‘oyat nafis. Shamlar yog‘dusi qizil klavikord'larda titraydi, torlar xuddi mehrob yonidagi shivir-shivirga o‘xshab, birdan jimib qoladilar. Tantanavor ohanglar, Venetsiya go‘zallarining ko‘zlari, anhorlar suvidagi kuz yoqlarini – bularning hammasi katta buvim to‘qigan to‘rday ko‘hna. Skripka ana shular haqida hikoya qilardi. «Biz-chi? – o‘yladim men. – Biz Motsartning do‘stona hayotini unutdik. Bax qani? Gaydn qayerda? Ko‘zlarimiz xafagazak mehnatdan oqaradi, yozug‘imiz – qashshoqlik va odamlar orasida hech bir maqsadsiz sandiroqlashdir. Biz uchun eng sarafroz daqiqalar – yonginamizdan besamar o‘tib ketgan ajoyib kunlarni o‘ylab ko‘z yosh to‘kayotgan pallalarimizdir».

Papirosni derazadan uloqtirdim. «Mening hayotimda ham shu ko‘z yoshlaridan bo‘lak hech vaqo qolmasa-chi?»

Chol jim bo‘lib qoldi. Unga yana aroq quydim. Mashshoqning qo‘llari qaltirardi, qadahni chayqaltirib to‘kib yubordi.

¹ Klavikord – musiqa asbobi pardasi.

– Eh, – dedi Stashevskiy. – Qariya Oskar bo‘lganida edi. Bu navolarning hammasi uning haqida, axir.

Chol yana qandaydir uchqur raqs kuyini chala boshladi. Agar, ko‘zlar sarig‘i yaltir-yulturida shod-u xurramlik bo‘lsa, mast latta-chilar, tishi tushgan gadolar va ovozi sun‘iy sharmankachilar shodiyonasi ana shu kuyga omuxta, hamohang jaranglamoqda edi. Hatto lo‘li ayollar ham jimib qolib, bir muddat quloq soldilar-da, so‘ngra nog‘oralarini telbavor gumburlatib, kuylab yubordilar:

*Eh, bir marta, yana bir,
Yana ko‘p bor, ko‘p marta!*

Kema tutunlari

Deraza oynasidan rutubatli tong oqib kiradi. Cherkovlarning bong sadolari tomlar uzra jaranglaydi. Osmonning bahaybat elagidan mayn yomg‘ir elanadi.

Xadicha bilan uchrashganimdan so‘ng ko‘p yangiliklar yuz berdi. Aleksey va Vinkler jo‘nab ketishdi. Men Stashevskiy bilan yolg‘iz qoldim. Uning esa tobi qochdi. Kunlarning birida u qayiqda, bir o‘zi dengizga chiqib ketgan edi. Uyga qaytganida ust-boshi shalabbo, o‘zi asabiy, yuzlari yomon qizargan, ko‘zlari yallig‘lanib turardi. Vrach o‘pkasi shamollagan, deb tashxis qo‘ydi.

Biz uni avvalgi bo‘lmadan yuqoriga – sokin, serquyosh xonaga ko‘chirdik. Deraza ortida yalang‘och akas daraxtlari o‘sgan maydon yastanib yotar, kemalarning yakkam-dukkam tutunlari osmonga o‘rlardi. Men polda uxlardim, ertablari sovuq qotardim.

Musiqachiga Garibaldi deb nom qo‘ydik. Men u bilan birga tushlik qilardim. Onda-sonda, Xadichaning uyiga borardik.

Shaharda allaqachon qish sukunati hukmronlik qilardi. Bandargoh kimsasiz, bo‘m-bo‘sh, men bundan xursand edim. Yolg‘izligimga hech nima xalaqit bermasdi. Mayxonalardagi qizil gulqog‘ozlar, bug‘, oq choynaklar, eshik ortida tongning yashil g‘ala-g‘ovuri orasida bu yolg‘izlik yanada yengil tuyulardi. Ba‘zi-ba‘zida havoda qor aylanishib qolar, qarag‘ay va ho‘l kema sahnalari hidi kelardi.

Men yozardim, ijod etardim... Lekin bu haqda keyin gapirib bera-man. Aftidan, Xadichani sevib qolgandim. Buni o‘z-o‘zimga aytish-dan, tan olishdan qo‘rqardim. Axir, mendek bekorxo‘jani, go‘dakni sevish mumkin emas-ku! Bilardimki, asir etuvchi, maftunkor baxtsiz-lik bildirmay yonimga kelayotir, quvonch men bilan birga shamollar sarsari kezgan ko‘chalarda sandiroqlab yuribdi.

Ustidan kulib yurishga o‘rganganim – sevgi qanday kelib qoldiy-kin?

Hammasi aralashib ketdi: bo‘m-bo‘sh bog‘lar, dengiz uzra yuksal-gan Quyosh, ko‘m-ko‘k suv, kemalarning qizil tanasi, sho‘r tumandan nafas olish quvonchi. Va bularning hammasidan balandda, yuksaklik-da – tobora kuchayib borayotgan sevgi, Xadichaga bo‘lgan muhabbat turardi.

Har bir kun, har bir so‘z va harakat yangi, o‘zgacha, dadil, hayot mazmun, maqsad kasb etgandi. Oldinda yangi uchrashuvlar, dovul-bo‘ronlar kutayotganini anglash, his etish yanada to‘lqinlantirardi. Har doim shunday yashasang edi!

Men o‘z sevgim bilan band edim. Xadichaning kulib turgan shid-datkor lablari, mayxona Motsarti – Garibaldi va yosh boladek ozg‘in Stashevskiy ham birga edilar.

Shahar bulutli osmonda, tortinchoq Quyosh va baliq hidida ux-lamoqda. Chiroqlar dam yonib, dam o‘chadi, yo‘lkalardan qadam-larimiz sasi keladi. Cherkovlarda xuddi ko‘zlari ojiz kishi tasbeh o‘girayotganday ehtiyotkorlik bilan qo‘ng‘iroq chalishadi.

Qora qayin yaproqlaridan yaratilgan shaharlar

O‘shanda men juda ko‘p yozardim. Kallamga nima kelsa, shu haqda fikr yuritardim.

... Xiyobonda o‘tirib, o‘ynayotgan qizaloqni kuzatardim. Qiza-loq juda kichkina, Alekseyning ta‘biri bilan aytganda, «bir tomchi suvdek» edi. U pishillaganicha silliq dengiz toshlarini to‘dalardi. Toshlardan uy qurar, shahar barpo etar, maydonlar quruq qora qayin yaproqlaridan, saroylar chig‘anoqlardan qilingandi. Qizaloq ha-

yajonlanganidan og‘ir nafas olib, o‘zi bilan o‘zi gaplashardi. Uning uylarida «odam»lar istiqomat etishar, ilang-bilang yo‘llardan yurishar, ba‘zi-ba‘zida ularni shamol uchirib, u maydondan bu maydonga irg‘itar, bu juda kulgili edi. Shunda qizaloq chapak chalib, kulib yuborardi.

So‘ngra oqsoqlanganicha Julik keldi. U zig‘ir tolasiday kulrang, burnidagi junlari farq ochib taralgan, tili beparvolarcha osilib yotardi. Julik saroylarni iskab ko‘rdi, maydonga o‘tirdi va «odam»larni majalab yubordi.

– Sen qayerga o‘tirding, o‘zi, Julik? – qichqirib yubordi qizcha.

Julik paxmoq dumini silkitgan edi, «odam»lar uy-puylari bilan osmonga uchib ketishdi. «Shahar» butunlay vayron etildi. Qizcha achchiqlanib Julikni bir musht tushirdi. U o‘rnidan turib, o‘rindi tagiga kirib ketdi-da, qizchaga orqasini o‘girdi.

Qizcha qo‘llarini yoyganicha uzoq turib qoldi, qo‘rquv to‘la ko‘zlarini Julikning xam quloqlariga tikdi va birdan yig‘lab yubordi. U Julikni qo‘llariga olib, ho‘l burnidan o‘pdi. Julik angillab yubordi, qizchani qo‘lidan yulqinib chiqib, chumchuqlarga bo‘g‘iq ovozda vovullaganicha gulpushtalarda uzoq izg‘idi. Atrofni tuman qopladi, kema bonglari harbiy burg‘u tovushiday dirillab qoldi.

Men qora qayin yaprog‘idan yaralgan shaharlar, chig‘anoqdan qilingan saroylar rostakamligiga ishonish, va olti oylik kuchukvachcha nohaq xafa qilgan qizchaga qo‘shilib yig‘lash qobiliyatini hali yo‘qotganim yo‘q.

Men tentak Julikni ayab ko‘z yosh to‘kkan bu kichkina odamchalarni yaxshi ko‘rib qoldim. Ulardan ko‘p narsalarni o‘rganishni istardim.

Garibaldi bilan mayxonada o‘tirardim. Hali juda erta, shu boisdan hammayoq bo‘m-bo‘sh edi. Peshtaxta ortida qovog‘i osiq xo‘jayin gazeta o‘qib o‘tirardi. Italiyalik attor kelib qoldi. Uning shisha qopqoqli qutisida qalbaki qayroqlar, lava toshlari, chig‘anoq va marjonlar bor edi.

Men undan qirq tiyanga chig‘anoq sotib oldim. Chig‘anoq qattiq qirmizrang ko‘pik bilan qoplangandi. Garibaldi uni qulog‘iga bosdi.

– Dengiz, – dedi u jilmayib, cholning o‘siq soqollari ham nurlanib ketdi.

Men ham quloq tutdim. Chig‘anoqdan olis to‘lqin sadosi kelardi.

– Uni dengizdan olishgan, – tushuntirdi Garibaldi. – Chig‘anoq dengizni sog‘inadi va nuqul to‘lqinday guvillaydi.

Biz tamaki chekkanimizcha uzoq xayol surib o‘tirdik. Men chig‘anoq to‘g‘risida o‘ylardim. Insonni ham o‘zga hayotdan olib, bu do‘zaxga joylashtirishgan. Shu bois har bir kishi qalb xotirasidagi o‘z ummonini qo‘msaydi.

Men tez-tez o‘z-o‘zimga quloq tutaman. Atrof nihoyat sokin bo‘lganda, qayg‘u-hasrat va sog‘inch tushuniksiz bir qo‘shiqday bo‘lib guvillayotganini eshitib qolaman.

Po‘rtaxol po‘chog‘i

Men ko‘pincha kechalari yozardim. Shamni yoqardim-da, uni qalin kitoblar bilan to‘sisib qo‘yib, tun shovqiniga quloq solganimcha, yozaboshlardim. Pastdagi soat bo‘g‘iq ohangda avval soat ikkiga, keyin uchga zang urardi. Sukunatni, sichqonlar shitir-shitirini tinglardim, ba‘zan stol ustida uxlab qolardim va kemaning cho‘ziq o‘kirigidan uyg‘onib ketardim. Uyqu aralash o‘ylardim: bu – «Neojidanniy» kemasi, yoki «Batum», yoinki «Afrodita», so‘ngra yana uxlab qolardim. Onda-sonda deraza yoniga borib, pastga qarardim. Chiroqlar burilib suzib ketishar – kema yo‘lga chiqqani ko‘rinib turardi. Sim-siyo suvda shu‘lalar o‘ynar, shamol qora bayroqlarni shatirlatardi.

Xadichani o‘ylab, tonggacha uxlayolmagan paytlarim ko‘p bo‘lardi. Men uni ko‘cha-ko‘yda, botayotgan quyosh nuridan munavvar bog‘-panjaralar orasida tasavvur etardim. Momoqaldiroq, cho‘l gullarining hidi anqirdi.

Kech uxlagani yotardim – buloq suviday tiniq, qattiq uyqu juda yengil edi. Biz, minglab kishilar qatori, tushliklar, xastaliklar, xizmat, is-tutunlar orasida yashaymiz. Yorqin so‘zlardan cho‘chiymiz. Zavqshavq, ko‘tarinki ruh – bizni to‘pponcha o‘qidan battarroq qo‘rqitadi. Lekin ba‘zan hamma o‘rganib ketgan bu dunyoga g‘ussa, sog‘inch

kirib keladi-da, yurakni yondiradi. Shunda men tunlar, oppoq tunlar haqida o'ylayman. Yo'q, bu tunlar Peterburgning ham bo'yiga, ham eniga uniqqan, to'zigan kechalari, emas. Bular butunlay boshqacha, o'ziga xos. Bu tunlarda chiroqlar, shu'lalar o'rkach-o'rkach bo'lib, keng, tumanli ko'rfazlarda chayqaladi. Sutdek oppoq nur qo'ynida yashil yulduzlar elas-elas ko'rinib, ho'l yelkanlar machtalarga osilib qolganda, ayollarning dudoqlari namlanib, kema qo'nalg'alari-yu shaharlar buyuk sukunatga g'arq bo'lganida, bu tunlar mo'ysafid, nuqra g'amdan libos kiyadilar.

Men bu haqda yozishni yoqtirmayman. Chunki bu semiz, o'z martabasidan mamnun kishilarning qattiq kulgisi yoki zaharxandasi-ni uyg'otadi. Boisi, juda ko'pchilik haqiqiy g'am-g'ussa nima ekanini bilmaydi.

Yaqinda Stashevskiy pisanda qildi:

– Sen butun borlig'ing bilan o'zing to'qib chiqargan dunyoda yashaysan. Po'rtaxol po'chog'ini ko'rishing hamono, shu po'choq rangli osmon haqida o'ylay boshlaysan. Holbuki, bu rangdagi osmon-ni hech qachon ko'rolmaysan. G'alati odamsan!

Kecha Xadicha menga shunday dedi:

– Siz butunlay yosh bolasiz. Nuqul allaqayoqlarga, Amerikaga, Misrga, Yangi yerga ketib qolgingiz kelaveradi.

Men g'aliz javob qildim:

– Sayohat – dunyodagi eng yaxshi mashg'ulotdir. Yurt kezganda juda tez o'sasan, ko'rgan-kechirganing hatto, tashqi qiyofangda ham aks etib turadi. Ko'p sayohat qilganlarni ming kishi orasidan bo'lsa ham, darhol tanib olaman. Darbadarliklar poklantiradi, uchrashuvlar asrlar, kitoblar va sevgi-muhabbatni bir-biriga o'rab-chirmab yuboradi. Bizni osmon bilan birlashtiradi. Basharti, tug'ilishdek hali isbot etilmagan baxtga muyassar ekanmiz, hech bo'lmaganda, dunyo kezish kerak.

Begona sohillarning issiq qumi kaftlarda chuqur izlar qoldiradi, iliq to'lqinlar kundalik hayot shilliq g'uborlarini yuvib ketadi. Har bir kunning o'z sog'inchi, g'ussasi bor. Mana, bugun men Boltiq dengizidagi xira kunlarni ko'rgim keladi: tuman ignabargli daraxtlar o'sgan qirg'oqlarni pardadek to'sib yotibdi, yelkaniga qizil hoshiya

tikilgan baliqchi kemalari dengizga chiqishadi. Qirg' oq yaqinidagi o'rmonzorlar ochiq maydonchalarida archagul o'sib yotadi, katta kemalarning ho'l tutunlari Daniyaning qumli sohillariga – Ola Ganson vataniga oshiqadi.

Ehtimol, bularning birortasi ham yo'qdir, lekin men baribir, hammasini ko'ra olaman. Chunki allaqachonlardan beri pinhona narsalarni ilg'ash, xayolimdagi mahsulini borliqqa aylantirishga intilaman.

Shamlar va chiroqlar

Kerosin, elektr quvvati va atsetilen, – yozdim men tunlarning birida, – o'n sakkizinchi asr shamlarini quvg'in qilishdi. Nur ko'zni qamashtirib, elektr chiroqlari surunkali kasallikday jonga tekkanida, sham va mum isini qo'msay boshlaysan.

Venetsiyaning torgina ibodatxonalari, anhorlar hidi, Chimarozo¹ ohanglari, rangi o'chgan ostonalar uzra cho'yan fonuslar – bularning hammasi – shamchiroqlar asridir.

Vatto²ning xuddi ko'k upa surtilganday, samoviy rangdagi sodagina fonuslari, San-susi og'ir shamdonlarining kumush jilosi, Versal derazalaridan ko'ringan qandillarning qizg'ish nuri – bularning hammasi mumdan qilingan shamlarning mo'jazzgina nuridan suv ichgan. Cho'yan panjaralar oldida serhasham izvoshlar turadi, yomg'ir yonlamasiga yog'ib, malaylar kamzulini savalaydi, o'n sakkizinchi asr yaltur-yaltur chiroqlari, Marsel islovotxonalaridagi moychiroqlar, jangovar kemalar sahniga o'rnatilgan mis to'plar, bo'ynini katak bo'yinbog' bilan tang'igan dengizchilar ham shu nurdan bahramand bo'lishgan.

Yozuvchi, shoirlarimizning kitoblari sahifalari chiroq va shamlar ziyosidan nurlanadi.

Mopassan qonday quyuq va qizil chiroq yorug'ida, junun sahrosida kezayotgan daqiqalarida yozardi.

Varlen qahvaxonada gazchiroqning nochorgina nuri ostida qahva to'kilgan hisob-kitob varaqlarining teskarisiga yozar, uning bir qa-

¹ *Chimarozo* – italyan bastakori.

² *Vatto* – fransuz musavviri.

rashda sodda ko‘ringan she‘rlaridan zaharolud yorituvchi gaz tomchilab turardi go‘yo.

Bodler chiroq ustiga o‘rnatiladigan faqatgina qora qalpoqni tan olardi, xolos. Qalpoq safroga o‘xshagan jigarrang nur sochar, Oyning shishgan yuzi jirkanish hislarini uyg‘otardi. Parij oqava quvurlar orqali nafas olar, ramzlar pala-partishligi sog‘inch paydo etar, qishloq, qalampirgul, dalalararo kunbotar payti yodga tushardi. Yengil raqs kuyi yangrar, lekin negadir uzun bog‘ichli qalpoq kiygan qizlar emas, kir-chir, yo‘l-yo‘l paypoq kiygan kampirlar gir aylanishardi.

Chexov oddiy yozuv stolida ijod etar, yashil qalpoqli chiroq nur sochar, kishilarga rahmi kelganidan, barmoqlari muzlardi. Baroq qishlar, qo‘ng‘iroqchalar, ko‘hna Rusiyaning kulgili bema‘niligi va Yardagi lo‘li ayollar g‘am-sog‘inch yashirin nolali qo‘shiqlar.

Dostoyevskiy oshxonada, shishasi yorilib ketgan, o‘tda qoraygan gazeta o‘ralgan chiroq yorug‘ida yozardi. Qo‘lansa tunlar, pulsizlik, johil ayollar, insonlarning irib-chirib ketgan qalbi – bularning hammasi Peterburgning jazavali g‘am-anduhini qo‘zg‘atardi.

Artur Rembo torgina kayutada, o‘g‘irlab olingan sham yorug‘ida behayo she‘riy kitob chetiga yozishni xush ko‘rardi. Sham shisha og‘ziga tiqib qo‘yilardi. Rembo butun yer yuzini ko‘piklanib turgan olma moyi bilan yuvishni orzu qilardi.

Uayld Londonning tumanli bahor kunlari, kungaboqar gulidek yarqiroq chiroq va kaminlarni yaxshi ko‘rardi.

Kellerman deraza ortida mayoq lipillab, ummon guvillagan, tovada baliq sekin vishillab qovurilayotgan baliqchi kulbasida, o‘choqdagi olov yorug‘ida nari-beri yasalgan yog‘och stolda ijod etgan.

Materlink ijodida anhorlarning tonggi jimir-jimiri qo‘ynidagi shudring va asalari, Verxarn she‘rlarida Antverpen bandargohining kunbotari va zulmatiga yo‘g‘irilgan yuzlab savdo bayroqlari mujasam.

Buyuk inqilob kunlarida, ayollar Maratning tasviri tushirilgan uzuklar taqib yurishganida, Bulon o‘rmonidagi kuz quyoshi ulkan of-tob bo‘lib Anatol Frans kitobi sahifalariga ko‘chgan.

Bayram sukunati

Tun yarmida uyg'ondim. Dengiz og'ir-og'ir chayqalayotgani eshilib turar, Stashevskiy alahlardi.

– Maksimov, nega u choyshabni tortib olyapti? – qo'rquv aralash so'radi bemor. – Ayt, bukri ketsin.

Paltomni uning ustiga yopdim. Stashevskiy o'qtin-o'qtin nafas olar, yuzida qizil dog'lar yonar, ko'zlari quruq yaltirardi.

– Isib ketdim! – qichqirdi u va o'rnidan turib o'tirib, choyshabni olib tashladi. – Derazani och, Maksimov. Eshityapsanmi, och derazani!

Garibaldining xonasiga borib, uni uyg'otdim. Qari mashshoq uzoq inqilladi, qorong'ida boshmoqlarini izlar ekan, italyanchasiga allanimalarni shivirlab qo'ydi.

– Ona! – birdan chorladi Stashevskiy. – Maksimov! – qichqirdi u xasta tovush bilan va yig'lab yubordi. – Ketma, eshityapsanmi, ketmagin. Shu yerda o'tir. Chiroqni yoq. Qorong'ida nafas ololmayapman.

Bemorning ozg'in ko'ksi, oqarib ketgan qo'llari orasidan nur ko'ringudek edi. Uni avaylab o'rniga yotqizdim, paxmoq sochlarini siypaladim. Garibaldi o'rindiqqa chiqib, devor chirog'ini yoqdi.

Stashevskiy menga alam bilan tikilganicha jimib qoldi, yirik ko'z yoshlari yostiqa kulrang dog' bo'lib yoyildi.

– Sen ketib qolmaysanmi?

– Doktorni chaqirib kelaman. Garibaldi yoningda bo'ladi.

– Xo'p, mayli. Ahvolim juda yomon, – zo'rg'a xirilladi u va ko'zlarini yumdi.

Yomg'irning yakkam-dukkam tomchilari deraza oynasiga urilar, dengiz bo'g'iq guvillardi.

– Suv!

Qariya unga stakan tutdi. Bemor suvni ko'kragi, choyshabga to'kkanicha yutoqib ichdi. Yana alahlay boshladi.

– Bukrini yo'qotinglar bu yerdan! – qichqirdi u qo'lini cho'zib.

Garibaldi menga parishon nazar tashladi.

Kiyinib tashqariga chiqdim. Yaltirab turgan ko'chalar bo'm-bo'sh, shamol bir tekis esib, daraxt shoxlaridan og'ir tomchilar-

ni sidirib tushirar, hovlilarda xo‘rozlar yomg‘ir chorlab qichqirishardi.

Doktorni qidirib topganimda tong oqara boshlagan, shalvirab qolgan bulutlardan irkit bir nur istamaygina sirg‘alib tushib, shalabbo shaharda sarsari kezardi. Akas daraxtlarining butoqlari yanada qoraydi, yomg‘ir quya boshladi. Samo bir maromdagi shovqin bilan to‘ldi.

Doktorning qovoqlari uyqudan shishgan, sochlari oppoq, soqoliga ilashgan yirik yomg‘ir tomchilari paltosiga tomib turardi. U tez-tez qadam tashlar va to‘ng‘illab qo‘yardi. Hech qayerda izvosh ko‘rinmasdi.

Yetib kelganimizda Stashevskiy jiqqa terga botganicha jim yotardi. Xonaning dim quruq issig‘i boshimga urildi. Doktor dumaloq cho‘yan pechka yonida isinib bo‘lguncha, men stulda o‘tirganim ko‘yi uxladim. So‘ngra doktor bemorni ko‘zdan kechirdi.

– Juda yaxshi, – dedi u va menga ta‘naomuz nigoh tashladi. – Buhron bo‘lgan ekan. Endi hammasi ortda qolibdi. Tuzala boshlaydi.

U tamaki tutatdi va stolga o‘tirib, dorixat yoza boshladi. Uzoq yozdi, devorga tikilganicha nimalarnidir xayol surdi, bemor necha yoshdaligini so‘radi.

– Yigirma to‘rtida.

– Ha, yosh ekan. Nimayam derdim, bu juda yaxshi.

– Soat necha bo‘ldi? – so‘radi Stashevskiy. – Qachon uyg‘onsang – chiroq yoniq, quyoshdan esa darak yo‘q.

– Besh bo‘lyapti. Uxla.

Tongning och yashil sharbati xloroform to‘lqinlariday bo‘lib xonaga quyilar, uyqu kezinar, chiroq o‘chib, qovoqlarim og‘irlashib, ko‘zlarim yumilib borardi. Deraza ortidan bahodirlar qo‘shig‘iga o‘xshash tovush kelardi. Doktor ketdi.

Garibaldi tirsagimdan ushladi.

– Janob nima dedi? Qalay?

– Hammasi joyida, Garibaldi.

– O-o, hammasi joyida? – takrorladi u va o‘girilib cho‘ntagidan isliq, ilma-teshik dastro‘mol oldi-da, yo‘lakka chiqdi. Cholning boshi silkinmoqda edi.

Stashevskiy uxlab qoldi. Garibaldining ortidan chiqmoqchi edim, bo‘lmadi, uyqu butunlay elitgandi.

Polga cho‘zildim, baland to‘lqinlar meni shiftga ko‘tardi...

Kech uyg‘ondim. Derazaga Quyosh tushib turar, qish osmoni mu-saffo, Garibaldi madhiyasi ohanglari tantanavor yangrardi.

Qariya kuy ijro etar, Stashevskiy horg‘in jilmayardi.

Yashasin Garibaldi!

Ertalab shahar sokin, bandargoh esa yaxshilab supurilganday bo‘m-bo‘sh, huvillagan edi. Quyosh baland osmon bo‘ylab sayr eta-di. Bugun bayram. Xonamiz oqish chang to‘lqinlariga to‘la. Men Sta-shevskiyga Qur‘onni o‘qib beryapman. Kitobdan qurigan gul hidi ke-ladi, tizzalarimga yengil chang tushib turadi.

Stashevskiy ko‘zlarini yumib yotadi, so‘ng savol beradi:

– Xadichani ko‘rganingga ancha bo‘ldimi?

– Kecha ko‘rgandim.

Stashevskiy yana jim bo‘lib qoldi. Tuzalganidan beri u soatlab yomg‘ir shovqiniga, parovoz o‘kirigiga quloq tutar, deraza ortida shoshilmay o‘rmlayotgan tumanga yoki juda balanddagi issiq nurga to‘la bulutga tikilib yotaverardi.

– Yaxshi! – deydi u va «uf» tortadi. – E-y xudoyim, naqadar ajo-yib!

Ba‘zan iltimos qilib qoladi:

– Maksimov, ko‘chada nima bo‘lyapti, aytib ber.

Deraza ortida nimaiki ko‘rsam, hammasini aytaveraman, lekin kallamda ayqash-uyqash xayollar kezadi, odamlar ertaklar qahramon-lariga aylanib qolaveradilar. Etik tozalovchilarning qoramoy qutilari bahaybat va yorqin tus oladi. Tamaki sotuvchi bolakaylar grek sha-harchalari ko‘chalaridagi jiqqamushtni esga soladilar, chehralari no-farmon ko‘katfurush ayollarga nazar tashlaganimda, Mopassan hiko-yalari yodga tushadi.

Sevgi

Stashevskiy uxlab qoladi, men ko'chaga chiqaman. Bandargohning rutubatdan yam-yashil bo'lib qolgan zinalaridan tushib boraman. Qovurg'ador rux omborxonalar oftobdan iliy boshlaydi. Yupqa muz kemalarning tanasiga yopishib qoladi, dengizchilar tamaki tutatganlaricha hushtak yordamida xirgoyi qiladilar.

Xadichani uchratib qolarmikinman, degan ilinj bilan kutyapman. Tortinchoqlik irodamni karaxt etgan, tasodifiy uchrashuvga umid qilaman. Uni ko'rmaganimga bir necha kun bo'ldi. Bir necha kundirki, vaqt o'tib boryapti, keng-mo'l kunlar o'qib bo'lingan kitob varag'iday almashinyapti, meni esa Xadichani ko'rolmayman, degan bir dard yuragimni achishtiradi.

Uning uyi oldidagi tor ko'chalardan o'taman, oyoq ostida muz g'ichirilydi. Ayoq bo'sh havzalarda yirik tuzday bo'lib sochilib yotadi. Muzlab qolgan yerdan uning ingichka oyoq izlarini qidiraman. U mana shu yashil darichalar, qora daraxtlar, sovuq, rutubatli chorbog'lar panjaralarini ko'rgan, hammasiga nazar tashlagan. Men ularning g'adir-budur toshlariga sekin qo'l tekkizaman.

Qizlar kelib ketaverishadi, lekin unga o'xshagani, teng keladigani yo'q, bitta ham yo'q.

Hech nimaga ishonchi bo'lmagan odamlar! O'sha kunlarda men sevgi haqida juda ko'p o'ylardim. Shahar oyimqizlari mahliyo bo'lib, es-hushlarini yo'qotadilar. Erkaklar jangari kayfiyatda. Oydin tunlar o'z ishini bajarib bo'ladi va yog'liqqina to'y ziyofati sevgiga nur socha boshlaydi. Kuyov ter bosgan oyoqlarini yuvadi, kelin qo'ltiqlari ostiga upa-elik surtadi. Shahvat, bir qarashda ochofatlik, xurрак va ertablari oshqozonni bo'shatish odatiga o'xshab ketadigan hirs o'z haq-huqlarini qo'lga oladi. Qirmizrang gulob loyqalanadi. Unda chivinlar suzib yuradi, birinchi farzand – tasodifiy sevgi mevasi – yopishqoq so'laklarini oqizadi.

Odatdagidek tonglarning birida xotin erining sarg'ayib ketgan shimbandlari, tovuqnikiday ko'm-ko'k oyoqlarini ko'rib qoladi, og'zidan kelayotgan atir hidi aralash bad bo'yni tuyadi. Er esa xotini-ning sharbati siqib olingan anorday siynalari, paxmaygan sochlariga

nazar tashlaydi, yig'loqi ovozi eshitadi. Muhabbatning jonga tegadigan adog'i boshlanadi.

Ana o'shanda xomxayollardan xoli hayot yuki yurakning yashirin burchida – qalbda mehmon bo'lmagan, lekin mehmon bo'lishi lozim bo'lgan tuyg'u haqida ilk bora bir dard paydo etadi.

Bu fikr vaqt o'tib, imkoniyatlar boy berilib, boshqa yo'llar ham bekilib qolgandagina kallaga keladi.

Hali gimnaziyada o'qib yurganimdayoq otam bilan Qorachoyga borardim, biz Elburs yonbag'irlariga ko'tarildik. O'tloqlar uzra tong kula boshlagan, shabnam, shaffof tiniqlik ko'zni tindirar, Pushkin bu yerlarda naqadar yolg'iz bo'lganini men o'shanda eslagandim:

Ham g'amgin, ham sarafrozdirman,

Hasratlarim totlidir, zotan,

Anduhlarim sen-la limmo-lim...

Muzliklardan yax va binafshaning kuchsizgina hidi anqiydi. Ufq yuzlab chaqirim olislardan ko'rinib turadi. Ko'k suv solingach yashil tortgan birinji jomday vodiylar pastda yastanib yotishar, tog'larning buyuk sukunati aro Quyosh yaqinginadan iliq nur taratardi.

Hozir ana shu hislarni qaytadan tuydim – shamol go'yoki eski qalbmni haydab chiqarib, o'rniga tog' quyoshi va muzliklar havosini joylab qo'ygandi.

Shamol xuddi o'sha olis tongdagi kabi, binafshaning zaifgina atrini dimoqqa uradi.

Sevgi – tog' dovonlariga o'xshaydi – yuzlab chaqirim masofadan ko'zga tashlanadi. Bu dovonlarga yetib, Elbursning muzday, shaffof irmoqlaridan bir qultum suv ichish har kimga ham nasib etavermaydi.

Men bu sevgining g'amini ham, quvonchini ham aytib berolmayman. Chunki muqarrar hayratlar og'ushida, tong yuzlab kemalar bongi bilan gumburlayotgan, bahaybat quyosh qish kunlari uzra parvoz etayotganda bu ish qo'limdan kelmaydi. Ko'zlarimni yerga qadayman, toki, ro'paramdan kelayotgan ayollar ularning hammalarini yaxshi ko'raman, deb o'ylamasinlar.

Sevgi voyaga yetdi va gul ochdi. Dengiz sohilidagi yashil kunlar xuddi ertaklardagidek edi.

Mehmonxonaga qaytishga yuragim betlamaydi – Stashevskiy aftimdan hammasini bilib oladi. Bu yerdan hech qayerga ketmayman. Garibaldi bilan och-nahor yuraman, tunlarni g'aribxonalarda o'tkazaman, kecha-kunduz ana shu osmon ostida, ko'cha-ko'yda sang'iyman.

O'tkinchilarga yashirin quvonchdan qoraygan ko'zlarim bilan boqaman. O'zimga nima bo'lganini bilmayman, tushunolmayman, lekin negadir vahimaga tushaman.

Gullar

Bu kichkinagina voqea mana shunday yuz bergan edi.

Garibaldi hayajonlanganicha xonaga kirib keldi. U bir dasta oq gul va mening nomimga maktub keltirgandi. Xona kuz hidiga g'arq bo'ldi.

– Qayerdan olding buni, Garibaldi? – so'radi Stashevskiy.

Garibaldi ko'chada bir qizni uchratgani, u bemorning ahvolini surishtirganini sirli tarzda aytib berdi. Qiz «Nissa» magaziniga kirib, gul sotib olgan va ularni bemor to'shagi oldiga, issiq suv solingan idishga qo'yishni aytgan.

– Xadicha, – dedi Stashevskiy, – ajoyib qiz. – U shunday deya gullarga qo'l tekkizdi.

Men maktubchani qo'lga oldim.

«Nega kelmay qo'ydingiz, Maksimov? Men sizdan ko'p narsalarni so'rashim kerak. Siz, axir, hali jo'nab ketmaysiz-ku?»

Garibaldi yana shivirlay boshladi:

– Qiz «Ularning yoniga qachon borsam bo'ladi?» deb so'radi. «Xonim kechqurun kelishlari mumkin. Men u kishiga skripka chalib beraman», dedim.

– Balli, qariya. Xo'sh, keyin nima bo'ldi?

– «Yaxshi», – dedi u, xayrlashdi va qo'lini menga uzatdi.

Hozir ham cholning qo'lidan shunday muattar hid kelyaptiki, hech qo'yaverasiz...

Kechqurun xonamiz hatto juda shinam bo'lib qoldi.

Garibaldi Stashevskiyning ko'k shimini kiydi, sariq boshmoqlarini tozalab, tamakirang soqolini qirtishlagach, irkit italyan kemalari-ning oftobda qoraygan qari botsmaniga o'xshab qoldi.

Xadicha xonaga kirdi-yu, o'sha zahotiyuq uyalgannamo kulib yubordi. So'ngra mo'yna yenghasidan pechene, hali chetlari qirqilmagan she'riy kulliyot oldi.

– Blokning kitobchasi, – dedi u Stashevskiyga. – Fikri ojizimcha, siz uni yaxshi ko'rsangiz kerak.

Men Garibaldini chaqirib kelgani jo'nadim.

Qo'rg'oshinrang, xira oyna yonidan o'tayotib, o'zim ham kula-yotganimni sezdim. Xayolimdan shunday fikr kechdi: «Bu yerga kelishdan u sal-pal hayiqqan. Lekin endi hammasi o'tib ketdi».

Garibaldi skripkani uzoq sozladi, so'ngra «uf» tortdi-yu, menga ergashdi.

Xonaga kirganimizdan so'ng Xadicha avvalgidan ham ko'proq hayajonlanganini sezdim. Ovozi past, bo'g'iq. Garibaldi uning qo'lini qimmatbaho narsadek avaylab sekin o'pdi, qari, nurli yuzini burishtirib, kulib yubordi.

So'ngra u Karlo Goldani va Gotssi zamonasida Venetsiyaga xos bo'lgan ko'hna, sernazokat kuylar ijro etdi. Xadicha lol bo'lib qoldi.

– Juda iqtidorli musiqachi ekan, – dedi u Stashevskiyga. – Nima bilan kun ko'radi?

– Hovlilarda, to'ylarda mashshoqlik qiladi, bandargohdagi tamad-dixonalarda xorijlik dengizchilar uchun kuylar chaladi.

Semyon Ivanovich bir shisha konyak ko'tarib kelib qoldi. Garibaldi uni tantanavor marsh bilan qarshiladi.

Qadah yo'q edi, konyakni choy stakanlarida ichdik.

Stashevskiy Aleksandr Blokning sog'ligi uchun uzundan uzoq qadah so'zi aytdi. Bu uning Vinkler va mening sha'nimga bir necha achchiq ta'nalar qilishiga sabab bo'ldi: «So'zga shaydo bo'lgan bu lapashang bolakaylar baribir hech nimaga erisholmaydilar. Bularga faqat birovlarining ustidan kulish bo'lsa, bas. Shu jumladan, o'zlaridan katta o'rtoqlarini ham ayab o'tirishmaydi».

Parij haqida suhbatlashdik. Xadicha negadir, Parij kuzini esladi. Bu faslda chordoqlar uzra yomg'ir shovullaydi, qurumday qora, ho'l asfaltda shahar aksi jimirlaydi, oqshomlari kaminga o't qalashga to'g'ri keladi.

– Bunday oqshomlarda Rossiya sog'inchi shunchalar qamrab oladiki, asti qo'yaverasiz! Men hech qachon vatanimga qayta olmasam kerak, deya xavotirga tushardim.

U jim bo'lib qoldi, ko'zlarini yerga qadadi va sekin-asta barmoqlarimning birini qo'yib, birini ola boshladi.

– Endi-chi, Maksimov, o'zimizning gimnimizni aytib ber, – iltimos qildi Stashevskiy.

Garibaldi qisqa-qisqa, bo'g'iq kuy chala boshladi:

*Bizning hayotimiz shunday boshlanar:
Telba to'lqinlar-la bandargoh sari.
Xilvat mayxonadan dengizga qadar,
Bo'lib mangu bedor tonglar asiri.
Mayxona shovqini – jonlarga rohat,
Sharob kuygan dilga bo'lgusi malham.
Ey, do'st, may limmo-lim qadahni uzat,
Unda cho'kib ketsin anduh, g'am, alam.*

– Bu nima? – shivirladi Xadicha, lekin torlar yana uzuq-yuluq, bo'lib-bo'lib xaxoladilar:

*Jin urgur cholg'ular, turing mahkamroq,
Tagxonaga qulab ketmangiz zinhor.
Kuzgi po'rtanalar erur omonat,
Qo'lni cho'ng arqonlar etsa-da abgor,
Mag'rur baliqchidek bo'ronni pisand
Etmay, muhabbatga bo'ling talabgor.*

Yana shiddatkor, sirg'anchiq musiqa balandladi va jimib qoldi.

– Nima bu? – so'radi Xadicha men tomonga engashib.

– Bu bizning gimnimiz, – dedi Stashevskiy, – beshovlon gimni.

– Qanaqasiga beshovlon ekan? To‘rtovlon.

Beshovlon gimni. U Xadichani ham sayoq to‘damizga qabul qilgandi. Xadicha tushunib yetdi va qizarib, menga iltijoli nazar tashladi.

– Stashevskiy charchadi, – dedi u o‘rnidan turar ekan. – Ko‘p shovqin soldik.

Katta ayiq

Xadichani kuzatgani jo‘nadim. Bandargohda qum soatlar zang chalishar, yarim tun bo‘lib qolgandi. Onda-sonda shamol yulduzlar shingilini silkib qo‘yardi.

Biz uzoq vaqt jim yurib bordik. Katta ayiq yulduzlar turkumi qiyshayganicha cho‘l uzra osilib turardi.

Yo‘lkalarning tosh sathida yomg‘ir suvlari to‘planib qolgan, bozordagi oq, pastak gumbazlar ostida fonuslar yonardi.

– Maksimov, – dedi birdaniga Xadicha baland ovozda va qo‘limdan ushladi.

– Ha, Xadicha? Nima gap?

Uning qo‘llari titragani bilinib turardi.

– Hech nima. O‘zim shunday. Hozir hammasi o‘tib ketadi.

Toshko‘chadagi chiroqlar yarqirar, yulduzlar tomchi-tomchi bo‘lib ko‘lmaklarga yog‘ilar, qishki bog‘larning toza ifori kelardi.

Qizning qo‘llarini kaftimga oldim, qo‘lqopini yechib, barmoqlarini nafasim bilan uzoq vaqt isitdim.

– Maksimov, Stashevskiy mendan nimani so‘raganini bilasizmi?

– Nimani so‘radi, Xadicha?

U jim bo‘ldi, yurishdan to‘xtab, qandaydir ulkan, tushuniksiz bir nima bilan yashirincha olishdi.

– U Sizni sevamanmi-yo‘qmi, shuni so‘radi.

Qizning ovozi tutilib qoldi. Yulduzlar yorug‘ida uning rangi oqarib ketganini ko‘rdim.

– Men, «Ha, va hatto, anchadan beri sevaman», dedim.

«Katta ayiq» bir sapchib, dengizga qulab tushdi. Yulduzlar bog‘-chorbog‘larga qapishib, qop-qora shox-butoqlarga o‘ralashib qoldilar.

Chorrahalarda shamol daydir, Xadicha qaltiraganicha, barmoqlarimni siypalardi.

– Men shunchalar qo‘rqdim, vahimaga tushdimki...

U yuzidagi harir pardani ko‘tarib, ko‘zlarimga boqdi.

– Azizim! Jonginam! Qanchalar sevaman Sizni! Qanchalar vahm bor yuragimda! Endi uyingizga keting. O‘zim yetib olaman. Biroz tanho qolishim kerak. Butunlay esimni yo‘qotib qo‘yibman. Axir, bularning hammasi haqiqatan bor gap-ku, – shivirladi u men tomonga egilib. – Bu tush emas, axir...

Xadicha kulib yubordi-da, meni qattiq o‘pdi: bu navjuvon ayol bo‘sasi edi.

Men uyga jo‘nayotib, yo‘ldan adashib ketdim. Boshim ochiq, yuzlarim lov-lov yonar, yuragim jon-jahdi bilan gupillab urar, lablarim qonga belanganday sho‘rtang edi. Dengiz dam o‘ng, dam chap tomonda shovqin solar, men ho‘l akas daraxtlariga suyanardim, yer chayqalar, osmon oltin charxpalak misol jaranglab, titrab turardi.

– Men mastman, – shivirlardim o‘z-o‘zimga va sovuq, ayqash-uyqash sochlarimni siypalardim. Xayrlashgan joyimizni uzoq izladim, lekin topolmadim.

Shunga o‘xshash o‘nlab go‘shalarga bosh urib, hayron-u sarson bo‘ldim. Qaysidir tor ko‘chada yomg‘ir suvi to‘la jomda peshonamni ho‘llab oldim. Biroz yengil tortdim, lekin ko‘p o‘tmay sarxush bir tuman boshimni qamradi.

– Tentak! – derdim o‘zimga o‘zim va xaxolab kulardim. – Sen aqldan ozib qolibsan!

Ko‘prik ustida bir dengizchiga duch keldim. U chayqala-chayqala qadam tashlar, poyintar-soyintar qo‘shiq aytardi. Dengizchidan soat necha bo‘lganini so‘radim. U mendan uzoqlashar ekan, qichqirdi:

– Soat to‘rt bo‘ldi, endi bu yerdan tuyog‘ingni shiqillat, shaytoni lain hamrohi!

Ko‘prik ustidan ketib borardim. Taxtalar titrab turar, tun cho‘zilinqirab, lojuvard tus olgan, dengiz ko‘rfazi ko‘zga ko‘rinib qolgandi. Aftidan, tong yorishmoqda, Vega yulduzi yorqin nur sochar,

to'liqinto'sarlardagi fonuslar dumaloq paxta sharlarga o'xshab ko'rinardi.

Yurishdan to'xtadim-da, ko'prikning ho'l panjaralarini qisib, tun, shamol, dengiz qa'riga qarab, «Xadicha!» deya chorladim. Uyqudan ovozi bo'g'ilgan kemanding ilk bongi eshitildi. Boshimni ko'tardim, yuzimga achchiq shamol urildi.

Yana yo'ldan adashgandim. Nima balo urdi o'zi! Dengiz dam chap, dam o'ng tomonimda shovullar, o'sha mast dengizchi hamon ortimdan kelar, qoqilib, turtinib shovqin solardi.

– Soat to'rt deganingiz – nima bo'libdi? Bu pallada hali bolalar ham uxlashmaydi. Yur, achchiq ingliz arog'idan ichamiz, ukaginam. Men «Truvor» kemasining darg'asi Shevchenko bo'laman. Yolg'on aytсам, til tortmay o'lay!

Dengizchi bilan tungi mayxonaga borib, ingliz arog'idan ichdim. Deraza ortida tong shovqini boshlangan, bandargoh quyuyq tutun qaytarar, kemalar Liverpooldan kelib, Trapezundga ketaverardi.

Shodlik ko'nglimda paxmoq mushukchadek o'ralib, uxlab yotar, dengizchilar baqirib-chaqirishar, hayot kema bandaridagi muzga o'xshab jaranglardi.

Darg'a juda ko'p g'aroyib voqealarni hikoya qilib berdi, lekin ularni eslab qololmadim. Esimda qolgani, boloxonador so'kinish, lojuvard ranglar va juda o'tkir ingliz arog'i.

Darg'a kuylay-kuylay uyquga ketmoqda edi:

*Yosh ayollar, barno ayollar,
Hech bo'lmasa, umrida bir bor
Bizni sevgan go'zallar uchun...*

Uyga tongda yetib keldim. Ko'nglim qor suvi bilan yuvilganday top-toza edi.

Xona sovuq, deraza ortida akas daraxti shoxlari qora panjalarday osilib turardi.

Pastdagi ko'hna soat beshga zang urdi. Besh marotaba zaifgina bong. Boshim sekin-asta aylanardi.

– Nechun bunchalar shodumonsan? – eshitar-eshitilmas so‘rardim o‘z-o‘zimdand. Hammasini oxirigacha eslasam, yuragim orqamga tortib ketadi.

Yana ko‘chaga chiqaman. Xiyobon bo‘ylab qadam tashlayman. Tuman yengil suv zarralariday bo‘lib ho‘l yerga yastanadi. Xazonlar chirib bitgan, ularni tuproqdan farqlash qiyin. Sekin-asta soylar – sabzavot to‘la savatlarni bozorga olib ketayotgan ayollar paydo bo‘ladi.

Tamaki tutatdim. Pastga qarab ketgan yo‘lka yoqasida tungi qorovul chekishga so‘radi. Gugurt ho‘l havoda xira to‘q qizil alanga bilan yondi. Qorovulning yuzlari qip-qizil, mo‘ylovi osilib turardi.

Ilma-teshik kamzul kiygan bolakaydan bir quti papiros olib, unga tilla tanga berdim. Shu bilan bor pulim tugadi. Men ajoyib kitoblar haqida xayol surardim, o‘zimga ishonch bildirgan qiz haqqi-hurmati hammaga, har kimga ko‘rsatajak minglab xizmatlarimni o‘ylardim.

«Xadicha», dedim-da, uyqu bosgan ko‘zlarimni yumdim. Xonamga qaytdim. Tushirilgan pardalarda quyosh nuri o‘ynardi.

Qattiq uyqu tezda badanimni iltidi. Bu sokin tong allaqanday ulkan, ulug‘vor bir mahobat bilan yo‘g‘rilgan edi.

Vinkler

Kutilmaganda Binkler kelib qoldi. U oriqlagan, yonoqlarida qora chuqurchalar paydo bo‘lgandi. Aytishicha, Aleksey gazetalarga ko‘plab maqolalar yozish va aroqxo‘rlik bilan mashg‘ul emish.

Choshgohda sohildagi boqqa bordik. Oyoqlarimiz ostida shag‘al g‘ichirlar, izlarimiz suvga to‘lib borardi.

– Dengizni yaxshi ko‘raman, – dedi Vinkler qirg‘oqda to‘xtab. To‘lqinlar shovqin solib, tosh zinalarni ko‘pik, suv o‘tlariga burkardi. – Hatto ana shu qo‘rg‘oshinday o‘lik hoida ham yaxshi ko‘raman.

Yomg‘ir o‘tirg‘ichlar, zinalarning yog‘och panjaralarini savalar, jiqqa ho‘l chumchuqlar butalar orasiga bekinishar, sovuq urgan qora gulpushtalar namdan yaltirardi. Biz shalvirab qolgan bir shiyponchaga kelib o‘tirdik. Oq ustunlar oldida bujmaygan yovvoyi tok osilib turardi.

– Xafaqon bo‘lib qoldim, – dedi Vinkler dengizga nazar tashlab. – Shunchalar tushkun holatdamanki, xuddi bir oy mayxonalarda tunab, noxush havosidan to‘yib-to‘yib nafas olganga o‘xshayman. Nimadir miyamni muttasil parmalaydi, ensam og‘riydi.

Men indamadim.

– Ahmoqona aql-idrok, – dedi u achchiqlanib, tokning qora novdasini uzib olar ekan. – Atrofdagi hamma narsani prokurordek qoralayman. Biror nima menga yoqmaydi. Tongda uyg‘ondim deguncha, vujudim nafratga to‘ladi. Zerikaman. Yaqinda shunday voqea yuz berdi. Sen Fyodorni taniysanmi? Bir necha kun burun yonimga keldi – bolasi kasal bo‘lib qolibdi. O‘sha bolakayni ko‘rganingda edi. O‘zi ikki yashar, juda quvnoq kichkintoy, boshchasi shundoq tilladay tovlanardi.

– Xo‘sh, mana shu, – dedi Vinkler va bo‘yniga muzday tomchi tushganday seskanib ketdi. – Xo‘sh, mana shu go‘dak uch kun burun o‘pka shamollashidan o‘ldi. Bola yashagan xona juda sovuq, o‘tin olishga esa pul bo‘lmagan. U tun bo‘yi qaltirab chiqqan. Tongda, fursat boy berilgach, Fyodor mening yonimga yugurib keldi. Bor pulimni berdim-da, Alekseyning huzuriga shoshildim. Aleksey tahririyatga borib, Dnestropuloning bor-budini shilib oldi. Lekin vaqt o‘tgan edi. Biz o‘zimizni to‘rt tomonga urdik, tabiblarni chaqirdik, men, hatto, hayotimda birinchi bor duo o‘qidim. Alekseyning og‘zidan bodi kirib, shodi chiqar, jamiki narsalarni la‘natlardi. Tuyqusdan shu bolakay dunyodagi bor narsadan azizroq va uning chumchuqnikek murg‘akkina qalbi biz intilgan, sajda qilgan mavjudotlardan yuksakroq ekanini tushunib yetdik. Ana o‘shanda men onalik va o‘lim yanglig‘ oddiy, xokisor hodisalarga imon keltirdim. Insonning ahmoqona aql-idrokida qayg‘u-alamning jari naqadar chuqur ekanini angladim.

Bolakay o‘ldi, men esa tun bo‘yi bandargohdagi fohishaxona-da dengizchilar ayollarni qanday azoblashlarini ko‘rib, eshitib o‘tirardim. Mast edim. Stolda o‘tirganimcha islovotxona bekasi – nemis ayolga yosh bolalarning sochi qanday hid taratishini hikoya qildim. Beka bo‘yni shamollab, qiyshayib qolgan bir yigitni chaqirdi-da, shunday dedi:

– Bu marazni ko‘zimdan yo‘qot!

Men yigitning basharasini qonga bo‘yadim. Bekani shisha bilan urib, yarador qildim. Dengizchilar yonimni olishdi. Politsiya kechikdi. Qizlar chiyillagancha qo‘llarimizga osilishar, beka juhudlar dafn marosimidagiga o‘xshab sochlarini yular, men esa kimdandir ko‘ra-bila qasd olardim go‘yo. Uyga kelib, qora bo‘yoq hozirladim-da, hamma suratlarimni chaplab tashladim. Surat chizishni qaysi ahmoq o‘ylab topgan o‘zi? Hammasi ayqash-uyqash bo‘lib ketdi, oldinda hech yorug‘lik ko‘rinmadi. So‘ngra shu yoqqa kelaverdim.

Yomg‘ir yashil to‘lqinlarni ko‘pirtirar, yuzimizga sho‘rtang changday epkin urilardi. Vinklarga shunday dedim:

– Juda katta kuch kerak. Bu kuch har bir insonda bor. Buni men yaqinda his etdim. U hamma narsani hal etadi, joy-joyiga qo‘yadi.

– Qanaqa kuch?

– Oddiygina so‘z, Vinkler. Sevgi.

Vinkler nimanidir izlayotganday, dengizga tiyraylik, zo‘riqish bilan boqdi. Yomg‘ir tindi.

– Ha... – dedi u va men tomonga keskin o‘girildi. – Ha... Nacho-
ra, ko‘ramiz.

Kechqurun Xadichaning uyiga bordik.

Uchovlon divanda valaqlashib o‘tirardik. Vinklarning azaliy xafaqonligi tarqagan, yemakxonada soat ohista chiqillar, Xadichaning stolida farang kitob va oynomalari yotardi. Xonaga mushukcha kirib keldi-da, divanga chiqib oldi. Men uni erkalay boshladim. Xadicha esa qo‘llarini qo‘lim ustiga qo‘yganicha barmoqlarimning birini qo‘yib, birini olar, kular, Vinkler bilan chaqqaqlashar, ko‘zlari chaqnardi.

Mushukcha kaftimni yaladi, so‘ngra o‘ralib oldi-da, xurillay boshladi. Xadicha o‘yga toldi.

Uyga qaytayotganimizda Vinkler yog‘och daricha oldida to‘xtab, menga shunday dedi:

– Qani qo‘lingni ber-chi.

U qo‘limni qattiq qisib qo‘ydi.

Xonamiz shovqin-suronga to‘la, devor ortida lo‘lilar qichqirishardi. Semyon Ivanovich va Garibaldi kelishdi. Biz achchiqqina moldavan pishlog‘i bilan choy ichdik.

Adabiy to‘garakdagi mojaro

Stashevskiy biroz tuzalib, ko‘chaga chiqa boshlaganiga uch kun bo‘lgan edi. Xadicha adabiy to‘garakda bo‘ladigan munozaraga chip-ta olib keldi. Men Stashevskiy bilan izvoshda ketdim. Atrofdagi ham-ma narsa – qop-qora osmon, yomg‘ir suvining hidi-yu, ho‘l asfaltdagi chiroqlar nuri ham unga zavq bag‘ishlardi.

Munozara o‘tishi lozim bo‘lgan xona tor va dim, sahnadagi yashil stol oldida chang bosgan xurmo daraxtlar turardi. Tor yo‘lakda sekin olg‘a intilardik.

Vinkler hamon Sasha Chyorniyning she‘rini eslamog‘chi bo‘-lardi.

Golland qurumiday badqovoq bo‘lsam...

(Jilmaygin, jilmaygin bu tashbehimdan).

Stashevskiy Xadicha Renuar chizgan qizlarga o‘xshaydi, der, u haq edi. Kasaldan turgach, sal ovsarroq bo‘lib qolgandi, chamasi.

Oq va rangin ko‘ylakli qizlar oldinga egilganlaricha chug‘ur-lashishardi.

– Tolibalar! – dedi quturib Stashevskiy. – Jinim yoqtirmaydi.

Semiz xonimlar belni ingichka qilish uchun ichdan bog‘langan kamarlar torligidan azoblanib, muloyim bosh qimirlatishar, ular-ning erlari chekish xonasi axtarib terlab-pishishardi. Olomonning har yer-har yerida nigohlari sodda gimnaziyachi qizchalar, daraxt po‘stlog‘iga o‘xshash ko‘k ko‘ylak kiygan o‘qituvchi ayollar ko‘p edi. Kimdir fransuzchani qasddan buzib, baland ovozda gapirar, das-tali ko‘zoynaklar, olifta lornetlar yarqirar, teshib yuborguday nigohlar ostida qorinlarini ichkari tortayotgan qizlar oyoqlarini yonlamasiga tashlab, «Uyg‘onish» jurnalidagi nozik va go‘zal ayolga o‘xshab ke-tish uchun aziyat chekishardi.

– Tan olmoq kerak, – dedi Stashevskiy, – rang-barang va nodir jamoa jam bo‘libdi. Chuxlomadagi Parij.

Uzun etakli kamzul kiygan oriq va‘zxon qo‘ng‘iroqni chaldi. Uning barmoqlarida bosh suyagi tasvir etilgan kumush uzuklar yarqi-rardi.

Qo'ng'iroqdan so'ng yo'tal va ochilayotgan dasturlarning shig'irishig'iri kuchaydi.

Va'zxon yon daftar varaqlarini minbarga tartib bilan terib qo'ydi-da, mo'jazgina soqolchasini silaganicha o'qiy boshladi. U o'zini u yoq-bu yoqqa tashlar, suvda sekin suzayotgandek yengil harakatlar qilari, kumush uzuklari bilan minbarni urardi.

Pushkinning keng qamrovli, mahobatli dahosi. Asarlari go'zalligi, ruhiyat tadqiqining teranligidan kim zavqlanmagan deysiz. Lermonov isyoni. Gersen, Nekrasov, Dostoyevskiy, Garshin, Tolstoy – keng jamoatchilik vijdonini uyg'otdilar. Ular rus ziyolilarining yorqin namoyandalari, buyuk xalq bolalaridir. Bunday siymolar jasorati – murabbiylik, payg'ambarlik, Iso Masih huzuriga chorlash jasoratidir. Bu adabiyotni buyuk xalqqa taqdim etmaslik – gunohi azim.

Va'zxonning so'zlariga javoban qarsak chalindi.

– Saqichday chaynalgan gaplar, – dedi Vinkler.

So'ngra minbarga qora soqolli tinkasi qurigan kimsa ko'tarildi va loyqa ovozi bilan Iso Masih, uning muqobili, xudoparast xalq haqida, yuraklarimizdagi donolik hissi, Dostoyevskiy qalbi va yer qaridan chiqayotgan nola-afg'on haqida gapirdi.

Yana qarsaklar chalindi.

– Ehtimol, o'z fikrini bayon etishni xohlovchilar bordir?

– Maksimov, janjal chiqargin, – shivirladi Vinkler. – Muttahamlar to'dasini yakson et!

O'rnimdan turib, so'z so'radim. Va'zxon muruvvatli ishora qildi, dastali ko'zoynaklar shiqirlab, shay nigohlar menga qadaldi.

– Mendan oldin so'zlagan ikki notiqqa rahmim keladi, – dedim stol yoniga ko'tarilib. – Ularning o'z miyalaridan fikr uchqunini siqib chiqarish uchun qilgan harakatlari muvaffaqiyatsizlikka mahkumdur. Skabichevskiy¹ uslubidagi sermashaqqat debochalari bekorga ketdi. Nari borsa, xushro'y gimnaziyachi qizlar irod etilgan ushbu nutqlar asosida Pushkin asarlarida Bayron ruhi mavzusida insho yoki shunga o'xshash biror nima yozishar. Biz mudroq bostiradigan og'zaki ijod darsi va unchalik qo'rqinchli bo'lmagan lahad nolalarini tingladik.

¹ A. Skabichevskiy – rus adabiy tanqidchisi (1838–1911).

Miyalarga quyuq meva sharbatiday yopishgan kaltafahmlik, gustohlik, bir tiyinga qimmat madaniyatlilik, beorlik, qabohatning mayda tishlari, landovurlarcha chuchuk tilda gapirish – jam bo‘lgan jamoaga juda mos bu nutqlarning mazmuni mana shundan iborat.

Tepakal boshlar, ko‘zoynaklar g‘imirlab qolishdi.

– Futurist! – qo‘rquv aralash ovoz eshitildi orqadan.

– Men futurist emasman va behayo so‘zlar aytib, ko‘ngilxushlik qilish niyatim ham yo‘q. Notiq faqatgina bir masalada haq. Xotiralaringizda Pushkin yodini tiklash kerak. Shuning uchun ham tiklash zarurki, ba‘zi-ba‘zida qotilga o‘z qurboni to‘g‘risida eslatib turish juda foydalidir.

Siz, otalaringiz, bobolaringiz uni ta‘qib etdingiz, xo‘rladingiz. Orangizda zerikish, jirkanish hissidan uning joni halqumiga kelardi. Shoirmi Dantes qo‘li bilan mahv etdingiz. Bizning yozuvchilari-miz – buyuk xalqning farzandlari, menimcha, notiqlar shunday de-yishdi. Demak siz – Lermontov la‘natlagan, bor-yo‘g‘ini sovurib ado bo‘lgan otalarsiz. Agar haqiqatan ham ota ekansiz, go‘daklarni qiy-noqqa solganingiz uchun darra urilib, zindonga solinishga loyiqsiz.

O‘z bolalaringizni ne ko‘yga soldingiz? Pushkin ado bo‘ldi, Lermontov mahv etildi. Novikov Sibirdan araqzada bo‘lib qaytdi. Rilevni osdilar, dor arqoni uzilib ketdi va uni yana osdilar. Gogol botin-nan yondi, kuydi, oxir-oqibat aqlan ozdi. Polejayevning murdasini kalamushlar kemirib tashlashdi. Garshin o‘zini Peterburg zinalarining qo‘lansa oralig‘iga tashladi. Gersen begona yurtlarda darbadar kezdi. Dostoyevskiyni zindonband qilganingiz uchun u tutqanoq balosiga giriftor bo‘ldi.

Barchangiz ularga oddiy, shuursiz kunlar, mast-alast bayramlar, yaltoqlik, norizo g‘ingshishlar bilan xiyonat etdingiz.

Pushkin bilan necha pullik ishingiz bor? Bir necha qator matn-da insoniyat tarixidagi eng dahshatli va qayg‘uli voqealardan biri – Pushkinning kamsuqumgina, go‘zal o‘limi haqida hikoya qilinganda, siz limonli choy istab qolasiz. Sizning tanqidchiligingiz qorong‘i burchak-burchaklarda bo‘g‘ib tashlagan yozuvchi, shoir, rassomlar qanchadan qancha. Chunki tanqidchilik doimo izmingizda, u sizni ko‘krak suti bilan boquvchi enaga, bemaza ovqat iste‘mol qi-

lishga qo‘ymaydi, siyqa fikrlardan tayyorlangan atala bilan siylaydi, qurtga o‘xshab navqiron, sersuv tomirlarni kemiradi.

Sizga – inson atalmish ko‘ngil aynitadigan chang zarralariga – nafratni Pushkin ham, Heyne va Lermontov ham vasiyat qilishgan. Ularni e‘tirof etdingiz, lekin daholar ana shu e‘tirofingiz bilan basharangizga jon-jon deb tupurgan bo‘lur edilar.

Zalda qattiq to‘s-to‘polon bo‘lmoqda edi.

– O‘z ozodligingizni, xotin, bola-chaqangizni bir pulga sotasiz. Qo‘lansa, diqqinafas uylaringizda irib-chiriysiz, bolalaringizni kirchir maktablarda qiynaysiz, mol-anjomingiz, bo‘g‘chalaringiz, rohatfarog‘atingiz uchun titrab-qaqshaysiz. Shol va yana allambalo kasalliklardan bandalikni bajo keltirasiz, vujudingizni tuproqqa topshiradilar, aziz joningizga cho‘chqa moyini gazak qilib, yeb yuboradilar, ruhingizni shod etish uchun sharob ichadilar, aftodahol bevalaringiz qabrlaringiz ustiga kattakon xarsangtoshlar o‘rnatib, unga yig‘loqi marsiyalar bitadilar.

Siz sevguchi, quvnoq odamlarni yomon ko‘rasiz, tramvaylarda ularga o‘dag‘aylaysiz, itday g‘ajishish uchun bahona izlaysiz.

– Bo‘hton! – qichqirdi kimdir.

Sokin bir g‘azabdan yuragim muzlab qoldi.

– Odamzod quyqalari, palidlar! – dedim-da, sekin-asta sahna che-tiga bordim.

Zal qabristonday jimib qoldi.

Sahnanan tushdim. Shu zahotiyuq hushtak, vishillash, baqiriq-chaqiriqlar og‘ushida qoldim. Qo‘ng‘iroqcha bo‘g‘ilib jiringlar, kimdir jazavasi tutib qichqirardi.

– Bemazagarchilik! Surbetlik!

Raislik qiluvchi o‘zini u yoq-bu yoqqa urar, yashil movut sirg‘alib tushgan, dabdalasi chiqqan qartabozlik stoli juda xunuk ko‘rinardi.

– Suv ichib oling, – dedi Xadicha yo‘lakda stakan uzatar ekan. Uning rangi oqarib ketgandi. Qaltiroq qo‘llari bilan peshonamga tushib turgan bir tutam sochni tuzatdi.

– Tezroq ketaylik bu yerdan! – iltimos qildi u qo‘llarimni qisib.

Vinkler va Stashevskiy andak bezovta edilar.

Qichqiriqlar, qo‘ng‘iroq sadolari esa tobora avj olib borardi.

Xayr-xo'sh

Kema yarim kechada jo'nab ketdi. U tanasini larzaga solib, uzoq yo'taldi, bong urdi. Yukchilar narvonchalarda yugurib yurishar, baqirib-chaqirishardi. Bandar chiroqlari titrar, Garibaldining g'amging chehrasi va qizil bo'yinbog'i xiragina nurda dam ko'zga tashlanib, dam g'oyib bo'lardi.

– Ketsangiz bo'lardi, – qichqirdi unga Vinkler kema sahnidan. – Shamollab qolasiz.

Chol ayancli jilmayib, qo'lini silkitdi.

Kema bongi tor ko'chalarda parcha-parcha bo'lib aks sado berar, so'ng jimib qolardi.

Jo'nab ketdik. Xadicha bizni Staronikolayevskkacha kuzatib boradigan bo'ldi. Jo'naydigan kunimiz ertalabdan yomg'ir yog'ar, shimol shamoli esib, tomchilar deraza oynalari, zanglagan tunuka lavhalarga shitirlab urilardi. Yo'lovchilarning ko'zlarida sovuq bir nur qotib qolgandi.

– Go'zal, kulrang olis ufq, – dedi menga ertalab deraza oldida turgan Vinkler. – Qara, qo'rg'oshinrang qish ufqidan uylar to'dasi va sapsariq dengizga qanday o'tiladi. Yur, ketar jafosiga bir sanqib kelaylik.

Ko'chaga chiqdik. Vinkler chizgan suratlari haqida hikoya qilardi. Suratlar orasida «Kumushdan ishlangan» manzarasi bor. Kuz quyoshi shamlar chirsillashi aro nur sochadi, shu quyosh ko'ksida shahar tutun qaytaradi. Boshqa bir surat «Tun» deb ataladi. Qop-qora suv, osmon, kemanding qora ko'lankasi va faqat birgina qip-qizil olov. Vinklarni olovning suvdagi aksi ko'proq qiziqtiradi. Yana chang bosgan xafaqon osmon manzarasida cholning boshi tasvirlangan.

– Chol – Garibaldi bo'lsa kerak? – ishonchsizgina so'radi Xadicha.

– Asabiylashyapsiz, Xadicha, – dedi Vinkler.

– G'ussaga botyapman, – tan oldi Xadicha. – Shu boisdan sizlarni Staronikolayevskkacha kuzatmoqchiman-da.

Shahar qorovulxonasi ortida achchiq shamollarga ro'baro' bo'ldik, ko'm-ko'k yomg'irli ufqlar ochildi. Hududsiz dalalar uzra pastakkina bulutlar suzardi.

Tunda yomg'ir shatir-shuturi aro kema to'rt marotaba o'kirdi. Arqonlar suvda og'ir shalopladi, sahn titradi. Bandardagi chiroqlar ko'z qisishdi, Garibaldi eski qalpog'ini silkitdi, shu zahotiy oq shahar va qirg'oq uzra mayoqning qizil yog'dusi yuksaldi. So'ngra tun loyqasi aro mayoq bizdan uzoqlashdi, yirik, sho'rtang tomchilar kemanding temir biqinlariga tinimsiz urila boshladi.

Kema mashinaxonasida qo'ng'iroq jiringlardi. Xadicha yoqasi-ni ko'tarib, yelkamga suyandi. Vinkler jimgina o'tirardi. Stashevskiy bo'lmaga kirib ketdi.

Biz saqlayotgan sukut ko'pdan ko'p fikrlar bilan limmo-lim edi. Vinkler tamaki tutatganda, gugurt olovi kema qizg'ish sahnining bir parchasini, arqonlar, ho'l panjara, tutqichlar va Xadichaning ko'zlaridagi yoshni yoritardi. Kema dudburonidan xirillab bug' chiqardi.

Ertalab uyqusiragan, adoqsiz suvlar uzra qip-qizil quyosh ko'tarildi, uning yolqini ostida darg'a uychasi oynalari g'amgin nurlana boshladi. Kema sahnidan bug' ko'tarilar, dengiz jimirlab, lojuvard tovlanardi. Staronikolayevsk bo'sag'asiga kelib qolgandik.

Oldinda sariq qumli qirg'oq, baliqchilarning oppoq uychalari, ularning ortida yana ko'm-ko'k dengiz yastanib yotardi. Xadicha qirg'oqqa tushdi. Shamol uning sochlarini to'zg'itib, ko'ylagini hilpiratar, ko'zlari quyoshdan qamashardi.

Kema yo'lga ravona bo'ldi. Shamol tutunni yon tomonga haydar va u suv yuziga qora yo'lkaday yastanardi. Chag'alaylar chahchahlaganlaricha charxpalak bo'lib uchishardi.

Xadicha bandar adog'ida to'xtadi. Uning ortida shalvirab qolgan qorovul chol va baliq to'la savat ko'targan ikki ayol turishardi...

O'z shahrimga yetib kelgach, darhol Xadichaga xat yozdim:

«Bulutlararo oppoq nur tushar, dengiz issiq tuman og'ushida edi. Qarshimizdan kema suzib kelayotir, u aftidan Tamanga bormoqda.

Biz issiqqina bo'lmada choy ichdik. Oyna ortida suv shaloplar, dengiz sahrosi yastanib yotardi. Siz tushib qolgan joy ortda qoldi. Men tez-tez o'sha tomonga boqib, siz haqingizda o'yladim.

Suzib yuruvchi mayoq yonidan o'tdik. Oq rangga bo'yolib, keng, qizil hoshiyalar tortilgan ko'hna kema zanglagan zanjirlar iskanjasida

oh chekardi. Yirtiq, ko'k kamzulli kishi kema panjarasiga suyanganicha ortimizdan uzoq tikilib qoldi.

Men, axir, cheksiz bir tashnalik bilan hayotga intilaman.

Har qaysi lahza, har bir kun haqida sizga to'xtovsiz gapirishim mumkin. Ko'zim tushgan narsada ajoyib ta'm va bo'y ilg'ayman, doimiy go'zallik, nafosat topaman.

Hozirgina kerch seldi, olabug'a haqida, sula balig'i Don kamarlariga yo'l olishi, dudlama xonalar, baliqchilik shirkatlari haqida ikki soat chaqchaqlashdik. Men negadir bandargohning kir-chir mayxonasidagi bir finjon achchiq qahvani, darg'a Shevchenko bilan ingliz arog'i ichganim – o'sha tongni, xushbo'y turk tamakisini, ho'l, ko'kimtir kamsa balig'i to'dalarini esladim. Va birdan, negaligini o'zim ham bilmayman, hayot ko'zimga juda go'zal ko'rinib ketdi. Yuzlarimda quyosh, shamol, ayol lablari sasini tuyish juda yoqimli edi.

Kayut-kompaniyadagi dasturxon atrofida yuzlari yoqimtoy eroniylar o'tirishibdi. Ular aftlarini burishtirishadi, bo'g'iq ovozda kuli-shadi, mayiz bilan choy ichishadi.

Hayot naqadar saxiy, har bir kun voqealar bilan limmo-lim. Siz buni hammadan ham yaxshiroq tushunasiz».

Oradan bir hafta o'tib, sovuq xonamda yotganimcha, Xadichaning maktubini qayta-qayta o'qirdim. Maktub oxirida shunday qo'shimcha bor edi:

«Siz hayotga tashnalik haqida yozasiz. Men ham hozir shu ishtiyoq og'ushidaman, lekin bu haqda yozolmayman. Sizni ko'rmagan, ko'ra olmagan har bir daqiqa uchun taqdirimdan juda-juda noroziman.

Staronikolayevskda baliqchi ayol bilan choy ichdim. Deraza raxtlarida quruq o'tlar yotar, bo'r, qatron hidi anqir, xona issiq, eshik ortida dengiz shovullashi elas-elas quloqqa chalinardi. Baliqchi ayol mendan shunday deb so'radi: «Sen, aftidan, qaylig'ingni kuzatib qo'yding, shunday emasmi?»



IKKINCHI QISM

IBTIDO VA INTIHOLAR

Yolg'izlik

Moskvoretsk ko'prigidan daryoning suv o'yib ketgan qora kamarlariga boqib turibman. Kreml gumbazlari tutun qo'ynida tillodek tovlanadi.

Mana u – Moskva. Mayxonalar lavhalaridan ko'k tus olgan, katta-kichik ko'chalari ayqash-uyqash, baqiroq, gulxanlar tutuniga ko'milgan Moskva. Zamoskvorechening xafaqon maydonlaridan Osiyo nazar tashlab turibdi, pastak boloxonalar derazalarida kunbotar quyoshining dilgir nurlari o'ynaydi, izvoshchilar baqirib-chaqirishadi, tungi ibodatga chorlagan ovozlari eshitaladi. Moskva adog'i guldor pechli issiq xonaday tutun qaytaradi. Gogol sovuqdan junjikkancha, g'amgin bosh egib, shaharga aftoda nigoh tashlaydi. Sarg'ish ko'zlariga shafqatsiz ertaklar ko'rinadi. Qirmizi, tillo tovlanish va tutun quyosh ostida alanganadi, g'o'lalar xuddi qishloqdagidek g'ichirlaydi.

Yolg'izman. Juda olis-olislarda – tiramoh va dengiz sohilidagi shahar, Xadicha, ingichkagina Vinkler, og'zidan bodi kirib, shodi chiqadigan Stashevskiy, ko'zlari ayyor Aleksey. O'sha yerda kuzning iliq quyoshi ostida, Staronikolayevsk bandarida kema tutun buruqsitib turganini eslayman. Olis, yoqimtoy va aziz shamol esardi.

Endi bo'lsa, qo'limdagi maktub bilan yolg'iz o'zimman.

«Qish keldi. Men tez-tez Moskva haqida xayol suraman. Ko'p ming kishilik shaharda yolg'iz o'zingiz kezasiz, mening nazarim tushmaydigan begona narsalarga nigoh tashlaysiz. Moskvada sovuq qotasiz, bu yerda esa mening qalbim muzlaydi. Siz yozgan har

bir kichik harf menga harorat baxsh etadi. Stolimda mushukcha uxlab yotibdi. U agʻanadi va men yozayotgan bir necha soʻzni bulgʻadi. Uni urgan edim, jonivor momiqdek tumshuqchasini yonogʻimga suykadi».

Gugurt donalarini sindirib, barmoqlarimni kuydirganimcha, qorongʻi zinalardan toʻrtinchi qavatga koʻtarilaman. Yechinmay oʻmimga yotaman. Toʻsin ortida kimdir nafas olayotgani eshitiladi, koʻzlarimni yumib, xayolga choʻmaman. Bu yerlarda nima qilib yuribman, oʻzi?!

Oʻshanda, dengiz sohilida, musaffo tonglarning birida vokzalda gi soatga boqib, shunday fikrga kelgan edim: «Ketish kerak. Joʻnab ketganimdan soʻng, Xadichaga sogʻinchim kuchliroq boʻladi, yozi-shimga yordam beradi». Tez-tez oʻz-oʻzimdanda soʻrayman – yozuvchi boʻlish uchun yetarlicha azob-uqubat chekdimmi? Men yuzminglab odamlar orasiga singib, yoʻqolib ketishim kerak edi.

Hamma yerdan azob-uqubat izlardim, bu menga quvonchdan koʻra koʻproq darkor edi. Moskva darvozalarida, Strominka, Lefortovo, Xamovnikida sarsari kezardim. Vorobev tepaligini zangori qor bosgan, shamol taqir yerlar uzra havoni parmalar, koʻpriklar ogʻir yoydek boʻlib, daryoning u yer-bu yeriga egilishgan. Atrofdagi hamma narsa iltifotsiz, toʻng, qoʻpol edi. Insonlar yuzlari oʻrniga – qu-loqchinlar, tanalari oʻrniga yaltirab turgan poʻstinlar. Bu gʻam-anduh uygʻotar, gʻussa taʻsirida yuksalardim, yangi, teran fikrlar tez-tez mi-yamga kelardi.

Kun sayin oʻz-oʻzimga takrorlardim – bugun joʻnab ketishim mumkin edi, lekin ketmayman, chunki boshlagan ishni oxiriga yetkazishim kerak. Bu yerda, tanholikda koʻp zozyapman.

Kunlar tobora qisqa va dilgir boʻlib borardi. Tun boʻyi derazamda chiroq koʻrinadi, isitkichlar chirsillaydi, oʻzim yaratgan timsollar oʻzimni mast etadi. Yolgʻizlik meni qiynamaydi. Lekin vaqt-vaqti bilan harakat qilishim, Xadichaning ismini ichimda takrorlashim, kim bilandir gaplashishim kerak. Shunday paytlarda koʻp tamaki chekaman, qizlarning koʻzlariga tikilaman, tashnalik, yutoqish bilan kitob varaqlayman. Soʻngra shundoq uyimiz yonidagi qarqunoq sayrab turadigan mayxonaga boraman.

Gʻala-gʻovur, choynaklar jarangi, bugʻ va diqqinapaslikda tashvish-xavotirimni unutaman, gʻazal mashina (patefon) nolasi, eshik

g'iyqillashiga quloq tutaman va zo'rg'a eshitarli qilib o'z-o'zimga shunday deyman: «Yo'q, aftidan, sal-pal jinniga o'xshayman».

Yozar ekanman, kitoblarga aylanib ketaman, o'zimni hamma-ga baxshida etaman. Kitob sahifalaridan abadiyat ufurayotgani, boshimni aylantirayotganiga imon keltiraman. Ko'zlarimni yumib, bog'dan esayotgan shamol yuzimni muzlatganini, yozilgan varaqlarni qor ko'mayotganini his etib turaman. Asar yozish – go'ring azobi.

Oradan bir yil o'tib, kitobim betlari chetida o'zimning tentakligim, ta'sirchanligim, aql-idrokimning ayanchli zo'riqishlari haqida yuzlab belgilar ko'raman. Kitob sahifalarida, miyamda bu belgilar yo'l-yo'lakay, shimib tashlangan papiros qoldiqlari yanglig' sochilib yotadi. Shunday vaqtlar bo'ladiki, hamma-hammanan nafratlanib ketaman. Odamlar to'g'risida yomon fikrga borgan paytlarimda biror qator ham yozolmayman. Qahr-g'azab qamab qo'yilgan itday bo'lib, qalbimni tirnaydi. Hamma narsani unutishga, men ham odamman-ku, degan fikrni miyamdan quvishga harakat qilaman.

Boshim uzra kalla-pochadan tayyorlangan liq-liqqa o'xshash osmon shishib yotadi. Deraza ortida ham o'sha manzara: ayollar yubkasining baliq o'ralgan qog'ozga monand yog'li etagi, najas uyumlaridagi qirchang'i otlar, yuzlab dahanlardan chiqayotgan chirik bug', quloqchinlar, yuvuqsiz yuzlar, sariq, nimjon va kasalmand bir nur. Hatto oppoq, ulug'vor Makkatulloga monand Kreml gumbazlari ham irigan, pistoqi tuman qo'yniga g'arq bo'lgan.

Xadichaning yozishicha, dengiz uzra allaqachon fevralning yorqin osmoni yuksalmoqda. Tez-tez tuman tushadi – demak, bahor erta keladi va issiq bo'ladi.

«Sizni kutyapman, juda intizorman, – deydi u xatida, – Siz yo kalsiz, yoinki qattiq charchagansiz. Tezroq keling. Vinkler bir necha kunga kelib-ketdi. G'am-anduh, sog'inch ezib yubordi, deydi. Unga juda rahmim keladi, menikiga Garibaldi bilan tez-tez kelib turardi».

Gazeta

Pulim tugadi. Arzon-garov mayxona-yu, talabalar oshxonalarida sandiroqlab, och-nahor kun kechira boshladim. Kechga tomon boshim og'rur, yozish juda qiyin edi. Qalamim ostidan zerikarli, ahmo-

qona fikrlar chiqardi. Yozganlarimni yirtib tashlardim. Kunlar mazmun-maqsadsiz o'tib borardi.

Bahor kelmoqda edi. Qor peshob va najasga qo'shilib ko'chalar bo'ylab oqa boshladi. Ho'l tomlar yaltir-yultur qilar, oqshomlari Zamoskvoreche qirmizi tusga kirar, chorbog'larda qarg'alar qag'illashardi. Tramvay simlari bo'ylab yugurgilayotgan yashil chaqmoqchalar tunlarning jonsarak homuzasiga o'xshab ketardi.

Alekseyning bir oshnasi, qari adabiyotchi yodimga tushdi, o'shaning huzuriga yo'l oldim. Aleksey oshnasiga yozgan maktubida menga ish topib berishni iltimos qilgandi. Bu kishi sil kasaliga mubtalo, juda jiddiy odam edi.

– Adoyi tamom bo'lgingiz kelyaptimi? – so'radi u faqatgina ko'zlari bilan jilmayib. – Mayli, ixtiyoringiz.

– Nega endi? – so'radim men.

– Bizning gazetachilik ishimiz shunaqa. Butunlay, boshingiz bilan sho'ng'ib ketishga majbur bo'lasiz.

Oradan bir kun o'tgach, ishga kirishdim. Ochlik chekindi, lekin yozish baribir qiyin edi. Bu ehtimol, toliqishdan, ehtimol, kitobning o'zimga ma'qul bo'ladigan intihosini izlaganimdandir. Kitob oxirida bir necha xotirjam, kuchli jumlar bo'lishi lozim edi.

Menga ajabtovur, qiziqarli topshiriqlar berishardi. Badiiy teatrdan Tolstoyning «Tirik murda» spektakli qo'yilayotgandi. Premyera kuni tahririyat maktub oldi. Uning muallifi, allaqanday Nikiforov degan kishining yozishicha, «Tirik murda» asari dahshatli xato qurboni bo'lgan. Emishki, pyesani bir necha yil burun Nikiforov, ya'ni maktub muallifi yozgan va taqriz uchun Tolstoyga yuborgan. Tolstoyning o'limidan so'ng qo'lyozmani yozuvchining qog'ozlari orasidan topib olishgan, asar uning nomiga o'tib ketgan. Nikiforovning ta'kidlashicha, unda asar qo'lyozmasi, qoralamalari bor emish.

Moskva adabiy muhiti hayajonga tushdi. Bu ishni tekshirishni menga topshirishdi.

Men Nikiforovnikiga jo'nadim. U Borodino ko'prigidan narida, qirg'oqdagi qorong'i, yog'och uyda yashar ekan. Daryoda muz ko'cha boshlagan, loyqa to'lqinlar ildam olg'a intilishar, Presnyada fabrikalar tutun buruqsitishardi.

Nikiforov – ko'zlari shilpiq, qalin kulrang sochli quruq bir chol – pachoq divandan turib, kamzuli yoqasini ko'tardi. Unga nima uchun

kelganimni aytdim. Cholning qo'llari qaltiray boshladi. U chuchuk tilda tez-tez gapira ketdi.

– Ma'zur tuting, aftodahol yashayman. Sizni o'tirg'izishga ham joyim yo'q. Sobiq artistman. «Tirik murda»ni men yozganman, lekin dahshatli xato yuz berdi. Endi o'zim ham tirik murdaman. Asarim Tolstoyga shon-shuhrat keltirdi, o'zim bo'lsam, gadodan battar kun kechiraman. Tortinchoq odamman, Tolstoyga asar haqida eslatishga yuragim betlamadi, qo'lyozma unikida uch yil yotdi. Axir, bu asar meniki, unda men bilgan odamlar zikr etilgan, men yaqin munosabatda bo'lgan ayollar tasvirlangan.

– Lekin asar sizniki ekanini nima bilan isbot eta olasiz?

– Nima bilan? – U burnini tortganicha, divan ostiga qo'l suqib, aksa urib, bir sandiqcha oldi. – Mana bu bilan! Mana, qo'lyozma qoralamasi. Bundan tashqari, sizga asarda zikr etilgan ayolning manzili ni beraman. U hayot, Moskva yaqinidagi Pushkino shahrida yashaydi. O'shandan so'rab-surishtiring, hammasini aytib beradi.

Men manzilni yozib oldim. So'ngra qo'lyozmani ham oldim. Qo'lyozma «Tirik murda»ning aynan nusxasi edi. Chiziqli qog'oz sahifalarida siyohlar yaltirab turardi. Bilintirmay barmog'imni ho'lladim-da, uni birinchi qatorga bosdim, o'sha qatorning shakli suratdek bo'lib barmog'imga ko'chdi. Hammasi ravshan – «Tirik murda» yaqindagina qayta ko'chirilgandi.

– Bu eski qo'lyozmami? – so'radim men.

– To'rt yil oldingi.

Chol yig'lardi. Gapni qisqa qildim-da, xayrlashib, xonadan otilib chiqdim. Nikiforov yolg'on gapirayotgani aniq edi. Lekin shunday bo'lsa, nega u yig'layapti? Asar qahramonining manzili meni butunlay chalg'itib yubordi. O'sha oqshomdayoq Pushkinoga bordim. Qora, kuzga monand bahor, muzlab qolgan xazonlar oyoq ostida g'ichirlar, toza havo ko'ksimni to'ldirgan edi. Qog'ozga nazar tashladim. «Pushkino, dorixona, Nataliya Viktorovna so'ralsin».

Dorixona nimqorong'u, bo'm-bo'sh edi. Ichkaridan rangpar ayol chiqib keldi. Uning qizg'ish sochlari silliq taralgan, ko'zlari ma'nosiz boqardi.

– Menda ishingiz bormidi? – so'radi u.

– Ha, meni Nikiforov yubordi. Siz bilan «Tirik murda» haqida gaplashmoqchiman, – dedim.

U menga uzoq tikilib turdi, ko‘zlari qorayib ketdi, so‘ngra jazavaga tushib, chinqirdi:

– Keting! Meni tinch qo‘ying! Qanday haddingiz sig‘adi! Hammasidan to‘yib ketdim, Tolstoyingizdan ham.

U peshtaxta yonidagi kursiga sekin cho‘kdi, tutqanog‘i tutib, qaltiray boshladi. Ichkari xonadan kichkinagina, semiz aptekachi yugurib chiqdi. U taraddudlanar, ayolga nimalarnidir hidlatar, oh-voh qilib, bosh qimirlatardi.

– Nima qilib qo‘ydingiz! Ey xudoyim, odam ham shunchalar ehtiyotsiz bo‘ladimi? – dedi u menga ta‘naomuz nigoh tashlab. – Siz uni qanday topib keldingiz? Kimsiz o‘zi? Bay-bay-bay, naqadar bema‘ni ish bo‘ldi-ya! Yaxshisi, keting. Unga bu haqda gapirishning sira iloji yo‘q.

Moskvaga yetib kelguncha uyatdan yuzlarim lov-lov yonib turdi. Vagon derazasini ochib, boshimni tashqariga chiqardim. Poyezd o‘rmondagi aylanmalararo olg‘a intilar, bug‘ daraxtlarga osilib qolardi. Chakalakzorlar qo‘ynida tun yastanib yotar, atrof jimjit, g‘arib, Moskva shundoq, yigirma chaqirim narida ekaniga ishonish qiyin edi.

Moskvada muharrirga shunday dedim:

– Minba‘d bunaqa topshiriqlarni bajarmayman.

Muharrir menga nazar tashlab, yelka qisdi.

– Haqiqiy jurnalist hech qanaqa topshiriqdan bo‘yin tovlamasligi kerak. Bu qonun. Yo ha, yo yo‘q.

– Yo‘q, – dedim men.

– Boshni qotirdingiz-ku, siz bilan qandoq kelishdik endi, – dedi muharrir.

Chiqib ketdim.

Meni ishga joylashtirgan adib haq ekan. Gazeta ishiga boshim bilan sho‘ng‘ib ketdim. Tahririyatning shiddatli hayoti Moskva yuragidek urib turardi. Men jurnalistlarni odamlarning hech kimga o‘xshamaydigan alohida toifasi sifatida o‘rgandim. Ular – jizzaki va dog‘uli voqeanavislardan tortib, serzarda, qovog‘i soliq muharrirlar-gacha, hamma-hammasi asablardan, baqiroq asablardangina iborat odamlar edilar.

Bu bangi, aroqxo‘r, quvnoq, biror nimaga ishonchi qolmagan odamlar hayotni ko‘ngil ochuvchi toza havodek his etardilar.



Hammaning joniga tekkan odatiy, kundalik ikir-chikirlar ular uchun yoqimli, ishtiyoq uyg'otardi. Har bir yangi kun ulkan savol alomatiday bo'lib bo'y ko'rsatar, anã shu kunning eng asosiy voqeasini qidirib topish, so'ngra kechqurun o'sha bahaybat savol alomatini o'chirib tashlash baxti faqat jurnalistlargagina nasib etgan edi.

Ularning orasida og'zaki hikoyaning ajoyib ustalari uchrab turardi. Bu hikoyachilar shiddat bilan, uzuq-yuluq gapirishar, barcha bog'lanish va tafsilotlarni tushirib qoldirib, bir-ikki so'z bilan ma'no, mazmun, manzara yaratishardi.

Bu davrada bir umr omadi yurishmaganlar ham bor, ularning ustidan kulish lozim edi. Shuningdek, quruq safsatabozlar, keksa narodniklar, shoirlar, abadiy tolibi ilmlar, qashshoq telbanamo kishilar, bulbul xonishi ishqibozlari, takabbur feleton qirollari – bir-biriga umuman o'xshamagan odamlar yig'indisi ham bor edi. Ularni do'stlik, ish, ziyoli ekanliklaridan mag'rurlanish hissi birlashtirib turar, bu toifadagilar o'zlarini xizmatchilardan yuqori qo'yishardi. Mamlakat hayoti ularning miyasida yuzlab qayg'uli, kulgili hikoyat, rivoyat-ularlatifalar sifatida aks etgandi.

Ular o'n yillarcha ishlagandan so'ng hayotga bo'lgan ishtiyoq, tashnalikni yo'qotishar, gazeta betlarini xo'jako'rsinga sahifalashar, achchiq tamaki chekib, shov-shuvli xabarlar ketidan quvib yurgan yangi xodimlarga nopisandlik bilan nazar tashlashardi.

Faqatgina shu so'z – shov-shuvli xabargina hammaga birdek ta'sir etardi. Bu xuddi bomba portlashidek bo'lib, tahririyat xilxonalarini oyoqqa turg'azar, muharrirlarning doimo nimadandir norozi qiyofalari sal yorishardi. Shov-shuvli xabar bu – ovozi bo'g'ilib qolgan muxbirlar, yozuv mashinkalarining shaqillashi, telefonlarning telbavor jiringlashi, nur yog'ilib turgan ko'zlar!

O'shanda Moskva uzra Severyaninning muattar atir bo'yiga o'xshash she'rlari nafosati ufurib turar, shoirning fojia aks etgan siy mosi Kuznetsk ko'prigida Mayakovskiyning sertashvish chehrasi bilan yonma-yon kezib yurardi.

Bunin o'z hikoyalarini o'qib berar, uning ifodasiz ovozi allalardi go'yo. Kamzulining hamma tugmalari o'tkazilgan, oq, nozik qo'llari jirkangannamo harakat qiladi. So'ngra birdan haroratli Isroil gul ochadi, rus tili xuddi hozirgina topib olingan tillo tangalardek yarqirab ketdi.

Balmont soxta va dabdabali ko'tarinkilik bilan ash'or o'qir, birdan uning she'ri tayanch nuqtasini yo'qotar va atrofnı quruq so'zlar tumani qoplardı. Ana shu parda ortidan qalbning qashshoqligi ko'rinib turardı. Kichkina, shalvirab qolgan kimsa ayollarning baland poshna tuflisida turib olib, o'zining tasqara, muhtaloligini sezmagani holda yo'ldan ozdiruvchi erkak rolini o'ynamoqchi bo'lardı.

«G'ayb olami» ta'limoti tarafdorlarining kuni tuqqan, odamlar bir pulga qimmat g'oyalarni buyuk kashfiyot deya bong urishar, ular bilan muloqot qilgan kishining ko'ngli aynirdi. Pardozi-andoz bilan yuzlarini qizartirgan xotinchalish erkaklar ko'cha-ko'yda jilpanglab yurishdan uyalishmas, zamon o'shalarniki edi.

G'amgin, notinch sezardim o'zimni, har kuni qandaydir yangilik, voqea kutardim. Bu voqea albatta ro'y berishi, mog'or bosgan Moskvaning, butun Rossiyaning ko'kragiga shamol tegishi kerak edi.

Mana u, Moskva!

Tun xuddi dengiz kechasiga o'xshar – namakobdek achchiq edi. Men derazalarning ko'kish qirralari ortida Shimol yulduzlarini ko'rardim. Peshonamni sovuq oynaga bosganimcha, ko'chalarning yoniq fonuslar chayqalib turgan qorli jarligiga tikilardim. Zamoskvo-reche tomlari uzra tong qular, meni bezgak tutmoqda, og'zim quruqshagan, oyoqlarim zirqirardi.

Bu qish kechalari sovuq shamollari, qutb zulmatlari bilan shoshapisha yozgan qatorlarimga singib ketishi, deyarli tugallangan kitobimda quyosh nurlari kamayib qolishidan cho'chirdim.

Men tunlarni, kunduzgi charchoqni, Tosh ko'prik ortidagi fabrika-nıng to'rt mo'risini la'natlardim. Ularga nazar tashlaganimda, fikrlarim g'ujanak bo'lar, hech nimani ko'rmay, sezmay, stol yonida uzoq vaqt karaxt turib qolardim.

Lekin bu oqshom yengil va xotirjamlik bilan yozmoqda edim. Erta tongda, birinchi tramvay chiroqlarini charaqlatib, Arbat bo'ylab gumburlab o'tgan pallada uxlab qoldim.

Meni gazetamizning adabiy tanqidchisi Semyonov uyg'otdi. Mu-loyim, Moskvani behad yaxshi ko'radigan Semyonov so'nggi paytlar-da tez-tez menikiga kelar, choy bilan konyak ichar va Erenburgning she'rlarini qiroat qilardi.

– Erenburgning ajoyib she’rlari bor-da, – derdi u cho’ntagidan kitobcha chiqarar ekan, o’zini oqlayotganday. – Mana, quloq tuting-chi:

*«Arbat» va «Dorogomilovo» so’zlari,
Naqadar yoqimli, nafis – o’zlari.*

Yoki mana bunisini eshiting:

*Xotiramda bolalik – mehmon,
Onam, issiq ro’mol jolasi.
Yemakxona, soatli javon,
Oppoqqina kuchuk bolasi.*

Axir, bular nodir misralar, nahotki tushunmasangiz! Sizga har xil qalang’i-qasang’i, ur-yiqit, tropik issiqlar, dunyo bo’ylab sayohatlar bo’lsa. Biz to’pori odamlarmiz. Divanda chordona qurib olamiz, samovar big’illab turadi. Leskovni o’qiyveramiz, shunisi ham yetadi. Juda bo’lmasa, badiiy teatrqa boramiz-da, uch opa-singil g’amini yeymiz. Yoinki mayxonalarda sandiroqlab, tverlik izvoshchilar bilan choyxo’rlik qilamiz. Moskva yaqinida – Arxangels, Ostankinoda asriy nafasat mavjud. Siz bularning birortasini ham bilmaysiz. Istasangiz, Neskuchniy bog’iga borardik.

– Ketskik.

Kaluga darvozasi yonida olag’ovur edi. Ot go’ngida bir to’da chumchuqlar talashib yotishar, shamol o’tgan yilgi quruq barglarni sarson-sargardon etar, kiprik qoqayotgan kulrang osmon ko’chalarni bosib tushganday edi.

Neskuchniy bog’i bus-butunligicha butoqlarning qora hoshiyasi va qishdan omon qolgan oltin yaproqlar jimjimasidan to’qilgandi go’yo. Saroy derazalarida osmon aks etar, Xamovniki ortida tutunga chulg’angan Moskva yastanib yotar, Xaloskor Iso ibodatxonasining yorqin bo’yoqlari ko’zga tashlanardi.

– Mana buni Moskva deydilar, – quvonch bilan so’zladi Semyonov. – Bu shaharning buyuk bir haqiqati bor. Shu yerda, Moskva-da butun bobaraka Rossiya, qayinlarning o’tkir hidi, biz, ruslarning keng, yelvagay va g’aribligimiz aniq idrok etiladi.

Men o'zimni Moskvaning, butun mamlakatning farzandi deya his qilaman, bunga xuddi qari enagaga ko'nikkan singari o'rganib qolganman. Esimda, Fransiyada, Bretoniyaning kichik shaharchasida yashardim. Kunlarning birida uyg'onganimda, yashil tuman og'ushidagi og'ir, mahobatli ummonga ko'zim tushdi. Qo'rqib ketdim, mumkin qadar tezroq uyga, Rossiyaga, kuz qo'yniga, archa va chinnigullar qoplagan o'rmon sayhonliklariga yetib olgim keldi.

Sekin-asta odimlab uyga qayta boshladik. Shahar darvozasi yonidagi Gusev mayxonasiga kirdik. Pastda izvoshchilar hamma yoqni boshlariga ko'tarib, ko'ngilxushlik qilishar, yuqorida, oqsuyaklar xonadonida g'azalmashina quloqni qomatga keltirardi:

*Shovqin solar shahar yong'ini,
Daryo bo'ylab tutun o'rmalar.
Kreml cho'ng devori uzra
Kulrang kamzul kiyganча turar.*

Deraza oynalari zirillardi. Ovozimga zo'r berib, Semyonovga o'zim yozayotgan kitob – «Hayot» haqida so'zlab berdim.

Har bir kishining hayotida – xoh u hech kim tanimagan kishi, xoh buyuk inson bo'lsin, xoh savodsiz, xoh noziktab odam bo'lsin – o'zgacha, yanada yaxshiroq umrguzaronlikka tashnalik hissi yashirindir. Jannat sog'inchi, dilda orzu etilgan mamlakat, shoirlar xayoloti, faylasuflar tizimlari, oyoq yetmas o'lkalar chorlovi shu taxlit tug'iladi, bir davrdan ikkinchi davrga o'tib yuradi. «O, mening karomatli qalbim! O, mening xavotir to'la yuragim, buqalamun borliq ostonasida bunchalar tipirchilaysan!..»

– So'zlaringizda mazmun, mohiyat sezmayapman, – dedi Semyonov. – Bu, aftidan, faqatgina yo'nalish bo'lsa kerak. Nima ham derdim, yozing, yozavering. Juda yaxshi. Mana shunaqa mayxona hangomalarini xush ko'raman, – dedi u kutilmaganda va kulib yubordi.

Uyga kechga tomon qaytdik. Arbatning shinamgina tor ko'chalarida yulduzlar mayin jimirlar, xiyobonlar tomondan bir maromdagi shovqin-suron bostirib kelardi.

Semyonovning xonadoni oltinchi qavatda, bu yerda kishi o'zini xuddi mayoq minorasida o'tirgandek his etardi. Torgina ijodxonasi kitob, qo'lyozma va suratlar bilan liq to'la.

Semyonov nimdosh turk divaniga o'tirib olib, kitob varaqlar, uning singlisi, yoshgina artistka Natasha past tovushda Voloshin she'rlarini o'qirdi. Tashqari sovuq, qo'shni xonada qari enaga ovoz chiqarmaslikka harakat qilib, choy qaynatmoqda edi.

– Biror nima aytib bering, – iltimos qildi Natasha, ro'molining jimjimador hoshiyalarini o'ynagancha. – Men hozir o'qigan narsalar haqida. Bular axir, siz janubliklarga xos-ku.

Men cho'llar, qo'rg'onlar, maqbaralar, hali juda yoshligimda o'lkamizda eshitgan afsonalar haqida, qizil palak, yavshonlar kuliga burkangan so'qmoqlar, kimsasiz qumliklarga lab bosgan dengiz va kuz haqida so'zlab berdim.

– U yerda har doim Pushkin misralari yodimga keladi: «Muqaddas o'lkalar choshgoh yerlari...»

Men rangpar dengiz sohilidagi oq akas daraxtlari shahri bo'lmish toza va ozoda, xobolud Taganrog haqida hikoya qildim. Bu shaharning diqqinapas bog'larida quyosh hamisha mo'l nur sochadi, qoqio't bosgan sohilning qo'lbola bandargohida qurollari olib tashlangan «Zaporjets» kemasi zang bosgan zanjirlarga bog'lab qo'yilgan.

Men ulkan, bo'm-bo'sh bandargohi, qiyshiq oshxonolari, qushqo'nmas o'sgan sohili bo'lgan Mariupol shahrini, kul rangidagi Kerchni, Lermontov poyqadami yetgan Tamanning kimsasiz qirg'oqlarini, Sevastopol ko'chalarining dengiz hidiga sarmast go'zalligini, Xersones bo'yidagi serko'pik to'lqinlarni, favvoralarning allalovchi ohangiga cho'milgan Bog'chasaroyini esladim.

Men Rossiyadagi eng betakalluf shahar – Odessaning jilvasi va olchoq baxilligi haqida so'zladim. Dneprning yekaterinoslav yaqinidan oqib o'tadigan qismi keng kamarlarini, Kiyevning ajoyib tiramohini, va nihoyat, Turkistonni, qovjiroq tepaliklardagi Temur qabrini – sahroning betakror sukunati-yu, kunbotar chog'i dilgir mahobatini – qaynoq qumlar mamlakatini yod etdim.

So'ngra Kaspiy dengizining oftobda qovjiragan sohillari haqida hikoya qildim. Sohildagi serodam shaharchada erta-kech oshiq o'ynardik, quyosh ko'zlarimizni qamashtirar va biz bezgakka chalinib qolmaslik uchun bir pulga qimmat konyak sipqorardik.

Natashaning ko'zlari yolqinlandi.

– Nahotki, shularning hammasini ko'rgan bo'lsangiz? Bu, axir, bir umrga yetadi-ku.

Men kuldim.

– Kurrayi zamin unchalar katta emas.

Choy ichayotganimizda kulrang kostum kiygan barvasta Rogovin keldi. Semyonovning ta’biri bilan aytganda, «bokira» Rogovin iqtidorli kishi bo‘lib, yirik gazetalarning birida ishlardi. Uning kelib chiqishi ruhoniylardan, qashshoq bolalikni boshidan kechirgan, misli ko‘rilmagan qiyinchiliklarni yengib, gazetaga ishga kirgan. Bu yerda u o‘zining ajoyib taqrizlari bilan tez orada tanilib qolgan. Quvnoq, boladek bog‘lanuvchan bu kishi Semyonov to‘garaginging o‘z odami, kunda-shundasi edi.

– Haligi tasqarani uchratib qoldim, – dedi u stolga o‘tirar ekan. O‘sha shoir K.nida. Xuddi qishloqi qizlarga o‘xshab kokilini peshonasiga tushirib olibdi. Yangi roman yozyapman, deydi. Nomi «Do‘stlik lablari» bo‘larmish. Xo‘sh, shu nom ohorlimi, deya mendan so‘raydi.

Jahlim chiqib ketdi va bu nom menga lablari do‘rdiq lapashanglarni eslatadi, dedim. U esa darhol fikrimga qo‘shila qoldi. Chalamullalar, layoqatsiz to‘nkalar jurnallarni egallab olishgan. Ular mishiqi go‘daklarni ortlaridan ergashtirib yurishadi, tumshuqlariga xoda yetmaydi, xotinlardek cho‘zib-cho‘zib gapirishadi. Shalvirab qolgan, nimjon bu odamchalar bir pulga qimmat asarlar yozishadi.

– Tupuring ularning hammasiga, – erinchoqlik bilan maslahat berdi Semyonov. – Undan ko‘ra choyga rom qo‘shing.

– Natashangiz bugun negadir juda qahrli ko‘rinadi-ku, – dedi Rogovin va burnida qora dog‘li oq kuchukcha – Bobikning qulog‘idan tortib qo‘ydi. – Nima bo‘ldi sizga?

– Hech nima, – dedi Natasha. – Maksimov sarson-sargardonliklarini so‘zlab berdi.

– Siz unga ko‘pam quloq solavermang. Men ummonda dengiz kasaliga chalinaman. Uning kasali nima ekanini esa xudo biladi: fregatlar, marvarid-marjonlar, uchar kemalarmi-yey.

Natasha qizarib ketdi.

Uning o‘rtog‘i, oqmag‘iz, to‘lagina qiz Nina kirib keldi. Ninaning bobosi Cherkas tor ko‘chasidagi kalava to‘la omborda o‘tirib olib, sham yorug‘ida kupon va pul sanardi. Otasi hech narsadan tap tortmaydigan keng qamrovli korchalon, sanoatchilar qurultoylariga

raislik qilar, beg'am, quvnoq, charchash nimaligini bilmaydigan kishi bo'lib, o'z gazetasini nashr etar va inglizlarga o'xshab kiyinardi.

Nina tamaki chekar, kishining ko'ziga uzoq tikilib turishni xush ko'rar, kulrang ipak liboslar kiyib yurardi.

U bizga teatr chiptalari taklif etdi. Shovqin-suron bilan ko'chaga chiqdik, izvoshchilar bilan jon-jahdimiz-la savdolashib bo'lgach, piyoda yo'lga tushdik. Rogovin izvoshchilarni nashadan mast bo'lganlikda ayblardi. Izvoshchilar bir-birlarini quvib o'tib, ortimizdan kelishar, otlarni qamchilashar va to'xtovsiz qichqirishardi.

– Hazrati oliylari, marhamat qiling!

Oxiri Rogovin taslim bo'ldi, biz izvoshlarga o'tirdik. Men Natasha bilan bir izvoshda ketdim. Nikitsk darvozasi yonida, chiroqlarning yorqin yog'dusi ostida qizning nozik niholdek qomatiga nazar tashladim.

Shu oqshomdan e'tiboran Moskvani yaxshi ko'rib qoldim.

Shahar chekkalari

Xadichani uchratgunimcha men hech nimadan qo'rqmasdim. Yo'qotgulik hech vaqoyim yo'q edi. Nimanidir kutib, intiq bo'lib yashardim, o'tmishni sira his etmasdim.

Endi esa vaqt-vaqti bilan meni vahima bosadi. Xadichani yo'qotib qo'yishdan, uning nafis-nozikligidan qo'rqaman. Hayot juda tez o'tadi. O'z-o'zimni kashf etishga kuchim yetmay qolishidan, sevgi uchun bag'oyat qashshoqligimdan cho'chiyman. Men kundalik ish-tashvishlardan qo'rqaman, ko'pchilik odamlarning yuziga qarayolmayman, ular kunni ikki bo'lakka bo'lib yuborishadi, fikr yuritishim-ga xalaqit berishadi.

Bahorda yuragim siqila boshlaydi, g'am-g'ussaga botaman. Beadad hasrat yomg'irli kunlarda ko'cha-ko'yda daydisha undaydi, qancha sanqimayin, biror-bir tanish chehrani uchratolmayman. Sadovniki, Shipka, Marina roshada oriq, nimjon ayollar, son-sanoqsiz bolakaylardan bo'lak hech kimga ko'zim tushmaydi. Hech kimni ko'rgim ham kelmaydi.

Tanholik dardini cheka boshlayman.

Bu g'am-g'ussani muqarrar bir narsa deya qabul qilishga allaqachonlar ko'nikib ketganman, uning sabablari, ibtido, intihosini izlash-

ni bas etganman. Dard xuddi uyquday bo‘lib keladi. Bunday paytda yozish juda yengil ko‘chadi. Yozmayotganingda esa dard izlaysan. Qalb hujayralari qayta tug‘ilib, yara yuzidagi qondek uyushib qoladi.

Rogovin juda kamgap bo‘lib qoldi. Semyonov aroqxo‘rlikdan bo‘shamaydi. Natasha serhayajon va quvnoq. Ularning kamgapligi, araqqa ruju qilishi, hayajoni ana shu nomsiz dard tufayli. Bu dard g‘am-anduh, hasrat, g‘ussadan ham kattaroq, yuksakroq. U rutubatli, shiddatkor shamoldek yurakka uriladi. Inson o‘zligidan o‘sib-o‘tadi. Kelajak uning qalbida borliqni butunlay o‘zgacha qabul qilishning ibtidosi bo‘lib jilvalanadi. Ba‘zan tafakkurim intihosining g‘irashirasida yuzlab izohlash mushkul bo‘lgan hodisalar, istaklar, siymolarni ko‘raman. Bularni idrok etish va qamrab olishga inson ongi ojizlik qiladi. Besamar, erinchoq tafakkur aro yangi irodaning qattiq turtkilarini borgan sari ko‘proq his etaman.

Ertalablari Moskva-rekada kemaga o‘tirib, tez-tez Vorobev tepaligiga borib turaman. Kichik kemalar har doim bo‘m-bo‘sh – bolakaylar, sut sotuvchilar, Xamovniki va jivodernyalik chorbog‘chilardan bo‘lak hech kim bo‘lmasdi.

Kunlarning birida tahririyatga qo‘ng‘iroq qilib, kasalligimni aytdim. Kun bo‘yi shaharda sanqidim. Hech kimni uchratmaslik uchun faqat tor ko‘chalardan yurardim. Daryo yuzini tutun qoplagan, Babegorod to‘g‘oni yonida, ayollar kir chayishar, mag‘zava ajib jimjima bilan suzib borardi. Bolotada chipta sotib oldim-da, kemani kuta boshladim. Men Uayldning kitobini o‘qirdim. Kaptarlar oyog‘im ostida o‘ralashishar, neft, beda va olma hidi anqib turardi. Moskva qirmizi tutun qo‘ynida yaltirar, jaranglar, bulutlarning ko‘kintir soyalari o‘rmalab yurardi. Shaharning ola-bula ro‘moli rangi ochilib, yonib, quyosh bilan o‘ynardi. Birdan kaptarlar shovqin solishdi va kimdir qo‘llari bilan ko‘zimni bekitdi.

– Natasha, bas qiling!

– Qanday taniy qoldingiz?

– Qo‘lqopingizdan va yana shundanki, Moskvada sizdan bo‘lak hech kimni tanimayman.

– Sohilda ketib borayotib, ko‘rib qoldim. Kaptarlar sizni o‘rab olishgan, nimanidir kutishardi. Ularga don sochayotganmidingiz?

– Yo‘q.

– Qayoqqa boryapsiz?

– Vorobev tepaligiga.

– Ketdik. Men ham bugun bo'shman.

Kema sahnida Natasha o'zi ishlaydigan teatr haqida hikoya qilib berdi. Ular har yili yozda butun truppa bir bo'lib yevpatoriyaga bori-shar, u joyda ozgina yerlari, usti chodir bilan qoplangan tosh kulbachelari bor ekan. Artistlar baliq ovlashar, kemalarga tuz yuklab, of-tobda qorayisharkan.

Shu kunlarda Natashani tez-tez uchratib tursam-da, undan sal-pal uyalardim. Ko'zlariga surma qo'yilgan, kulrang paypoq durkun oyoqlarini taranglashtirib turar, qiz tez-tez jilmayar, qo'limdan tortib qo'yardi.

– Siz bizning teatrga biror martayam bormaganmisiz?

– Yo'q.

– Ertaga boramiz. Kechqurun sizga chipta opkelib beraman.

Kema zorlanib hushtak chaldi-yu, parraklarini ishga tushirdi. Daryo tubidan qop-qora loy otilib chiqqa boshladi. Sohildagi bolakaylar chuvvos solib, rul boshqaruvchiga yog'och bo'laklari irg'ita bosh-lashdi.

– Hozir ko'zlaringga ko'rsataman, ipirisqilar! – jahl bilan qichqir-di u.

Kema daryo o'rtasiga chiqib olgach, o'nlab qayiqlar to'lqinda chayqalish uchun ortimizdan ergashdi. Yalang'och bolakaylar to'sinlarga osilishar, kemacha jon-jahdi bilan hushtak chalar, rul boshqaruvchi so'kinar, shovqin-suron, kulgi atrofni to'ldirgandi.

– Mendan bo'lak hech kimni tanimaysiz, – dedi Natasha, uning ko'zlarida quyosh charaqlab ketdi. – Sizga qarab, bunday o'ylamaysan kishi. Fikrimcha, avantyurachisiz, Siz bilan suhbatla-shishni yaxshi ko'raman. Nahot, o'sha dengiz sohilida biror tanish qi-zingiz bo'lmasa? Dengiz, bo'ronlar, bandargoh shaharlari – bularning hammasi shundoq, sevgi uchun yaralgan-ku.

– Dengiz sohilida tanish qizim bor.

– Shu bois Moskvada hech kimga qiyo ham boqmaysiz? To'g'rimi?

– Agar siz shuni istasangiz, to'g'ri.

– Moskvada yolg'iz meni taniysiz, lekin shu bilan birga, siz bil-gan ayollar bittagina emas. Juda qizig'-a, to'g'rimi? – dedi Natasha biroz sukutdan so'ng va kulib yubordi. – Qo'lingizdagi qanaqa kitob?

U kitobni qo'liga olib, tez varaqlab chiqdi-da, suvga otib yubordi. Rul boshqaruvchi o'girilib qaradi. Bolakaylar shovqin-suron bilan kitobni ushlab uchun suvga tashlanishdi. Ularning biri kitobni tishida tishlab, kema ortidan suza boshladi. G'alvir ko'targan qoramag'iz chorbog'chi Natashaga nazar tashladi-yu, sho'xlik bilan shunday dedi:

– Fe'l-atvorni qarang. Kitobda nima ayb?

– Nega tashladingiz, – dedim men.

– Shunday, o'zim... Irim qildim – agar cho'kib ketsa – bo'ladi, agar bolakaylar ushlab olishsa – bo'lmaydi.

– Irg'itgin, ishtonsiz! – qichqirardi rul boshqaruvchi bolakayga.

Kema yurishini sekinlatdi. Yo'lovchilar to'sinlarga osilganlaricha, bolakayga baqirishardi: Irg'it, yetkaza olasan!

Bolakay bir ilojini qilib, kitobni irg'itdi. Kitob shundoq kema quyrug'i yoniga tushdi-da, sekin-asta cho'kib ketdi.

– Cho'kib ketdi, joyi jannatda bo'lsin, – dedi haligi qoramag'iz chorbog'chi. – Bu kemada yurish juda g'aroyib-da. Har doim bir voqea yuz beradi. Kecha bir ayolni sut-puti bilan to'ntarib tashlashgandi, hozir bo'lsa, kitobni cho'ktirib yuborishdi.

– Maksimov, – dedi Natasha va mendan yuzini o'girdi. – Xafa bo'lmang. Keyingi kunlarda ko'p tentaklik qilyapman. Shu bugun, xuddi shunaqa kitob topib beraman sizga. Qanday yuz berganini o'zim ham bilmayman.

– Zarari yo'q.

Kitob qatida Xadichaning so'nggi maktubi bor edi, uni hali o'qimaganim.

Suv o'tlari ko'pligidan daryo qora tusga kirib, jimib qoldi. Kema keskin burildi-yu, kichkina bandarda to'xtadi.

Bandardagi quvnoq qizg'ish kuchuk kemaga, daryoga va bizga qarab vovullardi.

Men cho'milgani jo'nadim. Natasha qirg'oqdagi yiqilib yotgan daraxtga o'tirdi. Ko'm-ko'k osmonda durkun bulutlar suzib yurar, atrofda hech kim yo'q, havo issiq, burni oqib turgan bolakay baliq ovlardi.

Narigi qirg'oqqa suzib borib, kemaga osildim, so'ngra suvga sho'ng'idim

– Maksimov, bas qiling! – qichqirdi Natasha qirg'oqdan.

Uning yuziga quyosh tikkadan tushib turar, kafti bilan ko'zlarini bekitgandi. Bola yonimni oldi.

– Istasangiz, u Moskvagacha suzib borib, yana qaytib kela oladi. Mana shunaqa. Men uni bilaman.

– Qayerdan bilasan?

– Ehtimol, o'tgan safar u bilan birga suzgandirman. U daryoning tubigacha yetdi, xudo haqi, ilinib qolgan qarmog'imni chiqarib berdi.

Badanim yonardi, tez kiyindim-da, qirg'oqqa chiqdim.

– Xuddi bronzadan quyilgandaysiz, – dedi Natasha qo'lini qo'limga tekkizib. – Qo'llaringiz sovuq.

– Maza qildim, lekin o'lgudek ochman.

Bizga hurmat bajo keltirib, ortimizdan kelayotgan bolakay shunday dedi:

– Tepalikda oshxona bor, pivo ham berishadi.

Shalag'i chiqqan yog'och pillapoyalardan tepalikka ko'tarildik. To'zib qolgan qayinlar soyasidagi maysalar ustiga stollar qo'yilgandi. Yugurdak qo'lidagi sochiq bilan stolni tozalagan bo'ldi, so'ngra shu sochiq bilan yuzidagi terni artdi, paxmoq kuchukka zug'um qildi va bizga kotlet hamda pivo olib keldi.

Daryodan kuchsiz shamol esar, qayin barglari mayin-mayin titrashar, quyosh nuridan paydo bo'lgan tasvirlar yo'lkalar, stollar va Natashaning yuzida aks etardi.

U qo'llarini iyagiga tiraganicha daryoga tikilib o'tirardi.

– Novodevichiy ibodatxonasi, – dedi u. – Jinni bo'lib qolmasligim uchun o'sha yerga qamab qo'yishsa, yaxshi edi. Siz hamon mendan xafamisiz?

U yana qo'llarini qo'limga tekkizdi. Kuchukcha keyingi oyoqlarida tikka turib, toqati toq bo'lganidan, uvlab yubordi. Men unga bir burda non tashladim.

– Lyuska, yo'qol bu yerdan! – qichqirdi yugurdak.

Lyuska bukilib, qorni bilan emaklab, stol ostiga kirdi. Minnatdorchilik bilan avval mening boshmoqlarimni, so'ngra Natashaning oyoqlarini yaladi.

Natasha kulib yubordi-yu, seskanib ketdi. Uning ko'zlari asabiy yoshlarga to'la edi.

– Charchadingizmi, – so'radim men. – Shaharga jo'nash kerak.

– Hozir ketamiz. Uyga borsam – yana Rogovin o'tirgan bo'ladi.

U juda ajoyib, quvnoq odam, lekin doim valaqlagani-valaqlagan. Jurnalistlarning eng rasvo odati. Shovqin soladi, qo‘shiq kuylaydi, xaxolab kuladi, latifa aytadi. Mening esa jimgina o‘tirgim keladi. Xayol surolmayman, hatto darg‘alar bilan kema sahnidagi suhbatlarni ham orzu qilolmayman. Dengiz haqidagi hikoyalaringiz bilan meni sehrlab qo‘ydingiz. Doimo tushimga eski bandargoh kiradi, go‘yoki lampachiman-u, moy chiroqlarni yoqib yuraman, darg‘alar qora may bilan siylab, bo‘ynimdan bo‘sa olishadi.

– Sizni qora may bilan emas, – dedim men jiddiy, – balki Tinch ummondagi Tutuita orolidan keltirilgan may bilan siylashadi. Bu juda o‘tkir may, undan qiz bola siynasining hidi keladi. Dengizchilarning irimida aytilishicha, ayollarning boshini faqatgina shu may bilan aylantirish mumkin.

– Siz haqiqatan ham jinnisiz! – dedi Natasha. – Meni, ehtimol, allaqachon Tutuita orolidan keltirilgan mayga to‘ydirishgandir. Bir shisha achimsiq «Trexgornaya» pivosi ustidagi g‘alati suhbat.

Shamol qo‘zg‘aldi, bog‘ va daryoga soya tushdi. Olisda quyosh nuriga ko‘milgan Moskva jimgina yaltir-yultur etib yotardi. Bandargohda Dorogomilovoga boradigan kemaga chiqdik. Borodino ko‘prigi yonida tushib qoldik. Arbat uzra oqshom changi ko‘tarilgan, tramvaylar g‘ichirlardi.

Xayrlashayotganimizda Natasha shunday dedi:

– Kechqurun biznikiga chipta va kitobni olish uchun kelasiz. Kitob qatida hech nimangiz yo‘q edimi?

– Yo‘q.

– Xudoga shukur! Minba‘d kitob qatiga yaxshi ko‘rgan ayollaringiz maktublarini qo‘ymang, – dedi u va kulib yubordi. – Xayr!

Maktub

Kitobimni yozib tugalladim. Zerika boshladim, o‘n yoshga qarib qolganday edim. Yana yozgim, odamlarni kulishga, sevish, tentakliklar qilish, mamlakat bo‘ylab kezishga majbur etgim keldi. Oxirgi qatorni yozib, nuqta qo‘yganim hamon, ular mahv bo‘lishgandi. Men o‘z-o‘zimga kerak bo‘lmay qoldim. Deraza tokchasida uzoq o‘tirib, tamaki chekardim, xonada u yoqdan bu yoqqa yurardim.

*Jasoratim so'ndimi butkul,
Turibman, hech ishga rag'bat yo'q.
Tugadimi yoki xizmatim,
Haqin olgan mardikor yanglig'?*

*Tunning sokin hamrohi, tonggi
Yulduzga' men bersam-da savol.
Bo'lsam-da cho'ng dargohlar bongi,
Umidlarim topgaymi zavol?*

Semyonovnikiga borib, u bilan mayxonama-mayxona sanqishga qaror qildim. Kutilmaganda Natashadan maktub keltirishdi.

«Anchadan buyon biznikiga kelganingiz yo'q. Aftidan, o'sha, kemada ro'y bergan voqea uchun hamon xafasiz. Bilaman, siz qandaydir zo'r asar (akam shunaqa deydi) yozyapsiz, lekin nahotki, ikki soatgina vaqt topolmaysiz? Bugun juda zerikdim. Hatto, qishloqi juvonlarga o'xshab ho'ngrab yig'lashga ham tayyorman.

Kechqurun spektaklning faqat birinchi qismida o'ynayman. Agar sizga malol bo'lmasa, meni olib ketish uchun teatrga keling. Miyamga ajoyib bir fikr keldi».

Bolshaya Nikitskayadagi allaqanday tamaddixonaga kirib, achchiq qahva ichdim. Ko'zgudagi aksimga ko'zim tushdi. Rangim juda oqargan, qo'llarim ingichkalashib, ko'zlarim yanada qoraygandi. O'zimning butun kuch-quvvatimni «Hayot»ga baxshida etgandim. Faqat shu yerda o'zimning naqadar charchaganimni his etdim.

Natashadan olgan maktubim haqida o'ylamaslikka harakat qildim. Unga nima deyman? Oxirgi boblarni yozayotganimda, u haqda o'yladim-ku. axir.

«Hayot ajoyib, – yana o'yga botdim teatrga kirarkanman. – Men barisini qabul qilaman – Natashaning sevgisini ham, o'zimning Xadichaga bo'lgan muhabbatimni ham. Natashaning sevgi to'la ko'zlari va meni dengiz sohilida kutayotgan qiz g'ami qalbimni bab-baravar to'qlinlantiradi».

Teatr yo'lagi bo'm-bo'sh edi. Nimdoshgina barqut divanga o'tirdim. Sahna tomondan ovozlari eshitilar, shiftdagi qandillarga sarq doka o'ralgandi.

¹ *Tonggi yulduz* – Avrora, Tong yulduzi.

«U yashashga oshiqadi», – o‘yladim Natasha to‘g‘risida, tamaki tutatar ekanman.

Tomosha davom etardi. Qadam tovushlari eshitildi. Papirosni tashlab, Natashaning istiqboliga yurdim. Shu soniyada mahkumona bir quvonch bilan angladimki, hali g‘ira-shira, noaniqlik bilan men tomon bostirib kelayotgan narsadan qochib qutula olmayman.

Natasha ikkala qo‘lini ham menga uzatib, ko‘zlarimga boqdi.

– Menga judayam keraksiz, – dedi u yonimga o‘tirar ekan. – Maktabda yozgan gaplarimning birortasiga ham e‘tibor qilmang. Uch kunga Arxangelskka ketyapman. Shu hafta bo‘shman, navbatdagi tentakligimni amalga oshirmoqchiman. Yuring men bilan. Poyezd tungi soat birda jo‘naydi. Biz u yerda ikki-uch kun bo‘lamiz. Bilaman, men to‘g‘rimda yomon fikrga bormaysiz, erkakchasiga toza odamsiz. Siz bilan duch kelgan mavzuda gaplashaveraman.

– Ketdik, bo‘lmasa, – dedim men.

– Soat birga qarab, Sizni Yaroslavl vokzalida kutaman, – dedi Natasha ko‘chaga chiqqanimizda. – Hozir ko‘nglim juda xotirjam, go‘yoki kelinchakman. Hech qachon bunday holatga tushmagan edim. Bu shunchalar yoqimlik, o‘zimni yo‘qotib qo‘yayozdim, yig‘lashga ham tayyor bo‘lib turibman. Tasavvur eting, Maksimov, Shimoliy qutbdagi shaharda, begona odamlar orasida ikkimiz yolg‘iz bo‘lamiz. Sizga bir olam yaxshi narsalar haqida hikoya qilib beraman.

U yengil sakrab tramvayga chiqdi-yu, menga o‘girildi. Men Arbat tomonga ketdim. Ko‘hna Moskva uzra zangori osmon tutab yotardi. Xonamda may ichdim-da, uyquga ketdim.

Quyosh qizdirgan oppoq ko‘chalar, katoliklarning jonsiz ibodatxonalarini tush ko‘rardim. Rangpar, qo‘rqinchli va olis osmon menga, shaharga nazar tashlab turardi. Ibodatxona darvozasi yonida Natashani kutib turardim. U panjara ortida edi. Tosh quduq yonida suv chak-chak ovoz chiqarib tomchilar, devorlardan nastarin osilib turardi. Qo‘ng‘iroqlar chalindi, panjara ortiga o‘tib, qorong‘i ibodatxonaga kirdim. Mayin shamlar yonar, kaptarlar uchib yurar, Natashaning yuzi xuddi qora ikonalaridagi kumush singari qoramtir-oqishgina edi.

Uzundan uzoq xutba o‘qildi. Ruhoniylar shivirlashishar, faqat onda-sonda manqa va hayajonli tovushda «Omin!» deb qo‘yishardi.

Natashaning kipriklari titrar, cho‘yandek toshlarga yakkam-dukkam yosh tomchilardi.

Qiz boshini egdi, pastakkina mo‘ysafid ruhoniy unga oltin toj kiydirdi.

– Ilohim, bir umrga qo‘sha qaringlar.

– Bir umr seni sevaman, – dedi Natasha va yelkalarimdan quchdi.

U kulib yubordi, lekin men bu Natasha emas, Xadicha ekanini bilib qoldim. Ibodatxona devorlari shaffof tus oldi. Ajabtovur hush-takdan boshim aylandi, bu dengiz tomonga uchayotgan minglab chag‘alaylar tovushi edi.

– Ketdik, – dedi Xadicha. – Seni Juchok kutyapti. U ko‘k suzgichli baliq tutib oldi, o‘zi yigirma yoshga yasharib qolgan.

Uyg‘onib ketdim. Xona sovuq, meni qaltiroq bosgandi. Paltoga o‘raldim. Arbat bo‘ylab bo‘sh tramvaylar yelib-yugurishar, Moskva uyquga cho‘mmoqda edi.

Vokzal tamaddixonasidagi stol ortida Natasha meni kutib o‘tirardi.

– Isitmangiz bor, – dedi u qo‘lqopini tez yechar ekan. – Qani, peshonangizni ushlab ko‘ray-chi. Ha, sizni bezgak tutyapti.

– Bu uyquning ta‘siri, – dedim men. – Uxlagan edim, ajabtovur bir tush ko‘ribman.

Unga tushimni aytib berdim, lekin Xadicha haqida hech nima demadim.

– Bir umrga qo‘sha qaringlar, – dedim-da, qizning sim-siyo qo-rachiqclariga tikildim.

– Menga bunaqa tushlarni aytmang, eshitingizmi! – dedi Natasha.

Norvegiyalik darg‘a

Arxangelskda bizni og‘ir, kulrang shamollar qarshiladi. Oq dengizda muzlar parchalanmoqda, ummon esa hali yax og‘ushida edi. Qirg‘oqdan baliq va yog‘och hidi anqir, xira chiroqlar qutb tuni qo‘yniga g‘arq bo‘lgan, maydonlarda ibodatxona hamda pastak uylarning ko‘hna devorlari oqarib ko‘rinardi.

– Yaxshi! – dedi Natasha. – Odamlarning shevasiyam qandaydir o‘zgacha, muzday, ayozli. Sizni bu yoqqa olib kelganim-

dan xafa emasiz? Men rosa huzur qilyapman. Xuddi tush ko'rayotgandayman.

Shamol ho'l yomg'irning yakkam-dukkam tomchilarini uchi-rib kelardi. Munkillab qolgan izvoshchi otchasini ushlab turib, tamshandi-da, so'radi:

– Siz, azizlarim, moskvalikmisizlar?

– Moskvalikmiz.

– Savdo ishi bilan kelgan bo'lsangiz kerak?

Men kuldim.

– Ha, bobojon, savdo ishi bilan.

– Hozirda bu ishlar juda jiddiy. Aytaylik, yog'och yoinki baliq savdosi. Go'zal xotiningiz ham siz bilan birga ekan. Bunaqa, dilning-dilga to'g'ri kelishini, azizlarim, hozir kunduzi chiroq yoqib ham topmaysiz.

Chol titroq ovozdada kulib, boshini sarak-sarak qildi.

– Hozir y-o'-o'-q bunaqasi! Totuvlik qolmadi hisob. Mana, yaqinda bir navjuvon ayol o'g'limni tashlab, bir pomorning etagidan tutib, Kandalakshaga ketdi. U pomorni boshiga urarmidi? Xo'p, mayli, sizlarni Iso payg'ambar qo'llasin, – dedi u kutilmaganda va mo'yna tel-pagini yechib, cho'qinib qo'ydi.

Mehmonxonada elektr chiroqlari yorqin nur sochar, eshik og'alari qizil poyandozlar ustidan sassiz yugurib yurishardi.

Natasha o'ziga yo'lak oxiridagi kichkina xonani tanladi. Uning safar jabdug'ini o'sha yerga olib kirishdi. Menga ko'hna chuqur oromkursilari, ko'k koshin pechi bo'lgan katta, issiq xonani ajratishdi. Xona devorlariga Solovki ibodatxonasi manzaralari aks etgan, qoramtir suratlar osilgandi. Shaloq, to'garak stolda o'tgan yilgi taqvim va qurib qolgan siyohdon turardi.

Taxta devor ortida kimdir notanish tilda gapirar, yugurdak eshik oldida kamtarin alpozda tik turganicha, so'zlayotgan kishi – bandargohda qishlab qolgan norvegiyalik darg'a ekanini hikoya qilardi.

– Bu yerdagi hamma narsa naqadar g'alati-ya, – dedim Natashaga gilamga, uning oyoqlari yoniga o'tirar ekanman. – Xonada men bilan yonma-yon norveg darg'asi yashaydi, devorlarda qadimiy rasmlar – Solovki, cherkovlar, yog'och ibodatxonalar manzaralari ilib qo'yilgan. Axir, darrov bir-birimizga shunchalar yaqin bo'lib qolgani-

miz, har soniyada nafasingiz, ovozingizni tuyib turishim ham g'alati emasmi? Men hozir va bundan keyin atrofdagi hamma narsani – cherkovlarni, bo'm-bo'sh mehmonxonani, zarhal jimjimali kiyim kiygan norveg darg'asini, mana bu sarg'ayib ketgan chinni piyolani, o'z-o'zimni, nihoyat, loaqal bir marta bo'lsin, sizning qo'lingiz tekkan buyumlarning barisini yaxshi ko'raveraman.

– Maksimov, jonim, – dedi Natasha ko'zlarimga xavotirli nigoh tashlab, – men injiqliklarimni unutdim. Siz axir, hammasini bilasizku. Gapiravering.

– Ehtimol, bolaligimda ko'zlarimga yosh qalqitib, hayajonga soladigan minglab hodisalarni to'qiganim singari bularni ham to'qib chiqargandirman. Bilmadim. Faqat shunga aminmanki, Natasha, Moskvada menga «Nigohingiz, kuchingizni his etishni, ovozingizni eshitish, siz hayotingizni nimaga baxshida etsangiz, men ham shunga baxshida etishni istayman», degan so'zlaringiz uchungina o'zimni yaxshi ko'raman. Va ehtimol, – so'zimdagi sekin davom etdim men, – sizni ertagayoq tark etarman. Hech nimani bilmayman. Siz bundan aziyat chekmasligingiz kerak.

– Bu soniyani qanchalar kutganimni, qanchalar qo'rqqanimni, Moskvada, hali siz hech narsadan xabaringiz bo'lmagan paytlarda naqadar qiynalganimni bilsangiz edi, – dedi Natasha iztirob bilan. – Men ilojsiz, tentak qizaloqqa o'xshab tun-u kun yig'iga zo'r berardim. Sizga intilardim, ayni paytda, o'zingizni uchratib qolishdan qo'rqardim. Sizdan hatto, nafratlanardim. Xudoyim-ey, butunlay zaiflashib, bemor bo'lib qolgandim va buning uchun o'zimni yomon ko'rardim. O'shanda angladimki, hozir ro'y bergan hodisa oldida puchak g'ururim, teatr ham, azaliy g'ussali oldingi hayotim ham bir pulga qimmat, ayanch bir narsa. Bularning hammasi g'oyib bo'ldi, yolg'iz Sizga bo'lgan muhabbat, siz uchun xavotir, qayg'urish hissi qoldi, xolos. O'sha, sizga Arxangelsk haqida gapirgan oqshomda teatrdagi o'ynayolmadim. Qari enagamdan uyqudori berishni iltimos qildim. Bir daqiqa bo'lsin, uyquga ketishni, meni sevishingizni nonaniq quvonch bilan tushimda ko'rishni istardim. Men hozir shunday bir marraga yetib keldimki, undan narida yo qandaydir dahshatli, o'nglanilmas hodisa sodir bo'ladi yoiniki baxtga erishaman. Lekin bu hali ro'y bergani yo'q, Maksimov.

– Nega? – deya so'radim-da, o'rnimdan turdim.

– Negami? – takrorladi Natasha va u ham o‘rnidan turdi. – Esingizdami, kitobingizni daryoga tashlagandim. O‘sha kitob qatida siz yaxshi ko‘radigan qizning maktubi bor edi. Buni bilaman. Siz hatto, kiprik ham qoqmadngiz. Men qo‘rqib ketdim. Yo sizda haqiqiy sevgi boshlanyapti, yoinki... – u uzoq jim qoldi, – yoinki, yuragingiz histuyg‘uga begona, duch kelgan ayolga ilakishib ketaverasiz. Men buni bilmayman...

U deraza yoniga bordi. Yuragimda allanarsa uzilib ketganday bo‘ldi. O‘zimdan jirkanish hissi miyamga urildi. Divanga o‘tirdim. Zangori yarim tun qayoqqadir g‘oyib bo‘ldi. Natashaning qichqirig‘i qulog‘imga chalindi-yu, hushimni yo‘qotdim.

Behushlik uzoq davom etmadi. Ko‘zlarimni ochganimda, qulog‘im ostida o‘nlab telegraf ustunlari shang‘illardi go‘yo. Natasha yonimda tiz cho‘kkanicha, og‘ir-og‘ir nafas olardi. Ko‘kragim ochiq, yuragim ustida muzday latta yotardi.

Natasha qo‘lini peshonamga qo‘ydi.

– O‘tib ketdimi, hammasi o‘tib ketdimi? – so‘radi u jarangdor baland tovushda. – Men nima qilib qo‘ydim-a! Xo‘sh, qalaysiz endi?

– Yaxshi... Yuragim sal-pal og‘riyapti. Ba‘zan shunday bo‘lib turadi.

– Hammasiga men, men, men sababchi... Kechiring. Bilmas ekanman. Yuragingizga juda qattiq tegdim, joningizni og‘ritdim.

O‘sha oqshomdayoq Xadichaga xat yozdim:

«Shoirning qaylig‘i bo‘lish – juda qiyindir bu mashg‘ulot. Sizga hammasini aytib berishim kerak. Yana kema yanglig‘ langar zanjirini uzdim. Jamiki barqarorligim qordek erib ketdi. Ajoyib bir qiz bilan sovuq, ayozli Arxangelskda yuribman. Uning ismi Natasha, meni sevadi. Qiz yo‘llarimni ayqash-uyqash qilib, qartalarimni aralastirib tashladi va sevgisini juda oddiy tarzda izhor etdi. Bunga qarshi kurasholmayman, kurashishga jur‘at ham etmayman. Men sizni ham, uni ham sevaman, hayotda hech nimani tushunmayman. Tan olish menga juda qimmatga tushadi. Hech qachon o‘zimni bilmaganman, hozir ham bilmayman. Yaxshilik va yomonlik to‘g‘risidagi barcha tushunchalar aralashib ketdi. Ularning tagiga yetish qo‘limdan kelmaydi. Faqat, hech qachon qaytib kelmaydigan bugungi kun hamda go‘zal, mashaqqatli, oxir-oqibat, tushuniksiz hayot mavjuddir».

«Yaqin kunlarda huzuringga boraman. Kutgin. Xat yozishni istamayman, hammasini o‘zimga beraman».

O‘rnimdan turib, xina ichdim. Oltinchi qavatdan kunbotarning qizg‘ish quyoshi ko‘zga tashlanar, bu bezgak bilan og‘riqlar uchun eng qo‘rqinchli payt edi. Butun tanam namdan toliqqan, issiq choy ichgim kelar, ko‘nglim iliq, shamollatilgan xonani tusardi.

Stolda unutib qoldirilgan ochiq kitob sahifalaridan quyidagilarni o‘qidim:

«Tonkin namozshomi – quyoshning siyrak nurlari va issiq yomg‘ir oqibatida yaralgan juda og‘ir g‘ira-shira allaqanday sir, vahimali, qahrli osiyocha sir-asror bo‘lib osilib turardi ».

«Bu qanday bema‘nilik?» – o‘yladim men. – Nega endi «oqibati-da» va «allaqanday» bo‘larkan. Kimning kitobi bu o‘zi?»

Muqovaga nazar tashladim – Klod Farrer¹, so‘ngra yana, lekin endi bu safar o‘zimga o‘qidim.

«Tonkin namozshomi – quyoshning siyrak nurlari va issiq yomg‘ir tufayli hosil bo‘lgan juda og‘ir g‘ira-shira vahimali, osiyocha qahrli sir-asrordek osilib turardi».

Yo‘q, buyam to‘g‘ri kelmaydi. Stolga o‘tirdim-da, butun jumlani boshqatdan yozdim:

«Tonkin namozshomi – issiq yomg‘ir – hammom havosi – g‘ira-shira quyosh – xitoyliklarning serxavotir dahalari – Farrerning qo‘rquvdan qalt-qalt titrayotgan kamqon yuragi».

Bezgak tutgan mahallarda men soatlab arziyas narsalar haqida o‘ylayman, bir pulga qimmat fikrlar bilan o‘ralashib qolib, ularning ibtidoiy ahamiyati, bokiraligini qidirib topaman. Bu gal ham shunday bo‘ldi.

Yo‘q, yo‘q. U rangsiz yozadi. Bunday qilish mumkin emas. Butun jumlani ikkinchi marotaba qaytadan yozdim:

«Tonkinning og‘ir namozshomi – zangori daryo uzra issiq yomg‘ir – xitoyliklar dahalari tutuni – po‘rtaxolga monand quyosh – bezgak – Farrerning qo‘rquvdan qaltirayotgan kamqon yuragi».

Bema‘nigarchilik yetar endi! Bezgak qayerdan kelgani ham ma‘lum bo‘ldi – Tonkindan, jiqqa ho‘l, zaharday holokatli Osiyodan.

¹ Klod Farrer – fransuz yozuvchisi, «Mustamlaka» romanlari muallifi.

Shifokorlar men og‘rigan bezgak osiyocha, deb bekorga aytishmagan ekan.

Ko‘chaga chiqdim. «Qanchalar ahmoqman, – o‘yladim o‘zim haqimda. – Farrer namozshom haqida yozadi. Namozshomda rangin bo‘yoq nima qilsin! Issiq yomg‘ir, quriyotgan toshko‘cha, xira, keng daryo, chiroqlar, loy, qog‘oz, bambuk, tunukadan tiklangan, koinotday keng xitoyi dahalar kerak. Sariq odamlar, jomday matolar, jomdayin osmon kerak. Tamom-vassalom».

Strastniy maydonigacha bordim. Ibadatxonaning qirmizi devorlari Pushkin haykaliga issiq nur sochib, yosh arg‘uvonlarni oltin hal bilan bezardi. Tver xiyoboni bahor suroniga to‘la, yo‘rg‘a otlar chopqillashar, avtomobillar g‘ildiraklari shipillardi.

Filippov tamaddixonasiga kirdim-da, qora qahva ichib, gazetalardan Toshkent paxtasi, kalava, bankirlar idoralari to‘g‘risidagi e‘lonlarni o‘qib, uzoq o‘tirdim. Meni uzuq-yuluq fikrlar ta‘qib etardi.

Seylon choyi haqidagi e‘lonni o‘qidim. Seylonning yam-yashil shaharlari.

Bolaligimda bandargohimizga Hindistondan kulrang kema keldi. U qirg‘oq yaqinida to‘xtab, sariq bayroq ko‘tardi. Kemada bemorlar bor ekan. Bir dengizchi va xitoylik oshpazchanning murdalarini tushirishdi. Ular sariq bezgakdan o‘lishgan ekan. O‘sha yoqqa yugurdim, lekin murdalarga boqishga yuragim betlamadi.

Men nuqul quyoshning egri-bugri yashil nuri o‘ynayotgan suvga tikildim.

«Mana buni bezgak deydilar», – o‘yladim men va bolaligimda yog‘ochdan yasalgan hamma qayiq, kema, odamlarni hamda osmonni sariq rangga bo‘yaganimni esladim. Bu ehtimol, toshloq, sariq rang hukmron bo‘lgan yerlarda o‘sganim, buvimnikiga, yavshan qoplagan sarg‘ish cho‘llarga, tez-tez borib turganimdan bo‘lsa kerak. Shamol bu yerlarning changini osmonga ko‘tarardi.

Darichalar taraqlar, tomlardan cherepitsa tushar, bog‘dagi yashil maysalar qovjirab, quyosh go‘yo kulrang elak oralab nur sochar, lablar yorilib, po‘sti qotib qolardi.

Men osmon yashin-chaqinga to‘la chumchuq tunlaridan qo‘rqardim. Shu‘lalar irmoqlardek bo‘lib yerga yog‘ilar, chumchuqlar qum to‘zoniga tap-tap yiqilib, chirqillashar va tashnalikdan jon taslim

etishardi. Chumchuq tuni quyundayin bo‘lib, bir tomchi yomg‘irsiz o‘tib ketardi. Ertalab payhon etilgan cho‘ldan kuyindi hidi kelar, yuragim tez-tez ura boshlardi. Odamlar boshlarini sarak-sarak qilib, «garmse!» deyishardi. Boshloqlardan don to‘kila boshlar, yumronqoziqlar chiyillashar, men bo‘lsam uzzukun quduqdan sho‘rtang suv tortib, bog‘ni sug‘orardim.

Yana ko‘chaga chiqdim. Isitmada yonar, ko‘zlarim oldini tuman qoplagan – bezgakning ikkinchi xuruji boshlangandi.

Nima haqda o‘ylayapman, o‘zi? Bular butunlay boshqa narsalarku! Uzil-kesil hal etishim, janubga, Xadicha huzuriga jo‘nashim kerak.

Yaxshisi, uzoq masofadan turib sevish kerak. Lekin albatta sevish darkor, bo‘lmasa adoyi tamom bo‘ldim, deyaver. Ana shunday darbadar kezish, poyezdlarda, kemada, ko‘cha-ko‘yda, choshgohda va tong paytida go‘zal narsalar, yozilmagan kitoblar haqida o‘ylash, kura-shish, o‘z-o‘zini fido etish, halok bo‘lish kerak.

Yurishdan to‘xtadim. Biror bir qahvaxonaga kirib, bularni obdon o‘ylab olish lozim.

Brest vokzali yaqinida, Yamskoyedagi qahvaxonaga kirdim. Gul bozorlarining hidi kelar, zangori namozshom edi,

«Shu yer – mening uyim, begona shahardagi birinchi qo‘nalg‘am, – o‘yladim stolga o‘tirar ekanman. – Qahvaxona – uyiga sig‘maydigan odamlar to‘planadigan joy. Bu – Garibaldi va Stashevskiy, Xadicha va men, Rogovin – hayot bir ip bilan bog‘lab qo‘ygan odamlar».

Bir xil may Gogol davridagi Rimni eslatadi, ikkinchisi esa Napoleonning ko‘k libosli gusarlarini, Reynning shirin shaharlari, gitara va qaynoq sharobni yodga soladi. Yana biri dengizchilar qattiq so‘kinadigan, sharros yomg‘irlardan qoraygan yelkanlar suzgan qora ummonga o‘xshaydi.

Boshim og‘rib ketdi. O‘rnimdan turib, uyga jo‘nadim.

«Eh, hozir kuz payti bo‘lganidami! – o‘yladim o‘kinch bilan. – Yana yoza boshlardim; kuzda sovuq havo tufayli fikrlar mustahkam bo‘ladi, yurak ishonch bilan tepadi. Yerdan qayin po‘stlog‘ining hidi anqiydi, yakkam-dukkam yomg‘ir yog‘adi, butun mamlakat tillarang may, zangori osmon va yorqinlik bilan limmo-lim jomdek bo‘lib tura-

di. Kunlar ketidan kunlar o'taveradi va bexos qo'l tekkizsang, shisha-dek jaranglab ketadi go'yo. Turnalar nomini sen bilmagan mamlakatlarga qishlagani uchib ketadilar».

Dangasalar

Oradan bir hafta o'tdi. Xadichadan maktub oldim. Xat Sevastopoldan yozilgan edi.

«Xatingni olganimdan so'ng, avvalgi joylarda qololmadim. Mutlaqo xotirjamman. Bu ulkan dunyoda, millionlab odamlar orasida ikkimiz yakka-yolg'izmiz. Mening sendan bo'lak hech kimim yo'q va yaxshi bilamanki, albatta qaytib kelasan. Sen nimaiki qilayotgan bo'lsang, hammasi ham kerakligi ko'rinib turibdi. Hayotingda hayratlanishlar, sevgi, g'am-g'ussa ko'p bo'ladi. Hammasidan o'tishing kerak. Lekin sen istagan paytda yoningda bo'lishga doim tayyorman.

Seni kutib, ko'p ishlayapman. Lekin kelmay qolasan, deya o'ylashim bilanoq, bu go'zal shahar men uchun zindonga aylanadi go'yo!»

Butun hafta davomida uydan chiqmadim. Eshik taqillatishlarga javob bermadim, hech kimni ko'rgim kelmadi.

Kechqurun Rogovin keldi. U eshikni uzoq taqillatdi, so'ng kalit soladigan teshikka tikildi.

– Ichkaridan qulflangan, – dedi u o'z-o'ziga va yana eshik qoqa boshladi.

O'rnimdan turib, eshikni ochdim.

– Lekin o'ziyam, uyqungiz zo'r ekan-da. Hamma yoqni tamaki tutuniga to'ldirib yuboribsiz. Derazalarni oching, yetar endi, mijg'ovlanib yotganingiz. Yuring, hozir Bratovshinaga, Semyonovnikiga boramiz. U boqqa ko'chib o'tdi, bugun hovli to'yi qilyapti.

Rozi bo'ldim. Tramvay derazalari yonidan barglar shovqiniga to'la ozoda bog'-xiyobonlar o'tib turardi. Shahar tashqarisiga qatnaydigan poyezdning bo'm-bo'sh vagonida nazoratchilar ko'zimizga chiroq tutishar, otasharava Sokolniki chakalakzorlari bo'ylab olg'a intilar, qayrilishlarda pishqirib qo'yardi.

– Bilasizmi, – dedi Rogovin, – Natasha sizni olib kelishni tayinlagandi.

– Xo'sh, nima bo'libdi?

– Shunday... Hech nima. Xudo haqi, bunaqasi yaramaydi. Xuddi jonivordek bekinib olibsiz. Nima, odamlardan qo‘rqasizmi? Ofitser qaynsinglisiga o‘xshab, kamqonlik kasaliga muhtalo bo‘lib qolasiz.

– Men ishlayapman.

– Bunday ishlash mumkin emas.

U o‘rnidan turib, derazani ochdi va shunday dedi:

– Men ko‘p narsalar haqida yozmoqchiman, lekin mana, iloji bo‘lmayapti. Semyonov rassomlar, ikonalar, kashtalar haqida yozadi, lekin sira ko‘ngli to‘lmaydi. Haqiqiy kitob yozgisi keladi. Qo‘limizni musht qilib, bir zarba bilan ishni bitirolmaymiz-ku, tushunasizmi? Haqiqiy mavzu, haqiqiy so‘zlar atrofida o‘ralashib yurgan dangasalarmiz. O‘zing yozaverasan-u, xayolingda nuqul qanday chap bersam ekan, degan fikr charx uradi. Albatta, bundan hech ish chiqmaydi. Soqol qirishga ham erinib turganingda, yozishga yo‘l bo‘lsin? Yozayotgan pallada odam toza bo‘lishi kerak. Xona ozoda, sokin, uy bekasi har xil gap-so‘zlar bilan jig‘ingga tegmasligi, oshxonadan badbo‘y hid kelmasligi, qo‘llar toza va albatta, sovuq bo‘lishi kerak. Tushunyapsizmi? Soqolni tozalab qirish, muskullarni his etib turish darkor. Xuddi sirkchidek, dengizda cho‘milib chiqqandek kuchli, mustahkam bo‘lish talab qilinadi. Mana shunaqa. Men esa shunaqa emasman. Rus kishisidan yaxshi yozuvchi chiqishi uchun, unga ingliz sportchilari ruhini singdirish, sovuqda tirqiratib quvish, yigirma martalarcha xavf-xatar ostiga qo‘yish lozim. Toki u xatarning tumshug‘ini pachaqlaydigan bo‘lsin. Badanida bodi-shodi qolmasligi uchun, tumshug‘iga tushirib turish kerak. Mana shunaqa gaplar!

Qanday yozish haqida u yana uzoq gapirdi.

– Masalan, Semyonovni olaylik. Doim boshi og‘riydi, yuzida bir tomchi qon yo‘q, qon o‘rniga sham moyi. Yozuvchilikni u ilohiy ish deb tushunadi. Bekor gap. Bu Vizantiya tumani kimga kerak?

U qalpog‘ini kiyib, o‘rnidan turdi va jo‘shib so‘zladi.

– Bunday qilish mumkin emas, tushuning. Asar yozish – ustingdan muzday suv quyish bilan barobar. Avvaliga qo‘rqasan, keyin ko‘nikasan.

– Nega axir, o‘zingiz shunday yozmaysiz?

– Men dangasaman. O‘z-o‘zidan yozilib qolganda, zo‘r bo‘lardida. Ertalab turasan – stolda yangigina yozilgan bob yotibdi. Kechqu-

run kelasan – yana yangi bob turibdi. Men bo‘lsam, faqat farmoyishlar berardim, ya’ni undoq yozish kerak, bundoq yozish kerak. Darvoqe, mana, ruschasiga asar yozishning yana bir usuli, – dedi u Bratovshinadagi yakka-yagona izvosha o‘tirayotganimizda, – qog‘oz parchalariga yozib, so‘ngra hammasi yo‘qotib qo‘yiladi.

– Hayda, akasi, haydayver, – dedi Rogovin izvosha. – Savdolahishga ulgurasan hali. Va bu, – yana menga murojaat etdi u, – bizning qashshoq, telbavor, har qanday fikr oltin zarrasiday qadrlanishi lozim bo‘lgan mamlakatimizda-ya.

Ot pishqirar, o‘rmon qop-qorong‘u edi. Oynalari nurlanib turgan, Sibirga qatnaydigan tezyurar poyezd daraxtlar ortidan o‘kirganicha o‘tib ketdi.

Serebryanka daryosi

Bog‘-hovli yonida chiroqlar yorug‘ida kriket o‘ynashardi. Ayol kishining «Igor, sharlarni dumalatma!» degan qichqirig‘i eshitildi: Qarag‘aylar uzra shimol yulduzlari miltirardi.

Bizni qo‘lida fonar ushlagan ushoqqina harbiy maktab o‘quvchisi qarshi oldi, o‘zini «Igor» deya tanishtirdi.

– Tutingan o‘g‘lim, – dedi Rogovin.

Igor oyog‘ini «shap» etkazdi, uning sochlari tipratikan ninasiday, ko‘zlari quvonchga to‘la edi.

– Men qaroqchiman, – qichqirdi u va maydon tomonga chopib ketdi. – Natasha ikkimiz qaroqchilarmiz. Hammani xodaga o‘tirg‘izib o‘ldiramiz.

– Uyat emasmi, – dedi menga Natasha. – O‘zingizni xuddi eski so‘qqaboshlardek tutyapsiz, chekaverib hamma yog‘ingizga tamaki hidi singib ketibdi. Yashirinib yurasiz, yaxshi emas. Tanishinglar, Ninani bilasiz. Mana bu kishi esa o‘z birodaringiz – jurnalist, «Ko‘k jurnal» muharriri – Lyubimov. Bu kishi ham jurnalist, Seredinskiy, tanishsizlar, shekilli. Bu esa mening tutingan o‘g‘lim – Igor. Siz unga dengiz haqida hikoya qiling. Faqat qo‘rqinchliroq va qiziqarliroq bo‘lsin. Misha xonada o‘tirib olib, yozyapti. Xo‘p, bo‘ldi endi. Taslim bo‘ling. Ayyonga chiqamiz.

Ayvonda choy ichgani o‘tirdik, Semyonov ham keldi. Kapalaklar sham atrofida parvona bo‘lib, stolga qulab tushishardi.

– Hayotimda birinchi marotaba yutqazishim, – dedi Lyubimov. – Har doim gardkam uraman, doim omadim yurishadi, hatto o‘z boshimni tikkanimdayam.

– Qachon boshingni tika qolganding? – so‘radi Seredinskiy.

– Piterda, ikki yil burun.

– Piter unchalik romantik shahar emas, – dedi Seredinskiy, – u yer senga o‘xshagan vahimachilarga torlik qiladi.

– Voqea bunday bo‘lgan edi. Arslon o‘rgatuvchi nemis Baer bir to‘da yosh Afrika sherlarini olib kelib qoldi. Men undan intervyu olish uchun bordim. Baer aytdiki, sherlar juda darg‘azab, qo‘lga unchalik o‘rganmagan, yosh, ular bilan ishlash qiyin. Shundan so‘ng u go‘yoki, bobosi va buvisini, otasi va onasini, barcha aka-uka, opa-singillarini sherlar burdalab tashlaganini hikoya qila boshladi. Sher tashlanib qolganda, o‘q uzib bo‘lmaydi, tomoshabinlarga tegib ketishi mumkin. Shuning uchun ham arslon o‘rgatuvchining to‘pponchasida bittagina haqiqiy o‘q bor, qolganlari paxtavon. U paxtavon o‘qlarni otaveradi, ko‘radiki, foydasiz, ko‘ryaptiki, o‘zining kuni bityapti, shunda so‘nggi haqiqiy o‘qni peshonasiga qarab otadi. Baer to‘pponchasini ko‘rsatdi, men qo‘limga olib, u yoq-bu yog‘ini aylantirib ko‘rdim-da, cho‘ntagimga solib qo‘ydim. «Gap nimada o‘zi?» dedi Baer. «Gap shundaki, – dedim men, – arslon o‘rgatuvchi emasman, lekin sizning shalpanquloq sherlaringiz turgan qafasga kirib, besh daqiqa o‘tira olaman». Baerning esi og‘ib qoldi. Men suratkashni olib keldim, Baerga agarda o‘lib-netib qolsam, barcha ayb o‘z gardanimda, deya tilxat yozib berdim-da, qafasga kirib, stulga o‘tirdim.

– Xo‘sh, keyin-chi? – so‘radi Igor.

– Keyinmi? Hech nima. Sherlar surilishib, tillarini osiltirganicha, menga hayron bo‘lib tikilib turaverdilar.

– Va sen to‘lig‘incha besh daqiqa o‘tirdingmi? – so‘radi Seredinskiy.

– Besh emas, yetti daqiqa o‘tirdim.

– Nega?

– Shuning uchunki, suratkash ahmoqlik qildi. U qanday bo‘lmasin, bir sherni yon tomondan, o‘zi aytishicha, juda noyob tarzda suratga olmoqchi bo‘ldi. Sher qurmag‘ur bo‘lsa, o‘tira qolmaydi, nuqul tikka qaragani-qaragan. Nima, ishonmayapsanmi? Ertaga senga suratlarini ko‘rsataman.

Igor xaxolab kulib yubordi.

– Shunchalar yolg‘onchimisiz, Lyubimov, – dedi Nina.

– Nina Borisovna, – dedi Lyubimov tantanavor ohangda, – yolg‘on gapirayotganim yo‘q. Ana shu sherlar tufayli mansab-martabaga erishdim. Shu voqeadan so‘ng meni «Ko‘k jurnal» muharrirligiga taklif etishdi.

– Aft burishtirish bo‘yicha butunrossiya tanlovini sizning jurnal o‘tkazganmidi? – so‘radi Nina.

– Ha, mening jurnalim.

– Goremikinining yuziga o‘xshash kartoshka surati sizning jurnalningizda chop etilganmidi? – so‘radi Rogovin.

– Mening jurnalimda, hamma-hammasi menikida. Bizda undan zo‘rroqlari ham bo‘lgan. Bir vaqtlar paxmoq soqolli emizikli bola va eshak quloqli kuchukcha suratini chop etgandik.

Igor yana xaxolab yubordi.

– Bor, uxla, Igor, – dedi qat‘iyat bilan Semyonov. – Hozir kulgiga to‘yasan, so‘ngra tunda yig‘lab chiqasan.

Igor qizarib ketdi, «xayrli tun» dedi va qo‘shni xonaga chiqdi. Eshik ortida u yana bir bor hiringladi. Choy ichib bo‘lgach, torgina yo‘ldan Serebryanka daryosi tomonga ketdik.

– «Telba shamol yelar Trapezund tomon», – kuylay boshladi Seredinskiy va qichqirib yubordi:

*Mallasoch dengizchi,
Yovqur, navjavan,
Go‘zal Odessani tark etayotir...*

– U yog‘ini bilmayman. Jin ursin! Shunaqa ashulachalarni hech eslab qololmayman-da.

– Men bilaman, – dedi kulimsirab Natasha:

*Unutmagil, ketar bekorga
Ko‘ngil bermoq ikki dildorga.*

– Yondi, yondi o‘ynaymiz! – yovvoyi tovushda qichqirdi Lyubimov. – Rogovin, odamlarni joy-joyiga qo‘yib chiq. Men yon-yapman.

Seredinskiy va Natasha birinchi bo'lib chopib borishardi. Sere-dinskiy o'rmonga tashlandi. U butalarni sindirib, oh-voh qilar, qichqi-rar, butoqlar yuzini timdalab tashlagandi.

Ulardan keyin men va Nina yugurardik. Undan ancha o'zib ket-dim, Nina menga yetib olib, halloslaganicha o'zini qo'llarimga tash-ladi. Mayin mato ostidan uning issiq sonlarini his etdim, qizning na-fasi yonoqlarimga urildi. Natasha yonimizga yugurib keldi.

– Nina, seni ushlab olgandim, yulqinib qochding. Bunday qilish yaramaydi. Bor, yongin yana.

– Shundoq ham butun vujudim yonyapti, – dedi Nina. – Yetar. Endi yugurolmayman.

– Mayli, bo'lmasa, to'nkaga o'tirib tur. Nafasingni rostla.

Natasha qo'limdan ushlab, barmoqlarimni shunchalar qattiq qisdi-ki, suyaklari qisirlab ketdi. Men qichqirib yubordim.

– Qo'lingiz qattiq, – dedi u shivirlab. – Bolakayning nimjon qo'li. Joningiz og'ridi. Yana bu kishi dengizchi emishlar.

Qo'limni tortib oldim.

– Qorong'ida yugurish qiyin. Yetar endi! – qichqirdim men. – Ro-govin! Bas qilinglar.

– Xo'p, mayli, – javob berdi Rogovin. – O'yin to'xtatiladi. Yo'lda davom etamiz.

Qo'lim simillab og'rirdi. Gugurt chaqib, tamaki tutatdim. Bar-mog'imda chuqur tirnoq izini ko'rdim. Qon sizib turgan yarani ro'molcha bilan bog'ladim.

Semyonov bilan yonma-yon yurib borardim. U Rozanov haqida nimalardir der, men eshitolmay, poyintar-soyintar javob qilardim-da, qorong'ilikda qizarib ketardim. Rogovinni hoziroq jo'nab ketishga ko'ndirish kerak. Soat ikkida poyezd bor, shekilli.

Daryo yaqinida qirg'oqqa o'tirdik. Qarag'aylar shundoq, o'zan uzra yuksalishgan, suv ildizlarni yalab, sharqirab oqardi. O'rmon uzra yashin chaqnadi. Hamma jim edi.

– Siz, aftidan, qo'lingizni yaralabsiz? – so'radi Natasha

– Ha, men, aftidan, sizni ham qonga bo'yadim.

– Qanaqasiga? Qanaqa qon?

– Shunaqasiga, juda oddiygina qon.

– Ko'ramiz, – dedi Semyonov va gugurt chaqdi. – Qara, Natasha, kafting shundoq qonga belangan. Yomon to'qnashibsizlar, – dedi u

menga. – Qarang, ro‘molcha butunlay ho‘l bo‘libdi. Shoxga urilgan-siz, shekilli. Bunaqa narsalar bilan hazillashmang. Yaxshilab bog‘lash kerak.

– O‘yin burnimizdan chiqdi, – dedi Seredinskiy. – Men butun basharamni dabdala qildim. Maksimov qonga belanibdi. Qaysi ahmoq kechasi «yondi-yondi» o‘ynaydi?

Natasha yonimga keldi.

– Keling, qo‘lingizni bog‘lab qo‘yaman.

– Keragi yo‘q, – dedim qo‘rslik bilan. – Xudo haqi, keragi yo‘q. Nega hammalaring hovliqib qoldinglar. Arzimas yara-ku!

Butun osmon bo‘ylab yashin chaqnadi, momaqaldiroq bo‘g‘iq gumburlab, daryoda baliq og‘ir shalopladi. Darhol jimlik cho‘kib, qorong‘u bo‘lib qoldi.

– Hozir yomg‘ir yog‘adi. Ketdik. Aks holda, qorong‘ida shalabbo bo‘lamiz.

Yana chaqmoq chaqnadi, momaqaldiroq aniqroq, uzundan uzoq gumburladi, o‘rmon shovqin solib, shamol esa boshladi.

– Rogovin, – so‘radim men, – hozir Moskvaga poyezd bormi?

– Bor.

– Nima, aqldan ozdingizmi? – qichqirdi Nina. – Tunda, yomg‘ir ostida, boz ustiga, qonga belangan qo‘l bilan Moskvaga borib bo‘ladimi?

– Sizlarni ketishga qo‘ymayman, – dedi Semyonov. – Hamma menikida tunaydi. Uyga sig‘ishmaymiz, u yerda Lyubimov, Igor va enagani qoldiramiz. O‘zimiz esa bedaxonaga boramiz, u yer quruq, issiq.

Qaytishda Natasha bir og‘iz ham gapirmadi. Rogovin harsillab nafas olar, yomg‘ir hidini sezyapman, derdi. Yashin vahimali chaqnar, qarag‘aylarning uchlari shovullar, momaqaldiroq shundoqqina boshimiz tepasida gumburlardi.

– Zo‘r! – qichqirdi Rogovin. – Tunda o‘rmonda momaqaldiroq gumburlaydi. Sezyapsizmi, qarag‘ay hidi anqiyapti, juda ajoyib-da. «Nikohimiz ibodatxonada o‘qilmagan, mulla-yu imom ham, toj ham yo‘q edi», – past tovushda kuylay boshladi u.

Bir necha tomchi yomg‘ir tushdi, so‘ng hammayoq jimib, havo dim bo‘lib qoldi. Bog‘-hovlidagi ayvonda Natasha bir so‘z ham aytmay, yaramni bog‘lab qo‘ydi. Qo‘lim shishib ketgandi, yod yarani

ich-ichigacha kuydirib yubordi. Men jim turaverdim. Natasha sovuq qora ko'zlarini menga qadadi.

– Qichqirib yuborishimni kutyapsizmi? – dedim unga.

– Yo'q... Fikrimcha, yarani ifloslantirib qo'yibsiz.

– Aftidan, tirnoqlar hamma vaqt ham toza bo'lavermas ekan-da.

– Naqadar bema'nilik, – dedi u orqasiga o'girilib. – Bema'ni va hech bir qizig'i yo'q. Siz ahmoqona gaplarni valdirayapsiz, men ham. Nima keragi bor?

Sharros yomg'ir quyay, tomchilar zina yonidagi ko'lmakda shaloplar, o'rmon ortida, olis-olislarda zangori chaqmoqlar yalt-yult etardi.

Tungi uchrashuv

Semyonov bedaxonaga gilam to'shadi. Biz yomg'ir ostida navbatma-navbat o'sha yerga yugurib o'tdik. Bedaxona qop-qorong'i, issiq, shundoq, boshimiz ustida yomg'ir tomni nog'ora qilib chalardi. Dera-zadan semaforning olis shu'lasi, o'rmon, bulutlar yirtig'i aro yulduzlar ko'rinib turardi.

Qo'lim shishib ketgan, qattiq lo'qillar, beda ustida kunlab, haftalab yotgim kelardi. Yomg'ir yanada kuchaydi.

Seredinskiy asta kuylay boshladi:

Biz hech qachon bir-birimiz sevmagan edik,

Dengizda juft kemalardek ajrashdik-ketdik.

– Qarang-a, eski bir romansda shunchalar aniq timsol bor, – dedim Semyonovga. – «Dengizda juft kemalardek ajrashdik-ketdik». Siz kemalar tunda bir-birining yonidan qanday o'tib – ajrashib ketishini bilasizmi? Bu juda qayg'uli manzara. Faqatgina yoningizdan suzib o'tib ketayotgan xira chiroqlarni ko'rib turasiz. U yerda kimlar bor, qayoqqa ketishyapti – noma'lum. Hamma uzoq tikilib turadi, chehralar g'amginroq, jiddiyroq tus oladi. Dengizchilar, tungi uchra-shuvlardan yurak hapriqib ketadi, deyishadi. Bir darg'a ana shunday uchrashuv haqida hikoya qilgandi.

– Aytib bering, – iltimos qildi Rogovin. – Yomg'ir allasi ostida eshitish juda maroqli.

– Boshlanishi juda oddiy. U sevib qoladi. Lekin bu odatdagidek, bandargohdagi ikki kunlik sevgi emas, sevilgan ayolning eri bor edi. Darg‘aning aytishicha, ayol bag‘oyat go‘zal ekan.

– Tushunasizmi, – derdi u, – ayolni birinchi bora o‘zinning islig‘i chiqqan yuk kemam sahnida ko‘rganimda badanimga titroq kirdi. Kemamiz Batumida turar, endigina Vladivostokdan qaytgandik. Juvon yonimga keldi-da, shunday dedi:

– Bilishimcha, kechqurun Suxumiga jo‘narkansiz. Meniyam ola keting. Erta ertalabgacha boshqa kema yo‘q, men esa iloji boricha tezroq Suxumiga yetib olishim kerak. Xudo haqi, ola keting. Yo‘l haqini to‘layman.

– Yuk kemalarida biz yo‘l haqi olmaymiz, – dedi darg‘a. – Ko‘rib turibman, siz uchun Suxumiga borish juda zarur. Bizda alohida bo‘lmalar yo‘q, lekin kechasi, to Suxumiga yetguncha men navbatchilik qilaman, sizga o‘z o‘rnimni bo‘shatib berishim mumkin.

Juvon uyalib, qizarib ketdi.

– Hechqisi yo‘q, – dedi darg‘a, – xona ichidan qulflanadi.

– Men sizni hech ham... Lekin o‘rningizni egallagani uyalaman. Siz soat sakkizda jo‘nab ketasiz, ertaga choshgohda Suxumida bo‘lasiz, nahot, navbatchiligingiz o‘n olti soat davom etsa?

Endi qizarish navbati darg‘aga keldi. Juvon dengiz tartib-qoidalaridan xabardor edi.

– Ahamiyati yo‘q, – g‘o‘ldiradi u, – o‘z xonamni sizga bo‘shatib berishdan g‘oyat shodman. Hatto shod ham emas, balki, shu jin urgur kulba umrida aqalli bir marta bo‘lsin, yosh ayolga xizmat qilishidan baxtiyorman.

Darg‘a beparda gap aytganini angladi, yana qizarib ketdi va jimib qoldi.

Bir soatdan so‘ng ayol kemaga qaytib keldi. Uning kichkina jomadonchadan bo‘lak hech nimasi yo‘q edi. Ehtiyotkorona savol-javoblardan so‘ng ma‘lum bo‘ldiki, uning eri muhandis, hozir Suxumida ekan. Botsman Gnedyuk dengizchilarga shunday shivirladi: «Naq Afrika qirolichasining o‘zi-ya, naq qirolicha». Xuddi qop-qora ajinalardek bo‘lib go‘laxlar xonalaridan chiqib, unga tikildilar. Darg‘a yordamchisi Yermolenko hayratdan gung-u lol bo‘lib, aroq ichgani bo‘lmasiga kirib ketdi.

– Tushunasizmi? – derdi darg‘a, – biz go‘yoki, go‘zal Eleonora Duze¹ yonimizga keldi, deb o‘yladik. Men Eleonorani Odessada bir martagina ko‘rgandim.

Batumidan jo‘nab ketdik. Yashil burundan o‘tganimizdan so‘ng, tun cho‘kdi, dengiz sokin, mashinalar gurillab ishlar, dengizchilar xobgohga kirib ketishgandi. Shu asnoda ayol darg‘a ko‘prikchasiga ko‘tarildi.

– Shu yerda biroz tursam maylimi? – so‘radi u.

– Marhamat.

– Sizga xalaqit bermaymanmi?

– Yo‘q, qo‘ysangiz-chi! Ko‘ryapsizmi, bu yer xuddi xonadek sokin.

Ayol uzoq sukut saqladi. So‘ng shunday dedi:

– Mendan achchig‘ingiz kelmasin, lekin sizni aldadim. Tanho bo‘lish, hech kimni ko‘rmaslik uchun Suxumigacha yuk kemasida ketgim keldi. Bu – borib turgan tantiqlik, sizga yuzsizlarcha yolg‘on gapirdim.

– Ammo bu yerda ham yolg‘iz emassiz.

– Sizni hisobga olmaymiz, – dedi ayol. – Suxumiga jo‘nashingizni o‘zingizdan bilib oldim. Bu haqda qahvaxonada kema agentiga aytdingiz. Men soyada o‘tirardim, gaplaringizni eshitdim, xayolimga shunday fikr keldi. «Ana, chehrasi ochiq darg‘a, u meni Suxumigacha olib ketadi. U andishali odam bo‘lishi kerak, iltimosimni rad etmaydi». Men haq bo‘lib chiqdim.

Uzoq sukut saqladik.

– G‘arb tomonga ikki rumb, – dedim rul boshqaruvchiga.

– Xo‘p bo‘ladi! G‘arbiga ikki rumb!

– Shunday tutilsin!

– Xo‘p bo‘ladi! Shunday tutaman!

So‘ngra men ehtiyotkorona, lekin qat‘iy so‘rab-surishtirishlarga tob berolmay, ayolga o‘z hayotim haqida hikoya qildim. Hali gardamarin paytimdayoq, ofitserga tarsaki tushirganim uchun, dengizchilar qo‘shilmasidan haydashganini, juda og‘ir maktabni o‘taganimni: greklarning shaloq katerlarida shogird, rus va fransuz yelkanli kemalarida dengizchi, yozuvchi Styuard darg‘alik qilgan inglizlar

¹ Eleonora Duze – italyan teatr aktrisasi.

ko'mir tashuvchi kemasida ofitser vazifalarini ado etganimni aytib berdim.

– Styuard mening qalbimda kitobga ishtiyoq uyg'otdi. Tinmay o'qidim, Osiyoni o'rgandim va hatto, kitob yozdim. Bu kitobni Hind–Xitoy qirg'oqlari yaqinida kemalar qatnovi uchun qo'llanma desa ham, turmush, bo'ronlar, chegaradan yashirincha mol-ashyo o'tkazish, malayyaliklar va af'yun haqida ocherklar desa ham, bo'laveradi.

– Siz g'alati kishisiz, – dedi ayol. – Dunyodagi eng yaxshi ikki kasb – dengizchilik va yozuvchilikni birato'la egallagansiz. Aytingchi, biror kishini sevganmisiz?

– Yo'q, sevmagan bo'lsam kerak, – javob berdim uyalib, – bilasizmi, doimo dengizda suzaman, ayollarni faqat sohilda ko'rganimdan keyin....

– Siz uchun kechirarli bu hol. Bo'ydoqsiz, doimo yolg'izsiz. Mana, men bo'lsam, erkaklar orasida yuraman, erim ham bor, lekin hamon sevmaganman.

Suhbat tun bo'yi davom etdi. Men ayol yolg'iz, eriga begona ekanini angladim. Uning past ovozi, haroratli so'zlari qunduz mo'ynasidek yoqimli siypalardi. Go'zal yo'lovchi Suxumiga yetay deb qolgandagina bo'lmaga kirib ketdi...

Kema Suxumida langar tashladi. Darg'a ayolning qayiqqa tushib olishiga ko'maklashdi. Suv yuzida yashil, quvnoq mavjlar o'ynar, oppoq shahar, xurmolar va tog'lar sershovqin bandargoh uzra chayqalardi.

– Sizni yana ko'rish istagim bor, – dedi ayol xayrlashayotib.

Bir soatdan so'ng Suxumidan jo'nab ketishdi. Darg'a o'z bo'lmasiga kirdi. Xonadan atirning bilinar-bilinmas toza hidi kelar, karavotdagi yostiqlik sal g'ijimlangan – ayol shunda uxlagandi. Stolda, dengiz xaritasining teskarisiga maktub bitilgan edi.

«Rahmat sizga! Suxumida hech tushgim yo'q. Siz bilan bir-ikkil yil suzsam ham mayliga edi. Chunki ko'nglingiz ochiq, xuddi yaqin kishimdek gaplashdim, ajoyib o'rtoqsiz, Xayr».

Sevishingni, bir martagina, bedavo dardga yo'liqqanday sevishingni bila turib, bunday maktub olish, juda og'ir zarba, albatta.

U kemani izga qaytarib, yana Suxumi sari yo'l solmoqchi ham bo'ldi, lekin o'zini qo'lga oldi. Odessadan Batumiga jo'nadi. Darg'a

o'zida yo'q shod edi. Lekin Taraxankut yonida tungi uchrashuv so-dir bo'ldi. Batumidan Odessaga yo'l olgan «Polluks» chiroqlarini charaqlatgancha yonlaridan o'tib ketdi. Ba'zan tungi uchrashuvlar ko'ngilga g'ashlik soladi. Darg'aning yuragi zirqirab ketdi. U chiroqlar zamin adog'i, dengiz zulmati qa'riga qulab tushguncha bo'liqqa tikilib turaverdi.

Suxumidan maktub muallifini topa olmadi, Batumida ham xuddi shunday bo'ldi. U Vladivostokka, so'ngra Mariupolga jo'nadi va oradan bir yil o'tgachgina, yana Odessaga keldi.

Kemachilik boshqarmasida qo'lga bir dasta xat tutqazishdi. U maktublar orasidan tanish dastxatli ensizgina jild topib oldi. Darg'a bo'lmasini ichdan qulflab, maktubni o'qib chiqdi. Quyosh shivillagancha dengizda so'nib ketdi, bo'lma sahni xuddi dovul paytidagidek chayqalardi.

Maktubda shunday so'zlar bitilgan edi:

«Erim bilan orani ochiq qildim. Suxumidan jo'nab ketganingizdan keyin, ikki kun o'tgach, «Polluks»ga o'tirdim-da, ortingizdan Odessaga yo'l oldim. Shunday bo'lishini siz o'shandayoq sezishingiz mumkin edi. Bu sevgi xuddi bo'rondek birdan bostirib keldi. Birdan keldimi, demak, bir umrlik. Siz haqingizda o'ylaganlarimning hatto mingdan birini ham aytib berolmayman. Maktub yozishga jur'at qilolmadim. Meni sevasizmi-yo'qmi, buni ham bilmayman. Agar sevsangiz, Moskvaga javob yozing (manzil ilova qilingandi). Men bir oy, ikki oy... yo'q, uch oy kutaman. Agarda sevmasangiz, javobning hojati yo'q. Yuragim qanchalar quvonchga to'laligini bilsangiz edi. Ozod va erkinman, sizni – aziz, uyatchan darg'amni sevaman».

Darg'a Moskvaga jo'nadi. Ayolni u yerdan topolmadi, yarim yil kutgach, Amerikaga, opasinikiga ketganini bilib oldi. Bir amallab, Nyu-York safari uchun ruxsat oldi. Nyu-Yorkda kemasini bandargohda qoldirib, butun mamlakatni kezib chiqdi, so'ngra Batumiga qaytdi. Batumiga yetib kelguncha, yo'lda kemalarning tungi uchrashuvlari chog'ida u hushdan ketib qolardi. Ayol uni avvalgidek izlayotganday, umr bo'yi uchrashmay, ajrashib ketadiganday tuyulardi.

Men darg'a bilan Batumida tanishdim. U har bir kemani kutib olish uchun bandargohga kelar va ko'pincha mast bo'lardi.

– Shu bilan tamommi? – so'radi Natasha

– Tamom.

– Esizgina... Siz hozir o'sha darg'aga nima bo'lganini bilmaysizmi?

– O'tgan yili u Kerch va Feodosiya oralig'ida kemalarning tungi uchrashuvi paytida o'zini «Truvor»dan dengizga tashlab, cho'kib ketgan.

Hamma jim, yomg'ir tomni chertmoqda edi.

– Eh, – dedi Rogovin. – Bezovta qilib qo'ydingiz meni. Boz ustiga, shilta ob-havoni aytmaysizmi. Ana buni g'ussa deydilar.

Natasha og'rigan qo'limni olib, ushlab ko'rdi va shunday dedi:

– Naqadar tentakman-a, tentak, tentak... Siz meni juda yomon ko'rsangiz kerak.

– Juda ajoyib, – dedi Semyonov uzoq sukunatdan so'ng. – Moskovcha, qo'lbola yomg'ir shovqin solgani-solgan. Chor atrofdan Rossiya yastanib yotibdi va birdaniga bunaqangi g'amgin hikoya. Sizdagi yurak harorati, junun biznikiga sira o'xshamaydi, Maksimov. Allambalo, jin-ajinalar siyog'i bor tabiatingizda.

Abadiy shahar

Diqqinafas yoz boshlandi. Kunlar jazirama ta'siridan kulrang, oqshomlar qontalash va tumanli edi. Dengiz tomonga, Xadichaning yoniga borishga qaror qildim-da, tahririyatdan ta'tilga chiqdim.

Jo'nab ketishimga bir kun qolganda, huzurimga Semyonov keldi. Kechqurun u bilan Neskuchniy bog'iga bordik. Bu yer juda salqin, Moskvaga qaytgimiz kelmasdi. Biz qorovullardan bekinib, tunni bog'da, Yelizaveta shiyponida o'tkazdik. Moskva uzra shafaq yalig'lanar, daryoda motorli qayiqlar shuvillar, ayollar kulgisi, eshkaklar g'ichirlashi eshitilardi. Onda-sonda Okrujnaya ko'prigidan gumburlab poyezd o'tib qolardi. Zangori zulmat aro yulduzlar nur sochardi. Jiqqa ho'l oqshom edi.

Biz shiyponning serbar so'rilarida uyquga ketib, tongda uyg'ondik. Suyultirilgan oynaday musaffo daryo uyquda edi. Cho'milib olganimizdan so'ng qirg'oq yoqalab, Qrim ko'prigiga qarab ketdik.

– Moskvani hech nima bilan mahv etib bo'lmaydi, – dedi Semyonov. – Uning mohiyatini, asosini, qalbini yo'qotish mushkul. Minglab g'ulg'ula, ostin-ustunlar Moskva chehrasiga yana bir ajin

solishi mumkindir, lekin mahv etolmaydi. Kreml va yer osti temir yo'llari, Boris Godunov va Stanislavskiy, vokzallar va Zamoskvo-rechening qari arg'uvonlari, futuristlar va bulbul navosi ixlosmandlari jamiyati baribir, yonma-yon yashayverishadi. Moskva – xuddi Rim va Parij singari abadiy shahar. U, Parij buyuk o'zgartishlar, qatllar va ko'tarilishlardan uzoqroq yashagani kabi, avlodlar, davrlar, g'oyalardan ko'ra ko'proq umr ko'radi. Men Danton haykali oldida doim Mimi va Floberni yodga olaman, Parijdagi ijodiyotning abadiy ko'tarilish va pasayishi haqida xayolga cho'maman. Avliyo ona ibodatxonasi, kommunarlar qo'zg'olonini, Gyugo, Pikassoni tasavvur eting.

Moskva ham xuddi shunday. U yong'inlar va inqiloblar, buyuk urushlar va qo'ng'iroq bonglari, isyonlar va pushaymonlar, xalq harakatlari ummonlari, tahqirlanish va dilgirliklarni boshdan kechirib, metindek toblanadi hamda o'zining bundan yuz chandon go'zal qiyofasini saqlab qoladi. Asrlar, madaniyatlar dovonida abadiy shahar Moskva qiyofasi, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi, unga butun Rossiya, insoniyat sajda qilgusidir. Biz misli ko'rilmagan uyg'onish davriga qarab bormoqdamiz.

Semyonovga meni Ovrupo madaniyati halokati haqidagi fikr anchadan buyon tashvishlantirayotganini aytdim. Ijodiyot to'xtaydi, yozadigan mavzu qolmaydi, hech kim yangi, salmoqli so'z aytolmaydi. Chiroqlar o'chadi, yo'llar bo'shab qoladi, uylardagi deraza oynalari sovuqdan yorilib ketadi, eng sara, dono kishilar xayolida o'zining endi sariq chaqaga arzimaydigan jonini saqlab qolishdan o'zga tashvish bo'lmaydi. O'shanda Moskva omon qolarmikan?

– Bu bema'nilik, – dedi Semyonov qat'iy ishonch bilan. – Bunday bo'lishi mumkin emas.

Men o'z fikrimni tushuntirdim. Nafaqat odamlar, balki xalqlar, butun insoniyat halok bo'ladi. Bu biologik qonuniyat. Insoniyat qartayishi, yoshlikdan judo bo'lishi, chaqaloqqa aylanishi, qoni uyushishdan to'xtab qolishi mumkin. Bu halokat dahshati qay tarzda ro'y berishini tasavvur etolmayman, lekin menimcha, insoniyat tez orada aqldan ozsa kerak. Dunyo tamom bo'lishi, qiyomat qoyim haqidagi afsonalar aynan, Ellada, Rim buyuk madaniyati, ajoyib haykallar va jarangdor ash'or halok bo'lganda yaratilgan.

– Quloq soling, – dedi Semyonov. – Siz davolanishingiz kerak. Hatto, qiyomat-qoyim to‘g‘risida gapirishgacha borib yetdingiz. Siz yo ko‘p aroq ichasiz, yoinki qattiq charchagansiz. Tez-tez cho‘milib turing.

– Gap shundaki, ertaga bunga mutlaqo qarama-qarshi fikrlarni bayon etishim mumkin.

– Tentak, – dedi Semyonov. – Sizga, aftidan, haqiqat emas, fikrlar rivojigina yoqadi. Timsollar yordamida fikr yuritasiz va hech qachon ularni mantiqqa bo‘ysundirishga intilmaysiz. Agarda Kant, misol uchun, o‘zining noaniq fikrlarini roman tarzida bayon qilganida, nima bo‘lardi? Noyob safsata-da!

Nikoh

Jo‘nab ketishim arafasida, kechqurun, xayrlashish uchun Semyonovnikiga bordim. Uyda hech kim yo‘q edi.

Qari enaga Nikitishna ko‘zoynagi ustidan menga mehribon nazar tashlab, shunday dedi.

– O‘zimning lochinginam. Ko‘pdan beri seni ko‘rganim yo‘q. Natashadan har zamonda so‘rab turaman, negadir, dengizchimiz ko‘rinmay qoldi-ku? – deb.

– Nega meni dengizchi deb atagansiz?

– Qo‘lingda mana bu belgi, langar bor. Jiyanim Kronshtadt shahrida xizmat qilardi, ana o‘shaning ko‘kragida ham shunaqa belgi bor edi. U xudobexabarning ko‘ksida xoch o‘rnida langar chizilgandi. O‘tirib tursang-chi.

Men Semyonovning ish bo‘lmasiga o‘tdim-da, divanga cho‘zildim. Mahobatli osmonda yakka-yolg‘iz yulduz yonib turar, shafaq Kreml ortidan elas-elas ko‘zga tashlanardi. Tokchadan duch kelgan kitobni oldim-da, ochib o‘qidim:

*Jarlikda qariqiz asta shivirlab,
Ryabina boshini etganida xam.
Go‘zal va o‘tkinchi dunyo haqida
Quvnoq va o‘ynoqi she‘rlar bitaman.*

Ertaga Sevastopolga, Xadichaning huzuriga jo‘nashim yodimga tushdi. Oq shahardagi tunni esladim. O‘shanda Stashevskiy betob

edi, Moskva menga tushday bo'lib tuyulgandi. Xonada yengil shamol daydir, cherkovlarda sekin-asta bong chalinaradi.

Kimdir yuzimga qattiq tikilishidan uyg'onib ketdim. Qarshimda iyagini qo'llariga tiragan Natasha tiz cho'kib o'tirar, qorong'ida yuzini ko'rib bo'lmasdi.

– Rostdan ham, ertaga jo'nab ketyapsizmi? – so'radi u va o'rmidan turdi.

– Ha, rostdan. Siz qachon keldingiz?

– Yaqindagina. Eshikni o'z kalitim bilan ochdim, ichkariga kirdim, so'ngra sizga ko'zim tushdi. Men hatto, qo'rqib ketdim.

– Semyonov qayerda?

– Bog'-hovlida. U ertaga keladi.

Qiz deraza yoniga borib, tokchaga o'tirdi. Men o'rnimdan turdim.

– Qayoqqa borasiz? – so'radi Natasha.

– Sevastopolga.

– Demak, o'sha yoqqa, uning huzuriga. Yo'q, yo'q, men negadir bo'lmag'ur gaplarni aytyapman. Lekin nega bunchalik barvaqt ketyapsiz, endigina may oxirlyapti-ku...

Chiroqni yoqmoqchi bo'ldim.

– Keragi yo'q, – dedi Natasha keskin.

Deraza to'rtburchagi aro turgan Natashaga tikilardim, xuddi o'shanda, teatrdagi singari, yosh ayol yaqinligidan boshim aylanib ketdi.

– Maksimov, – dedi Natasha, men seskanib ketdim, uning ovozi juda bo'g'iq edi. – Maksimov, jonim, siz odamlarni har doim shunday qiynaysizmi? Hatto Arxangelskda ham sizga hamma gapni aytmagandim. Endi bilib qo'ying. – U yana jimib qoldi. So'ngra kulib yubordi. – Esingizdami, tungi uchrashuvlardan yurak hapriqib ketadi, deya hikoya qilgandingiz. Dengizchilar bizdan yaxshiroq gapira oladilar. Men juda ko'p ahmoqliklar qildim. Shunday narsalar borki, ularni moxov yarasidek, kuydirib tashlash kerak. Lekin bunday qilish qo'limizdan kelmaydi, ularga yopishib olamiz, hayotimizni abgor qilamiz.

– Qanaqa narsalar ekan?

– Misol uchun, mag'rurlik. Munosib tuyg'u, shunday emasmi? Yoki uyatchanlikni olaylik. Xafa bo'lish, kek saqlash hissi ham bor.

E, aytaversak, ahmoqona tuyg'ularning son-sanog'i yo'q. Kitobni yozib bo'ldingizmi?

– Yozib bo'ldim.

– Bu kitobni, – dedi Natasha asta-sekin, xotirjamlik bilan, – butun dunyoda – eshityapsizmi? – butun dunyoda faqatgina men bilishim kerak edi. Faqatgina men!

– Nega?

– Chunki bu kitob meniki! – qichqirdi Natasha va o'rnidan turdi. – Chunki siz hamma gapni juda yaxshi bilasiz, lekin qo'rqasiz. Ehtimol, biz tomonga shunchalar mahobat bilan bostirib kelayotgan narsadan qo'rqish ham kerakdir, ehtimol, siz haqdirsiz, lekin men buni bilishni istamayman.

U divanga o'tirib, yig'lab yubordi, so'ngra o'zini bir amallab qo'lga oldi-da, uzoq sukut saqladi.

– Mening ko'z yoshlarimni siz va qari enagadan bo'lak hech kim ko'rgani yo'q. Hech kim. Hatto akam ham. Sizni anglash qiyin. Sizga kelganda g'ururimdan nom-nishon qolmaydi. Bu shundayin bir dardki, xuddi yuragim sug'urib olinayotganday. Nega bunaqasiz? Nega axir? O'sha dengiz sohilidagi qiz haqida, u yerda bo'lgan voqealar to'g'risida necha kunlar o'yladim. Uni sevasizmi, Maksimov?

Men indamadim.

– Sevishingizni bilaman. Unga butun borlig'ingizni baxshida etgansiz, menga esa hatto, bir og'iz so'zingiz ham qolmagan. Biror nima deng, axir. «Bular arzimas hodisa, sen tantiq qizsan, men bilan hech qachon uchrashmasliging kerak», deng, Maksimov, jonim, keyin esa keting. Ehtimol, hammasiga chiday olarman.

– «Yo'q», deya olmayman, buni istamayman ham, – javob berdim men va qizning qo'lidan ushladim. – Siz borsiz, u ham bor. Undan olisda ma'naviy darmonsizlikdan, g'alati tanholikdan sekin-asta halok bo'laman. Hayotda biz ikki kishimiz. Bir-birimizning qo'limizdan mahkam ushlab turibmiz. Siz bo'lsangiz... – men gapirishdan to'xtadim. – Qalbimni yakson qildingiz, sizga qarasam boshim aylanadi, yuragim urmay qoladi. Yuzimdan qon qochadi. Menga yetkazayotgan aziyatingizni vujudimda tuzalmas yara singari olib yuraman...

– Natasha – dedim sekingina va qalbimda allanima xuddi Arxangelskdagi singari olis bir faryod bilan uzilib ketganini his etdim. – Shu choqqacha sizni sevish-sevmasligimni bilmaysiz. Men

g'ayrīshuuriy ravishda sevaman. Bir umr sizni qo'msab yuraman. Lekin biz hech qachon yonma-yon yashab, turmush tashvishlarini baham ko'rolmaymiz.

– Nega? – shivirladi Natasha

– Agarda birga yashasak, men o'z-o'zimni halok etaman. Siz meni butunlay istilo etasiz, bor kuchimni olasiz. Men boshqa kishi bo'lib qolaman. Siz-u menga o'xshagan odamlar yonma-yon yashamasliklari kerak.

U yelkalarimdan qattiq quchib, o'ziga tortdi. Qizning entikib-entikib nafas olishini sezib turardim.

– Nahotki bularning hammasi rost bo'lsa? – Natasha baland tovushda kulib yubordi. – Demak, yuragingizga meniki singari haqiqiy sevgi mehmon bo'libdi. Har ikkimiz buni anchadan buyon bilardik. – U egilib lablarimdan o'pib oldi.

Tun olis gumburlash yanglig' yugurgilab ketdi.

– Faqat sizga, – shivirladi u ko'zlari sevinchdan yarqirab, – faqat sizga borimni, borlig'imni, hayotimni baxshida eta olaman. Bu naqadar yaxshi. Sizdan bolam, kichkinagina o'g'ilcham bo'lishini istayman. Qachonki, meni tark etsangiz, u o'g'limiz ekani, unda ikkimiz mujassamligimizni bilib turaman va yengil tortaman.

Moskva uzra visolimizning tuman va sukunat og'ushidagi ilk tongi yuksaldi. Ayol nafasining iforidan go'zal, yoqimli azob tuyardim.

Saharlab Pyatnitskiy ko'chasiga chiqdik. Yo'l-yo'lkalalar shabnamdan ho'l edi. Balchugada mashina yolladim. Haydovchi qalpog'ini burniga tushirganicha mudrab o'tirardi.

– Arbatga, u yerdan esa Saritsinoga haydang, – dedim unga. – Biz Sevostopol poyezdiga ulgurishimiz kerak.

Mashina Arbatni ortda qoldirib, jiqqa ho'l xiyobonlar yoqalab, kimsasiz chorrahalarda du-dutlaganicha ko'priklar tomon yela boshladi. Kremlning oltin qubbalari, sut rangidagi daryo, sabzavot hidi anqib turgan botqoq, Zamoskvoreche hovlilari, temir yo'l ko'priklari, mayxonalar, Serpuxovo tosh yo'li mashina oynasidan «lip-lip» o'tib turardi. Dalalarda ko'ksimizga shamol urildi.

Saritsinoda poyezd bir daqiqa turar ekan. Ko'zlari yoshga to'la Natasha meni quchdi, lekin bir og'iz ham gapirolmadi. U boshdan oyoq quyosh nurlariga chulg'angan holda poyezd ortidan tikilib turardi.

Men uxlab qoldim, tush ham ko'rmadim, Oryol shahriga yetib kelganimizdagina uyg'ondim.

Janub poyezdi

Xarkovdan o'tganimizdan so'ng, cho'llar boshlandi. Diqqinafas vagonda oynalardan qaytgan quyosh aksi yugurgilar, chang oltin devor yanglig' ko'chib yurardi.

Ertalab poyezd Sinelnikovo bekatida uzoq to'xtab qoldi. Keng tanobiy xona yorug' va zerikarli, sun'iy xurmo daraxtlari jazirama issiqdan qurib qolgan, sarg'imgir suv to'ldirilgan shisha idishlarni chang bosgandi.

Sut, gilos, non sotuvchi sergap ayollar tillarini taqillatib javrashar, uchinchi darajali vagon yo'lovchilari choynak ko'tarib yugurib yurishardi.

Vagonga qaytganimdan so'ng nazoratchi mendan so'radi.

– Maksimov, siz bo'lasizmi?

– Men.

– Sizga Moskvadan telegramma bor. Poyezd ortidan jo'natishibdi.

Men telegrammani oldim-da, yuqori xobjoyga chiqib, uni ochdim. Telegramma Natashadan edi.

«Iyunning oxirida o'zimiznikilar bilan yevpatoriyada bo'laman. Qrimdagi manzilingiz haqida xabar qiling. Boraman. O'zimni haddan tashqari yolg'iz his etyapman. Natasha».

«Menga nima bo'lyapti o'zi? Hammasi shunchalar aralash-quralash bo'lib ketdiki, hech nimaga tushunmayapman. O'ylab ko'rish kerak, mening esa o'ylagim kelmaydi, ruhimda qandaydir kutilmagan yengillik. Hayot uchalamizni ajralmas qilib, mahkam bog'ladi... Ehtimol, ikkalamiznidir?»

Vagon derazasidan boshimni chiqardim. Poyezd ulamarini jaranglatganicha, olg'a intilar, o'tish joylarida barglar shovullardi.

Maydonchaga chiqib, eshikni ochdim-u, suron solayotgan cho'lga uzoq tikilib turdim. Poyezd chang bosgan vagonlarni to'lqinlar, yetilib pishgan uzum rangidagi suv bo'yiga, ko'm-ko'k tong sari olib bormoqda edi. Men negadir, balog'at yoshidagi shu yarqiroq yozda o'zim arzimagan baxtga muyassar bo'laman, deya inondim.

Simferopolda kimdir oyog'imdan tortdi.

– Vinkler! Azizim! Qayerdan paydo bo'lib qolding?

– Seni kutib olgani keldim. Xadicha yubordi. Hozir men ham Sevastopolda yashayapman. Qani, tur o'rningdan. Bog'chasaroyda tushamiz.

– Nega Bog‘chasaroyda tusharkanmiz?

– O‘sha yerda bizni Xadicha kutyapti. Sen, og‘ayni, butunlay katta bo‘lib qopsan, ulg‘ayibsan. Xo‘sh, qani gapir-chi.

U jilmaydi. Qoramtir yuzida oppoq tishlari yarqirab ketdi. Gimnaziyada uni «Pushkin avlodi» deya ataganimiz yodimga tushdi.

Bog‘chasaroy

Bog‘chasaroy vokzalida Xadicha yo‘q edi. Biz izvosh yollab, shaharga yo‘l oldik. Quyosh tosh yo‘lni benihoya qizdirgan, gadolar – olabayroq juldur kiyimli tatarlar – chetan devorlar yoniga o‘tirib olib, manqa tovush bilan duo o‘qishardi.

Bog‘chasaroy bir to‘da qizg‘ish toshday bo‘lib, sariq dara, bog‘lar qo‘ynida yastanib yotar edi. Favvoralardan suv otilar, osmon go‘yo qora jomdek to‘ntarilib qolgandi.

Shahar devori yonidagi egri ko‘chada, chang bosgan chirmovuq orasida Xadichaga ko‘zim tushdi. U boshdan oyoq oq libosda, tez yurib vokzal tomon borardi. Qizning sochlari quyosh nurlarida oltinlanar, yuzlari bug‘doy rangini olgan, to‘q yashil ko‘zlari quvonchga to‘la edi. Izvosh to‘xtadi. Xadicha jilmayganicha qo‘lini menga uzatdi.

– Uxlab qolibman, – dedi u, qizning ovozi menga butunlay boshqacha, pastdek tuyuldi. – Uy bekasi uyg‘otishga va‘da bergandi, lekin unutibdi. Seni Bog‘chasaroyda kutib olgim keldi. Bu yer juda serquyosh, shunchalar yorug‘ki, ko‘r bo‘lib qolish hech gapmas. Yana, bu yerda odam juda kam. Xo‘p, mehmonxonaga jo‘nadik bo‘lmasa.

Biz kun bo‘yi birga bo‘ldik. Men Xadichaga Moskva haqida hikoya qilib berdim, faqat, so‘nggi kecha haqida hech nima demadim. U bir daqiqa jiddiy tortdi, so‘ngra menga nazar tashladi-da, jilmayib qo‘ydi.

Bo‘m-bo‘sh yog‘och mehmonxona hovlisidagi favvoraning muzdek suvida yuvindim. Quyosh boshimni kuydirar, suv sharillab oqar, tomchilarda ko‘m-ko‘k osmon mavjlanardi. Ko‘chadan baqqolning cho‘ziq tovushi eshilib turardi.

Uch kun burun Pyatnitskiy ko‘chasida edim, uch hafta oldin Arxangelskda, hozir esa Bog‘chasaroyda, quyosh, tog‘lar, suv og‘ushidaman. Men darbadarlikning quvonchini yaqqol his etdim.

Mehmonxonadan chiqib, qahvaxonaga bordik. Qahvaxona ayvonchasi shundoq jarlik tepasida osilib turar, dasturxonlar uzra issiq shamol esar, pastda, tekis tomlarda echkilar yurishardi.

Qahvaxona xo'jayini – qop-qora, aftidan, dovyurak kishi – qultumlab qahva ichganicha, ikki ko'rkam qariya bilan suhbatlashardi. Erinchoq baqqollar eshiklarga qarab-qarab qo'yib, tishlarining oqini ko'rsatishar, yuzlaridagi jigarrang ajinlarda ter tomchilari yaltirardi. Ho'l yerdan bahor hidi kelar, qaltiroq havo dara uzra balandga o'rlar, tamakining ko'm-ko'k mudroq tutuni dimoqni qattiq qitiqlardi.

Tushlar va quvonch torgina ko'chalar, ayvonchalar bo'ylab xuddi mo'ysafid meshkobga o'xshab, bamaylixotir kezib yurishar, baroq itlar oftobda mudrashardi. Jimitdek bolakay kichkina qo'zichoqni qo'llarida ko'tarib, qahvaxona xo'jayiniga keltirib berdi.

Loqayd qiyofali tatar yo'lboshlovchi ortimizdan ergashib, Chufut Qal'a va Pushkin qadamjosi – ko'z yoshlari favvorasini ko'rsataman, deya tiqilinch qilardi. U qahvaxona ostonasida ma'yus, sabr-toqat bilan kutib o'tirar ekan, tamaki chekar va onda-sonda tosh yo'lga tupurib qo'yardi.

Osmon, tog'larning haroratli jilvasi, suvning bir maromdagi shildirashidan uyqum kelardi.

– Biznikilar hammasi tarqab ketishdi, – dedi Vinkler. – Aleksey Kiyevga ketdi, Stashevskiy – Yuzovkaga, u zavodga amaliyotchi – ish o'rganuvchi bo'lib joylashdi. Garibaldi vafot etdi. Men, ko'rib turganingdek, shu yerdaman. Endi hech qachon hammamiz bir yerda to'plana olmasak kerak. Mana, Xadicha ham Sevastopolni bizdan afzal ko'rdi.

Choshgohda Chufut Qal'aga bordik. Qattiq o'tlar orasida jigarrang kaltakesaklar bekinib olishgan, tosh va nofarmon yovvoyi gullar orasida qo'ylar o'tlab yurishardi. Qari cho'pon tayog'iga suyan-ganicha, bizga diqqat bilan tikilib turardi. Nur va shamolga to'la yalang'och tog'larda cho'pon, qo'ylar, choshgoh sukunati hamda bizdan bo'lak hech nima yo'q edi.

Xarobalar orasida dam olgani o'tirdik. Yayla, dengiz uzra ko'm-ko'k tuman ko'zga tashlanib turardi.

– Mana o'tmish, – dedi Vinkler jarlikka tosh tashlar ekan. – Hatto, har bir qora archa butasi ham qariyb ming yoshga kirgan.

Xadicha kichkinagina kaltakesak ushlab olgan, uni kaftida tutib turar, jonivor titrab-qaqshab, talvasalanib, ingichka tilini chiqarardi.

– O‘tmish havosi, – dedi Vinkler yotgan joyidan osmonga tikilganicha. – Men tarixlarni, dalillar qutisini yoqtirmayman. Gimnaziyada tarix fanidan «uch»dan boshim chiqmasdi. O‘tmishni his etmoq kerak. Keyingi yuz yil mobaynida tog‘lar, osmon, mana bu toshlar-u, cho‘ponlar ham o‘zgargani yo‘q. Qora dengiz Vizantiya va Mitridat davrlarida qanday bo‘lsa, shundayligicha qolgan. Tog‘larga chiqib, gulxan yonida tunash, echki suti ichib, burgutlar qichqirig‘iga qu-loq tutish kerak. O‘shanda tarixning professor talqinidagi mohiyatini emas, o‘tmishni ajoyib tarzda his etishni bilib olamiz. Afsonalar jonlanib, bizga xuddi Chexov va Frans singari qadr-don bo‘lib qolishadi. Men, majusiylarga o‘xshab, irim-sirim, ertaklarga, Afrodita tug‘ilishiga oid afsonaga, dengizchilarning shoh baliq va delfinlar gir-yasi haqidagi hikoyalariga ishonaman. Bu sizga Platonov, Kareyev va Senobos asarlari emas. Ana shu o‘tmishni idrok etish – buyuk san‘at.

So‘niq bir harorat Chufut Qal‘aning qaldirg‘ochlar, mitti tog‘ sichqonlariga makon bo‘lgan ko‘chalari, tog‘larni to‘ldirgandi.

Biz mehmonxonada tunadik. Qorong‘ulik xobgohimga o‘nlab yulduzlarni sochib yuborar, tog‘lardan shamol esar, favvoralar tinimsiz g‘o‘ldirashardi. Ertalab poyezdda Sevastopolga jo‘nab ketdik.

Inkermandan o‘tgach, Xadicha ikkimiz vagon maydonchasiga chiqdik. Quyuq o‘t-o‘lanlararo tog‘ osti yo‘llari gumburlagan ovoz chiqarishardi.

– Menga Moskva haqida oz hikoya qilding, – dedi Xadicha. – Bundan xavotirdaman. Sen mendan nimanidir yashiryapsan. Ko‘nglim beaded ravshan. Shu ikki sokin kun o‘tgan yil kuzini va Staronikolayevskni yodimga soldi. Negadir, qariya Garibaldini esladim, unga juda rahmim keldi, ko‘zlarim yoshlandi. Bog‘dan qaytayotib, qahvaxonalar yonidan yurganimizda, sariq fonarlar chayqalib turgan o‘sha zim-ziyo, o‘lik tun xayolimga keldi. Yodingdami? Endi bo‘lsa, Moskva haqida o‘ylayapman va sen o‘sha Arbat tor ko‘chalarida, o‘zing Natasha deb atayotgan qiz huzurida yuragingning bir bo‘lagini qoldirib kelgansan go‘yo.

– Senga hammasini aytib beraman. Bu holat o‘tkinchi ekaniga o‘zing ishonch hosil qilasan.

Shamol Xadichaning sochlarini to'zg'itib o'ynardi. Poyezd tog' osti yo'ldan gumburlab o'tib ketdi, to'lqinlar endi shundoqqina, po'lat izlar yonginasida shaloplardi. Derazadan yashil ko'rfaz lipillab, suvda kulrang zirhli kemalar chayqalishar, chag'alaylar charx urib uchishardi. Dimoqqa dengizning sho'rtang hidi urildi.

– Endi buni sira eslamayman, – dedi Xadicha.

Sevastopol bizni qaynoq harorat, sariq toshlar, bronza yodgorliklar va dunyodagi eng shodumon, serko'pik dengiz bilan kutib oldi.

Vinklarning o'limi

Sevastopol – kema chiroqlari, suyuq yashiltoshga o'xshash ko'rfazlar, boshdan oyoq oq kiyimdagi dengizchilar (ular oftobda shunchalar toblanishganki, nomozshom choqlari habashga o'xshab ketishadi), gul va admiralteystvo langarlari ramzi bilan savdo qiluvchi ko'plab yosh ayollar demakdir. Kichik-kichik ko'chalar tun-u kun bir maromdagi haroratga limmo-lim, janubning xuddi sharobdek o'tkir hidi anqiydi.

Sevastopol namozshomlari – bu «xorai». Bu so'zni Vinkler dengizchi do'stidan eshitgan va unga juda yoqib qolgan. «Xorai» – yapon tilida kun qarigan, lekin hali tun boshlanmagan palladagi bir necha daqiqa. Butun borliq mag'z-mag'zigacha kunduz shu'lasiga yo'g'rilgan va ayni paytda, tunning ko'k-lojuvard rangiga to'la boshlaydi.

Shunday mato borki, u ikki xil – oltinrang va ko'k tusda tovlanadi. Sevastopol oqshomlari – oq shaharni havoyi pardadek o'ragan ana shu matodan edi. Dengiz sukunati aro tun tug'ilar, sariq yog'du sochayotgan chiroqlar kumushrang jilolana boshlardi. «Xorai» pallasi kelib, kemalardagi jarangdor mis karnaylar tumanli shafaq yolqinini kuzatib qolishardi.

Qushlar uyquga ketar, bozor bo'shab, dengiz yoqasidagi ko'chalar ayollar kulgusiga to'lar, toza suv sachragan issiq po'lat kemalar bandargohga qaytishardi.

Xadicha Sobornaya ko'chasida yashovchi dengizchi-shifokor bevasi uyidan ijaraga xona oldi. Men ham shu yaqin orada joylashdim.

Vinkler o'rtog'i – rassom Lavinskiy nikida yashardi. Oradan uch kun o'tgach, u do'stini uyimga boshlab keldi. Lavinskiy malla, bad-

qovoq kishi ekan. «Xorai» boshlanmoqda, suv uzra eskadra chiroqlari yolqinlanardi.

– Korabelnaya ko‘chasidagi, dengizchilar pivoxonasiga boramiz, – taklif qildi Vinkler. – U yerda mening oshnalarim bor. Xuddi Lavinskiyga o‘xshagan malla botsman ham bo‘ladi.

Pivoxona quruqshagan bog‘da, ochiq havoda joylashgan edi. Stollar uzra dumaloq qog‘oz chiroqlar osilib turar, soviyotgan toshlarda ninachilar chirillashardi. Nofarmon paypoq kiygan, g‘arko‘z qiz bizga konyak va selter suvi olib keldi, durkun siynasi bilan meni turtib qo‘ydi. Ko‘rfaz uzra kema o‘kirigi eshitildi.

– Boshlanishi! – dedi Vinkler va stakanni to‘latdi.

Tamaddixona joylashgan uyda ayollar bo‘g‘ilguday bo‘lib xaxolashar, ular ehtimolki, semiz, terga botgan edilar. Shirakayf, ingichka tovushda xirgoyi eshitalardi.

Jononlar, jononlar, jononlarimsiz...

Kalta yubka kiygan barvasta qiz yonimizga keldi. U egilib, Vinklarning yuziga mayingina tamaki tutuni pufladi. Vinklarning achchig‘i chiqdi.

– Bas qil! – baqirdi u. – Yaxshisi Nastyani chaqirib ber.

– O‘zi yoningga keladi, – dedi qiz bo‘g‘iq tovushda. – Shunaqa yoqimtoy erkaklar-u, qiz bolani ziyofat qilgani qizg‘anishadi.

U chayqala-chayqala uy tomon ketdi. Vinkler qizning ortidan uzoq tikilib turdi.

– Hayvon, – dedi u va konyagini maysa ustiga sepib yubordi.

Dim havodan bosh garangsib borardi. Qo‘shni stolda otdak baquvvat ingliz dengizchilari hazil-mutoyiba qilib o‘tirishardi. Ular do‘rillagan tovushda xitob etib, bizni ko‘zdan kechirishar, sekin-asta sharob sipqorib, har qultum ichganlari sayin, yumshoq qalpoqlarini qoshlari ustidan tobora balandroqqa ko‘tarib qo‘yishardi. Ko‘m-ko‘k yonoqlaridan ter tomchilar, ho‘l yuzlari chiroq yog‘dusida misdek yaltirardi. Ularning yoniga bir qiz keldi. Dengizchilar uning tirsaklaridan ushlab, yuqoriga bir-ikki irg‘itib olishgach, yonlariga o‘tirg‘izishdi. Inglizlarning biri qo‘ynidan muloyim bo‘lib qolgan shokoladli konfet chiqarib, qizni va bizni ham siyladi.

Vinkler tez mast bo‘lib bormoqda edi. U gugurt chaqib, papirosni zo‘rg‘a o‘t oldirdi-yu, inglizlar tomonga qarab, shunday dedi:

– Liverpulliklar, mashhur kema o‘g‘rilari. Xo‘sh, sizlarning Londondagi mayxonalarigizda ahvol qanday?

Dengizchilar biz tomonga hatto o‘g‘irilib ham qarashmadi.

– Nafratlanishadi, – dedi Vinkler, menga quvnoq nazar tashlab. – London mayxonalarida og‘iz chapillatishlar, kekirish va kemalar tutuni aro sevgi-muhabbat sururi. Ko‘chaga chiqsang, osmondan tomgani-tomgan. Londonda hatto yomg‘irdan ham o‘laksa hidi keladi. Tushunasmi, muhabbatning yuksak cho‘qqisi, – dedi u va stakanda qolganini ichib tugatdi. – Mening araqzada bo‘lib qolishimga sen sababchisan. Muhabbatning eng yuksak cho‘qqisi – tunuka fonarlar ostida, jiqqa ho‘l peshtaxtalarda ayollar bilan qo‘shilishdir. So‘ngra chehralardan qit‘a va mustamlakalarning jamiki buzuqlig-u g‘arliklari, kasalliklari ifodasini izlayverasan. Ertalab, shahar atroflari, – nima edi, Vaytchepel shekilli, – (inglizlar shovqin solib qolishdi, «O, Vaytchepel», – dedi ularning biri shodan ohangda bizga qarab qo‘yar ekan) tutun qaytara boshlaganda, kamzuling yoqasini ko‘tarib, odatdagidek namlikdan junjikan-da, ko‘prikka chiqasan. Son-sanoqsiz kema havozalari aro qalayi rang suvga, Vestminster abbatligi jimjimalariga tikilasan, qayerdadir, quvnoq, top-toza qilib yuvilgan hayot bor, qayerlardir shunchalar orasta, issiqki, kemalarning biqinlari quyoshdan ilib qoladi, deya xayol surasan.

Vinkler bir muddat jim turgach, so‘zida davom etdi.

– So‘ngra esa, zaifona romanlarda talqin etilgan soch-soqoli olinmagan daydilarga o‘xshab obi-daydi qilasan. Orastalikni, pochta bug‘ulari bo‘lgan ko‘hna Angliyani, Monni, hatto, shu tumanlarda ham go‘zallikni ko‘ra olgan kishining buyuk ko‘zlarini qo‘msab, ko‘z yosh to‘kasan.

– O... onajon, – dedi u sekingina, stakanga konyak quyar ekan. Shishani tik ushlab quyayotganidan, ichkilik stolga ham to‘kilmocda edi.

– Boshqa ichma endi, – dedim men.

– Nastya qayerda? – qichqirdi Vinkler dengizchilar bilan o‘tirgan qizga, butun gavdasi bilan u tomonga o‘g‘irilib.

– Inglizlar bilan birga u.

Vinkler o'girilib, konyakni shaxt ichib yubordi. Ichkilik tomog'i-ga tiqilib qolib, yuzi ko'karib ketdi.

– Bir pullik islovatxona, – dedi u qahr bilan. – Nastyani bir ko'rgin, Maksimov, sen albatta ko'rishing kerak. Yuzlarini aytmay-sanmi! Bunday chehra oldida Beato Anjeliko¹ ham kuchukvachchaday titrab qolgan bo'lur edi.

– Angliyalik dengizchilar bilan birga deysanmi? – qizdan qayta so'radi Vinkler va kulib yubordi. U men tomonga egilib, yelkamdan ushladi, yuzimga ichkilik hidi va anduh buruqsitib, g'o'ldiray boshladi.

– Quloq sol, sen bilishing kerak. Tushunasanmi, chehrasi xuddi Xadichanikiga o'xshaydi. – U o'rnidan turdi, chayqalib ketib, qo'limdan ushladi. – Xuddi Xadichaning o'zi! – butun bog'ni boshiga ko'tarib baqirdi u. – Shunday bo'lishi mumkinmi, axir? Bir pullik fohishaning yuzi...

– O'chir ovozingni! – deya qichqirib, Vinklerni qattiq tortdim. U o'rindiqqa gursillab quladi. – O'chir ovozingni, hayvon!

Men uning qo'liga musht tushirdim.

– Bo'ldi, qo'lim og'riyapti.

U xo'rsindi. Lavinskiy stakanga suv quyib, kuch bilan uning og'ziga quydi.

– To'ppa-to'g'ri yuzimga sepaver, – iltimos qildi Vinkler, xirillab.

– Uni olib ketish kerak, – dedi Lavinskiy aftini tirishtirib. – Keyingi kunlarda nuqul ichgani-ichgan, allaqanday yig'loqi safsatabozlik bilan mashg'ul bo'lib yuribdi. Hozir jazavasi tutib qoladi. Qani, ketdik.

O'nimizdan turib, Vinklerni ko'tardik. Shu asnoda uydan bir qiz chiqdi. Vinkler yulqinib qo'limizdan ozod bo'ldi-da, oyoqlarini yerga qattiq-qattiq bosib, sekin-asta qizning istiqboliga yurdi. Qiz orqasiga chekinib, devorga qapishdi.

– X-o'-o'-sh, – dedi Vinkler to'xtab. Angliyaliklar o'girilib qarashdi. – X-o'-o'-sh, – takrorladi u.

Men qizga boqdim-u, seskanib ketdim: qora, og'ir kipriklar, ochsariq sochlar, chehrasi haqiqatan ham xuddi Xadichanikidek.

– Ahdimizni unutdingmi? – so'radi Vinkler. – Mening kunim bugun, meniki. Sen bo'lsang, ular bilan ilakishib yuribsan, la'nati.

¹ *Beato Anjeliko* – italyan rassomi (1400–1455).

– Nima qipti?! – qichqirdi Nastya Vinklarning ko‘kragidan itarib. – Nima qipti?! Modabozlik qilmoqchisanda, ma, boshingdan qolsin! – Qiz uning yuziga g‘ijimlangan pulni otib yubordi.

Vinkler ingrandi-yu, qizning yuziga qulochkashlab musht tushirdi.

– Mayli, ur, uraver! – Nastya xirqirab chinqirdi va devorni ushladi.

Vinklarga tashlangan edim, butun yonog‘ini chandiq qoplagan dengizchi mendan chaqqonlik qildi. U Vinklarning qo‘llarini orqasiga qayirdi-da, oyog‘idan chalib, yerga irg‘itib yubordi.

– To‘xta! – qichqirdi Lavinskiy dengizchining qo‘lidan ushlab.

Dengizchi unga qaradi va og‘ir nafas olganicha o‘rtoqlari yoniga chekindi. Nastya qochib ketdi. Uyda baqiriq-chaqiriq, yig‘i boshlandi. Beka derazadan qo‘rqa-pisa qichqirdi.

– Qoralari o‘chsin, yalangoyoqlar! Bir kami endi qizlarni do‘pposlash qoluvdi?

Vinklarning qo‘lidan ushlab, turg‘izdim-u, yelkasidan suyab, ko‘chaga olib chiqdim. U lablari titrab, yo‘talar, g‘o‘ldirardi. Uni izvoshga o‘tqazdik, Lavinskiy yoniga o‘tirdi.

Men ponton ko‘prik tomonga ketdim. Oy Sevastopol uzra yuk-salغان, suvda kema arqonlari shaloplar, kimdir qirg‘oqdan turib, cho‘zib-cho‘zib qichqirardi.

– Hoy, «Ippolit»dagilar, «Ippolit»dagilar, «Ippolit»dagilar! Nima balo, hammangiz o‘lib qoldingizmi?

Yomon uxladim, juda tez oqarib kelayotgan tong xalaqit berardi. So‘ngra meni uyg‘otishdi. Qandaydir bir bolakay xat olib keldi-yu, javobini kutib o‘tirmay, jo‘nab qoldi. Soatga qaradim: yetti yarim bo‘lgan ekan.

Xatni ochib o‘qidim:

«Men betobman. Xadichaga bu gapni aytma. Mastlik oqibatida Xersones yaqinida suvga cho‘kib ketdi, degin. Alvido. Vinkler».

Men nogahoniy qalb titrog‘i bilan anglab yetdimki, u endi yo‘q, allaqachon halok bo‘lgan. Osmon og‘ir gumburlash bilan boshimga ag‘darildi. Seskanib ketib, quloq tutdim, lekin hamma yoq sokin, faqat tomirlarimdagi qon yoqimsiz g‘uvillardidi.

– Nima bo‘ldi? – shivirladim o‘z-o‘zimga va maktubni yana o‘qidim. Imzo yonida eslatma bor edi.

Suv yuziga chiqqanimda, qiz kema to'sinidan egilib, menga qarab turardi.

– U cho'kib ketdi, deb qo'rqdim, – dedi u yonida turgan ko'zoynakli semiz yigitga.

Men epcillik bilan tangani irg'itdim. Tanga yigitning ko'zoynagiga tegdi. Ko'zoynak tushib ketib, sindi. Bolakaylar quvonchdan qiyqirib yuborib, qo'llari bilan suvni shaloplata boshladilar. Kema o'kirdi, dengizchilar bizni arqon bilan quva ketishdi. Yuzlab kumushsimon, to'g'nog'ichdek mayda baliqchalar yam-yashil suvda non ushoqlarini tortqilishardi.

Seredinskiy tomonga suzib ketdim. O'rtamizda delfin qora tanasini quyoshda yarqiratib, o'mbaloq oshdi. Xadicha qanchalik uzoqqa suzib ketganini ko'rib turardim. Uning bug'doyrang qo'llari sekin-asta, xotirjamlik bilan to'lqinlarni quchardi. Birdan qizning qo'lidagi uzuk toshi yashil shu'la sochib yubordi. Yonimizdan o'tib ketayotgan yuk kemalari yelkanlari shitirlatib, shovqin solardi.

Biz suvdan chiqib, o'tobda uzoq yotdik. Men Anri de Renening «Universal kutubxona» atalmish sarg'ish kitobchasini o'qirdim. O'qigandayam sekin-asta o'qirdim, tez-tez bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, namakobning o'tkir hididan to'yib-to'yib nafas olardim.

Cho'milib bo'lgach, qorong'i, bo'm-bo'sh qahvaxonaga tez-tez kirib turardik. Uning g'amgin grek xo'jayini bizni qahva, issiqqina kulchalar bilan siylardi. Oppoq kiyim kiyib, oltin xanjarlar taqqan jiddiy chehrali dengizchilar Xadichaga jilmayib qo'yishardi.

Quyoshning mayin nayzalari pardalararo xonaga yorib kirganida, menga Natashaning maktubini olib kelishdi.

«Bir oydan oshibdiki, sizdan xabar yo'q. Nahot, menda siz to'g'ringizda nikohimizdan bo'lak biror xotiroq qolmasligini istasangiz?»

Seredinskiyning maktubidan sizning do'stingiz, rassom Vinkler cho'kib ketganini bilib oldim. Xuddi shu maktubdan Sevastopolda siz o'tobda qorayganingiz, judayam er yetganingiz, kunlaringiz bayramona, emin-erkin o'tayotganini fahmladim. Xadicha «sochlari to'q oltinrang, nihoyatda nozik va go'zal qiz» ekani ham ma'lum bo'ldi.

Menga biror kalima so'z yozib yuboring. Dimlik shaharni paxtali choyshabga o'ragan, Moskva tunlari naqadar g'arib va uyqusiz ekanini bilsangiz edi. Bir necha marta akam bilan qayiqda Neskuch-

niy bog'iga bordim. Kecha biz tunni o'sha qorovullardan berkingan joylaringizda o'tkazdik. Men maysa ustiga yotib olib, tonggacha siz haqingizda o'yladim. Faqat sevgigina bunaqangi devonavor qiliqlariga – Neskuchniy bog'ida tunni tongga ulashga unday oladi. Ertalab shaharga qaytamiz. Akam indamaygina eshkak eshadi, uning yuzi qayg'uli, xayolchan tus oladi. Onda-sonda siz to'g'ringizda bir necha og'iz so'z aytadi. Bu har doim yaxshi so'zlar bo'ladi. Neskuchniy bog'ida ba'zan yig'lab olaman. Bu haqda sizga yozaymi, yozmaymi, deya uzoq o'yladim. Lekin yuragim shu qadar bo'g'iq va og'ir gursil-lamoqdaki, buni aytmay ilojim yo'q.

Saraton oxirlarida Yevpatoriyaga boraman, qayerda bo'lishingizni menga yozib yuboring. Sizni dengiz sohilida ko'rmoqchiman».

Men xat kelganini Xadichaga aytdim.

– Kelgin, deb xat yozib yubor. Unga maktub yozmaguningcha xotirjam bo'la olmayman. Seni sevmqlik – katta imtihon. Ulkan sinov, lekin men uni boshdan kechirib bo'ldim.

Bandargohda kema quloqni qomatga keltirib, ikki marotaba o'kirdi. Jo'nab ketish vaqti yetgandi. Deraza ostida Seredinskiyning shartli hushtagi eshitildi.

– Ketdik, – dedi Xadicha. – Demak, shunga kelishdikmi?

– Kelishdik, – javob berdim men va uni og'ushimga tortib, ko'zlaridan bo'sa oldim.

Baliqchilar qishlog'i

Ertalab mo'juzgina «Gurzuf» kateri tumshug'i bilan to'lqinga ko'milganicha, bandargohdan jo'nab ketdi. Biz kater sahnida tik turardik.

Bolalar yig'lashar, tatarlar bo'g'iq qichqirishar, yukchilar po'rtaxollarni u yoqdan bu yoqqa tashishar, dengiz yuzida quyosh oynadek yarqirardi. Bandargohda baliq ovlovchilar qimir etmay o'tirishar, shamol sayqallagan marmardagi suv kumushdek jilolanardi.

«Gurzuf» quloqni qomatga keltirib ikki marta chinqirdi va Konstantinov to'pxonasini aylanib o'tdi. Bog'larga, yoz alangasiga ko'milgan sohillar ko'zga tashlandi. Xadicha dengizga kumush tanga tashladi. Shu zahotiyuq, quyoshda ho'l tovlanayotgan delfinlar kema

tumshug‘i yonginasida kim o‘zarga suza ketdilar. Janubdan esgan is-siq shamol kema chodiriga o‘ralashib qoldi.

Biz bo‘lar-bo‘lmas narsalarni bahona qilib uzoq kuldik. Isliq kam-zulchali grek-darg‘a qo‘lbola tamaki tutatganicha, qirg‘oqni ziyraklik bilan kuzatardi. Shamol ayollarning oq ko‘ylaklarini hilpiratib, ke-lishgan, xushbichim oyoqlarini yalang‘och etardi.

«Gurzuf» tap tortmay, sarkashlik bilan olg‘a sho‘ng‘ir, quyruq os-tidagi ko‘piklar g‘alati jimjima ko‘llarini toshirib, shovqin solardi.

Seredinskiyning mo‘jazzgina uyida har birimiz uchun alohida xona topildi. Ayvonchada tushlik qildik. Derazalarga ko‘m-ko‘k nur yog‘ilar, shamol hech narsadan tap tortmay xonalarda sarsari kezardi. Baliqchilar qishlog‘i jonsizdek ko‘rinar, mevafulurush tatar o‘z molini maqtab, erinchoqlik bilan hovlima-hovli sanqirdi.

Shimol tomondan ko‘rinayotgan Chotirtog‘ olis ufqda sal qoray-gan quyma oltinday bo‘lib turardi.

– Kelinglar, choy ichamiz! – qichqirdi pastdan Seredinskiy. – Bir-ikki kundan so‘ng Chotirtog‘ga boramiz. Men Ahmed bilan gaplash-dim: u bizni dovongacha eltib qo‘yadi.

Choyni salqingina tosh ayvonda ichdik. Dengizda qiyshiq lotin yelkani oqarib ko‘rinardi. Chetan yonidagi Oska laqabli xo‘tikcha yumshoq kulrang quloqlarini qimirlatar, og‘irligini u oyog‘idan bu oyog‘iga tashlardi. Xo‘tikcha Xadichani ko‘rib, uning yoniga keldi, ho‘l tumshug‘ini qizning tizzalariga bosdi, so‘ngra non tilanib, shavq bilan hangrab yubordi.

Seredinskiyning qo‘shnisi, jigarrang yuzli, sershovqin mo‘ysafid – mayxo‘r va qiziqchi Spiridon chol o‘zining qo‘lbola musallasidan bir shisha olib keldi. U uzzukun uzumzorda kuymanar, cholga ikki tatar qiz ko‘maklashishardi. Oqshomlari qizlar orqa eshikdan ke-lib, derazaga toshcha irg‘itishar, Spiridon amaki eshitib qolmasligi uchun past tovushda: «Xadicha, Xadicha xonim!» – deya chaqirib, qo‘llariga qarab fol boqishni iltimos qilishardi.

So‘ngra qoqsuyak, ajaldek tasqara tatar kampirlar kela boshlashdi. Ular o‘zlari bilan birga zardo‘zi qalpoqchali qizchalar – tilmoch nabir-alarini olib kelardilar. Xadicha siymosida o‘zlariga allaqanday qadr-donlik tuyardilar, unga tatarcha so‘zlar o‘rgatardilar. Kampirlar Xa-dichaning so‘zlarini ixlos bilan tinglashar, faqat onda-sonda quvonch-dan yoki alamdan «oh» tortib qo‘yishardi. Men bilan Seredinskiyni

vaqtincha yuqori qavatdan quvishar, biz chorboqqa yoki qirg'oqqa qahva ichgani ketardik.

Tatar kampirlar Xadichaga o'rik, shaftoli, nok olib kelishardi. Oqshomlarning birida kimdir uning derazasidan qora gullar o'ralgan qiyiqcha tashlab ketdi.

Bir kuni hammamizni tatarlarning to'yiga taklif etishdi. Pastak, devorlari yoqalab guldor divanlar qo'yilgan oq uyning erkaklar bo'lmasi shovqin-suron va tamaki tutuniga to'lgan edi. Seredinskiy to'y qo'shiqlaridan kuyladi. Ancha-muncha yangi may ichdik. Uy egasi bizga arabcha yozuvining yarmi o'chib ketgan ko'hna egri qilich hadya etdi.

So'ngra biz kelinning otasi va akasi bilan qo'sh otlı izvoshda baqirib-chaqirib, bozor atrofini sallona-mastona aylandik. Oldingi o'rindiqda o'tirgan, kapalagi uchib ketgan ikki juhud mashshoq shosha-pisha balandparvoz kuylar chalishardi. Yo'lda uchragan tatarlar tishlarining oqini ko'rsatishar, kaftlarini peshona va ko'kraklariga tekkizib qo'yishar, musofir o'rislar ortimizdan quvonch to'la hayrat bilan qarab qolishardi.

Spiridonning oppoq uyida butun devor bo'ylab qora bo'yoq bilan «Vive la vie et la mer!»¹ so'zlari yozilgandi.

– Buning nima balo? – so'radi Seredinskiy choldan.

– Mening fransuzcha ismi-sharifim. Kuzda Odessadan bir kishi kelib, hammamizning suratlarimizni chizib yurgandi. Bu o'shaning ishi. «Kel, Spiridon, dedi, kulbanga ismi-sharifingni fransuzchasiga yozib qo'yay. Uying mayoq o'rnida bo'ladi, dengizchilar shunga qarab yo'l topadilar». – «Yozaver, jin urgur, dedim». Yana butun uyni rasmlar bilan bezab tashlamoqchi edi, xotinim qo'ymadi. Shundog'am hamma yoqni bulg'adi, nima yozilganini xudo biladi, ehtimol fransuzcha yomon so'zlardir. Siz fransuzcha o'qiy olasizmi?

– O'qiy olaman.

– O'qing-chi, bo'lmasa

– Spiridon Karpovich Yaroshenko, – o'qidi Seredinskiy.

– Ha, demak, to'g'ri odam ekan, – dedi chol.

Baliqchilar esa uni qo'rqitishardi:

– Devoringga Vivdimer yozilgan. Demak, u grek seni Volodimer deya qayta cho'qintirgan, o'zining fransuz diniga o'tkazgan.

¹ Yashasin hayot va dengiz! (fransuzcha).

– Ha, u g‘ayridin, baliqyurakning listrigon ekani ko‘zlaridan bilinib turardi. Yanaki edi familiyasi.

Nihoyat, yana birovlar no‘malum rassom – ochakovlik kulchapazning o‘g‘li, bu yerga harbiy xizmat majburiyatidan qochib kelgan, deyishardi.

Kunlarning birida qirg‘oqda qarmoq bilan baliq ovlardim. Yonimda Xadicha cho‘zilib yotar, Spiridon chol o‘tirardi. U ko‘ksini qashlab, quyosh vannasi mavzusini rivojlantirardi.

– Buning hech uyat yeri yo‘q, hammamizni ham xudo yaratgan ekan, undan sharm etmoqlik ne hojat? Quyosh inson vujudidagi ortiqcha yog‘ni chiqaradi. Bu turishlaringiz nima bo‘pti! Men «Ierusalim» kemasida ikkinchi darajali dengizchi edim, Uzoq Sharqqacha suzib borardik. Ana o‘sha yerda, Osiyoda, aytish mumkinki, butunlay qip-yalang‘och yurishadi, hech uyalishmaydi ham. Shunga odatlanishgan. Odamlari xushqomat, bu ob-havodan bo‘lsa kerak, deb o‘y layman.

Men Juchok ham «Ierusalim» to‘g‘risida hikoya qilganini esladim.

– Bobo, «Ierusalim»da Petr Juchenko degani yo‘qmidi?

– Juchokmi? Nega bo‘lmasin ekan? O‘rtoq edik, deyish mumkin, birga azob-uqubat chekkanmiz.

So‘rab-surishtirish boshlandi.

– Juchok! – qichqirardi Spiridon chol, – Xudo yarlaqagan banda. Maymun bilan bog‘liq bir voqea bo‘lgan edi. Bu maymunni Juchok Singapurda sotib olgandi. Unchalik maymun ham deb bo‘lmasdi, shundoq, mushukdekkinaga bir jonivor, aqlli, dumi tulkinikiday. Juda besaranjom, qiziquvchan edi, hamma yoqqa burnini suqaverardi. Darg‘aning bo‘lmasidan sigarani olib, dengizchilarning oldiga keltirib qo‘yadi-da, o‘zi xursand bo‘lib turaveradi. Bir qarasangiz, havozaga o‘tirib olib, bayroqni o‘ynaydi, bir qarasangiz, ofitserlarning cho‘ntagidan dastro‘molchalarini ilib olib, kema sahnida jinniga o‘xshab aylanaveradi. Odessaga yetib keldik. Qish edi, Odessada qor, shamol, qaraging kelmaydi. Jonivor jimib qoldi. Planshiringa o‘tirib olib, qalt-qalt titraydi, qordan ko‘z uzmaydi va obidiyda qiladi.

So‘ngra u yo‘tala boshladi. Mexanik bo‘lmasiga kirib, isitish tarmog‘i yoniga tiqilib oldi. Uning nigohlari shunaqangi mungli edi-ki, yurakni ezib yuborardi. Kunlarning birida yonimga kelgan darg‘a

shunday dedi: «Eh, ogʻayni, hozir Singapurga yoʻlimiz tushsa, zoʻr ish boʻlardi-da. Jonivor silga muftalo boʻlibdi. Uning bunaqangi sovuqlarga bardoshi yoʻq».

Shamol boʻlsa uvillagani-uvillagan. Jonivor isitish tarmogʻi yonida ham sovqota boshlagach, Juchokning qoʻyniga kirib oldi. Bir kecha-kunduz dagʻ-dagʻ titrab, koʻz yosh toʻkdi-yu, jon taslim etdi. Juchok xuddi oʻz oʻgʻlidan ajralib qolgandek gʻam chekdi, hammamiz jonivorga juda achindik.

Ikkinchi marotaba Singapurga yoʻlimiz tushdi. Lekin dargʻa hayvonlar sotib olishni taqiqladi. «Bizga shu bittasiyam yetib-ortadi. Oʻshayam yurak-bagʻirni ezib yubordi. Jonivorlarni oʻzlaringizga ermak qilishga balo bormi», – dedi. Shu koʻyi maymunsiz qoldik. Faqat Trubach ismli qora xoʻrozimiz bor edi, uyam Qizil dengizda issiqqa chiday olmay, oʻlib qoldi.

Sohildagi kunlarimiz Spiridon cholning bamaylixotir chaqchaqlari bilan oʻtardi. U Xadichaga toʻr toʻqishni oʻrgatdi. Qiz chol bilan birga toʻr toʻqir va soatlab uning valaqlashlarini tinglardi.

– Singilchang juda begʻubor ayol, – dedi menga kunlarning birida Spiridon, – ajoyib, goʻzal xilqat.

– Chol toʻgʻri aytadi, – dedi Xadicha. – Biz xuddi aka-singildek yashayapmiz. Sen boshqasini sevishing kerak. Seni qahvaxonada koʻrib qolganimda, esingdami, koʻz oldim qorongʻilashgandi, keyin esa hammasi qandaydir oʻzgarib ketdi. Men butunlay boshqa odamga aylandim. Vinklarning oʻlimidan soʻng shunday boʻldi. Sen hech nimani aytmading, lekin men hammasini bilaman. Goʻyoki u mahv boʻlgach, avvalgi Xadichani oʻzi bilan birga olib ketgandek. Endi faqatgina hech kimga keragi yoʻq qiz qoldi, sen meni sevmasliging kerak.

– Hammasi oʻtib ketadi, – dedim ovsarlanganimcha oʻzimni yoʻqotib. – Vinklarning oʻlimiga sabab shuki, uning kuchi faqatgina yigirma besh yilga yetdi, xolos. Sen boʻlmaganingda boshqa biror nima, allaqanday arzimagan hodisa, tasodif uni yoʻldan ozdirardi. Sen bularni qayerdan bilding?

– Uning kundaligidan. Kundalikni Anri de Renening kitobi qatida unutib qoldirgan ekansan. Ha, – dedi qiz sekingina. – Ha, hamonki unga shunchalar yaqin ekanman, nega oʻzimga hech nima demadi, gapirmaslikka qanday jurʻat etdi? Qanday qilib oʻzim tushunib yetmadim?

– Seni-ku, bilmayman, – javob berdim men, – lekin yashash naqadar yaxshi ekanligini his etganimdan har kuni yuragim uvishib ketadi.

– Mening bu holatim ham o‘tib ketadi. Yana bir-ikki kun o‘ylab ko‘rsam, kifoya. Axir, huzur-halovatdaman, quyoshda butunlay qorayib ketdim, bu yerda dengiz juda zo‘r. Qaragin, kema.

Seredinskiy yugurib keldi, Spiridon paydo bo‘ldi. Qoramtir havo shamoldagi bayroqdek titrayotgan lojuvard kenglikda oq dudburonli to‘q jigarrang kema ohista suzib borardi.

– Xorijniki, – dedi Spiridon. – Skadovskdan Konstantinopolga ketyapti.

Men o‘girildim, devordagi yozuv yana ko‘zga tashlandi: «Vive la vie et la mer!» Uni Xadichaga ko‘rsatdim.

– Yaxshi ismi-sharifing bor-da, bobojon, – dedi qiz Spiridonga. – Xosiyatli ism.

Ertalab Yevpatoriyadan ot minib, pakana, ko‘m-ko‘kkina grek – baliqjallob Xarito amaki keldi. U choshgohgacha qirg‘oqda baliqchilar bilan kuzgi ov xususida savdolashdi. Qarzlard baland ovozda hisob-kitob qilinar, hech qayerdan yaxshi to‘r topib bo‘lmasligi, ro‘za hayitida Xarito mijozlarini chuv tushirgani, endi esa uyalmay odamlarga behayo ko‘zlarini tikib turgani haqida baqirib-chaqirishardi.

– Nega akillaysan? – qichqirdi Xarito eng baqiroq baliqchi Andryuxaga. – Akillama, narxini o‘zimga bilaman, – u ko‘zlarini ola-kula qildi. – Balig‘ingizni sotib oladigan ahmoq topilganiga shukur qilsalaring-chi. Kefal, kefal, deb burnimga suqaverma. Kinburnniki oldida sizniki bir pul.

– Do‘stim, – ilhom ila baqirardi Andryuxa ko‘ksiga mushtlab. – Do‘stim, bu ishni tushunish kerak, axir. Kinburn balig‘iyam baliq bo‘ptimi? Ishonmasang, hammadan so‘ra. U yerning balig‘i jonga tekkan qiltiriq jonivor, ishon so‘zlarimga!

Choshgohga borib, bir qarorga kelib, jimib qolishdi.

– Uch yildan beri shu yerga kelaman, har doim Xarito amaking janjali ustidan chiqaman, – dedi Seredinskiy. Eng muhimi, bu janjalardan uch pullik naf yo‘q. U bu yerda odamlarni chalg‘itish uchun yuribdi. Nomaqbul bir vaqtda baliq savdosiga balo bormi? Kontra-bandachi u, har yer-har yerda o‘z odamlari bor.

Dimlik nafasni qisar, suv qo‘rg‘oshindek tovlanardi. Ufq uzra mo‘ysafid bir tuman yastangan, dengiz qaynardi go‘yo. Quyosh ayov-

siz qizdirar, tillarini osiltirib, soyada yotgan itlarning ho‘l biqinlari ko‘tarilib-tushib turardi. Qirg‘oq yaqinida suv shishadek tekis, bitta ham to‘lqin yo‘q edi. Choy ichib bo‘lganimizdan so‘ng, pochtdan changga belangan telegrafchi kelib, menga telegramma uzatdi:

«Shanba kuni Yaltada bo‘laman, «Mixsor» mehmonxonasi. Iloji bo‘lsa, keling. Natasha».

– Bugun haftaning qaysi kuni? – so‘radim Seredinskiydan.

– Shanba, – dedi u.

– Men Yaltaga borishim kerak. Ertaga kunduzi qaytib kelaman.

Seredinskiy aftini norozi bujmaytirdi.

– Yaltada sizga pishirib qo‘yibdimi? – dedi u achchiqlanib. – Shunaqangi telegrammalarni yomon ko‘raman-da. Borib nima qilasiz? Nahotki, kechiktirishning iloji bo‘lmasa? Chotirtog‘ga safarimiz xarob bo‘ladi endi. Tupuring hammasiga.

– Bo‘lmaydi, – dedim qat‘iyat bilan Xadichaga nazar tashlar ekanman. – U yerda kitob chiqarish bilan bog‘liq juda zarur ishim bor. Siz Xadicha bilan Chotirtog‘ga jo‘nang, men Alushta orqali dushanba kuni yetib boraman. Sizlarni Konchilar klubi kulbasidan topaman. Shunday qilsak, bo‘ladimi?

– Xo‘p mayli, jin ursin sizni, – istar-istamas rozi bo‘ldi Seredinskiy.

– Bo‘ladi! – dedi Xadicha beparvogina va menga diqqat bilan razm soldi.

Telegrammani yirtib tashladim-da, o‘z xonamga ketdim.

Munojot

Kater o‘ng biqiniga og‘ganicha parraklari bilan shovqin solib, tez suzib borardi. Bandargohdan Xadicha va xodadek uzun Seredinskiy hamon ko‘zga tashlanib turishardi.

Tamaki tutatib, chodir ostidagi soya joyga o‘tirdim, lekin shu zahotiyoq yana o‘rnimdan turdim. Bezovta edim. Oqmachit yaqinida yo‘lovchilar tushgan qayiq biz bilan baqamti bo‘ldi. Kater suzishdan to‘xtab, to‘lqinlar yelkasida chayqala boshladi. Janub tomonda endigina chiqqan kulday rangpar yulduz jilolandi.

«Hayotim g‘alati-da, mening», – o‘yladim mashina bo‘lmasi yonida dastaklardan ushlab turar ekanman. Dengizchilardan

biri yonimga kelib, kater biqinlariga qizil, yashil chiroqlarni ilib qo'ydi.

– Xadicha! – chorladim men, xuddi bir paytlar ko'prik ustidan turib, zulmat, tun, qorong'i cho'llar tomon nido qilganim kabi. Zaradekkina nohaqlik, hayotning arzimagan zarbalaridan larzaga keladigan Xadicha haqi-hurmati, Natashani erkalab, ardoqlayman. – Xadicha! – yana chaqirdim men va u hozir ayvonda, sham yorug'ida o'tirgan bo'lsa kerak, tungi kapalaklar yuzlariga urilmoqda, ko'zlari tubsiz, g'amgindir, deya o'yladim. Seredinskiy sohilda sandiroqlab yuribdi, yoinki, Xadicha bilan valaqlashib o'tiribdi. Spiridon amaki bo'lsa, bozorda o'tirib olib, o'zining Seredinskiy negadir «kaptar ovchilari» deb ataydigan do'stlari bilan oshiq o'ynayotir. Dengiz uzra tun sukunati allaqachon o'z chodirini yoydi, bog'da esa munchoqdek sochilgan chirildoqlar chirillashadi.

Qorong'u zulmat qa'rida Yalta chiroqlari charaqlab, qop-qora suv yuzida marjondek sochilib ketdi. Kater cho'zib hushtak chaldi. Aytodor mayog'i nuri bir yaraqlab, o'sha zahotiy oq so'ndi. So'ngra katerning kerosin chiroq nuri asabiy lipillab turgan kichkinagina, tor bo'lmasiga tushdim-da, ko'zguga qaradim. Ko'zgu yonida yuzlariga azob izlari soya solgan rangpar gimnaziya o'quvchisi uxlab yotardi.

Sahnga ko'tarilganimda, kater qoramtir suvda chayqalganicha, sekin-asta qirg'oq tomon intilardi. Dudburondan yakkam-dukkam yirik uchqunlar chiqib turar, shahar shovqini quloqqa chalinardi.

Qirg'oqqa tushdim-da, atrofdagi yasan-tusan olomonnin sinchkovlik bilan ko'zdan kechirdim. Natasha yo'q edi.

– Mana, siz ham kelib qolibsiz, – dedi kimdir ortimdan. O'girilgan edim, chiroqning sarg'ish nurlari aro Natashaga ko'zim tushdi.

– O'zgarib ketibsiz, – dedi u menga hayrat bilan tikilib. – Qu-yoshda qorayibsiz, ulg'ayibsiz.

Sekin-asta shahar tomon keta boshladik.

– Jonginam, – eshitilar-eshitilmas shivirladi u, – kelganingiz uchun sizdan shunchalar minnatdormanki. To'g'risini ayting, mendan xafa emasmisiz? Siz, xafa emasmisiz? – takroran so'radi Natasha va men tomonga egildi. Uning sochlari yonog'imni qitiqlar, nafasi lablarimni yondirardi.

– Qanchalar sevaman sizni, – dedi u bo‘g‘iq ovozda. – Xadicha hammasidan xabardor, axir, bunga ishonchim komil.

Yurishdan to‘xtadim. Biz panjaraga suyandik. Pastda uyqusiragan dengiz qirg‘oq tomon yugurgilardi. Qizning qo‘lidan ushlab, nozikkina barmoqlarini labimga bosdim.

– Nega keldingiz? Men sizga sevgi haqida bir so‘z ham aytmayman. Maylimi?

– Mayli, – dedi Natasha baland ovozda, so‘ngra qo‘limni qattiq qisdi. – Mayli. Siz sukut saqlaysiz. Lekin men sevgi haqida gapiraman. Menga mumkin-ku, axir.

Kech oqshomgacha sohilda o‘tirdik. Natasha juda hayajonlangan, asabiy edi, vaqt-vaqti bilan o‘yga tolardi.

Uni kuzatib qo‘yar ekanman, titroq tovush bilan so‘radi:

– Sizni Alushtagacha kuzatib borsam maylimi?

– Mayli, – dedim soddagina qilib. – Ertalab soat yettida kater jo‘nab ketadi. To‘lqinto‘sarda kutaman.

Qorong‘ulik qo‘ynida xayrlashdik.

Dengiz uzra to‘lin Oy sekin-asta ko‘tarilmoqda, qadamlarim uyqudagi bog‘lararo aks sado berardi.

Tong yorisha boshlagach, o‘nimdan turib, kiyindim-da, deraza yoniga bordim. Dengiz hali uyquda, Sharq tomonda, suvga keng oq dog‘lar tashlab, rangsizgina tong kulmoqda edi.

Cho‘milgani ketdim. Suv havodan issiqroq, unda to‘da-to‘da mayda baliqchalar suzib yurishar, men sovuqdan junjikardim. Quyoshning ilk qizg‘ish nurlari tanimni mayin harorat bilan o‘radi.

Bandargoh yaqinidagi qahvaxonada choydan to‘yib oldim-da, to‘lqinto‘sarga qarab ketdim. Kater quyrug‘idagi bayroq harakatsiz turar, matros ko‘prikchadagi mis tutqichlarni tozalardi. Langarga tashlab qo‘yilgan qizil bochkaga chag‘alaylar qo‘nar, mayin, qirmizi bulutlar tog‘lar uzra yuksalmoqda edi.

Bandargohning cho‘yan panjarasiga o‘tirib oldim. Soat endigina olti bo‘lgandi.

Kater jo‘nab ketishidan sal oldin Natasha keldi.

Dengiz sathida minglab nurli halqachalar jilvalanar, kater deyarli bo‘m-bo‘sh, bir necha tatar, ko‘zlari surmaso yolg‘iz juvon, mo‘ylovi oq, yo‘g‘on dengizchidan bo‘lak hech kim yo‘q. Yalta tezlik bilan ortda qolib borardi.

– Men, hayot xayoliy narsa ekaniga imon keltirdim, – dedi Natasha. – Arxangelsk vokzalini, qora trubka tishlagan Torber-senni, o‘zingizning Bratovshinadagi hikoyalaringizni eslang. Biz kutilmagan uchrashuvlar, hodisalar, keskin burilishlar, ruhiy buhronlar, buzilishlarning allaqanday qiziq, jozibali doirasida yashashimizga ilk bor ishonch hosil qilganimdan so‘ng, naqadar yengil tortganimni his etdim. Men sizning girdobingizga tushib qoldim, endi har kun ajabtovur voqea-hodisalar kutaman. Ehtimol, ertaga meni quvib yuborarsiz; yoinki ertaga o‘z holimga qaytib, avvalgi Natasha bo‘lib, sizni xuddi qulimdek mazax qila boshlayman. Shuni tushunasizmi? Hayot men uchun o‘z mavjudligini yo‘qotdi. Uning qonuniyatlari chirigan a‘zolardek tushib ketdi. Meni qamrab olgan har yangi kun qudrati bir qutbdan ikkinchi qutbga irg‘itadi. Siz ham xuddi shu ahvoldasiz. Men endi hech nimadan qo‘rqmayman. Hoziroq siz bilan Chotirtoqqa borib, Xadichaning qo‘llarini o‘pa olaman. Sizga shapaloq tortishim, qattiq haqoratlashim mumkin.

Uning aniq-tiniq lablari titrab ketdi.

– Agar «Hayot» asaringizning qo‘lyozmasi qo‘limga tushib qolsa, yoqib yuboraman. Eshityapsizmi? Uni yaxshilab bekitib qo‘ying.

– Nega? – so‘radim men uning g‘azabli ko‘zlariga tik boqib.

– Siz boshqa asar yozasiz. Men haqimda, – dedi u balandparda shivir bilan. – Qarang, – u oq shohi ko‘ylagidagi marvarid to‘g‘nag‘ichni yechib oldi. Harir mato ostida qizning bug‘doyrang siynasi tipirchilardi. – Sizni sog‘ingan, qo‘msagan paytimda ma‘budadek go‘zallashaman. O‘z-o‘zimga maftun bo‘laman va shunday daqiqalarda meni ko‘rmayotganligingiz uchun aqldan ozgudek g‘azablanaman.

Natasha tez o‘rnidan turib, marvarid to‘g‘nag‘ichni dengizga irg‘itdi.

– Mendan Sizning dengizingizga, – dedi u o‘girilmay. – Sizning jonajon Qora dengizingizga.

Natasha men tomonga qaradi. To‘lqinlarda jilolanayotgan quyosh nurlari qizning yomg‘irpo‘shida o‘ynardi.

– Xo‘sh, nima deysiz? – so‘radi u tashvish va alam to‘la nigohini menga qadab.

– Agar istasangiz, – asta javob berdim men, – siz uchun pyesa yozaman va unda yuqorida aytgan gaplaringizga monand munojot bo‘ladi.

Tamaki tutatdim-da, panjaraga suyandim. Biz uzoq sukut saqladik.

– Ha, demak, shunaqa, – dedi qiz sekingina o‘z-o‘ziga gapirayotganday va qo‘li bilan ko‘zlarini siypaladi.

Alushtada qirg‘oqqa tushganimizda Natashaning boshi aylanayotganday edi, nazarimda.

Otlarni olib kelishguncha qirg‘oqdagi yog‘och uychada qahva ichib o‘tirdik. Natashaning a‘zoyi badani titrab ketdi.

– Sizni xuddi birinchi marta ko‘rganday bo‘ldim, – dedi u qalin oq to‘rniqobni yuziga tushirar ekan.

Eshik oldida ikki otli izvosh kutib turardi.

Dovonga yaqinlashganimizda oqshom cho‘kdi. Tun pardasi atrofni tezlik bilan qamrab ola boshladi. Tog‘ o‘t-o‘lanlarining hidi dimoqqa urilar, otlar sekin pishqirib qo‘yishardi.

Izvoshchi men tomonga o‘girilib, shunday dedi:

– Ertalab dovon oldida kutaman. Otlarni shu yerda qoldiraman. Maylimi?

– Mayli.

– Bu yerda suv bor, – otlarni sug‘orish mumkin. Shirin suv.

– Tamaddi qilib olmaysanmi? – yana so‘radi u. – Brinza bor, non bor, ikki shisha musallas bor.

– O‘sha yerda, dovonda tamaddi qilamiz, – javob berdim men.

Sovuq gota boshladik. Natasha yomg‘irpo‘shiga o‘ralib oldi. Qarag‘aylar uchida yengil shamol shovqin solardi.

Kulrang-lojuvard tuman bilan yo‘g‘rilgan tun Chotirtog‘ni butun og‘irligi bilan bosib turardi. Yaqin yulduzlar yorqin jimirlashar, olisdan aravaning to‘xtovsiz g‘ichirlashi eshitilardi.

Izvoshchi Konchilar klubi kulbasini qanday topishni bizga uzoq tushuntirdi. U qamchi dastasi bilan yer chizar, qo‘limizdan ushlab, ehtiros bilan tun qorong‘usi tomon imo-ishora qilardi.

– Yo‘ldan adashsang – bu yerda cho‘ponlar ko‘p. Chaqirsang, ovoz berishadi. Ketayotganingda o‘ng tomonlab yur. Oyog‘ing ostiga qara – xandaqlar bor. Chor atrof butalar, o‘t-o‘lan, chuqurlikni ko‘rmay qolishing mumkin.

Natasha may ichdi, uning ovqat yegisi kelmasdi.

– Maksimov, bilasizmi, nima, – dedi u uzoq sukutdan so‘ng titroq tovushda. – Men u yoqqa bormayman. Örtga qaytaman. Yurishga madorim qolmadi. Butunlay betobman axir, ko‘rmayapsizmi?

– Natasha, – men uning boshini ko‘tarib, ko‘zlariga tikildim. – Baribir sizni ketishga qo‘ymayman. O‘sha, kemadagi bema‘nilik, noo‘rin so‘zlar oqibatida titrayapsiz, sizni bezgak tutyapti, o‘zingizni yo‘qotib qo‘ygansiz.

U ko‘z yoshlarini zo‘rg‘a tiyib turardi.

– Nega endi u yerda... kemada? Bu meni qiynayapti, mana bu yerim, ko‘ksimni kuydiryapti. Sizga biror qabih so‘z aytmoqchi emasdim. Axir bilasiz-ku... Sizni deya butun hayotimni ostin-ustun etyapman...

Men uning boshini sal orqaga tashlab, ko‘zlaridan o‘pdim, keyin sochlarini uzoq siladim. U pinjimga tiqildi, tizzamga boshini qo‘yib, entikib-entikib nafas ola boshladi.

– Demak, bu yolg‘on ekan-da, – dedi u sekingina, so‘ngra meniga qiyo boqib, uyalinqirab jilmaydi. – Yolg‘onmi, axir? – u kulib yubordi. – Xo‘p, mayli, ketdik. Faqat, men chashmaga yugurib borib, ko‘zlarimni chayib kelay.

Asta-sekin chaqchaqlashib keta boshladik. Oldinda birinchi yassitog‘lik oqarib yotardi. So‘ng tunda xavfli bo‘lgan tik balandlik boshlandi. Biz allaqanday tog‘ qushlarini qo‘rqitib yuborardik, ularning bezovta, yovvoyi chinqirig‘i atrofning erinchoq sukunatiga g‘arq bo‘lib ketardi. Natasha ortimdan kelar, men u yer-bu yerda to‘xtab, qo‘limni uzatardim, u balandlikka tirmashib chiqardi. Pastak osmon ostida asriy sukunat hukmron, faqatgina oyog‘imiz tagidan toshlarning tushib ketgani eshitilardi, xolos.

– Bu zulmatda yurish juda xavfli, – dedim chuqurlikni sekin aylanib o‘tarkanman.

– Jarga tushib ketmasak go‘rga edi.

– Tushib ketmaymiz. Sovqotmadingizmi?

– Oz-moz. Bu yerda havo juda siyrak. O‘tlarning hidini tuyayapsizmi?

– Ehe-he-hey! – qichqirdim men va aks sado birdaniga yuz karra takrorlanib, chuqurlik, daralar bo‘ylab gumburlab ketdi.

– Naqadar qo‘rqinchli, – shivirladi Natasha.

Biz birinchi yassitog'likka yetib kelgandik. Shundoqqina jarlik yoqasiga o'tirdik. Natasha qo'limni olib, ko'ksiga yashirdi. Qo'lim uning nafas olishidan yengil titrab turardi.

– Siz meni unutasiz, Natasha, – dedim. – O'zimni adoyi tamom etayotganim, ikki tomondan yoqayotganimni tobora ko'proq o'ylayotirman. Ehtimol, yaqin orada yoningizga borib, muhabbatimni izhor etaman, sevgingizni sadaqadek tilanaman, siz esa meni quvib yuborasiz.

– Xo'sh, hozir-chi, – so'radi Natasha.

– Hozir juda qo'rqib ketyapman. Hech narsani fikrlamay, hech nima haqida o'ylamay, hayotga, sevgiga, xuddi mana shu jarlikka tashlanganday tashlangim keladi. Nazarim tushgan mahal sizni sevaman va ayni paytda irodamni bus-butun egallovchi bu muhabbatni mahv etmoqchi bo'laman. Lekin Xadicha... – Birdan jimib qoldim. – Men dali-devonaman, – dedim so'ngra shaxt bilan. – Men insoniyatning jamiki qonuniyatlari ustidan kuldum.

– Qo'rqinchlimi, – quvlik bilan so'radi Natasha va yelkalarimdan quchdi. – Qarang, tog'lar naqadar go'zal tun og'ushida. Yavshanning hidini sezyapsizmi? Kimdir men va boshqa bir ayol sevgisini tarozi pallalariga tashlayapti. Mening pallam borgan sayin bosib, og'irlashib borayotir.

U tiz cho'kib, yomg'irpo'shini yechib tashladi, g'ira-shira oqarib turgan ko'ylagi yoqasini ochdi.

– O'ping, – amr etdi qiz barmoqlari uchini siynasiga tekkizib.

Uning siynasidan bo'sa oldim. Olisda kuchli gumburlash bilan tosh ko'chdi.

– Endi azob-uqubatdan xalos bo'lasiz. Endi – menikisiz. O, endi meni tashlab ketolmaysiz, chunki muhabbatdan qochish kulgili va ahmoqlikdir, – dedi Natasha.

Vujudimda charchoq va ayni paytda allaqanday yangilanish his etardim.

– E-he-hey! – yana cho'zib qichqirdim-da, atrofga quloq tutdim. Babuganyayladan sekin-asta so'nib boruvchi aks sado eshitilardi.

Biz ehtiyotkorlik bilan kulba tomon borardik. Natasha qo'limdan ushlab olgan, quyuq tikanli butalar ortidan yengil jarang eshitilardi. Men ovoz berdim. Kimdir bo'g'iq tovushda javob qaytardi. Bu-

lar cho‘ponlar edi. Qari tatar baroq itlarni quvgach, kulbaga qanday yetib borishni uzoq tushuntirdi. U rus tilini buzib, zo‘r-bazo‘r gapirardi. Chol Natashaga jimgina, hayrat bilan nazar tashladi, kaftini peshonasi va ko‘kragiga tegizib qo‘ydi. Qo‘ylar qop-qora to‘da bo‘lib uxla-shardi.

Kulbaga yetib kelganimizda tun yarimdan oqqan edi. Derazani ta-qillatdim.

– Kim u? – so‘radi Seredinskiy devor ortidan.

– Men, Maksimov, – oching eshikni, hamrohimni isintirish kerak.

– Hamrohingiz kim?

– Hozir ko‘rasiz.

Seredinskiy uzoq kuymandi, nimanidir tushirib yubordi, so‘ngra sekingina eshik tambasini oldi. Issiq havo dimoqqa urildi. Sere-dinskiy qorong‘ida Natashani tanimadi.

– Hayratdan qichqirib yubormang, – dedim unga, – bu Natasha.

Seredinskiy shoshib qoldi.

– Natasha, azizim, jinnivoy, tunda shu sayoq bilan yuribsizmi? Qanday qilib jarga tushib ketmaganlaringga hayronman. Qachon kel-dingiz? Biz u endi kelmasa kerak, deb o‘ylab, ertaga qaytishga qaror qilgandik.

– Xadicha qayerda? – so‘radim men.

– Uxlayapti. Shovqin solmang. U charchagan. Tog‘ havosi kishini juda bo‘shashtirib yuboradi. Xo‘sh, Moskvada ahvol qanday?

– Keyin gaplashib olaverasizlar. Choy qaynatish kerak, – dedim men.

Pastakkina xonaga sassiz kirdik. Cho‘yan pechkadan kuchsizgina qizg‘ish nur taralib turar, qora archa hidi anqirdi. Devor tagida Xadi-cha uxlab yotar, yuzi bolalarnikidek toza va xotirjam edi.

Natasha yomg‘irpo‘shiga o‘ralib olib, manqal yonidagi yog‘och kursiga o‘tirdi, Seredinskiyning savollariga quloq solmay, Xadichaga uzoq tikildi. So‘ngra meni yoniga chaqirdi.

Xadicha birdan o‘rmidan turdi-da, cho‘kkalab o‘tirdi. Keng turk shol ro‘moli yelkasidan tushib ketdi.

– Kim bu? – so‘radi u. – Keldingmi? Senga ko‘p intizor bo‘ldim. Juda sovqotgan bo‘lsang kerak.

– Xadicha, – dedim men, – yolg‘iz emasman, Natasha bilan kel-dim.

Xadicha tez o'rnidan turdi.

– Ma'zur tutasizlar, bu yer juda qorong'i, – dedi u sochlarini tuza-tar ekan. – Nega meni uyg'otmadinglar?

Xadicha Natashaning yoniga kelib, uning qo'lini qattiq qisdi.

– Qo'lingiz muzday. Seredinskiy, may bering. Bu yerda, tog'da, tunlar juda salqin, – dedi u.

Bir stakandan may ichdik. Seredinskiy choy qaynatdi. Qotgan patir bilan choy ichdik. Natasha Moskva haqida hikoya qilar, terlagan derazalar ortida yulduzlar titrog'i ko'zga tashlanardi.

So'ngra yerga yotib olib, so'nib borayotgan ko'mirning xira yog'ida uzoq suhbatlashdik. Xadicha o'zining shol ro'molini Natashaning ustiga yopib qo'ydi. Chirildoq chirillar, tog'larda gumburlab tosh ko'chgani eshitilardi.

Tumanli, issiq peshinda baliqchilar qishlog'iga qaytdik.

– Naqadar ajoyib joy, – dedi Natasha qo'limni qo'yib yubormay. Uning ko'zlarida suvda aks etgan quyosh nurlari jilvalanardi. – Nima bu? – so'radi qiz.

– «Vive la vie et la mer», – dedi Seredinskiy. – Qarang, Natalya Petrovna, – u Spiridonning uyini ko'rsatdi. – Bizning tashrifnomamiz. Ko'zga chippa yopishadi, shundoq emasmi? Bu kishi bo'lsa, bobomiz, Spiridon Yaroshenko, «Vesta» kemasining iste'fodagi botsmani. Sen, «Vesta»da qachon suzgan eding, bobo?

– Hali Aleksandr Ikkinchi poshsholikka kelmasidan oldin, turk urushi paytida.

– Ko'rdingizmi, – dedi Seredinskiy, – biz dengiz va sodda-oddiyliklar bilan qurshab olinganmiz.

– Yaxshi, – entikdi Natasha. – Ko'zlarim yumilib ketyapti, havo ta'siridanmi, yoinki yavshandanmikin, bilmadim.

– Yuring, – Xadicha uning qo'lidan ushladi. – Uyga kiraylik, siz toliqingiz.

Xadicha Natashani o'z xonasiga olib ketdi. Seredinskiy dasturxon tuza boshladi, men va Spiridon ayvoncha zinasida o'tirib olib, hozirgi zo'raki kemachalar haqida chaqchaqlashardik. Spiridonning so'zlari qulog'imga unchalik kirmas, Xadichaning xonasida ovozlari, suvning shaloplagani eshitilardi.

– Sen unga qara, – derdi Spiridon qora barmog'i bilan «Gurzuf»ning oq-ko'k siymosiga ishora qilib. – Kemachaning

tumshug'i qayoqqa ko'tarilganini ko'ryapsanmi? Kema desang, kema emas, tog'ora desang, tog'oraga o'xshamaydi, bir so'z bilan aytganda, odessaliklarning ishi-da, shamolda ag'anab ketishi hech gapmas. Daydi it, yelkan ostida yurishini tasavvur ham etib bo'lmaydi.

Xadichaning xonasidan bitta-yarimta so'zlar quloqqa chalinardi. «Bilaman, albatta...» derdi u.

So'ngra Natashaning ovozi eshitildi: «Demak, tamom... Juda ahmoqona ekanini tushunib turibman... Men boshqa gapirmoqchi emasdim... keyin...»

– Keragiyam yo'q, – dedi Xadicha ochiq-oydin. – Bundan yaxshiroq bo'lishi mumkinmi? Ketdik.

Ular xonadan chiqib keldilar. Stol atrofiga o'tirdik, Spiridon ham bizga qo'shildi.

Natasha hammadan ko'proq kular, kulgusi asabiy, juda shoshqaloq edi. Xadichaning xonasida hammasi hal bo'lgan, men buni taxminan his etib turardim. Xadicha beparvo, Vinklarning o'limidan so'ng uni birinchi marta shu tarzda ko'rishim edi. Seredinskiy qo'shiq aytar, har xil bo'lmag'ur voqealarni hikoya qilar, goh-goh telbalarcha qichqirib qo'yardi: «Eh, juda zo'r-da!»

Yolg'iz men sergak turardim. Hammamiz masxarabozlik bilan mashg'ul edik, bir-birimizning yuzimizga qarashga botinolmasdik. Bir qarorga kelish kerak: yo shu yerda qolaman, yoinki ertaga Natasha bilan jo'nab ketaman.

Lekin ne hojati bor? Natasha bilan yashash mumkin emas. Bir oy birga bo'lamiz va shu bilan hammasi tugaydi. Shunday kishilar bor-ki, ular xuddi soatdek har kuni bir maromda chiqillab, tezda jonga tegadigan sevgiga toqat qila olmaydilar. Bir oydan so'ng uni burab qo'yish lozim. So'ng murvat bo'shshadi, endi bir oyda bir marotaba emas, har kuni burashga to'g'ri keladi. Yo'q, bu dahshat.

«Jin ursin! – ko'nglimdan o'tkazdim men va nonni ushatdim. – Hal etib bo'lmaydigan narsa haqida o'ylaganim yetar endi. O'ylash bu – doirani aylanib, yana o'sha nuqtaga qaytish, so'ngra yana hammasini boshqatdan boshlash demakdir. Nima bo'lsa, bo'lar».

– Sizga nima bo'ldi? – so'radi Natasha. – Bir kalima ham so'z aytmadingiz. Shunday serquyosh, ajoyib kunda bu qilg'ingiz joizmi?

Shu asnoda dengiz uzra bir juft erinchoq gumburlash eshitildi.

– E-he, – dedi Spiridon sevinib. – Tendradagi eskadra, jangovar snaryadlar otishyapti. Xudo xohlasa, otib-otib, yomg‘ir chaqirishadi. Bog‘cha qurib qolay deyapti, axir.

Kun bo‘yi ufq ortida eskadra gumbur-gumburi tinmadi. Natasha so‘zi og‘zida, halinchakda uxlab qoldi.

– Charchadi, – dedi Xadicha. – Qara, faqat juda baxtli odamlargina shunday uxlaydi.

Natashaning yuzi oppoq, bir tekis, xotirjam nafas olar, bolalarni-kiday uzun, qayrilma kipriklari qovoqlariga soya solar, dudoqlari nim ochiq edi.

– Men uni yaxshi ko‘rib qoldim, – dedi Xadicha jilmayib. – Ko‘zlaringni yashirma, haqiqatan ham yaxshi ko‘rib qoldim. Bilaman, faqat uni o‘ylaysan. Endi quloq sol. Seni sevib qolganimga ko‘p, juda ko‘p vaqt bo‘ldi. Bu hozirgi uchrashuvimizdan ancha oldinroq ro‘y bergan edi. Keyin Moskvaga jo‘nading, xatlar yozding, bir gapni aytding, bir gapni aytmading. Vinkler o‘lib ketdi, sen men uchun eng yaqin, eng kerakli odam bo‘lib qolding. Vujudingga singib ketdim, sensiz men uchun hayot yo‘q. Qaysar odamman, biror ishni chala qoldirmayman, buni bilasan. Har bir kuningni o‘ylab, tashvish-tahlika bilan limmo-limman. Ko‘pincha odamlarga ular seni ardoqlaganlari uchungina yaxshilik qilaman. Sening qiynalishlaring shohidi bo‘lguncha, yashamay qo‘yaqolganim afzalroq. – U teskari o‘girildi. – Shuni angladimki, hayotingda ko‘plab yiqilish va ko‘tarilishlar bo‘ladi, hali yana ko‘p martalab oshiq bo‘lasan, azob chekasan – chunki har yangi muhabbat – yangidan tug‘ilishdir. Lekin men doimo yoningda bo‘laman, chunki ikkimizning maqsadimiz bir – sening ijoding. U hammaning mulki. Sen yozgan va yozajak hamma narsalar menga yetkazayotgan aziyatlarindan yuqori turadi. Men hech kim azob chekmasligini istayman. O‘tmishim va kelajagim faqat senda mujassam. Endi hammasi aniq-ravshan. Mana, Natashani olaylik, – dedi u va ovozi titrab ketdi. – Men unga va o‘zimga boqib o‘ylayman: qaynona-kelin, ona-bola... – takrorladi Xadicha va kulib yubordi. – Har ikkisi ham yigirma to‘rt yoshda. Lekin agarda yozmay qo‘ysang, fikrlashni va inson sifatida o‘shishni bas qilsang, sendan yuz o‘giranman. Demak, shunga kelishdikmi?

– Ha, uyalib ketyapman. Men uzoq bosh qotirgan masalalarni sen juda osongina hal etasan.

– Men bir kunda ulg‘ayib qoldim, – dedi Xadicha, uning yuqori labi titrab ketdi. – Bu haqda gaplashganimiz yetar, endi.

Kechqurun biz qirg‘oqda, to‘ntartilgan qayiq ustida o‘tirardik.

– Bratovshinadagi oqshom yodingizdami? – so‘radi Natasha. – O‘shanda Taraxankut yaqinida kemalarning tungi uchrashuvi haqida hikoya qilgan edingiz.

Seredinskiy hikoyani esladi va sekin-asta kuylay boshladi.

*Suv va zulmat aro xayrlar ayta
Ajrashdik, olis yo‘l quvonchdan ayro.
Angladik, bu fursat kelmagay qayta,
Sevmoq nasib etarmidi, diloro...*

Yulduzlar bir to‘g‘ri chiziqqa tizilganday shundoqqina tepamizda nur sochib, mayda to‘lqinlarda chayqalishar, sukunat cho‘l uzra qorayib turar, suv tepasiga kelganda lojuvard tus olar, Somon yo‘li sokin dengizda oq tasmadek yastanib yotardi. Ko‘rfazda suvning sekin-asta shaloplashi eshilib turardi.

– Chegaradan o‘g‘rincha o‘tkazilgan mollarni tushirishyapti, – shivirladi Seredinskiy.

– Tun yarmidan og‘di, – dedi Xadicha sekingina. – Spiridon bobo aytganiday, yarim tunda yulduzlar yugur-yugurlarini sekinlashtiradilar, dengiz tubidan delfinlarning uyqu aralash xo‘rsinishi eshilib turadi. Besh soatdan so‘ng siz jo‘nab ketishingiz kerak.

Natasha qorong‘ida qo‘limni qidirib topdi-da, xuddi o‘rmondagi o‘yin paytidagidek qisib qo‘ydi.

– Chiroqlarni ko‘ryapsizmi? – so‘radi u, nafasi yonog‘imni siypalab o‘tdi. – Ko‘ryapsizmi to‘rtta chiroqni?

Dengizga tikildim, haqiqatan ham chiroqlar miltirardi.

– Tendradan Sevastopolga ketishyapti. Yuk kemalari bo‘lishi kerak.

Chiroqlar uzoq miltirab, so‘ngra dengizga cho‘mib ketishdi.

– Siz bir umr kutayotgan odam o‘sha yerda bo‘lsa-chi? – so‘radi Seredinskiy Xadichadan.

– Yo‘q, biz u bilan bir kemadamiz, chiroqlarimiz ajrashib ketmaydilar.

Natasha kulib yubordi.

– Maksimov, bo‘yningizga oling, siz hikoya qilgan darg‘a hayotda bo‘lgan emas.

– Yo‘q, bo‘lgan.

– Qo‘ying, qaysarlik qilmang. Agarda bo‘lmagan bo‘lsa, hammadan yaxshi. Kishi qandaydir yengil tortadi, shunday emasmi?

Qirg‘oqdan shamol esardi. Dengiz uyqusida onda-sonda xo‘rsinib, qum ustida suron solar, shovqin Mag‘rib-u Mashriq tomon uzoq-uzoqlarga ketar, so‘ng atrofni yana sukunat qoplardi.

Biz uyga qaytib, choyni isitdik. Sham yog‘dusida hammaning yuzi horg‘in ko‘rinar, alanga qimir etmas, deraza ortida yulduzli zulmat osilib turardi.

Xadicha Natashaga uzoq tikilib qoldi.

– Siz nega ketyapsiz?

Natasha boshini egganicha, shakarni qoshiqcha bilan aralash-tirardi. Qo‘llari, egilgan boshida jur‘atsizgina nur o‘ynab, so‘ngra ko‘zlarida kichkina alanga bo‘lib charaqladi.

– Sizlar bilan birga bo‘lish juda yaxshi, – dedi u bo‘g‘iq ovozd. – Ana shu tun bir umrga tatiydi.

Qum ustida og‘ir qadamlar g‘ichiri quloqqa chalindi. Ko‘rfaz o‘rtasida, shundoqqina suv yoqasida sariq fonus chayqalardi. So‘ngra cho‘ziq tovush eshitildi:

– Hoy, qirg‘oqdagilar, qayiqni jo‘natinglar!

Xadicha Natashani o‘pdi. Qorong‘ida kula-kula, paypaslanib, qayiqqa chiqdik. Xadicha:

– Men sizlarni shu yerda kutib turaman, – dedi.

Qirg‘oqdan uzoqlashib, tun bilan ro‘baro‘ bo‘ldik. So‘ngra suv qorayib, unda fonus chayqala boshladi, maxorka hidi anqidi.

– Hoy, kemadagilar, arqonni ushlang!

Qayiqdan kema sahniga ko‘tarildik. Natasha meni va Seredinskiy-ni o‘pib qo‘ydi, so‘ng qulog‘imga shivirladi:

– Endi men sizni yanada qattiqroq sevaman.

Motor bo‘g‘iq gurilladi. Natasha kema quyrug‘ida turar, uni tuman o‘rab olgan, qiz nimadir deb qichqirardi.

– Hech nima eshitilmayapti! – baqirdim men qayiq quyrug‘idan turib.

Shunda qorong‘i dengiz qa‘ridan uning tuman ta‘sirida pasaygan bo‘g‘iq ovozi eshitildi:

– Tezroq Moskvaga boring!



UCHINCHI QISM

URUSHNING ODDIY KUNLARI

Shishadayin tiniq tiyramoh

Iyulning o'rtalarida, shabada g'ir etmagan, g'oyat issiq bir oqshom payti baliqchi Andryuxa biznikiga yugurib keldi.

– Pyotr Andreyevich, urush! – qichqirdi u hansirab. – Eshityapsizmi, uv tortib yig'lashyapti?

Biz quloq tutdik. Haqiqatan ham, baliqchilarning xotinlari ovoz solib yig'lashar, butun qishloq noaniq bir shovqin-suron, yo'talishlar bilan to'la edi.

– Nimalarni valdirayapsan?

– Oqmachitdan uryadnik keldi – safarbarlik e'lon qilinibdi! – dedi Andryuxa.

Biz bir oydan beri gazeta o'qimay qo'ygandik.

Butun oqshom dengiz sohilida o'tirdik. Xadicha qo'limni mahkam ushlab turardi. Baliqchilar bedor, hamma uylarda chiroqlar yonar, bolalar yig'lashar, bezovta etilgan paxmoq itlar uvillashib, cho'lga qarab akillab qo'yishardi.

Hayot izdan chiqqani, eski yo'llar yo'qolib, hammamiz – Xadicha, men, Natasha, Seredinskiy – urush va Rossiya atalmish bir oqimiga tushib qolganimiz darhol ayon bo'ldi.

Oqsoqlanganicha Spiridon chol keldi. Yonimizga o'tirib olgach, so'z qotdi:

– Ana shunaqa! Eshitdilaringmi? Taraxankut mayog'ini o'chirishibdi, demak, urush boshlangani rost. Yoshlik sizlarga nima uchun berilgandi o'zi? Endi bekordan bekorga o'tib ketadi. Eh, shu yerda yashayverardinglar, maza qilib. Odamlarga orom yo'q, qon

ko'rmay, yigirma yil ham yashay olmaydilar. Tupurdim hamma-siga!

Tun bo'yi mijja qoqmadik, ertalab esa Xorlovdan kelayotgan, zang bosgan «Viktoriya» kemachasiga o'tirib, Sevastopolga jo'nadik.

Spiridon chol titroq qo'li bilan hassaga suyanganicha, sohilda yalangbosh turganicha, mijja qoqmay bizga tikilar, yonoqlaridan yosh oqardi.

– O'lgunimcha sizlarni kutaman! – qichqirdi u g'arib, xirildoq to-vushda, biz qayiqda jo'nab ketar ekanmiz.

Sevastopolda biz Xadicha bilan xayrlashib, Odessaga borayotgan «Aleksey» kemasiga chiqdik. «Viktoriya»da suzayotganimizda Xa-dicha butun yo'l davomida sukut saqladi, faqat, najasga to'la, saro-sima, olag'ovur «Aleksey»ga qadam qo'yishimdan oldin u meni sho-sha-pisha quchdi.

Tunda sovuq shamol esa boshladi. Biz issiq, cho'yan pollari shov-qin solib turgan mashina bo'limi yaqinidagi burchakka tiqildik. Yoni-mizdan minonosets chiroqlari suzib o'tdi, so'ngra Qrim sohillari kul-rang qorong'ilik qa'riga g'arq bo'ldi.

– Hayot ostin-ustun bo'lib ketdi, – dedi Seredinskiy. Uning yuzi bujmayib, ko'mir changidan qorayib ketgandi. Paltosi yoqasini ko'tarib, bo'ynini ichkari tortdi va kema quyrug'ida hosil bo'layotgan ko'pikli kulrang izga kiprik qoqmay uzoq tikilib turdi.

– Nafsilamriga, biz qayoqqa ketayapmiz o'zi?

– Moskvaga.

– E-ha, darvoqe, Moskvaga. Albatta-da. Men axir, u yerda hozir bo'lishim kerak-ku. Odessa orqali ketamizmi? – yana savol berdi u menga ma'nosiz nazar tashlab.

– Fikrimcha, shunday.

Diqqinafas Odessani, keng ko'chalardagi iliq nurni, akas da-raxtlarining chang bosgan yashil barglari va tinib-tinchimas gazeta-chilarni uyqudagidek elas-elas eslayman. Dengiz bilan xayrlashish uchun Lanjeronga bordim. Botayotgan quyosh nurlaridan sariq va yovvoyi tus olgan ko'rfazning shimoliy qirg'og'i yolqinlanib tu-rardi.

Oqshom qorong'iligi ajabtovur lojuvard yormadek sochilayotgan Janubga, Xadicha qolib ketgan Qrim tomonga uzoq tikildim. U yoqda

sukunat, jimjitlik hukmron. Aleksandr bog‘ining asfalt xiyobonidan chiroqlari o‘chirilgan tramvaylar asta-sekin o‘tib ketishardi.

Bir kundan so‘ng vagon derazalari yonidan tuman qo‘ynidagi Kiyev, osmono‘par imoratlar va teraklarning ignadek uchlari, shaffof Dnepr, daryoning sayoz qumloqlari, sambittollar lip-lip etib, o‘tib ketdi.

– Tez orada Rossiyada bo‘lamiz, – dedi Seredinskiy quvonch bilan deraza yonida tik turganicha.

Avval kimsasiz bo‘lgan bekatlar bizni ayollar yig‘i-sig‘isi, garmonikalar xirillashi va ovozlar guldurosi bilan qarshilardi. Safarbar etilganlar o‘zlarini vagonlarga urishar, ulardan aroq, qoramoy, yomg‘ir hidi anqirdi. Suhbatlarda «urush» degan qisqagina so‘z borgan sari ko‘proq takrorlanardi.

Erta tongda tantanavor, hayajon qoplagan Moskvaga yetib keldik. Hamma yoq harbiylar bilan to‘la, choparlar u yoqdan bu yoqqa yugurib yurishar, Tver ko‘chasida olomon shovqin solar, xiyobonlar doirasi bo‘ylab, ikki g‘ildirakli aravalar, to‘plar qator turar, harbiy karvonlar taraqqat etishar, avtomobillar chinqirgancha o‘tib qaytishardi.

Oqshomlari polklar bir maromda qadam tashlab, Brest vokzaliga borishar, Zafar darvozasi oldidagi chiroqlar xira yoritgan maydonda cho‘ziq «ura» sadolari yangrab turardi.

Moskvada Seredinskiy ikkimiz Georgiyevskiy tor ko‘chasidagi uyning to‘rtinchi qavatiga joylashdik. Derazalardan Patriarx hovuzi, Kremlning qirmizi gumbazlari, hovlilar ichkarisidagi bog‘lar, oltinrang tus olayotgan xiyobonlar ko‘rinib turardi. Seredinskiy allaqachon praporshchik libosini kiyib olgan, har ertalab otish mashqlari o‘tkaziladigan dalaga yo‘l olar, kechga tomon, changga botib, horibolib qaytardi.

Biz urush, Fransiya haqida ko‘p gapirardik, ikki abadiy shahar, ikki Vatan, Moskva va Parij uchun jonni qurbon etsa arziydi, deya imon keltirardik.

Tiramoh kunlari nurlanar, kuzning och ko‘k rangidagi arg‘uvon barglari tillodek tovlanardi. Bu mislsiz oqshomlarda Moskva osmoni xira nurdan yarqirar, salqin tunlardan barg hidi kelardi. Butun shahar bedordek tuyular, barcha uylarda bayramga tayyorgarlik ko‘rilardi

go'yo. Men o'shanda buyuk ofatlar ham xuddi katta bayramlardek his etilishini tushunib yetdim.

Kunlarning birida Seredinskiy va shaharlar uyushmasiga a'zo bo'lgan Semyonov bilan Brest vokzalidan Kudrinoga borayotgan edik. Natasha Qrimda qolib ketgan, Semyonov undan xavotirda edi. Bevalar uyi cho'yan panjarasi oldida Semyonov to'xtab, papiros chiqardi.

– Rossiya qo'zg'aldi, – dedi u papirosni o't oldirar ekan. – Nimadir ro'y beradimi? Men bu sarxushlik, mastlikka, qon va o'limdan go'zallik tug'ilishiga, qon to'kish madaniyatni saqlab qolishiga ishonmayman. Biz g'oyat og'ir yukni yelkamizga oldik, bu yukdan zo'riqib o'lmasak, go'rga edi.

Tunda sovuqdan uyg'onib ketdim. Ochiq deraza ortida oppoq yulduzlar charaqlar, kechikkan tramvaylar gumburlar, sovuq bog'dan maysimon sharbat chakillardi.

Semyonovning gaplari esimga tushdi. Nimaga olib keladi bularning hammasi? U o'ylaganidek, buyuk ofatgami? Yoinki buyuk o'zgarishlargami? Xotirjam yulduzlar burjiga tikilganimcha, Moskva-ning bo'g'iq shovqinini uzoq tingladim, unga bo'lgan muhabbat hissi-dan yuragim hapriqib ketdi.

Jang maydonlari

Ko'p o'tmay men xalq lashkari tezkor guruhi bilan frontga jo'nab ketdim.

Biz Brestda uzoq vaqt turib qoldik.

«Men Brestdaman, – yozdim Xadichaga bitgan maktubimda. – Shahar tashqarisidagi izlarda turibmiz. Qor yog'ayotir, oldinda esa olovning oq dengiziday bo'lib vokzal alanganadi. Kimsasiz, qorong'i bir burchakda o'tirib, senga xat yozyapman. Tun shu qadar sokinki, urush ham, o'tmish va bugungi kun ham yo'qday tuyuladi. Yolg'izman. Sensiz menga juda og'ir. Guruhimizda yoshlar ko'p, ko'ngilxushliklar yetarli. Moskvada sanitar sifatida ko'p ishladim.

Bu yerda, askarlar, uzun eshelonlar, yaradorlar va asirlar orasida, janggohlar yonginasida urush degan qabohat naqadar yomon ekani-

ni anglay boshladim. Men bu yerdan yuz chaqirim narida oryollik va kursklik, ortida jonajon Moskva turgan butun rossiyaliklar najas bosgan dalalarda loyga yotib olib, tun, zulmat, shamol qa'riga o'q otishlari to'g'risida o'ylayman. Minglab chaqirim nariroqda esa – nemislar, fransuzlar, belgiyalik, shotlandiyaliklar va ularning ortida – Parij, Myunxen, jonsiz Bryugge. Biz bularning hammasini yengil, sodda izohlashga harakat qilsak-da, mavhumliklar juda ko'p va men hali to'lig'incha tushunib yetganim yo'q.

Ertaga Kelsiga boramiz. Bizning rahbarimiz – mayda aslzodalar oilasidan bo'lgan polyak. U ko'zlarini baqraytirib, aql bovar etmaydigan hikoyalar qiladi va bularning hammasi rost, deya qasam ichadi. Hamshiralari uni juda yaxshi ko'rishadi. Hozir u katta sanitarlar bilan qarta o'ynayapti.

Shu o'tgan kunlar mobaynida qanchalar o'ylaganimni yozish juda qiyin. Xavotirlanma, tezda yana xat yozaman. Mendan dengizga salom ayt. U bilan Odessada xayrlashgandim».

Brestdan jo'nab ketayotganimizda qontalash dalalar uzra qorli bulutlar o'tib borar, ho'l butazorlar va cho'llardagi ko'lmaklarni to'qlinlantirayotgan shamol hidi anqirdi.

Lukov yaqinida poyezd kichik bekatda uzoq turib qoldi. Shag'al ustida qadam tovushlari eshitar, yomg'ir zarhallagan o'rmonlarda yirik tomchilar chakillardi. Dengiz sohilidagi quruq tutun, shamol va sariq akas daraxtlari qo'zoqlari shiqirlashi bilan yo'g'rilgan tiramoh, Moskvaning sovuq, yopishqoq, shilta kuzi yodimga tushdi.

Endi esa Polsha dalalarida kuz. Chorrahalar yomg'irdan qoraygan, zarang daraxtlari qizg'ish tovlanadi. Brest tomondan to'plarning og'ir gumburlashi eshitar.

Bu adoqsiz, uzundan uzoq kunning oxirlarida Ivangorod yaqinidan sudralib o'tdik. Vagon derazalaridan dala, qirg'oqlarida to'da to'da oq tollar o'sgan sersuv Visla ko'rindi.

Ko'prik ortida osmon osilib qolgandek edi. Poyezd cho'kib qolgan, simband temir yo'l ko'tarmasidan o'rmaslab borardi. Ko'rsichqon iniga monand, suv to'la kichik-kichik xandaqlar ufqqa qadar cho'zilib ketgan, jizg'anak oq tollar qora, bahaybat qo'llarini yomg'irli osmonga cho'zib turishardi. Snaryaddan hosil bo'lgan xandaqlarda tunuka qutilar suzib yurar, zanglagan

shrapnel stakanlari, ko'k shinel yirtilarlari, pachoq nayzalar, kamar va mis gilzalar loyga qorishib yotardi. Shishib, tarashaday qotib qolgan ot loشلari to'rt oyoqlarini ham osmonga ko'tarib, rahmshafqat tilashardi go'yo.

Mashriq tomondan zangori zulmat bostirib kelar, Mag'ribda shafaq qonli yaraga o'xshab, yonib, kul bo'lib borardi. O'rmondagi vayrona bekatda markitant¹ juhud ayol menga bir stakan tussizgina choy quyib uzatar ekan, qattiq «uf» tortdi.

– Oh, oh, avstriyaliklar biznikilar bilan chunonam olishishdiki, hech qo'yaverasiz... Biz yerto'lada o'tirardik, tepada bo'lsa, nuqul «ura», baqir-chaqir, gumbur-gumbur. O'rmon dushman askarlarining kiyimlariga o'xshab, ko'karib ketdi, ular shunchalar ko'p edi. Ibodatxona hamon yonyapti – sag'analarda juda ko'p odam bo'g'ilib o'ldi.

Poyezdda shamlar yoqildi. Vagonlarga chiqishga undovchi burg'u tovushi yangradi.

Jarangdor, yig'loqi bu ovoz harbiy manzil, qo'nalg'alar aks sadosiday bo'lib, tiramoh tumanini teshib yubordi.

Radom yaqinida biz bir necha kun turib qoldik. Bekat oldidagi baland arg'uvon daraxtlarini makon tutgan qarq'alar qag'illashar, hamshiralalar yara bog'lashga kerak bo'ladigan ashyolarni tayyorlashar, eshelonlar o'tib turardi. Maydonchalarda ikki g'ildirakli aravalalar risoladagidek bog'lab qo'yilgan, choynak ko'targan askarlar yugurib yurishar, soqchi-nazoratchilar platforma bo'ylab erinibgina odimlashardi.

Onda-sonda uzundan uzoq sanitar poyezdlari o'tib qolar, movut yaktak kiygan yaradorlar – o'zimizning tulalik ishchilar, tatarlar, qisq ko'zli qirg'izlar, qora, barvasta ukrainlar – vagonlardan o'rmalab chiqib, savdogar ayollardan kolbasa, tamaki, non xarid qilishardi.

Bernard ibodatxonasi

Guruhimiz Xensin nomli tog'lik maskanda turardi. Biz kostel² kiyim-kechak, yotoq anjomlari mutasaddisining toshdan ishlangan uyida yashardik. Oshiq-moshig'i o'rmiga tushirilmagan derazalardan sovuq shamol kelar, sopol koshinli pechlarni yoqib, bekorchilikdan

¹ *Markitant* – qo'shin bilan birga yurib, oziq-ovqat sotadigan savdogar.

² *Kostel* – polyak katolik cherkovi.

zerikib o'tirardik. Kozlovskiy bo'lsa, projektor rotasi ofitserlari bilan qartabozlik qilardi.

Onda-sonda, tun yarmida bizni uyqudan uyg'otishardi. Chiroq yorug'ida otlarni aravaga qo'shib, o'nqir-cho'nqir yo'llarda, yopish-qoq loyda sirpanib, yiqilib-turib, oldingi marraga borardik. Pulemyotlar tirillar, yomg'irli tunlar qa'rida signal raketalari nurlanar, nemis snaryadlari boshimiz ustidan quloqni teshgudek chinqiriq bilan o'tib ketishardi. Otlar bir-birini tishlar, uyqusiragan sanitarlar qoqilib-turinishar, tovuq axlati hididan sasib ketgan chordevorda dala telefoni g'o'ng'illar, yaradorlar oh-voh chekishar edi.

Tongga yaqin egarda chayqala-chayqala mizg'ishga harakat qilib, manzilizimga qaytardik. Ho'l yuganlar barmoqlarimizni og'ritar, xuddi esnagandek gumburlab, kechikkan o'q ovozlari eshitalardi.

Kunlarning birida Kozlovskiy meni Kelsiga yubordi. Otda jo'nadim. O'rmon bilan qoplangan tepaliklardan rutubat oqib tushar, ho'l ninabarg daraxtlar hidi anqirdi. Askarlar shinellarini tizzalaridan balandroq shimarib, ko'lmaklardan ketib borardilar. Etap komendant-i qo'nalg'asi tepasidagi yomg'irdan rangi o'chgan qora-sarg'img'ir bayroq ayol etagiday shapillab, yog'och dastakka urilar, uy yonida chelakka monand past qo'njli qizg'ish etik kiygan nemis asirlari turishar, yomg'ir tomchilari ularning po'lat qalpoqlari ostidan tikanak mo'ylovlariga oqib tushardi.

Kelsiga kiraverishdagi tashlandiq g'isht zavodiga yetib kelganimda, olis-olislarda jang boshlanib qoldi.

Askarlar qiynalib, jonidan to'ygan, arzon-garov fohishalar bilan bu yerga bekinib olishgandi.

Gumbur-gumbur o'q tovushlari orasiga bo'g'iq bir zarba yorib kirdi, zamin qo'rqib ketganday qattiq «oh» chekdi, oldimda borayotgan askar alang-jalang cho'qinib oldi.

Uvishib qolgan barmoqlarim bilan cho'ntagimdan ezg'ilangan papiros qutisini zo'rg'a chiqardim-da, tamaki tutatdim. Otimning ho'l yollari yaltir-yultur etar, vokzalda parovozlar tinch-xotirjam hushtak chalishardi.

Shaharga kirganimdan so'ng, menga kerak bo'lgan omborni Kelsidan o'n chaqirim naridagi Zagnanskka ko'chirib ketishganini bilib oldim. Magistratura yaqinidagi shinamgina qahvaxonada biroz

mizg'ib olganimdan so'ng, otimni ko'chalar bo'ylab yo'rttirib ketdim.

Bernard ibodatxonasi oldida otdan tushib, yalang gumbazlar ostiga kirdim.

Hayot endi-endi boshlandi, lekin uni yakunlash qanchalar qiyin bo'lar ekan? Urush o'tmishni bekitib yomg'ir pardasiday qo'ydi. Xadicha, Natasha, Semyonov va mening o'rtamda minglab chaqirim masofa bor. Horg'inlik og'ir toshday yelkamdan bosib turibdi.

«Urush tezroq tugayqolsa edi», deya o'yladim va peshonamni egar qoshiga tiradim.

Qadrdon, beso'naqay Moskva. Tor-mor etilgan Polsha shaharlarida, qashshoqlik, ko'z yoshlari orasida, insonlar o'zlari yaxshi ko'radigan odamlardan olisda jon taslim etadigan, rutubatli harbiy kasalxonalarda men oddiy bir haqiqatni tushunib yetdim.

Biz hammamiz – onasini yo'qotib qo'ygan ojiz, aftodahol bolalarimiz. Kimningdir mayib-majruh etuvchi irodasi, g'oyasiga bo'ysunib, tunlari uxlamaymiz, terlama, qayg'u-g'am, sog'inch va ilma-teshik, yirtiq yaralar oqibatida halok bo'lamiz. Hech kim bizdan xabar ololmaydi, mehribonlik ko'rsatolmaydi.

«Xo'sh, keyin nima bo'ladi? Bu qabohat uzoq davom etadimi? – o'yladim badanim junjikib. – Bu sinovlardan o'ta olamanmi?»

Men og'zi qulog'igacha yirtilib ketgan yaradorlarning yuzini, odam suyaklari bo'laklarini, itlar zambildan yalayotgan qonni, qochqinlar dod-faryodini, bolaginalarning bilinar-bilinmas yo'l changi bosgan, ko'karib ketgan murdalarini, talon-torojni, osib o'ldirilgan juhudlarni, yonib ketgan kichik manzil-makonlardan anqigan sassiq jizg'anak, kuyindi hidini esladim.

Ibodatxona eshigi oldidagi ayvonda yomg'ir sovuq ko'lmaklarni savalar, qish mahv etgan qora qayin xazon yaproqlari sekin-asta yerga to'shalardi.

Jimjitlik

Zagnanskda deyarli qish bo'yi yashadim. Frontda jimjitlik, sukunat hukmron edi.

Tez-tez toqqa chiqardim, ibodatxona va Avliyo onaning chalachulpa bo'yalgan haykali oldidagi o'rindiqqa o'tirib olardim.

Cho‘yan sag‘analarda Sigizmund-Avgust hamda Aleksandr Birinchi davridan qolgan lavhalar zanglab yotardi.

Onda-sonda g‘adir-budur stolga o‘tirib, qog‘oz qoralardim, yoki karavotga yotib olib, Tagor asarlarini o‘qirdim. Lo‘liga monand hamshira Popova bo‘g‘iq tovushda shunday der edi:

– Bu – jinni. Urush paytida Tagorni o‘qiydi, har kuni soqol oladi.

Kunlarning birida Popovani qo‘shni qishloqdagi bemor huzuriga chorlab qolishdi. Men u bilan birga jo‘nadim.

Kasal qiz yotgan xonada cho‘tir ayol allaqanday nordon qaynatmali qozonlarni pechkaga qo‘yish bilan ovora edi. Sovuq tutun va chirigan latta-putta hidi anqir, o‘rindiqlar ostida qorni to‘q tovuqlar qaqog‘lashardi. Men gugurt chaqdim.

– Bemor qayerda?

– Huv, ana, o‘rinda.

Popova qizning yoniga bordi.

– Ajabo, – dedi u. – Bu yoqqa keling-chi. Boyaqish o‘lib qolgan-ga o‘xshaydi.

Qizchanning ko‘zlari allaqachon baqrayib qotib qolgandi. Men latta-puttalarni ko‘tarib, uning qo‘lini ushladim. Qo‘l sovuq edi.

– Xolajon, – dedim baland tovushda, – qizing o‘lib qolibdi-ku?

Ayol jim turaverdi.

– Qizing o‘lib qolibdi, – takrorladim yana baland ovoz bilan va gururt chaqib, soch tolalari yopishib qolgan chehrani yoritdim.

– Ha, – dedi ayol, sochlarini tuzatar ekan. – Hali kunduziyuq va-fot etgandi.

– Unday bo‘lsa, nega murdani o‘z holiga tashlab qo‘yibsan.

– Vaqtim yo‘q. Askarlar mol go‘shiti berishgandi, erimga karam sho‘rva pishirishim kerak. Yotaversin.

– Bu nima degan gap? – sekingina so‘radi Popova. – Ehtimol, u qizchanning o‘z onasi emasdir?

– Bu sening qizingmi?

– Ha, meniki, – ayol yana qozonlar yonida kuymana boshladi.

Men qizchaga, hamshiraning cho‘kib qolgan yelkalariga, xonaga kirib, eshik yonida beo‘xshov qaqqayib turgan papoqli askarga nigoh tashladim, Vinklarning o‘limini esladim.

– Ketdik, – dedim hamshiraga.

Tun tepaliklardan oʻrmlab tushmoqda, shilta loy izlarda chiroq nurlari oʻynar, harbiy aravalar karvoni askarlari soʻkina-soʻkina sanqib yurishardi.

Hoʻl paxtaga monand sariq kun tuman pardasiga oʻralib, oqshom tushganida, oʻringa yotib olib, «Gitanjali»ni oʻqiy boshlardim. Askarlar pastak derazacha ortidan qor va loy boʻtqasini shaloplatib, oʻtib-qaytishardi.

– Oʻziyam, bu yerning qishi-qishmisan, ekan-da, onasining goʻriga!

Devor ortida, mandolina¹ tiringlar, ingichka, xirilloq ovozli qoʻshiqchi erinibgina, zerikarli xirgoyi qilardi:

Es-hushimni yoʻqotdim butkul,

Yurakkinam toʻldi qonlarga...

– Poleshchuk! – qichqirardi yotgan oʻrnidan, «baza» boshligʻi talaba Vebel. – U hali koʻp angillaydimi?

– Bilmayman, – dahlizdan shosha-pisha javob qildi Poleshchuk.

– Ular qartabozlik qilishyaptimi?

– Aslo unday emas, yoʻq.

– Koʻzingga qara! Borsam, yana qarta-partalaringni yirtib tashlayman.

Onda-sonda, negadir, doimo oqshom chogʻida oziq-ovqat olib ketish uchun guruhdan karvon kelardi.

Devor ortida qiy-chuv, yugur-yugur boshlanar, otlar bir-birini tishlar, askarlar qichqirib, soʻkinishar, qorongʻida darvozani turtib oʻtib, hovliga kirishar va yangiliklardan voqif etishardi. Oldingi maralalarda sokinlik, katta hamshirani Moskvaga olib ketishdi, ob-havo oʻsha aytilganiday, Gerbi yaqinida arava shotisi sinib qolibdi va hokazo.

Soʻngra kiyim-boshi jiqqa hoʻl askar uyga kirib, eshik oldida tikka turar, burnini yengi bilan artib, qaytarmasidan maktublarni olardi.

Hamshiralar Popova, Maleyeva, kashiralik tentakkina, kulongʻich tibbiyot kursi tinglovchisi yugurib kelishar, biz choyxoʻrlikni boshlardik.

¹ Mandolina – torli cholgʻu asbobi.

Ba'zan cho'yan g'ildiraklarini gumburlatib, mash'allar yorug'ida artileriya o'tib qolardi. Yaltirab turgan ho'l yomg'irpo'shli qora shar-palar otlarini lo'killatib oldinga o'tishar, suvoriylar qamchilarini qar-sillatishardi.

Tarbiya ko'rgan artileriyachilar, biroz to'pori piyodalar va tinkasi qurigan front orqasi xodimlari – tullagan podalar, karvonlar boshliq-lari – o'tkinchi ofitserlar uyda tunab qolishardi. Ertalabga tomon ular-ning huzuriga qo'rquvdan tillari tanglayiga yopishib qolgan askarlar zo'r-bazo'r kirib kelishar va har doim bir xil gap-so'z boshlanardi:

– Sigirlarni qayerda yo'qotib qo'yding, surbet? – horg'in ovozda baqirardi poda boshlig'i. – Ko'zlaring razil sening, soqoldor!

Soqoldor qizargan ko'zlarini pirpiratib, yirtiq papog'ini g'ijimlaganicha sukut saqlardi.

– Nega kundaga o'xshab qaqqayib, jim turibsans?

– Yomg'irda bo'kib o'lishyapti, janobi oliylari, – bo'g'iq shivir-lardi soqoldor.

– Bo'kib o'lishyapti? Terisi qani, bo'lmasa? O'lgan mollarning terisini shilib olib kelish to'g'risida buyruq borligini bilasan-ku? He, jin ursin seni, yo'qol bu yerdan!

Ofitser g'amgin xo'rsinib, choy ichgani o'tirardi.

Kunlarning birida Alekseydan xat keldi: «Guruhing sanitarlaridan Zagnanskda ekaningni bilib oldim. Biz Skarjiskoda turibmiz. Kel-sang, yaxshi bo'lardi. O'zimning bu yerdan chiqa olishim dargumon».

Kechasi Aleksey bilan uchrashuv va Vinkler haqida o'yladim. Vinkler urush arafasida o'ldi. U urushning oddiy, g'amgin kunla-ri, qiymalovchi janglar, behuda xayollar nima ekanini bilmaydi, ho-jatxonaga aylantirilgan shaharlar, paytavasigacha shalabbo bo'lgan askarlar, sasigan yaralar va murdalarning baqraygan sariq ko'zlarini ko'rgani yo'q.

Shahar osmonidagi yulduzlar

Deraza ortida osmon zangori tus oldi. Olisda gumburlash eshilib, so'ngra yana takrorlandi. Ko'p o'tmay, zarbalar aralashib ketib, mo-moqaldiroqqa monand bo'g'iq sado bera boshladi.

– Uxlayotganingiz yo'qmi? – so'radi Vebel.

– Yo‘q.

– Eshityapsizmi, jang qanday qizib boryapti? Nemislar yana hujumga o‘tishdi.

U tamaki tutatdi, men shinelni boshimga tortib, uxlashga harakat qildim.

– Shaharlar uzra yulduz, – dedi Popova uyqusida.

Olisdagi gumburlashni qisqa va kuchli zarbalar bo‘lib turardi.

– Og‘ir artilleriya jangga kirdi, – g‘o‘ldiradi Vebel va o‘rnida turib o‘tirdi. – Aytib qo‘yish kerak, otlarni bo‘yinchalasinlar. Ertalabga tomon barcha ikki g‘ildirakli aravalarni Xensinga chaqirib qolishsa kerak.

O‘rnimdan turdim. Tashqarida qor ko‘m-ko‘k kimxobdek tovlanib yotar, osmonning u yer-bu yeri qahrabo yanglig‘ tovlanar, yasantusan bog‘lar elas-elas ko‘zga tashlanardi.

– Ko‘rdingizmi, men haq ekanman, – dedi Vebel, derazani taqilatgan ordinaretsga peshvoz chiqar ekan.

Bir soatdan so‘ng men ikki g‘ildirakli aravalar karvoni bilan Xensinga jo‘nab ketdim. Ikki hamshira ham men bilan ketishdi. Erta uyg‘ongan quyosh vodiylarni qirmizi harir parda bilan o‘rab olgan, tog‘ yo‘llari sovuqdan tarashaday qotgan edi.

– Kechasi nimani tush ko‘rdingiz? – so‘radim Popovadan.

U qizarib ketdi.

– Tushimda gapirdimmi? – tezgina savol berdi Popova. – Nima deganimni aytib bering, o‘shanda, ehtimol eslab qolarman.

– Siz «Shaharlar osmonidagi yulduz», dedingiz.

– E, ha. Tushimda Ksendz (katolik ruhoniy) va Kozlovskiy bilan yo‘l yoqalab borar ekanman. Olisda Moskvaga o‘xshagan shahar, tepasida esa kattakon yulduz ko‘zga tashlanardi. Ksendz yulduzni ko‘rsatib, polyakchalab shunday dedi: «Mana shu yulduz halokatga mahkum etilgan barcha shaharlar uzra nur sochadi». Biz hamon yo‘lda ketib borardik. Birdan men Kremlni ham, Arbat va Prechistenkani ham ko‘rib qoldim. Tushimda yig‘lab yubordim, Kozlovskiy bo‘lsa, meni yupatish uchun bir dasta binafsha tutqazib, shunday dedi: «Yig‘lamang. Mana bu binafshalarni shofyor Maxalin avval Moskva joylashgan yerdan terib olgan». Keyin necha minglab miltiq ko‘targan askarlar yonimizdan yugurib o‘tishar ekan, Lyublinga bo-

radigan yo‘l qayerdaligini so‘rashardi. Yuzi burda-burda bo‘lib ketgan ofitser shiddat bilan ot choptirib o‘tar ekan, «Yulduzga qarab o‘q otish kerak», deya baqirdi.

– Tush emas, bashorat bu, – dedim men qor bosgan olis-olislariga tikilar ekanman.

Xensinda otlarimizni sug‘organimizdan so‘ng, Shevelga tomon yo‘rttirib ketdik. Bu yerda tezkor guruh shakllantirilmogda edi. Ro‘paradan o‘q-dori yashiklari xunuk bir vahshiylik bilan uchib kelar, zaminni to‘ng qaltiroq bosgan, portlashlardan hosil bo‘lgan sariq tutun osmonga o‘rlardi.

Safar anjomidagi askarlar yo‘l yoqasidagi zovurlarda o‘tirib olib, oldinga, folvark yonayotgan tomonga ko‘z tikishardi.

Past uchib kelgan shrapnel (snaryad) havoni birdaniga to‘lg‘ab yuborib, tosh yo‘lda qars-qurs qilib qoldi.

– Ee-ey, vo-yey! – qichqirdi oldinda ketayotgan suvoriy va ot boshini qo‘yib yubordi.

Yana havo to‘lg‘onib, to‘lqinlanib ketdi. O‘rmon tomondan bo‘g‘iq portlash otilib chiqdi.

– Yo‘lni o‘qqa tutishyapti! – qichqirdi Poleshchuk ko‘kimtir tepaliklarga ishora qilar ekan. – Qaragin!

O‘sha tomonda ikki sariq alanga «lop» etdi, osmon birdaniga nola chekdi va betoqat o‘t-olov aravalar ortidagi zovurga urildi.

– Ot boshini qo‘yib yubor! – qichqirdim sanitarlarga, otimni to‘xtatib, karvonni o‘tkazar ekanman.

Olisda pulemyotlar bo‘g‘ilib-bo‘g‘ilib tirillashardi. Yana osmon boshimga ag‘darilib ketganday bo‘ldi. Snaryad og‘ir xirillash bilan tepadan o‘tib, zovurga urilib, portladi.

– Ko‘rib qolishdi!

Oldinda o‘rmon bor, ungacha biyday daladan bir necha daqiqa ot choptirib o‘tish kerak edi. Qor ustida uzun nofarmon soyalar cho‘zilib yotardi.

«Bunaqa soyalarni qayerda ko‘rgan edim» – o‘ylardim men shosha-pisha otni qamchilar ekanman. Quloqlarim ostida shamol g‘uvullar, ko‘zim faqat otning shilta bo‘ynini ilg‘ar, «bu uzun soyalarni qayerda ko‘rgan edim», deya qayta-qayta takrorlardim.

Ot tuyoqlari ostidan mayda toshlar uchib ketardi.

– Antonov, ortda qolma!

Yuzimga tutun urildi, snaryad parchasi qorni to‘zg‘itib yuborib, ot tuyoqlari ostida hushtak chaldi. Jonivor munkib, seskanib ketdi-yu, yon tomonga tashlandi. Chirigan to‘nkaning chap yog‘idagi qip-qizil loy titkilab tashlangan, undan sariq bug‘ chiqib turardi.

Karvon o‘rmonga yetgach, burilib, o‘nqir-cho‘nqir yo‘ldan keta boshladi. Snaryadlar endi ortimizda portlamoqda edi.

Oldinda borayotgan, hamshiralalar tushgan arava chetga burilib, to‘xtadi.

– Bu yoqqa keling, janobi oliylari, – qichqirdi Poleshchuk va qo‘lini siltadi. – Hamshiraga o‘q tegib ketdi.

Arava yoniga bordim. Maleyeva Popovaning qo‘lidan mahkam ushlab turardi.

– Nima, yaralandingizmi? – so‘radim men.

– Qo‘rqadigan yeri yo‘q, – dedi Popova hushtak chalganday qilib va Maleyevaning semizgina qo‘llaridan siltanib chiqdi. Uning yuzi qorayib ketgan edi. – Tezroq yarani bog‘lang.

Men jiqqa ho‘l ko‘ylakni qirqdim. Ko‘kragining pastki qismini snaryad parchasi yirtib yuborgandi. Uni ehtiyotkorlik ila doka bilan qattiq bog‘ladim. Maleyeva lablarini tishlar, durrachasi osilib tushgan, malla sochlari ter bosgan peshonasiga yopishib qolgandi.

Portlash sadosi o‘rmonni gumburlatib yubordi, shamol aravalarning kanop surp yopinchiqlarini qarsillatdi. Sanitarlar cho‘qinib qo‘yishdi.

– Qanday balo bo‘ldi bu, – dedi Poleshchuk. – Askarlarni ham, hamshiralarni ham ayamay savalashyapti. U hali, aytish mumkin, go‘dak-ku!

Popovani kech oqshomgacha ko‘rmadim. Osmon gumburlab, larzaga kelar, go‘ng aralash qor, ot siydigi va loy ustiga zambillardan qon tomib turardi. Ter, maxorka va kseroform hidi anqir, snaryadlar yoqib yuborgan qishloqlar tutab yotardi. Yaradorlar dod-voy qilib, shifokorlarning qonga belangan qo‘llariga mo‘ltirab boqishardi. Jang tugab borardi.

Tunda men yaradorlar karvonini Xensingacha kuzatib bordim. Oldinda ketayotgan aravada Popova yotardi.

Atrof sokin va namchil, g'ildiraklar eshitar-eshitilmas g'ichirlardi. Yo'ldan nariroqda gulxanlar yonar, egarda tebranib borar ekanman, uyqu aralash qulog'imga Popova nimalarnidir g'o'ldirayotgani chalinardi.

– Jim bo'ling, – dedim ko'zimdan mudroqni quvib, – sizga gapirish mumkin emas.

Katta ayiq yulduzi quyrug'ini yelpig'ichday yoyganicha, Xensin uzra sollanib yotar, men egarda chayqala-chayqala pinakka ketgan edim.

Gelena xonim

Zagnanskda bizni Kozlovskiy kutib o'tirardi. U Brestga bormoqchi ekan.

– Sizni va sanitar Shchepkinni o'zim bilan olib ketaman, – dedi u. – Mushkul ahvolni boshdan kechirdingiz, ko'ngil ochishingiz kerak. Baribir, hozir frontda hech gap yo'q, jimjitlik hukm surayotir.

«Ko'ngil ochish» degan so'z meni lol qoldirdi. Brest, qahvaxonalarning marmar stolchalari, olag'ovur vokzal, Moskva gazetalari, yoshgina hamshiralarning gulgun chehralari... Demak, bular ko'ngil ochish ekan-da... Diqqatni minglab mayda-chuydalarga qaratish, vokzal oynalaridagi quyosh jilvasini tomosha qilish, Teatr, ko'rgazmalar, kitoblar to'g'risidagi maqolalarni o'qish lozim. Urush ayqash-uyqash qilib tashlagan tarang, zo'riqqan xayollarni minglab bo'laklarga bo'lib yuborish kerak.

Men rozi bo'ldim. Jo'nab ketish oldidan ibodatxonaga bordim. Ichkaridan ksendz tilovati zo'r-bazo'r eshitilib turardi. O't bosgan ayvonda turib Xadichaga noma yozdim: «Uch oydan beri sendan xat yo'q. Aftidan, maktublar dala pochtaalarida yo'qolib qolyapti. Hatto, sening qayerda ekanligingni ham bilmayman. Urushning shafqatsiz hayotiga chuqur sho'ng'ib ketdim. Tez-tez «Urush va tinchlik» zamonlari qaytib kelmadimikan, degan xayolga boraman. Chekinish paytida, allaqaysi, keng tosh yo'lda seni uchratib qolaman va o'shanda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarning mazmun-mohiyatini tushunib yetaman, deb o'ylayman. Hozircha tushunganim yo'q. Aleksey shu yerda, ertaga uni ko'raman. Bir haftaga Brest shahriga jo'nab ketyapman».

Biroz o‘ylab turgach, ikkinchi maktubni Natashaning nomiga bitdim.

«Sizdan xat kutyaipman. Bu yerning qahrli tunlarida o‘zim bilan o‘zim yolg‘iz qolishim juda og‘ir. To‘plar gumburlashi, qabohat va ayollar oh-vohi, yig‘isi oqibatida doimo boshim og‘riydi».

Skarjisko vokzalida Alekseyni uchratib qoldim. Quchoqlashib, o‘pishib, ko‘rishdik. U meni o‘zidan sal nari itarib, ko‘zdan kechirdida, shunday dedi:

– Mana, uchrashdik ham. Juda ulg‘ayib qolibsan.

Shu yerning o‘zida Kozlovskiy bilan Alekseyni o‘z guruhimizga o‘tkazish to‘g‘risida kelishib oldik.

Kozlovskiy va Shchepkin jo‘nab ketishdi, men esa tonggacha Skarjiskoda qoldim. Aleksey ikkimiz taxtadan qilingan kinixonaga bordik. Kinoda Maks Linder atalmish zot konkida uchishni mashq qilgan, hadeb gap sotilardi.

Alekseyga Vinklarning o‘limi haqida gapirib berdim.

– Ha, – dedi u. – Vinkler ahmoqona o‘lim topibdi. Stashevskiy ham shu yerda, frontda, Lomja yaqinida. Georgiy ordenini oldi.

Ertatongda Brestga jo‘nab ketdim. Radomdan o‘tganimizdan so‘ng, Quyosh charaqlab turardi, Brest yaqinida esa erta bahorning vagon shamlari shu‘lasidan zarrin tus olgan zangori oqshomi bizni quvib yetdi.

Kozlovskiyni Shaharlar ittifoqi yotoqxonasidan qidirib topdim. U juda hayajonlangan edi. Tanish hamshira, sobiq aktrisanu uchratib qolibdi. Xonaga kirganimda soqol olib o‘tirar, yotoqxonatugurdagi uning etiklarini tozalardi.

– Do‘stim, – dedi Kozlovskiy, iyagini sinchkovlik bilan ko‘zdan kechirar ekan. – Etiklaringizni tozalang, garnizon klubiga boramiz, konsert bo‘ladi. Sizni go‘zal, maftunkor ayol bilan tanishtiraman. Bir vaqtlar men unga oshiq edim.

U yuzini atir bilan artdi-da, xirgoyi qilat boshladi:

Sirli ertak sasi – ovozing –

Hur ko‘klamning shirin ozori...

Klub qorong‘i, tor edi. Toza-ozodatkiyingan otliq askarlar etiklari poshnasidagi temir tepkilarini jiringlatishar, rangi o‘chgan pogon

taqqan kulrang chehrali praporshchiklar devorlar yonida jimgina turishar, sochlari oppoq, besaranjom general yo'g'on, bo'g'iq ovozda shovqin solardi.

Men Gelena xonimning yonida o'tirardim. Undan anqib turgan o'tkir atir hidi uxlashga qo'ymas, madori qurigan tanam issiqda og'rib turardi. Kozlovskiy shivirlab, buyruqlarni okoplarga olib boradigan o'rgatilgan mushuk haqida aql bovar qilmas hikoyalar qilardi.

– Lekin kimdir qabrlar ustidan ketib boradi, – yo'g'on ovozda kuylardi rangi siniq ofitser, – bayroqlar g'olibona shovqin soladi.

Mudrab yotar ekanman, ko'zlarimga arvoq galalari – Moskva qorlari qo'ynidagi eski gvardiya askarlari va shamolda shovqin solayotgan bayroqlar aro korsikalik imperator ko'rinardi.

Imperator, senga tobutdan

Peshvoz chiqar sodiq askaring.

Tushimda Parijni ko'rardim, imperator va uning lashkarboshilarini uchratardim, shukuhli shafaq oltin rangiga bo'yagan Tyuilridagi chordoq derazasidan nazar tashlab, Russo yozgan kitobning sarg'imgir varaqlarini o'qirdim. Tushimga dastasiga bronza burgutlar tasviri tushirilgan bayroqlar, qarag'ay payraxasi yonayotgan eski kamin kirardi.

Olov yonida qirmizi ulama sochli kichkina aktrisa – zahar berib o'ldirilgan Adrienna Lekuvrer¹ haqida xayol surardim. Eski, to'zigan kamzul kiyib olib, boychechak qoplagan shahar atroflarida sayr etardim, barmog'imdagi Robesper tasviri tushirilgan uzukni o'ynab, erta-gu bu isyonkor shahar qandayin yangi va ajoyib liboslarga burkanajagini taxmin qilardim.

– Bechoragina, qanchalar charchabdi-ya, – dedi Gelena xonim va qo'lini qo'limga tekkizdi. – Uyg'onaqoling.

Ko'zlarimni ochar ekanman, sovuqdan junjikib ketdim. Xuddi shu asnodagi burg'u chalinib qoldi. Cherkovlarda qo'ng'iroqlar tilga kirdi. Hamma o'midan turdi, tiqilib, surilib, bir-birlariga ovoz berib, eshik tomon yo'nalishdi. Klub bo'shab qoldi.

¹ *Adrienna Lekuvrer* – fransuz teatr aktrisasi.

– Seppelin¹, – dedi kimdir olomon orasidan. Devor ortidan og‘ir gumburlash eshitildi, burg‘ular yanada mayinroq nola qila boshladi. Tashqariga chiqdik. Eriyotgan sharobrang qor yog‘dusida yuz yashar teraklar qorayib, supurgiday bo‘lib ko‘zga tashlanardi. Yo‘lning o‘nqir-cho‘nqirlarida yengil sakrab-sakrab, chiroqlari yoqilmagan avtomobil o‘tib ketdi.

So‘ngra rangi o‘chgan chaqmoq osmonni chok-chok etdi, tepamizda birinchi shrapnel qarsillab yorildi. Oradan bir daqiqa o‘tgach, barcha qal‘a, qo‘rg‘onlardan guvullab snaryadlar yog‘ildi, yana og‘ir guldirak uylarni larzaga soldi, vokzal tomondan kuchsiz alanga ko‘tarildi.

Projektorlar osmonda bir-birlariga xalal berganlaricha, taraddudlanib qolishdi.

Yotoqxonada ayvonga chiqib olib, snaryadlarning nurlanib ucha-yotgan dumlarini kuzata boshladim.

Portlashlar oralig‘ida bahorning jiqqa ho‘l, qop-qora, g‘amgin sukunati hukmron edi.

Men serxavotir, yoqimsiz horg‘inlik tuyardim. Shinel ostida u yoq-bu yoqqa ag‘darilar ekanman, Kozlovskiy yechinayotib, Severyaninning «Zangori maktub»ini xirgoyi qilayotganini eshitdim:

*... Va yasminlar sokin chayqalar,
Surnay nola chekaveradi.
Ha, surnaylar nola chekarlar,
Oy ham nurin to‘kaveradi.*

Katta favvora

Uchinchi kuni, o‘rinda yotgan mahalimda Kozlovskiy kelib, meni zavoddan yangi aravalarni qabul qilib olish uchun Odessaga xizmat safariga yuborishayotganini bildirdi. Katta sanitar, talaba Shchepkin bilan ketar ekanman.

– Bugun kechqurun jo‘nab ketishingizga to‘g‘ri keladi, – dedi Kozlovskiy qat‘iyat bilan. – O‘n kundan so‘ng guruhga qaytib keli-

¹ Seppelin – nemis ixtirochisi F.Seppelin nomi bilan atalgan dirijabl.

shingiz kerak. Ish juda shoshilinch. Shchepkin aysh-ishrat bandasi, habash, lekin u bilan vaqtni yaxshi o'tkazasiz.

Eskiligidan ilma-teshik bo'lib ketgan kalta charm kamzul kiygan barvasta, miqti Shchepkin kechga tomon keldi. U bamaylixotir besh stakan choy ichdi, Shvetsariya pishlog'ini qanday xarid qilish lozimligini tushuntirdi va yo'talib oldi. So'ngra «Tassanno senga, Gimeney, xudoyim»ni kuylayotib, adashib ketdi-da, shunday dedi:

– Xo'sh, nima qildik. Ketamizmi?

– Ketdik.

– Janob Kozlovskiy! – qichqirdi u Gelena xonim xonasiga qarab. – Xayr, qariya. Sen, aftidan, front ortida yaxshilab bekinib olgan ko'rinasan?

Biz xayrlashib, jo'nab ketdik.

Ikkinchi kun deganda vagon oynalaridan qorsiz cho'llar ko'rina boshladi. Mart oyi edi. Bekatlarda ayollar qaynatilgan sut, teshikkulcha sotib o'tirishardi.

Odessaga kechga tomon yetib keldik. Rutubatli bahor tun bilan birga kelib, o'tloqlar va cho'lga issiq shamol ufurdi. Vokzaldan men Xadichaga, Sevastopolga, va Semyonovga, Moskvaga telegramma yubordim.

Vokzal yaqinidagi Afon ibodatxonasi hovlisida tunadik. Erta tongda Odessaning quyosh nurlariga g'arq bo'lgan ko'chalari bo'ylab, Rishle haykali o'rnatilgan xiyobonga bordik. Zangori tumanlar bandargoh va shaharni to'ldirib yuborgandi. Tiniq suv uzra dengiz olis chaqirimlarining serquyosh jilvasi, choshgoh mamlakatlari, billurdayin osmon va shamolning ertangi bodom atriga monand nuri bor edi. Kimsasiz yashil bandargohda «Sinop» zirhli kemasi po'lat dazmolday kulrang tovlanib turardi. Akas daraxtlari ostida ayollar ertangi gul sotish bilan mashg'ul edilar. To'liqinto'sarlar oldida ko'k va oq kichik kemalar chayqalar, yakka-yolg'iz yuk kemasi sariq mo'risidan tutun burqsitardi. Ko'chalardan dengiz va po'rtaxol hidi kelardi.

Shchepkin hayratdan dong qotgan, u dengizni birinchi bor ko'rishi edi.

– Ha-a, – dedi u. – Mana bu boshqa gap. Nima, biz Rossiyadamizmi, yoki boshqa joyda? – jur'atsizgina kulib qo'ydi u.

Fankoni qahvaxonasida unga ko'hna Odessa haqida, bu shahar boyligi to'g'risida, qatorlashtirib saroylar qurgan grek qaroqchilari, mo'l-u ko'l savdo-sotiq va sohilga tutash ko'chalarni qoplagan til-lorang don-dun, bo'kib qolgan ko'k kaptarlarni yuk aravalari bosib o'tadigan zamonlar haqida hikoya qilib berdim.

Chodir ostida O'rta yer dengizining shamoli esar, stollarda o'tirgan aylana qalpoqli juhudlar haddan tashqari g'aliz Odessa lahja-sida jon-jahdlari bilan baqirib-chaqirishardi.

Greklar tasbeh o'girib, chug'urlashishar, ayollar qirmizi lablarini yarqiratar edilar.

– Gap bunday, – dedim Shchepkinga, – aravalar tayyor bo'lganiga qadar, ikki kunni dengiz bo'yida o'tkazmoqchiman. Men Katta favvoraga jo'nayman, siz bir o'zingiz, amallab vaqt o'tkazarsiz.

Choshgohda Semyonovdan telegramma oldim:

«Singlim frontga, Janubiy Polshaga jo'nab ketdi. Sizni o'sha yer-dan topmoqchi. Uzoq vaqt xat yozmaslik razillikdir. Semyonov».

Xadichadan javob yo'q edi.

Katta favvorada ibodatxona mehmonxonasiga joylashdim.

Mehmonxonada hech zog' yo'q edi. Derazalari kemalarga yo'l ko'rsatuvchi mayoqqa qaragan xonani egalladim. Shamol tun bo'yi akas daraxtlarida shovqin soldi, men uyg'onib ketib, deraza ortida sochilib yotgan yulduzlarning oltin shu'lasiga tikilganimcha xayol surdim. Urush – bu faqat meninggina alahlashimdir. Mehmonxona-ning oq devorlari ortida, ushbu tun sukunati qo'ynida urushdan olis-daman. Yana o'sha, avvalgiday, ko'zlarim chaq nab turibdi, har bir kunga bo'lgan muhabbatim cheksiz.

Hayot chalkash, lekin baribir, sezilarli ma'no-mazmunga to'la. U bus-butunligicha, sevgisi, ochligi, kulgusi, jang-u jadal-lari bilan inson o'z-o'zini kashf etishiga to'xtovsiz, aniq-tiniq da'vatdir.

Xadicha va Natashaning menga bo'lgan muhabbatlari haqida o'yladim. Va bu muhabbat qorli, olis yillar yengil xotiroti aro ko'z o'ngimda namoyon bo'ldi.

Hayotning eng go‘zal tuyg‘usiga erisha olmasligimga qayta-qayta imon keltirdim.

Galileylik daydi sabr-bardosh haqida gapirardi. Go‘zal Mariya Magdalina¹ qizg‘ish sochlari bilan ozg‘in oyoqlardan loyni aritganda, o‘lmoq osondir. Lekin boshingda Avstriya o‘qi bijg‘iyotib, siydik to‘la okoplarda og‘zingni yopishqoq najasga bosganingcha jon taslim etish juda qiyin. Bunday paytda o‘lmoq mushkul, sabr-bardosh haqida gapirish joiz emas.

Kechqurun g‘ichirlaydigan karavotga yotib olib, kitob o‘qirdim, pechka gurillab yonar, oqshom juda sovuq edi. Dengizdan tuman bos-tirib kelar, projektorlar xira osmonni Odessa tomondan yoritishardi.

Shinelga o‘ralib oldim. Vaqt-vaqti bilan kitobni qo‘limdan qo‘yib, xayolga berilardim.

Boy berilgan shodligi – skripkaning bo‘m-bo‘sh g‘ilofini qo‘ltiqlab, zaminda sandiroqlab yurgan g‘alati odamlarning yol-g‘izlikdagi g‘aribona qayg‘u-hasrati, adadsiz sog‘inchi haqida o‘ylardim. Bachkana ulug‘vorligi juda ayanchli, ko‘ngli abgor qanchadan qancha odamlar bor bu yorug‘ dunyoda! Oskarni, Garibaldini, Vinklerni, ko‘plab nasl-nasabi noma‘lum, unutilgan kimsalarni esladim.

Ularning nomlari sag‘ana lavhalaridan allaqachonlar o‘chib ketdi.

Bu olijanob, otashin qalb sohiblariga hech kim zarracha shodlik hadya etolmadi. Ko‘ngilni g‘ubor bosadi, miya zanglagan mashinaga o‘xshab ishlaydi, hasrat, g‘am-g‘ussa tanaga singib ketib, bo‘yindagi ko‘m-ko‘k tomirlar, tushib ketgan tishlar, qarilikni eslatib turardi.

Tuman pastga tushib, bir-yarim tomchilar bilan derazaning tunuka tokchasini chertardi. Men tun bo‘yi mijja qoqmay yotdim. Ertalab shaharga piyoda jo‘nadim. Dengiz uzra qontalash bog‘lar yallig‘lanar, dala-hovlilar yonidagi gips haykallar so‘niq yuzlarini quyoshga tutishardi.

Shchepkinni ibodatxona hovlisining ivirsigan bo‘lmasidan topdim. U yuvinayotgandi. Kir sochiq bilan artinar ekan, aravalar tayyor bo‘lgani, ularni qabul qilib olganini aytdi. Kozlovskiydan zavodga

¹ *Mariya Magdalina* – Iso payg‘ambar qayta tirilishiga birinchi bo‘lib imon keltirgan ayol.

telegramma kelibdi: «Odessada ushlanib qolmay, aravalarni yuklab, guruhga qaytinglar».

Men telegrammani o'qib chiqdim-da, bir chekkaga tashladim.

Kechqurun Lyublinga jo'nadik. Kozlovskiy o'z telegrammasida yozishicha, guruhimiz o'sha yerga ko'chirilgan ekan.

Sizning shamingiz qisqaroq

Lyublinda guruh bo'sh achitqi zavodiga joylashib olgan edi. Tosh yotqizilgan hovlini qoqigullar qoplagan, derazalardan ibodatxonalarining oppoq haybati va daryo ortidagi tuman ko'zga tashlanardi.

Kozlovskiy shovqin solganicha men va Shchepkinni quchdi.

– Sizga xushxabar bor, – dedi menga, – Aleksey allaqachon yetib keldi. U bama'ni, gapga tushunadigan yigit ko'rinadi, tuzukkina icha olarkan. Hozir u shaharda, sizni ko'rishga mushtoq.

Butun oqshom Odessa haqida, bizga ikki haftalik hordiq berilgani to'g'risida valaqlashdik. Aleksey allamahalda keldi.

– Ha-a, – dedi u xursand bo'lib, – jahongashta ritsar kelibdi-da.

Guruhimiz unga ma'qul bo'lgan, faqat, Lyublin va polyaklar yoqmasdi. Hatto parovoz mashinistlari ham tik yoqa ko'ylik kiyishlari uni, ayniqsa, achchiqlantirardi.

– Maymunlar, – derdi u g'azablanib, – kalta kamzulcha kiyib olib, katak bo'yinbog' taqadi-da, darhol o'zini pan – janobi oliylari deb his eta boshlaydi.

Tunda Kozlovskiy, Aleksey, Shchepkin, Vebel qarta o'ynab, uzoq janjallashdilar. Ehtirosli shanba, hayit kuni edi, shahar bo'ylab, shamlar yonar, ibodatxonalarda qo'ng'iroqlar jaranglardi.

Kunduzi hamshiralarga sovg'a qilish uchun gulchi ayollardan bir necha kichik-kichik guldastalar sotib oldim. Binafshalar xiyla yirik edi. Popova gullarni oq peshbandiga taqib qo'yishimni iltimos qildi. U hali qo'lini qimirlata olmasdi.

Biz Bernard ibodatxonasiga bordik.

Aleksey jim bo'lib qoldi. Kozlovskiy bir tizzasini bukib, namoyishkorona ibodat qilardi. Yenglari jimjimador to'rli qari ksendz dimog'ida tantanavor duo o'qir, olomon ohista xo'rsinib qo'yardi. Men eshik oldidagi ayvonda tik turganimcha Natashani ko'rishga andak-

kina umid bog‘lab, ayollarning yuzlariga tikilardim. Ehtimol, u shu yerda, Lyublindadir.

– Kimni kutyapsiz, – Popova yengimdan tortdi. – Biznikilar qachondan beri sizni izlashyapti.

Shamlar necha o‘nlab oltin asalarilarga o‘xshab, ko‘chalardan oqib ketardi. Shamol qo‘zg‘alganida Popova mening shamimni olib, o‘zinikiga bosar, juft alanga o‘chib qolmasdi. Qo‘nalg‘ada u shunday dedi:

– Shamingiz menikidan kaltaroq ekan. Siz mendan oldin o‘lasiz...

Shahar mayin tuman, ro‘za hayiti liboslariga burkandi. Biz o‘rta asrlardagiga monand ilang-bilang ko‘chalarda, «getto»ning (irqiy kamsitilgan mayda millatlar uchun ajratilgan alohida mahalla) sariq va ko‘k uylardan iborat dahasida oqshomgacha kezdik. Darvozalar oldida qizg‘ish mushuklar isinib yotishar, ola-bula shol ro‘mol o‘ragan juhud kampirlar o‘tirishardi. Ortimizdan bir to‘da jingalaksoch bolakaylar shovqin-suron bilan yugurib kelishar, qora qalpoqli, qizg‘ishsoqol, qalin ko‘zoynak taqqan chollar ularga «gey avek!» deya qichqirib, hali unisining, hali bunisining qulog‘ini cho‘zishardi.

Saksoniya bog‘ida qosh qoraygan payt yangi Oyning oltinday tovlanayotgan harir pardasi aro nastarin gul ochgan, orkestr ohista, g‘amgin kuy chalardi.

– Naqadar musiqiy oqshom, – dedi Popova sekingina. – Yaram ham unchalik og‘rimaydi, yaxshi bo‘lyapti. Nastarin, shu‘lalar shunchalik yaxshi, diltortarki, yig‘laging keladi. Urushni kim o‘ylab chiqardi ekan? Kimga kerak bu qabohat!

Daryodagi murdalar

Mana, bir oydirki, loyqa va tezoqar San daryosi bo‘yida turibmiz. Narigi sohilda tashlandiq okoplar kasridan sarg‘ayib ketgan qarag‘ayzor yastanib yotibdi. Kun-u tun kulbimizni chang bosadi, zarralar tishlarimiz ostida g‘ichirlaydi, ko‘zlarni yallig‘lantiradi.

Notekis temir yo‘l ko‘tarmasida harbiy eshelonlar sudralib, sershovqin daryo ustidagi yog‘och ko‘prikdan sekin yurib o‘tishar, kechasi qirg‘oqda dala proyektorining yorqin nuri kezinardi.

Qumloqdagi issiq shamolda Qizil xochning yirtiq-yamoq bayrog‘i hilpirardi.

Tez-tez chalkash, g‘alati janglar bo‘lib turardi. Kamgap, shamolda qoraygan yaradorlarni olib kelishar, Rozvadovdan narida kechalari to‘plarning gumburlashi aniq-tiniq eshitilar, yovvoyilashib ketgan itlar uvillashardi.

Onda-sonda Lyublindagi «baza»dan bir quchoq gazeta, xat-xabar va Gabayning bir yashik yashil qutili «Yava» tamakisini ko‘tarib, Vebel kelardi. Qo‘nalg‘ada bayram boshlanib ketar, biz to‘yib-to‘yib gazeta o‘qir, esimiz og‘ib qolgunga qadar tamaki tutatardik. Kozlovskiy xo‘rsinishni bas qilar, hamshiralarning joni kirib qolardi. Popova Lyublinda, Vebelnikida yashar, yarasi yana ochilib qolgandi.

Kechqurun bo‘tana suvli San qirg‘og‘iga borib, sohilda yarim tungacha o‘tirardik. Daryo loyqa suvda ulkan yulduzlarni chayqatgani-cha, tinmay shovqin solardi.

– Bu jazirama issiq va qurg‘oqchilikdan darak beradi, – derdi Shchepkin.

Qaynoq qumlar, uzzukun jizg‘anak o‘rmonlar uzra tutun qaytargan bahaybat qontalash quyosh, quduqlardagi iliq suv... Bularning hammasi bizni juda qiynab yuborgan, bir-birimiz bilan kam gaplashardik, sukut saqlaganimizcha, intizor bo‘lib kutardik. Kunlarning birida cho‘milgani borgan hamshiralalar ranglari oqarib, asabiylashib qaytib kelishdi. Sanda shishib, sasib ketgan murdalar oqib kelayotgan ekan.

Tunda zambaraklardan qattiq otishma boshlandi. Men o‘rinda ag‘anab, San ortida, yerning u chekkasidan bu chekkasigacha borib kelayotgan qattiq gumburlashga quloq tutardim. Dimlikdan nafas qisilar, achimsiq hid anqir, sham yonida chivinlar g‘ujg‘on o‘ynardi.

O‘rnimdan turib, tashqariga chiqdim. Oy osmon gumbazining eng tepasida turardi.

San suvi to‘plar zarbasidan seskanib, tun shamchirog‘i kumush nurlari aro jimir-jimir etar, olisdagi yong‘in oqibatida osmon qirmizi tusga kirmoqda edi. Men sekin yurib, ko‘prik tomonga ketdim.

– To‘xta! Kim kelyapti? – sekingina so‘radi soqchi, qo‘rqa-pisa. Men ovoz berdim.

– Ey, xudoyim, xudoyim, – dedi soqchi. Ovozi yosh tuyulardi. – Bularning hammasi qachon tugaydi?! Ko‘ngilni bus-butun qabohat egallab olyapti. Kunduzi ham, kechasi ham uyqu yo‘q, orom yo‘q. Hali hujum, hali chekinish. Podaga o‘xshab bir joyda depsinib turib-miz. Kim uchun, nima uchun – hech kim tushuntirib berolmaydi. Uylarimizda, ehtimol, yerlar ekilmagan, ayollar qorni shishib qolgandir. Mol-hol nobud bo‘lyapti.

U miltiq qo‘ndog‘ini ko‘prikning taxta to‘shamasiga urdi, yong‘in shu‘lasiga tikildi va shunday dedi:

– Yonyapti... Polshani haqoratlab, butunlay oyoq osti qilishdi... Bundan kimga, nima foyda bor? Bu dalada endi boshqoq o‘smaydi. Aytishlaricha, nemislar yana bosib kelishyapti, front chizig‘ini yana yorib o‘tishganmish.

Kulbaga qaytdim. Hovlida, gulxan yonida Vebel va Aleksey o‘tirishardi.

– Nega tunlari uxlamay, sandiroqlaysiz, – dedi Vebel va seskanib ketdi. – Uxlasangiz bo‘larmidi! Eshityapsizmi, qanday oborib-obkelishyapti. Men bunaqasini yomon ko‘raman, bir baloni boshlashadi.

– Yurak to‘la qayg‘u-hasrat, – dedi Aleksey homuza tortib. – Uyuqsizlik. Holbuki, to‘yib uxlash kerak. Bugun-erta yana gupchakka-cha qum kechib ketishimizga to‘g‘ri keladi.

Vebel tamaki chekar, papiros olovi uning o‘tkir istehzoli ko‘zlarida yalt-yult etardi. Kulbada o‘lmay qolgan xo‘roz bo‘g‘iq qichqirdi. To‘plar gumbur-gumburi dimiqqan sukunatni siltamoqda edi.

Aravalar yoniga borib, zambaraklar sadosiga quloq tutganimcha pichan ustiga cho‘zildim. Dalalarni og‘ir qaltiroq bosgandi.

Makenzen

Biz chekinmoqda edik. Karvonlar dabdalasini chiqargan qumli yo‘llar chekkasida son-sanoqsiz gulxanlar – qochqinlar qo‘nalg‘alari yonardi.

Parishon yulduzlar yarqiroq dumlarini yoyib, Polshaning zimiston dalalari uzra g‘am chekishar, gulxanlar tutuni botqoq tumanlariga qo‘shilib ketgandi.

Kechasi egarda chayqalab, ko'zlarimizni zo'r-bazo'r ochib ketib borar ekanmiz, oldindagilarga to'qnashib, to'xtab qolardik.

– To'xta! T-o'-o'-x-t-a!..

Ko'priklar yonidagi tiqilinch joylarda rutubatdan junjikkanimizcha, soatlab turib qolardik, ortga, kuchsiz alanga ichra yonayotgan qishloqlarga qarab-qarab qo'yardik. Yo'l bo'yidagi baland xochparchinlardan yonib ko'mirga aylangan, beso'naqay va tund Iso Masih nazar tashlab qolardi.

Lyublindan kechasi o'tdik. Shaharning egri-bugri ko'chalari arava karvonlariga to'lib ketgan edi. Ko'hna ibodatxonalar to'p o'qlari zarbasidan larzaga kelardi. Uylarda bolalar yig'lab-siqtashar, ayollar o'zlarini u yoq-bu yoqqa urishar, vokzalda parovozlar bezovta chinqirishardi. Binolarning oq raxtlarida mash'alalarning qizil yog'dusi o'ynardi.

Qadam-baqadam, so'kina-so'kina yo'lkalarda oldimizdan chiqqan tugunlarni bir chekkaga uloqtirib, daqiqa sayin to'xtay-to'xtay, «baza»miz joylashgan kimsasiz, sokin tor ko'chaga yetib keldik. Gulayotgan arg'uvon hidi anqir, chekinayotgan armiya shovqini quloqqa chalinardi.

«Baza» hovlisida, tosh favvora yonida aravalarga yuk ortishar, Vebelning yoqimsiz, xunuk ovozi eshitilardi. Otimni to'xtatib, tor ko'cha ichkarisiga, arg'uvon bog'lari zulmatiga tikildim. Olisda, qoramtir barglar orasidan oltinday nurlanib Oy chiqmoqda, tong yaqin edi.

«Baza»da lash-lushlar yig'ishtirilib, hayajonlangan sanitarlar otlarni olib chiqqunlaricha, boloxonaga, Popova huzuriga ko'tarildim.

– Bu chekinishdan shunchalar minnatdormanki, – dedi Popova. – Xayriyat-ye! Bir o'zim juda qiynalib ketdim! Ayting, bu nima o'zi? Nega qochishyapti?

– Makenzen¹, – javob berdim men va papirosni yashil qalpoqli chiroqdan o't oldirdim. – Nemislar frontni yorib o'tishdi.

– Hammangiz qandaydir boshqacha bo'lib qolibsizlar, – dedi u menga tikilib. – O'n yoshga qaribsiz.

– Xo'sh, o'zingiz qalaysiz? Yara nima bo'ldi?

¹ Makenzen – nemis general feldmarshali. Birinchi jahon urushida german armiyalari qo'mondoni.

– Endi bityapti. Bu yer juda sokin, yaxshi edi. Men bilan faqat beka –sochiga to‘g‘nag‘ich taqqan kekxa xonim va uning kichkina-gina jiyani yashardi. Ular qo‘rqanlaridan ksendzning uyiga ketishdi. Men yolg‘iz qolishdan cho‘chidim, bu to‘s-to‘polonda bizni topolmay, o‘tib ketasizlar, deb o‘yladim. Vebel ham xavotirlandi.

Bog‘lar ortidan aravalar karvoni o‘tib borar, bu sharqiroq tog‘ daryosining toshlarga oqib tushishiga o‘xshab ketardi. Hovlida burg‘u chalindi.

– To‘planishyapti. Ketdik.

– Chiroqni o‘chiring, – dedi Popova, – bu xonani tashlab ketishga hech ko‘zim qiymaydi.

Men chiroqni puflab, o‘chirdim. Ochiq deraza ortida, daraxtlarning uchlari uzra osmon xiragina qizarib turar, kuchli issiq shamol esardi. Shamol deraza tokchasidagi allaqanday eski maktublarni boqqa uchirib ketdi.

Shopen mamlakati

Vishnitsiga kechga tomon yetib keldik. Podalar osmonga ko‘targan chang-to‘zon ichra shahar garnizoni boshlig‘i (komendant)ning tilka-pora bo‘lib ketgan bayrog‘i osilib turardi. Mahalliy militsiya – qo‘llariga qizil bog‘ich taqqan qari juhudlar – hovlima-hovli yurib, ayollarni okop qazish ishlariga haydardi. Qurib qolgan dalalar qochqinlar aravalariga to‘lib ketgan edi.

Bolalar entikib-entikib yig‘lashar, mollar g‘amgin ma‘rashardi.

– Polsha adoyi tamom bo‘ldi, – dedi Kozlovskiy bamaylixotir, otdan tushganimizdan so‘ng. – Yo‘l yoqasida, bolalar murdalari-ning qumdan chiqib turgan oyoqlarini ko‘rdingizmi? Qochqinlarning cho‘chqalari ana shu murdalarni qazib olib, yeyishyapti.

– Chginela Polska! – takrorladi negadir u polyakchalab va qo‘lini silkidi. – Shopenni voyaga yetkazgan buyuk zamin.

Kechasi aravalarni ko‘zdan kechirib chiqdik. Ularning deyarli har birida ichterlamaga chalinganlar bor edi. Dalalar uzra badbo‘y hid anqir, bemorlar pichan gardi to‘lib qolgan qip-qizil ko‘zlarini artib, cho‘ntak fonarlarimiz shu‘lasiga yovvoyi nigoh tashlashardi. Nochor gulxanlar tutuni qop-qora osmonga o‘rlar, tomchi suvi qolmagan qu-

duqlar oldida erkaklar bir chelak suyuq loy uchun yoqalashishardi.

Biz ko'chma doshqozonlarni olib keldik-da, tongda qochqinlarga yovg'on sho'rva tarqata boshladik.

Olomon choshgohgacha qozonlar yonida g'ala-g'ovur ko'tarib, o'zini u yoq-bu yoqqa urib yurdi. Kampirlar chinqirib, harsillab so-pol tovoqlardan sho'rva ichishar, ozg'in siynalari ichkiyimday g'ijimlangan ayollar kulrang go'sht bo'laklarini yig'layotgan bolalari og'izlariga tiqishardi.

Qop-qora erkaklar dalalardan nimadir izlab yurishar, chor atrof-dan kuhsiz tutun, yonayotgan latta-putta hidi anqirdi.

Oradan bir soat o'tib, biz katakdekkina xonada o'tirardik. To'siq ortida qari xonimlar – bekalar shivirlashishardi. Xonaga komendant kirib kelib, qo'pollik bilan shunday dedi:

– Kechasi aravalar oldiga soqchilar qo'yinglar. Bo'lmasa, g'ildiraklardan ayrilib qolasiz. Tevarak-atrofdan o'g'rilik, talonchilik kuchaygan. Ko'ryapsizmi, uylardan yarmining tomi yo'q. Hammasini tashib ketib, gulxanda yoqishyapti. Karvonlardagi muttahaam, hayvonlar esa hamma yo'llarni to'ldirib tashlashdi, yigirma chaqirim oraliqda bitta narsa qo'ymay o'g'irlashdi. Tevarakda armiya turibdi. Bular bo'lsa ichterlamaga chalinishgan. Hamma quduqlarni quritib bitirishdi, daryolarni bulg'ab tashlashdi.

U tamaki tutatdi-yu, gugurtcho'pni ezg'ilab sindirdi.

– Har kuni vahshiy hayvondek bo'lib, o'rningdan turasan, janjal-lashasan, askarni badanidan qonli ter oqquncha qiynab, yugurtirasan. Urush shunday bo'ladi-da. Lekin bu urush kimgadir ona, kimgadir haqorat-dashnomdir! – qichqirdi u jahl bilan.

Kechqurun Brestga chekinish to'g'risida buyruq olindi. Jang maydonlaridan mavhum, tushunib bo'lmaydigan ovozar kelardi. Aleksey og'ir karvon bilan oldin jo'nab ketdi. U Brestdan yigirma chaqirim beriroqdagi Pishchitsa degan manzilda bizni kutishi kerak edi.

Kechasi chekish uchun bir necha marta uy kiraverishidagi zinaga chiqdim. Otlar bog'langan yerlarida bir-birlarini tishlashar, soqchilar so'kinib yurishar, o'n chaqirimcha narida jang qizib borardi.

Begona guruh

Pishchitsada Alekseyni uchrata olmadik. Oqshom chog'i edi. Uxlayverib ko'zlari shishgan, harbiy qismlar uchun joy hozirlovchi komendant qog'ozlarni titkiladi, kvartirerlardan uni-buni surishtirgach, «bunaqa guruh kelgani yo'q, meni tinch qo'yinglar», dedi.

– Bilasizmi, – dedi menga Kozlovskiy. – Aleksey boshqa yo'l bilan ketib, qumliklarda botib qolgan bo'lsa kerak. U yerlarda qum arava gupchagiga uradi. Siz shu yerda qolib, uni kutasiz. Mabodo, xavf tug'ilib qolgudek bo'lsa, Brestga, so'ngra Chevnavchitsiga keting.

– Xo'p.

U meni duo qildi va o'pib qo'ydi.

– Faqat oxirgi daqiqagacha kutib o'tirmang, – dedi u otiga minar ekan. – Ahvol chatoq. Allaqachon temir yo'lni portlatishdi.

Lukov tomondan portlash ovozlari eshitalardi. Karvon o'rnidan jildi. To'yib uxlaganidan, qovoqlari salqi kvartirer meni ibodatxona huzuridagi uyga olib bordi.

Jiqqa ho'l bog' shovqin solar, uyning eshiklari lang ochiq, xonalarda hech kim yo'q edi. Askar menga sham topib berdi, choy olib keldi.

Otimni dahlizda qoldirdim. Pastak, keng xonadagi deraza qoplamarini bekitdim-da, polga yotib, shinel bilan yopindim. Ot kurtillab suli chaynar, depsinar, narigi xonada mushukcha miyovlardi.

Shamni yerga yopishtirib, safar xaltamdan Zaytsevning «Olis o'lka» kitobini oldim-da, o'qiy boshladim. Devor soati uzoq ming'irlab, o'n to'rt marotaba zang urdi.

Men Moskva, «Takashoxlar» jamiyati haqidagi sahifalarni o'qib, qattiq xoxolardim. Onda-sonda artilleriya sadosi eshitar, har zarbadan so'ng deraza oynalari uzoq vaqt ting'irlab turardi.

Oradan bir soat, keyin ikkinchi soat ham o'tdi. Kvartirer eshikni taqillatib, xabar berdi: maydonga bir guruh kelib to'xtadi. Ehtimol, siz kutayotganlar shular bo'lsa kerak.

Tashqariga chiqdim. Kelganlar begona edi. Qorong'udan bir hamshira va shinelli erkak o'tishdi. Erkak to'xtab, tamaki so'radi. U vrach bo'lib, yelkasidagi bir pogoni osilib turardi.

– Mana bu hamshira uchinchi Sibir guruhini izlayapti, – dedi u takmi tutatar ekan. – Siz, tasodifan, uchratganingiz yo‘qmi?

– Men o‘sha guruhdanman. Ular kunduzi Brestga o‘tib ketishdi.

Hamshira qo‘limni ushlab oldi.

– Natasha? – so‘radim sekingina. – Nahotki, siz bo‘lsangiz?

– Menman, jonim, – dedi u zo‘rg‘a pichirlab. – Doktor, siz xavotirlanmang. Guruhni o‘zim topib boraman.

– Xo‘p, bo‘pti, – kuldi vrach. – Bu hamshiralarning dahmazasi ko‘p-da!

U meni choy bilan rom ichgani huzuriga taklif etdi-yu, ketib qoldi.

Natasha qo‘llarini yelkamga tashlab, yuzimga uzoq tikildi. Yulduzlar jimir-jimir nur sochishardi.

– Seni mutlaqo ko‘rmayapman, – dedi u sekingina, meni birinchi marta sensirar ekan. So‘ngra shinelimga boshini bosdi. – Shunchalar qiynaldimki, asti qo‘yaver. Bu telba-teskari urushda seni deya odamlarga qanchadan qancha muhabbat ulashdim! Seni izladim. Umid qildim, umidsizlikka tushdim, tamoman kasal bo‘ldim. Va mana endi... Senga ko‘p narsalarni, juda ko‘p voqealarni aytib berishim kerak...

U yig‘lab yubordi.

– Jonim, suyuqligim, azizim, – derdi u xuddi bezgak tutgandek qaltirab. – Men butunlay jinni bo‘lib qoldim. Atrofimda terlama bilan og‘riganlar, qalblari nafratga to‘la, qishloqlarni yoqishadi, emizikli chaqaloqlar murdalarini quduqlarga tashlashadi. Bularning hammasi uzra esa senga bo‘lgan otashin sevgim bo‘y ko‘rsatmoqda. Bu qanday sodir bo‘ldi, hech nimani tushuna olmayman.

Biz boqqa kirdik. Devor yoqalagan ho‘l butalar shamolda shovqin solar, yakkam-dukkan o‘q ovozlari gumburlab aks sado berardi. Qorong‘ilik qa‘rida o‘t bosgan yo‘lkachalardan odimlardik. Men urush haqida, har bir kunimni bosib-yanchib turgan g‘amgin va ajoyib tuyg‘u to‘g‘risida hikoya qilardim.

– Nega urushga kelding? – dedi Natasha qo‘pollik bilan. – Urush seni adoyi tamom qiladi. Qanday yo‘l bilan bo‘lmasin, bu yerdan ketishing kerak. Menga so‘z ber. Bir oydan so‘ng Moskvaga qaytaman, sen o‘sha yerda bo‘lishing kerak. Ungacha tiramoh kiradi, qishloq-

qa ketamiz, ko'p kitob o'qiy boshlaysan, bu dahshatlarni unutasan. Vahshiy zamonlar o'tib ketguncha, o'zingni asrashing darkor. Biz, boshqa minglab odamlar qon, razolat, barcha qabohatlar tomoniga kelishimiz mumkin, lekin sen emas. Sen kelishing sira mumkin emas! – chinqirdi Natasha va o'rindiqdan turib ketdi. – Sen yuzlab, minglab odamlarga quvonch ulashishing kerak. Shuning uchun ham seni yaxshi ko'rishadi. Xuddi menga o'xshab, ko'r-ko'rona, mangu, abadiy sevishadi. Men buni tushuntirib berolmayman. Jo'nab ketaman, deb menga va'da ber.

– Xo'p, yaxshi, va'da beraman.

– Qanchalik toliqibsan, – dedi u sekingina va meni o'pib qo'ydi.

Botqoqlarda qurbaqalar qurillashar, otishma tingan, arg'uvonlarning ho'l barglari «chirt-chirt» uzilib tushardi. Ibadatxona eshigi oldidagi ayvonda qorovul – qulog'i tom bitgan chol oh-voh qilib o'tirardi.

– Bobojon, – dedi Natasha, – senga nima bo'ldi?

– Hamma Brestga ketib qoldi, – dedi chol va o'rnidan turmoqchi bo'ldi. – Ksendz, hamma-hammalari ketishdi, joningdan o'rgilay, kichkina xonim. Men ibodatxonani qo'riqlash uchun qoldim. Qariman, yetib borolmayman, yo'lda o'lib qolaman.

– Yur, ketdik, bobo, – dedim uning tirsagidan ko'tarar ekanman. – Ertaga Brestga jo'naymiz, siznikilarni topamiz.

Chol yana yig'lab yubordi.

– Koshki edi, Xudo yo'l bersa. O'zimiznikilar bilan birga o'lsam, yaxshi bo'lardi. Odamning bir o'zi o'limni kutib o'tirishi juda qiyin ekan. Germon juda yaqin-da. Suv ichmoqchi edim, qarasam, quduqda bir murda yotibdi...

Sanitarlar cholning qornini to'yg'azib, aravaga yotqizishdi.

Tunni begona guruhda o'tkazdik. Bu yerda yugur-yugur, shovqin-suron avjida edi. Natasha yonimdan jilmas, tez-tez ko'zlarimga tikilar, lablari titrardi.

Ertalabga tomon holdan toygan piyoda askarlar to'da-to'da bo'lib o'tib ketishdi va guruh ham yo'lga tushdi. Natasha bilan qishloqdan chiqaverishda xayrlashdim. U qo'llarimni siladi, nimadir demoqchi bo'ldi-yu, lekin indamadi.

Men ortga qayta boshladim. Tosh yo‘l uzra fugas snaryadlarining qop-qora tutuni to‘lqinlanar, qumtepaday to‘plangan askarlar quduq yonida qorayib ketgan idishlardan loy suv ichib, menga jimgina qarab turishardi.

Choshgohda ovozi bo‘g‘ilib, o‘zini ancha oldirib qo‘ygan Aleksey karvon bilan kelib qoldi.

Intiho

Kunlar adoqsiz, og‘ir janglar bilan o‘tardi. Bug daryosi ortida gumbur-gumburlar tinmas, Brestda qal‘a qo‘rg‘onlarini portlatishar, kechalari yer larzaga kelib, qo‘rqinchli gursillardi.

Kulrang, chang bosgan qishloqlarda ichterlama bilan og‘rigan bemorlar dumalab yotishar, yoppasiga talon-toroj davom etar, ot murdarining nimshirin, sassiq hidi tomoqni bo‘g‘ardi.

Dalalarda xantal gullari sariq tovlanar, shafaqlar yorqin va sovuq edi.

Brestda Natashaning guruhi To‘rtinchi armiya bilan Kobringa ketganini bilib oldim.

Yo‘llar qochqinlarning karvonlari dastidan oh chekar, kechasi minglab gulxanlar tutun aralash alangalanib yonar, shtab avtomobillari oq chiroqlari nuri bilan chang aralash qorong‘ilik bag‘rini chok-chok etishardi.

Har kuni badjahl, yaralarida qon qotib qolgan askarlarni olib kelishar, so‘rab-surishtirishlarga ular qisqa va istamaygina «xiyonat» deya javob qaytarishardi.

Bu so‘z front va front orqasida keng tarqaldi. Minglab askar, ofitserlar turgan mo‘risiz qora kulbalarda, juhudlarning manzillarida pinhoni, sokin g‘alayon boshlandi. Ters, o‘jar va qo‘rqinchli ovozar ko‘payib ketdi. Hamma yerda Myasoyedov¹ning ismini pichirlab aytishardi. Artilleriya karvonlardan oldinda chekinardi. Hamma savollarga to‘pchilar shunday javob qaytarishardi: «Snaryad yo‘q. Xoinlik yuz berdi. Endi germanlar bilan kaltak olib urishinglar».

¹ S. Myasoyedov – rus armiyasi polkovnigi. Xoinlikda ayblanib, 1915-yilda qatl etilgan. Zamonaviy tarixchilar uning aybdorligiga shubha bildirishadi.

Bir safar, tunda, yo'ldan adashib, qo'riq yerdan ketib borardik, Slonim tosh yo'liga chiqmoqchi edik. Qorong'i, atrof-javonib jimjit, Brest uzra bahaybat alanga o'rlardi.

– Brest yonyapti, – dedi men bilan yonma-yon ketayotgan Vebel. – Demak, hammasi tamom bo'ldi.

– Nima tamom bo'ldi?

– Hi-i-m... Rossiyaga kirib kelayotganimizni nahotki, ko'r-mayotgan bo'lsangiz? Bunaqada, ehtimol, Moskvagacha ham borib qolarmiz?

Biz to'xtab, alangaga uzoq tikilib turdik. To'q qizil tutun burqirab osmonga ko'tarildi.

– Qo'rg'onni portlatishdi, – dedi Kozlovskiy. U yonimizga sassiz kelib qolgandi.

– Dahshat, – dedi u biroz jim turgach. – Kim nima desa, desin-u, lekin urushning o'ziga xos go'zalligi bor. Huv, ana, Brestdagiday. Bu – noiljlik, jon achchig'idir. Yana Atilla bostirib kelyapti, shaharlar yonmoqda, uning otlari tuyoqlari ostida giyoh o'smaydi. Naqadar to'g'ri, ishonchli.

– Polsha-chi? U nima bo'ladi? – so'radim men.

– Polsha yana o'z o'rnini egallaydi. Bu yurtga tatarlar ham, shvedlar ham o't qo'yishgan edi.

Shimol tomonda to'plar gumburlay boshladi. U yoq zim-ziyo, juda olis dalalarda arava karvonlari taraqturuq etishar, cho'ziq nolalar eshitilardi. Sanitarlar hushyor tortib qolishdi. Shu paytgacha to'plar ortimizdan otilar, izlarimizni cho'yan gumbur-gumburi bilan bekitib kelardi. Hozir esa yon tomonimizda otilmoqda.

– Bu o't ochishlarning bir balosi borga o'xshayapti, – dedi Kozlovskiy. – Yana mudofaa marralarini yorib o'tishgan, shekilli. Nemislar jadallab kelishyapti.

Tongga yaqin bir qishloqchaga yetib keldik. Uni xaritadan izlab, topolmadik. Somonxonada beda g'arami ustiga yotdik. Xo'jayin eshikni ochgisi kelmas, bizga parishon, qahrli nigoh tashlab turardi. Vebel qulfni buzishga buyruq berdi.

Xona quruq va issiq, somon tagida sichqonlar chiyillashardi. Tuni bilan o'mimda ag'anab, uxlayolmadim. O'zimiznikilardan kimdir

tashqariga chiqqanida, eshik ortida osmon tutun aralash qirmizi tus olardi.

Yotgan yerimda xayol surardim. Yelkamdan ming pudlik yuk bosib turar, men ham ko'pchilikka o'xshab, faqat bir narsanigina bilardim. Urush – og'rib turgan qahr-g'azab, kin-adovat yarasini tirnaydi, qonlantiradi. Biz yuramiz, gapiramiz, kulamiz va eng asosiy narsa – o'nnglanmas baxtsizlik hissini bir-birimizdan yashiramiz. Bu baxtiqarolik tuyg'usini urush keltirib chiqaradi.

Zaminni ag'dar-to'ntar qilishdi. Undan chidab bo'lmas sassiq hid tarqadi. Lekin askarlarning dag'al, g'azab va achchiq tamakidan zahri qotilga aylangan qalbida nima sodir bo'lyapti? Buni hech kim bilmas, ehtimol, askarlarning o'zlari ham aniq tasavvur etishmasdi.

Men oddiy taxta stol oldidagi uzun tunlarni, Natashaning ovozi, ko'm-ko'k suv solingan billur idishga monand kunni, Sevastopolning bir kunini esga oldim. Pishchitsada unga juda ko'p gaplarni aytmoqchi edim. Lekin achchiq bir dard tomog'imni bo'g'ib qo'ydi, jim o'tiraverdim. Natashaning serxavotir ko'zlari onaizor ko'zlariga monand edi.

Shinelni kiyib, tashqariga chiqdim. Sharq tomon ko'kimtir tusga kirmoqda edi. Somonxona oldidagi xariga o'tirdim.

– Yo, xudoyim, qanchalar zerikdim, yuraklarim qon bo'ldi-ku! – dedim boshimni qo'llarim bilan changallab. Qo'limga bir siqim quruq tuproq olib, uni barmoqlarim orasida ezg'iladim.

Dalada quruq o't-o'lanlar shig'irlashardi. Zamin gursillab, qattiq gumburlash Shimol tomonga olislab, qorong'ilik qa'riga singib ketdi. Brest yanada yorqinroq, kengroq alangalanib yonardi.

Olmazor

Biz hamon chekinyapmiz. Osmon changdan sarg'ayib ketdi, og'zimda xuddi bo'kib aroq ichgandagidek achimsiq ta'm seziladi. Qo'llarimdan ot terining hidi keladi, tamakini zo'rg'a o'rayman.

So'lg'in o'rmonlar, zang bosganga o'xshagan botqoqlardan ketib boryapmiz. Artilleriya tosh yo'lning dabdalasini chiqargan, otlar daqiqa sayin chuqurliklarda munkib ketishadi.

Ko'zlarim uzoq-uzoqlarga ma'nosiz tikiladi. Grodnolik aqldan ozgan ayol ortimdan bir chaqirimdan ko'proq yugurdi. U uzangi-ni ushlab, etigimni o'pmoqchi bo'lardi. Boyaqishning bolasi o'lgan, sigiri harom qotgan, o'zini karvon askarlari zo'rlashgan. Men otni qamchilab, choptirib ketdim. Osmonda erkaklarning ko'z yoshlariga monand siyrak yulduzlar jimirlay boshladi.

Prujani orqali o'tib ketmoqda edik. Daryo ortidagi shudgorlangan sovuq yerda qurbaqalar qurillashardi.

Biz oynavand dahlizli, sozlanmagan royal, chuqur, yumshoq o'rindiqlar qo'yilgan oq uyda tunadik. Derazalar ochiq, bog'dan olmalarning quyuvqina, shirin hidi kelardi.

– Xuddi buvimning uyida, ta'til paytidagidek, – derdi Kozlovskiy tamaki tutatar ekan. – Yorongul, olmalar, qurbaqalar qurillashadi. Hamma-hammasi o'shanday. Faqat oshiq bo'lishingiz lozim bo'lgan jigarrang ko'ylakli o'quvchi qiz yetishmaydi, xolos.

Shchepkin bilan katta qishloqqa bordik. Shchepkin darichalar oldida turgan hamma juhudlardan qayerda soqol oldirish mumkinligini so'rardi. Sepkilli yigitcha bizni qari sartaroshnikiga orqa zinadan boshlab bordi.

– Soqollaringizni qirish kerakmi? Men o'zim nima qilishni bilmayman. Birovlar, ketinglar, jang bo'ladi, kazaklar katta qishloqni yoqib yuborishadi, deydi, boshqalari bo'lsa, o'tiraver, yosh bolalar bilan qayoqqa ham borarding, deyishadi.

– Qolaveringlar, – dedi Shchepkin ishonch bilan. – Jang bo'lsa, yerto'laga kirib olasizlar. Agar ketsangiz, hammangiz o'lasiz.

– Riva, – qichqirdi sartarosh orqadagi xonaga qarab. – Ofitser janobi oliylari bizga qolinglar, deyapti.

Yuzlari ko'm-ko'k, ko'kragi baland juhud ayol keldi, xona tezda bolalar, kampirlar, bohrmat qari juhudlarga to'ldi.

Ular hayajonlanib, shovqin solishar, ozg'in, sariq barmoqlari bilan sartaroshga ishora qilishardi.

– Biz hammamiz birgalikda ketmaslikka, ha, qaror qildik, – sartarosh shovqin-suronni bizga tarjima qildi. Keyin kutilmaganda jahli chiqib, baqirib berdi: – Meni tinch qo'yinglar! Nima? Janobi ofitserlarning soqollarini olib qo'yishim kerak-ku, axir! Sha, gey avek, gey avek.

Juhudlar jimib qolishdi-yu, so'ngra chiqib ketishdi.

Sartarosh Shchepkinning burnidan ohista ushlaganicha tunuka lampochka yorug'ida soqolini qirar ekan, men qiyshiq stol yoniga o'tirib, yog' bosgan, yirtilib ketgan «Ogonyok» jurnalini qo'limga oldim. Sariq, yamoqlangan parda ortida chivinlar o'zlarini oynaga urishardi.

Xira oynada o'zimni yaxshilab ko'zdan kechirdim. Bezgak bilan og'rigan bemornikiga monand ko'zlar, qop-qora chehra.

Kechasi Vebel bilan bog'da yotdik. Olmalar «to'p-to'p» etib, o't-o'lanlar ustiga tushar, uyqumda u yon-bu yonga ag'anab, kimnidir chaqirardim. Kimni chaqirganimni eslayolmayman. Tongda uyg'ondim. Qop-qora tun qo'yniga avzoyi buzuq, oddiy kun quyilardi. Olma daraxtlari orasini tuman qoplagan, tong oldidan, ehtimol, yuz marotaba yorqinroq bo'lib qolgan yulduzlarga qaradim, Xadichani, Natasha bilan bo'lgan uchrashuvni esladim, tomog'imga zahri qotildek bir nima tiqilib qoldi.

«Qayerda g'am-qayg'u yo'q, o'yladim men tamaki tutatar ekanman. – Hayotda sevgidan ulug', insonlarning bir-biriga yaqinlashuvidan buyukroq narsa yo'q».

Olmalar «to'p-to'p» etib yerga tushar, katta qishloqda ovozi bo'g'ilib qolgan xo'rozlar qichqirardi.

Dalalar gul ochganda

Rujanga yaqinlashib kelardik. Taqachilarning qiyshiq do'konlari, kimsasiz pinhona mayxonalar oldidagi ko'lmaklarda uzoq loy sachratib, ot tuyoqlarini do'pirlatdik. Yaradorlarni front orti guruhiga topshirgunimizcha yana bir dunyo vaqt o'tdi. Sovun hidi anqib turgan dumaloqqina komendant bizga bir qora kulba ajratib berdi-yu, hozir Slonimga jo'nab ketyapman, deya ogohlantirdi.

Oradan ikki soat o'tib, taqvodor polyak beva ayol va uning uyatchangina qizi – charm fabrikasi ishchisi bizni sut bilan siylashayotgan mahalda Kozlovskiy kelib, otlarni aravaga qo'shishni buyurdi. Nemislar shimol tomonga yorib kirib, endi yon tarafdin aylanib o'tishyapti.

– Falokat, musibat yuz berdi, – deyishardi sanitarlar qorong‘ida. – Hoynahoy, yana xiyonat qilishgandir. Nima, bu, nemislar bilan kartoshka otib, jang qilamizmi?

– Halok bo‘lganlar-chi!.. Halok bo‘lganlar qancha! Eh-he! Axir dalalar o‘shalarning qoni tufayli gul ochib yotibdi, janobi oliylari. Hosil mo‘l bo‘ladi, juda mo‘l bo‘ladi, qurib ketgur! – shivirlab qo‘shimcha qildi Poleshchuk.

– Imillamalaring! – qichqirdi Kozlovskiy va chetga qarab, bolonador so‘kindi.

Bekaning qizi tosh yo‘lni ko‘rsatib qo‘yish uchun oldingi aravaga o‘tirdi.

Katta qishloq qop-qora tun og‘ushida, yakkam-dukkam yomg‘ir tomchilardi. Biz sekin-asta chuqur jarlikka tusha boshladik. Otlar xirillab, tumshuqlarini baland ko‘tarishar, sirpanib, ehtiyotkorlik bilan yo‘l izlashardi.

– Orqadagilar, jilovni tortinglar, sekinroq, dumalatib yubormanglar! – qichqirardi Kozlovskiy bo‘g‘ilib. – Nima bor u yerda? Kechuv joyimi? Choptirma, otning oyog‘ini sindirasan! Shayton yo‘ldan ozdrib, bu pastqam yerga boshlab keldi-da!

Yomg‘ir aravalarning kanop chodirini savalar, otlar og‘ir hansirab, qattiq tirishardilar. Jarlik ortida jangovar raketa osmonga ko‘tarilib, qarsillab yorildi va chor atrofni jonsizgina nur bilan yoritdi.

– Nima otishyapti? – dedi Aleksey. – Bekordan bekorga cho‘chishadi, hayvonlar.

Kulbaga qamab qo‘yilgan it bo‘g‘iq akilladi. Qishloqdan chiqarishda askarlarning qora bir to‘dasi o‘tirar, onda-sonda suvdon va miltiqlar shiqirlardi. Jarlikda o‘q otildi. Bekaning qizi aravadan tushdi.

– Xo‘p, mayli, men bir amallab yetib olaman, – shivirladi u titroq, ishonchsiz tovushda.

– Nega turib qoldingiz? O‘tinglar, – dedi qorong‘ulikdan, yosh, hayajonli ovoz.

Biz otlarni yo‘rttirib ketdik. Yo‘ldan qayin, ho‘l po‘stloq hidi keldi.

– Negadir, hamma yoq juda sokin, – dedi menga aravada ketayotgan Popova. – Nima bo‘lyapti o‘zi, hech narsani tushunmayman.

– To‘xta! – deyishdi sekingina oldindan, – kim kelyapti?

Kozlovskiy javob qaytardi.

Shamol qari Arakcheyev qayinlari shoxlarida shovqin solardi. Keyin xira alanga va qattiq gumburlash tunni tilkalab yubordi. Go‘yo ko‘p qavatli bino qulab tushgandek edi.

– Ko‘prikni portlatishdi.

Yuzlab yong‘oqlar chaqilganday, shaqir-shuqur qilib, tez-tez o‘q otila boshladi. Qo‘shin hatto okoplar qazishga ham ulgurmay chekinmoqda edi. Yo‘l yoqasidagi zovurda askarlar qo‘rqa-pisa, sekingina bir-birlarini chaqirishardi: «Aloqaga chiqing... Aloqa... Aloqa...»

Ertalabga yaqin rutubatli o‘rmonchalar uzra qizg‘ish-malla Oy ko‘tarildi. Uning nuri botqoqlarning nofarmon suvida titrab ketdi. Shamol qayinlar uchidan shovqin solib o‘tdi-da, muzli tomchilarning yoqasidan olib, yerga qoqib tushirdi. Havo sovub, atrof-javonib ko‘rimsizgina bo‘lib qoldi.

Kunduzi Slonimga yetib keldik.

Arzimas jarohat

Kulrang qishloqlar uzra tong shafag‘i kuyib, kul bo‘lmoqda edi. Men o‘zimiznikilardan ortda qolib, dala yo‘lidan sekin-asta ketib bordim. Nemis okoplari uzra yorqin chiroqdek signal raketasi parvoz etdi. Keyin ikkinchisi, uchinchisi osmonga ko‘tarildi. So‘ngra o‘ndan ortiqrog‘i uchib, portlab ketdi, atrofga oppoq parchalar yog‘ildi. Ular olisdagi o‘rmon va tiramohning harir pardasiga o‘ralgan dalalarni kumush rangiga bo‘yadilar. Qasir-qusur o‘q otila boshladi. Biz tomondan zambarak o‘t ochdi, o‘rmonchalar ortida gumbur-gumbur avjiga chiqdi.

Boshim uzra quvnoq va jarangdor shrapnel yorildi, olovli parchalar yo‘lga do‘ldek yog‘ildi. Xuddi shu asnoda yelkamda shilta issiqlik tuydim. Ot yoliga boshimni qo‘yib, egardan sekin sirg‘alib tushdim. Ostimda yumshoq chang-to‘zon, osmonda g‘alati kuy chalinari, o‘rmon uzra misli ko‘rilmagan yulduzlarning parchalari raqs tushishardi.

«Yaralandim, shekilli», – beparvo o‘yladim men va hushdan ketdim.

Sovuq somonxonada o‘zingga keldim. Katta quti ustida sham yonib turar, belimgacha yalang‘och edim, notanish hamshira qonga belangan doka bilan ko‘kragimni artardi. Yelkamda qandaydir o‘tkir nimarsa tiqilib qolgan, nafas ololmasdim. Va birdan kuragimning yonida teri yo‘qligini, yalang‘och suyak, burdalangan issiq go‘sht ochilib turganini his etdim. Ho‘l, issiq doka qisib turardi.

– Dokani olib tashlang, – dedim yoshi o‘tinqiragan hamshiraga qo‘pollik bilan. – Qizib ketyapman.

U menga zaharxanda nigoh tashladi-da, tunuka idishda loyqa dori ichirdi. Sog‘ o‘ng qo‘limni ko‘tarmoqchi bo‘lgandim, o‘tkir temir halqaday bir narsa ko‘kragimni qisdi, chap yelkamni qisirlatib, ochilib qolgan suyagimni tirnab yubordi.

– Jimgina o‘tiring, – dedi hamshira va yelkamga kanop yaktak yopdi.

Meni qora kulbaga o‘tkazishdi. Kechasi o‘ng biqinimda yotganimcha, to‘plar sadosiga g‘amgin quloq tutardim. Qop-qora yassi tepaliklar ortida yorqin alanga o‘zini to‘rt tomonga urardi.

– Luninetsda barcha stansiyalarga o‘t qo‘yishyapti, – qo‘shni xonada xirqiroq, yo‘g‘on tovush eshitildi.

«Yaradorman, – uzuq-yuluq fikr etdim men. – Biznikilar qayerda ekan? Ertaga ularga bildirish kerak.

Xadicha, jonginam, azizam, qanchalar sog‘indim seni... Ko‘pdan, juda uzoq vaqtdan beri sendan xat kelgani yo‘q. Xudoga shukurki, tirikman».

Mudrab ketib, tush ko‘ra boshladim. Tushimda, kechasi Vinkler kelib yarador qo‘limni siypalarmish, oynalar olov ta‘sirida erib ketgan, nogahoniy sukunatda bir maromda janoza o‘qilayotgan ekan. Mast-alast ashulachilar guruhi «Aziz-avliyolar bilan oxirat obodligi»ni sho‘x-shodon kuylashar, Aleksey jarohatlangan yelkamdan mahkam ushlab, Natasha haqida nimadir deb qichqirardi. So‘ngra qo‘rquvdan nafasim bo‘g‘zimga tiqilib, tuni bilan jarliklarda ot choptirdim. Chorrahada qora xochparchin oldida bir cholni uchratib qoldim. Otni to‘xtatib, Brestga qanday boriladi, deya so‘radim. Chol

jim turaverdi. Yelkasiga qo‘l tekkizgandim, o‘lib qolganini sezdim. Ko‘zining oqi alanga ta‘sirida qizargan edi.

Uyg‘onib ketdim. Kulba burchaklarida suvaraklar shitirlashardi. Shishib ketgan qo‘limni paypaslab ko‘rdim-u, yig‘lab yubordim. Urush davomida men birinchi marotaba bu talotumlar naqadar keraksiz, ahmoqona ekanini tushunib yetdim.

Qattiq askariy choyshabni tishlab, ko‘z yoshlarim aro qora, manfur dalalarda yong‘inlar alangasini ko‘rardim. Yurak zaiflashadi, tordek tarang tortilgan ko‘ngilning g‘alati, olis nidosi jaranglaydi.

– Xudoyim, – dedim sekingina qamchiday osilib turgan madorsiz, jonsiz qo‘limga teginib. – Faqat chiday olsam bo‘lgani! Barcha ko‘rgan-kechirganlarimizni urushdan keyin keladigan yillarga oqizmay-tomizmay yetkazsak edi. Vujudimizdan bu qabohatning izlarini, qon, alam-qayg‘u, yiring zahri, isitma olovi bilan kuydirib tashlash kerak.

Yana alahlash boshlandi.

Kalta ko‘k ko‘ylak kiygan Natasha bilan tosh yotqizilgan qirg‘oqdan dengizga qarab borardik. Muz tog‘iga monand oppoq ummon kemasi oftobda jizg‘anak bo‘lib turar, kemada qo‘ng‘iroq bong urardi. Havo mayin va g‘alati edi. Dengiz ohori shovqin bilan chayqalar, kumush baliqlar bandargoh uzra parvoz etishar, olis safarlar nigohlarimizda ko‘k qush patlariday jilvalanar, qanotlari jarohatli yelkamga tegib ketardi. Og‘riqdan dodlab yuborardim...

Arava kun bo‘yi dala yo‘lida chayqala-chayqala olg‘a bosdi. Kechqurun meni sanitar poyezdining issiq vagoniga o‘tkazib, tezda olib ketishdi. O‘zimiznikilardan hech kimni ko‘ra olmadim.

Vokzallarning ko‘k chiroqlari, notanish shifokorlar chehralari, moyli bo‘yoq hidi, g‘ildiraklar taraq-turug‘i, og‘ir tushlar... Qora ter, oh-vohlar va yana g‘amgin tushlar.

So‘ngra esimda qolgani – avzoyi buzuqqina oqshom, dalalar qo‘ynidagi daryocha, cherkovning zangori gumbazi, Tula viloyatidagi bo‘lmag‘ur bir shaharchaning o‘t bosgan ko‘chalari.

Dalalar qo'ynidagi shahar

Kichik harbiy kasalxona sobiq sharob omborida joylashgan edi. G'aribona cherkovchalarning qo'ng'iroqlari do'rillab bong urishar, dehqon aravalari chang ko'tarib g'ichirlashardi. Oqshomlari daryo, ko'llar ortidan tuman ko'tarilar, tevarak-atrofdan javdari bug'doy dalalari, orom, rohat-farog'at hidi kelardi.

Erinchoq, qishloqi Quyosh olistardagi qirmizi ufqqa sekin-asta bosh qo'yardi.

Shahar atrofidagi Cherkes mavzesida ayollar qo'shiq kuylashar, men beixtiyor «Russkaya misl» jurnalining titilib ketgan jildini bir chekkaga qo'yardim. Juda kam, istar-istamas gapirardim. Ozib ketgandim, lablarim atrofida ikkita mayin ajin paydo bo'lgan, boshim tez-tez og'rib turardi.

Tunlar quyuq, izg'irinli, quruq xazonlar deraza oynasiga urilib, shovqin solishardi. Jarohatim bita boshlagach, shahar tashqarisidagi qabriston o'rmonchasiga boradigan bo'ldim. Men rastalar, tosh ustunli zangori, sariq uylar, dehqonlar aravadan «lo'li»-olma sotayotgan bozor yonidan o'tardim. Xazon yaproqlar o'rmoncha osmoniga zarhal yugurtirgan, olmazorlar uzra shahdi past quyosh kuchsizgina nur sochardi.

Asli sibirlik mayda xizmatchilardan bo'lgan ikki praporshchik men bilan bir xonada yotishardi.

Ular ham xuddi men singari boshpanasiz, darbadar edilar. Hamxonalarim uzzu kun jimgina o'tirib, shaxmat o'ynashar, qo'lbola tamaki kulini yostiq va choyshablarga to'kishardi.

Men ijod qila boshladim, so'ngra achchiqlanib, bu mashg'ulotning bahridan o'tdim. Kimga keragi bor, ortiqcha dahmazaning? Yirtib tashlangan qog'oz parchalari yuvilmagan deraza ostidagi xazonlar va axlat orasida uzoq vaqt sochilib yotdi.

Kunlarning birida uchalamiz jamoatchilik kengashi uyushtirgan ko'ngilxushlik kechasiga bordik. Mayxonaning yashil dahlizida kiyim-boshlar to'da-to'da qilib tashlangan, yuqorida o't o'chiruvchilar orkestri hamma yoqni boshiga ko'tarib, gumburlardi. Qizlarning chit ko'ylaklari, shu ko'ylaklariga monand dumaloq

ko'zlari, qora shisha munchoqli onaxonlar, ter hidi. O'chayotgan chiroqlar, hamma yoqni ostin-ustun qilgan olatasir «kamarinka» raqsi yodimda qoldi.

Boshim og'riyotgan edi, bazmdan ketib qoldim. Qorong'i ko'chalarni kezar ekanman, o'zimni qo'yishga joy topolmasdim. So'ng-ra o'sha, qabriston yonidagi o'rmonchaga bordim, ho'l yog'och o'rindiqda ertalabgacha o'tirdim. Vujudimda mahv bo'lgan allanarsa haqida o'ylardim, u hech qachon qaytmasligini bilardim. Dalalarda qahrli, la'natli yakka-yolg'iz sukunat yastanib yotardi.

Ertalab, kasalxonaga qaytganimda, stol ustidagi choy xalqobi yonida telegramma yotardi.

«Maksimovga» degan kalimani o'qigach, qog'ozni ochdim. Xuddi mirza yozib bergandek orasi ochiq-ochiq qatorlarni yaxshi tushunmay o'qidim:

«Natasha toshma terlamadan Minsk yaqinidagi Nesvijda vafot etdi. Undan Sizning nomingizga xat bor. Semyonov».

Kechasi isitmam ko'tarildi, alanga-otashda yonib, alahladim. Men yana xuddi o'sha, qora kulbada bo'lganidek, Natasha bilan ulkan oq kemaga qarab borardim. Yuzlarimizga shamol urilar, ko'k qushlar qizil tomlar uzra o'mbaloq oshishardi.

– O'ldi, – dedim baland ovozda va shivirlab qo'shib qo'ydim: – Kelingizlar, so'nggi bor o'pich beramiz. Endi bu yorug' jahonda faqat ikkimiz – Xadicha va men qoldik. Hayot bizni bo'g'ib-yanchib tashlaydi. Bo'g'ib-yanchib tashlaydi, – seskanib, sekingina takrorladim men.

Yomg'ir derazaning qora oynalarini noxush savalardi. Ertalab kasalxona ro'yxatidan chiqdim-da, Moskvaga jo'nab ketdim.

Zarang bargidan gulchambar

Kursk vokzalidan Arbat darvozasiga, u yerdan Ordinkaga, Semyonovnikiga bordim.

«Azizim Moskva, – o'yladim Xaloskor Iso cherkovi yorqin gumbazlariga, oltinrang Prechistenka xiyobonidagi Gogol haykaliga nazar tashlar ekanman. – Aziz, g'amusor Moskva».

Xiyobonning ho'l qumida ayollarning ensizgina izlari bor edi.

Semyonovning eshigi oldida uzoq turdim, so'ngra qo'ng'iroq tugmasini bosdim. Eshikni qari enaga ochdi. U oh chekdi-yu, yig'lab yubordi. Kampirning oppoq sochli boshi titrab ketdi. Atrofga qaramaslikka harakat qilib, ish bo'lmasiga o'tdim. Semyonov uyda yo'q ekan. Stolda mening nomimga yozilgan xat yotardi. Maktubni qo'lga olib, shinelim qaytarmasiga soldim-da, uydan chiqib ketdim. Ortimdand eshik qattiq qarsillab yopildi.

Zinapoyalarga etigimning suvori tepkilarini tekkizganimcha, boshim gangib, pastga tushdim-u, Suxarevka tomonga qarab ketdim. Havo sovuq, quyosh nur sochib turar, ayollar allaqachon yengil mo'ynalarga o'ralib olishgan, xiyobonlar so'nggi yaproqlaridan judo bo'lishmoqda edi.

Tentirab, Vindavsk vokzaligacha bordim, shahar tashqarisiga qatnovchi bo'm-bo'sh poyezdga chiqdim-da, Pavshinoda tushib qoldim. Olis-olislar zangori tus olgan, muzlagan ko'lmaklar oyoq ostida shishadek g'ichirlaydi. Dalalar bo'ylab, qurigan poyalarni ezig'ilaganimcha, Arxangelskoyega o'tdim.

Bog'ning o't bosgan xiyobonlarida uzoq kezdin, to'xtab, qarag'aylarning qizg'ish tanalarini siypaladin, butoqlar orasidan osmonning yorqin, ko'm-ko'k gumbaziga tikildim. Quyosh Yusupov saroyining sariq ustunlarida jilvalanardi.

Quyosh botar mahali saroy hovuzi nafis qirmizi tus olib, yupqa muz bilan qoplangandi. Oyog'imni yaxga tekkizib ko'rdim, so'ngra qilichimni qinidan chiqarib, yarqirab turgan o'tkir uchi bilan muz ustiga «Natasha» deb yozdim. Zarang daraxtining qizil barglari sekin-asta chirpirak bo'lib, hovuzga tushar, men uchun aziz bo'lgan nom atrofida gulchambar hosil etishardi.

Keyin nima bo'lganini yaxshi eslay olmayman. Faqat Minskdan o'tganimizdan keyingi tong yodimda. Subhi kozib birinchi qor ustida ko'kimtir tovlanar, tepalikda kichik-kichik qarag'ayzorlar mudrab yotishardi. Poyezd kichik bir bekatda uzoq turib qoldi. Men sovuq vagondan chiqib, qor ustiga sakrab tushdim, ortimda katta-katta qora izlar qoldi. Oldinda burg'u chalindi. Chumchuqlar patlarini hurpaytirib, telegraf simlarida o'tirishardi. O'rmon ortida yana zambarakning bo'g'iq va olis sadosi eshitildi.

Xuddi shu asnoda o‘zinning naqadar yolg‘izligimni, chala-yarim aytilib, ko‘ngilda to‘planib qolgan dard-u alam nima ekanini, hayotga majburan kiritilgan ushbu nursiz, g‘adir-budir, keraksiz kunlar zalvorini bus-butun his etdim.

«Bu – intiho, tamom, ado bo‘ldim, – o‘yladim, sovuqdan junjikib. – Men la‘nati urush, batamom aqldan ozish arafasidagi uzundan uzoq tanaffuslar xochiga mixparchin etilganman».

«Qochish kerak! – o‘yladim yengil tortib. – Juhudning Natasha vafot etgan o‘sha chirkin uyini bir ko‘rib, so‘ngra qochib ketish kerak, vassalom!»

«Mening sevgim shunchalar ulkan, ulug‘vorki, uni vujudimda olib yura olmayman, – yozardi u so‘nggi maktubida. – Men bokira mehr-shafqat, nazokat, nafosatga limmo-lim to‘liqman. Tushunishga harakat qil. Sen axir, buni tushuna olasan».

Xadichaning yoniga qochib ketish kerak. Men uning qo‘llarini qisib, hamma-hammasini xotiramdan o‘chirib tashlashni o‘rgatishni iltimos qilaman. Salqin, ohori yomg‘irlar va dengiz bu kunlar dard-alamini yuvib ketadi. Shamollar miyamni chirkin o‘y-xayollardan forig‘ etadi.

Poyezd qattiq silkinib ketdi. Burg‘u vahima va yig‘i aralash qu-loqni teshgudek nola qildi. Olachalpoq harbiy karvonlar irigan tuman, ot siydigi hovuri aro zo‘r-bazo‘r harakat qilishardi.

Oradan bir hafta o‘tgach

Oradan bir hafta o‘tgach, Xadicha Tula viloyatining Maksimov davolangan o‘sha kichik shaharchasiga keldi. U Maksimovni bu yerda uchrata olmadi.

Xadicha vrach va sibirlik ikki uyatchan praporshchikdan uni so‘rab-surishtirdi. So‘ngra ko‘z yoshlarini zo‘rg‘a tiyib, g‘amgin, af-toda holda po‘rtaxol barglari qoplagan, loy, egri-bugri ko‘chalarni kezdi. Kechga tomon Moskva poyezdiga chiqish uchun vokzalga keldi.

Poyezd haddan tashqari kechikayotgan edi. Poyezdni kutayotgan Xadicha temir izlarni yoqalab, sekin-asta semaforqa qarab ketdi. Shamol birinchi qorni yerga qalin ko‘rpadek to‘shar, atrof qop-qorong‘i,

begona va xunuk ko'rinar, olisda ovozi bo'g'ilib qolgan itlar akilla-shardi. Qiz birdan Vinklerning o'limini esladi – adoqsiz, qattiq alam yuragini o'rta b yubordi-yu, yangidan kuch-quvvat ato etdi.

«Maksimov o'lmaydi, o'lishga haqqi yo'q. Hayot endigina boshlanayapti», –o'yladi u va vokzal tomonga burildi.

Zimiston tun. Shamol borliqni ho'l qor bilan savalar, shaharcha qariyalarning yoshlangan ko'zlariga monand chiroqlarini qorong'ilik qa'riga tikib, jimir-jimir etardi.

*Taganrog – Moskva – Odessa.
1916–1923-yillar.*







Bove xonimning duosi

Uni hamma, hatto suv tashuvchi Fyodor ham «xonim» deb atardi. Fyodor ertalablari Podmoskovedagi xonim yashaydigan dala hovliga kattakon yashil bochkada suv olib kelardi.

Xonim Fyodorga yordam berish uchun uydan chiqar va suv tashuvchining qirchang'i otiga bir bo'lak non uzatardi. Uyqusirab turgan qirchang'i shu zahotiyuq uyg'onar, xonimning qo'lidagi nonni issiq lablari bilan yamlab olar, uzoq kavshar va bosh qimirlatardi.

– O-o! – kulardi xonim. – Bu qari ot menga minnatdorchilik bildiriyapti.

Xonim uning o'zini, Janna Boveni, ayrim qo'shnilar «qari qirchang'i» deb atashlarini bilmasdi.

Xonim qari edi, lekin juda tez yurgani, tez gapirgani, yonoqlarining qirmiz rangi atrofdagilarni aldar va uni yoshroq deb o'ylashardi.

Xonim allaqachonlardan beri Rossiyada, birovlarning xonadonida yashar, bolalarga fransuz tilini o'rgatar, ularga Lafonten masallarini qiroat bilan o'qib berar, sayrga olib chiqar va yaxshi xulq-atvor qoidalarini singdirardi. Oxir-oqibat, u o'zi o'sgan Normandiyani deyarli unutayozgandi.

Nemislar Majino liniyasini Shimoldan aylanib o'tib, Fransiyaga bostirib kirishganida, generallar sotgan fransuz armiyasi mag'lub etilib, Parij taslim bo'lganida, xonim bir so'z ham demadi. Faqat o'sha ertalab u choy ichgani chiqmadi, xolos.

Bolalar – ikki qizaloq – xonim o'z xonasida, o'rmonga ochiladigan deraza yonida tiz cho'kkanicha yig'lab o'tirganini ko'rganlarini ota-onalariga aytib berishdi.

O'rmon qalin, unda kakkular sayrashar, tovushlari quyuq daraxtlar ichkarisidan aks sado berardi.

– U endi hech qachon yig'idan to'xtamaydi, – dedi otasiga katta qiz. Uning oftob kuydirgan ikki o'rim sochi yelkasida to'lqin urardi.

– Nega?

– Shuning uchunki, uning Fransiyasi endi yo‘q, – javob berdi qiz va sochlarini o‘ynay boshladi.

– Sochingni ochma, – dedi otasi. – Fransiya yana oyoqqa turadi.

Xonim tushga yaqin o‘z xonasidan tushdi. U jiddiy alpozda o‘tirar, lablari qimtilgan, kichik yonoqlaridan qirmizi rang yo‘qolgandi.

Hech kim Fransiya haqida og‘iz ochmadi. Xonim ham jim edi.

Keyingi yozda Germaniya Sovet Ittifoqiga hujum qildi. Nemislar Moskva osmoniga hujum qilishar, og‘ir bombalar dala hovli yaqiniga tushardi.

Ana shu og‘ir pallada xonim o‘zining besaranjomligi bilan hammani hayron qoldirdi. Erta tongdan kech shomgacha u nimalarningdir tashvishi bilan yurar, oziq-ovqat uchun Moskvaga qatnar, kir yuvar, yamoq yamar, ovqat pishirar, askarlar uchun paxtali kiyimlar tikardi. Va har doim kuymanib yurganida, ishlayotganida o‘zicha fransuz qo‘shig‘ini xirgoyi qilardi: «Quand les lilas refacnraront».

– «Nastarin gullaganda» – deya qo‘shiq so‘zlarini tarjima qildi katta qiz. – Siz nega doim shu qo‘shiqni kuylab yurasiz, xonim?

– O! – javob berdi xonim. – Bu qadimiy qo‘shiq. Qachonki, sabrtoqat qilish va nimanidir juda uzoq kutishga to‘g‘ri kelsa, boyaqish onaginam menga shunday derdi: «Zarari yo‘q, Janna, kuyinma, nastarin gullaganida murodingga yetasan».

– Bo‘lmasa, siz hozir biror nimani kutyapsizmi? – so‘radi qiz.

– Mendan bu haqda so‘rama, – dedi xonim va qizga jiddiy, kulrang ko‘zlarini qadadi. – Tushundingmi?

Qizcha bosh qimirlatdi-da, qochib ketdi. O‘shandan beri u ham xonimga o‘xshab gullayotgan nastarin haqida kuylab yuradigan bo‘ldi. Bu qo‘shiq unga yoqardi.

Qiyg‘os bahor, tonggi sokin bog‘lar, hovuz tepasidagi nastarin butalari qizchanning nazaridan tez-tez o‘tib turardi. «Nastarin gullaganda...»

1944-yil bahorining oxiri iliq va tez-tez yog‘ib turgan qisqa yomg‘irlar tufayli taru toza edi. Iyunning boshlarida dala hovli bog‘idagi nastarin gulladi. Uning sovuq shingillari doim shabnam bilan qoplangan, kimda-kim nastarinni hidlasa, yuzi ho‘l bo‘lardi. O‘rmonda qushlar basma-bas sayrashar, «soatsoz» deb nom olgan

allaqanday noma'lum qush hammaning zavqini keltirardi. «Trr-trr-trr!» – qichqirardi u va bu tovush devor soatini kalit bilan buraganda chiqadigan ovozga o'xshab ketardi.

Lekin ho'l qayinzorlar uzra tumanli Oy ko'tarilayotgan g'ira-shira palla juda alomat edi. Oqshom osmonida majnunvor novdalar soyasi ko'rinar, o'rmon uzra zangor havoda bulutlar suzib, kuchsizgina nur taratishardi. So'ngra salqin havo va suv hidiga limmo-lim tun jimib qolgan ulkan zamin ustidan hukmronlik qila boshlardi.

Xonim bolalarni uxlatib, boqqa chiqar, nastarin butasi oldidagi oromkursiga o'tirib olib, nimalargadir quloq tutardi. Olisdan poyezdlar, yo'ldan yurib kelayotgan odamlarning ovozi eshitilar, atrofda biror bir narsa urushni eslatmas, lekin og'ir, qattol xunrezlik davom etar va ehtimol, shuning uchun bo'lsa kerak, o'sha yozda odamlar o'rmonlar nafasoti, qushlar sayrashi, yulduz to'la osmon go'zalligini yurak-yurakdan his etardilar.

Xonim shu bahor birinchi marotaba qo'shni qishloqdagi ibodatxonaga bordi. Troitsa kuni edi. Cherkov qayin novdalari bilan bezatilgan, yerga o't-o'lanlar sochilgan, oyoq ostidan kuz – xazon faslining shirin va g'amgin hidi anqirdi.

Qarib, shalvirab qolgan ruhoniy zo'rg'a, juda sekinlik bilan duo o'qirdi, shu boisdan xonim hech nimani tushunmadi. Ruhoniy bodu havoning mukammalligi, zamin ne'matlarining mo'l-ko'lligi, tinchlik-omonlik vaqtlari haqida duo qilganda xonim xo'rsinib qo'ydi. Uning juda olisdagi, deyarli unut bo'lgan mamlakati uchun bunday dorilomon kunlar qachon kelarkin?

Shu kuni xonim boqqa odatdagidan kechroq chiqdi. Uy bekasi Moskvaga ketganidan xonimning har doimgidan ko'proq ishlashiga to'g'ri kelgandi.

Bog' juda sokin, Oy shaffof soya tashlab turardi.

Xonim qo'llarini tizzasiga qo'yanicha xayol surib o'tirardi. So'ng u alangladi, o'rnidan turdi – kimdir hovli yonidan yugurib borardi. Xonim daricha yoniga keldi va qo'shning o'g'li Vanyaga ko'zi tushdi.

– Ivan! – chaqirdi xonim.

– Moskvadan kelyapman! – qichqirdi bola yugurishda davom etib. – Hujum boshlandi! Bugun ertalab, Normandiyaga! Oxiri boshlandi-da!

– Nima, nima? – so‘radi xonim, lekin bola javob bermay, yo‘lida davom etdi.

Xonim qo‘llarini qisib, o‘z xonasiga tez kirib ketdi. Uy ega-si yemakxonada o‘tirib, bir stakan choy ustida har doimgiday kitob o‘qirdi.

Xonim bir daqiqa to‘xtadi, bo‘g‘ilib, juda tez gapirdi:

– Ular qo‘shin tushirishdi... bizga... Normandiyaga. Men aytgandim... «Nastarin gullaganda...»

Xo‘jayin kitobni stolga otib yuborib, o‘rnidan sakrab turdi. Xonimning ortidan telbavor nigoh tashladi va sochlarini hurpaytirib, shivirladi: «Juda zo‘r-ku!» U shunday deganicha yangilikni bilib kelgani qo‘shni hovliga jo‘nadi.

U bir soatdan so‘ng qaytib kelib, yemakxona ostonasida to‘xtadi. Xona juda yorug‘, barcha chiroqlar nur sochardi. Royal ustida sham-lar alangalanar, dumaloq stolga qorday oppoq dasturxon tashlangan, unda «Shampanskoye» shishalari yaltirab turardi.

Hamma yerda – stollar, derazalar, royal ustida, poldagi guldonlar, ko‘zachalar, toslar va hatto eman chelakda quchoq-quchoq nastarin gullari bor edi.

Xonim stolga qadahlarni qo‘yib chiqdi. Lol qolgan xo‘jayin unga tikilganicha indamay o‘tirardi. U kulrang shoyi ko‘ylakli, sochlari oq, ingichkagina ayol – o‘sha, o‘zlarining sertashvish, besaranjom, mehnatdan qo‘llari qizarib ketgan keksa xonimlari ekanini dabdurustdan anglayolmadi. Bunaqa nafis, lekin rusumdan chiqqan ko‘ylaklarni xo‘jayin faqatgina bolaligida, tantanalar va oilaviy bayramlardagina ko‘rgandi. Marvarid-marjonlar shoyiga qo‘shilib yaltirardi. Xonim xo‘jayinni ko‘rgani hamon qo‘lidagi yelpig‘ich sharaqlab yopildi-yu, oltin zanjirchaga osilib qoldi. Xonim ayyorona jilmayganicha, shunday dedi:

– Ma‘zur tuting, janob, fikrimcha, ushbu voqea sharafiga qizaloqlarni bir daqiqagina uyg‘otish joiz bo‘lsa kerak.

– Ha... Albatta! – g‘o‘ldiradi xo‘jayin hali hech nimani tushunmay.

Xonim xonadan chiqdi, lekin atirning (Parijniki bo‘lishi kerak) mayin hidi xonada qoldi.

«Nima bu o‘zi? – o‘yladi xo‘jayin. – Ko‘zlarining chaqnashi, tabassum, yelpig‘ichni yopganidagi erkin muqom! Bularning hammasi

nimani bildiradi? Ey xudoyim, u yoshligida naqadar go'zal bo'lgan bo'lishi kerak! Ko'ylagini qarang! Qayerdadir, Kanndagimi, Granvil-dagimi, yakka-yu yagona bazmda kiyilgan yakka-yu yagona ko'ylak. Shu choqqacha uydagilardan hech kim xonimning shunaqa ko'ylagi, marjonlari, yelpig'ich, atiri borligini bilmasdi. Musallas shishalarini qayerda asradi ekan?»

Tepadan hayron-u lol, hayajonga tushgan qizlar tushib kelishdi. Xonim ularning ortidan tushdi, royal yoniga o'tirib, sochlarini tuzatgan bo'ldi va chala boshladi.

Ha, xo'jayin tushunib yetdi! Har doimgidek, bu jarangdor, zoriqib kutilgan musiqadan yuragining osti muzlay boshladi:

*Vatan uchun qo'zg'oling,
Shon-sharaf kuni yetdi!*

Xo'jayin «Shampanskoye» shishasini ochayotgani ko'yi quloq turtardi. Qizchalar yemakxona o'rtasida bir-birlarining pinjlariga tiqilib turishar, porlab turgan nigohlarini xonimdan uzishmasdi.

«Qo'lga qurol oling, fuqarolar!» – «Marseleza» uyni, bog'ni va go'yo butun o'rmonni, tunni to'ldirib jaranglardi.

Xonim boshini solintirib, ko'zlarini yumib yig'laganicha to'xtovsiz royal chalardi.

Royal bir maromda guldirardi. Ular borishyapti! Fransiya farzandlari, go'zal mamlakatning o'g'il-qizlari bostirib borishyapti! Buyuk fransuzlar xo'rlangan Vatanlari ozodligi, baxt-saodati, shon-sharafini ko'rish uchun mozorlardan chiqib kelyaptilar.

«Qo'lga qurol oling, fuqarolar!» Normandiya, Burgundiya, Shampan va Langedok shamoli ularning yonog'idagi ko'z yoshlarini uchi-rib tushiradi. Bu ko'z yoshlari – o'z o'limlari bilan o'limni mahv etib, xo'rlangan olijanob xalqqa hayot, Vatan va or-nomusni qayta ato etgan minglab ingliz, rus, amerika askarlariga minnatdorlik yoshlaridir.

Xonim royal chalishdan to'xtadi, qizchalarni yelkalaridan quchib, stol yoniga boshladi. Qizaloqlar uning pinjiga tiqilishib, qo'llarini silashardi.

Xo'jayin ko'zlarini kafti bilan bekitganicha oromkursida o'tirardi. U shu ko'yi – qo'lini ko'zlaridan olmay, o'z qadahidagi musallasni ichdi.

Qizlarning kattasi tongda uyg'ondi, sekin o'rnidan turib, yelkasi-ga ko'ylagini tashladi-da, xonimning xonasi tomon ketdi.

Eshik ochiq edi. Kulrang shoyi ko'ylakdagi xonim boshini dera-za tokchasiga tirab, ochiq oyna oldida tiz cho'kkanicha allanimalarni pichirlardi.

Qizcha quloq soldi. Xonim ajabtovur so'zlarni shivirlardi. Bu duo ekanini qiz darrov tushuna qolmadi.

– Avliyo Mariya! – iltijo qilardi xonim. – Avliyo Mariya! Fransi-yani bir ko'rishga, tug'ilgan uyim ostonasini o'pishga, azizim Sharl-ning qabriga gullar qo'yishga imkon ber! Madad ber, Avliyo Mariya.

Qizcha o'rnidan qimirlamay, quloq solardi. O'rmon ortidan qu-yosh ko'tarilmoqda, uning ilk nurlari xonimning qo'lida hamon osilib turgan yelpig'ichning oltin zanjirchasida jimirlardi.

Dengizdan esgan shabada

Kun bo'yi kuchli, sovuq shamol aralash yomg'ir yog'di. May oyi boshlarida Moskvada tez-tez shunday ob-havo bo'lib turadi. Atrofdagi hamma narsa: osmon, tomlar uzra o'rlagan tutun, hatto, havoning o'zi ham kulrang tusda edi. Faqat asfalt qora daryoga o'xshab, yaltirab turardi.

Moskva-reka sohilidagi katta uyda istiqomat qiluvchi qari, so'qqabosh shifokor huzuriga yoshgina harbiy dengizchi keldi. Dengizchi 1942-yilda Sevastopol qamali paytida og'ir yaralangan va front orqasiga jo'natilgandi. Shifokor uni uzoq davoladi. Oxir-oqibat, ular do'stlashib ketdilar. Bu safar u Qora dengiz flotidan bir necha kunga kelgandi. Doktor uni bir shisha kaxetin musallasini baham ko'rgani uyiga taklif qildi. So'ngra dengizchi shifokor do'stining uyida tunagani qoldi.

Yarim kechada radio qo'shinlar Sevastopolni ishg'ol etgani to'g'risida xabar berdi. Mushakbozlik tungi soat birga belgilangandi. Bu vaqtda Moskva ko'chalari mutlaqo kimsasiz bo'ladi.

Ikki do'st mushakbozlikni kutib, nimqorong'i bo'lmada chaq-chaqlashib o'tirishardi.

– Qiziq, – dedi shifokor musallasning qolganini ho'plar ekan, – kishi og'ir yarador bo'lganida nima haqda o'ylar ekan-a. Mana, masalan, siz, o'shanda, Sevastopol ostonasida nimani o'ylagandingiz?

– Men hammadan ko‘proq «Kazbek» papirosi qutisini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqdim, – javob berdi dengizchi. – Bilasiz, bu qutida qor qoplagan Kazbek cho‘qqisi surati chizilgan. Men tongda yalalandim. Hali tun salqinligi saqlangan, ertalabki quyosh tuman qo‘ynida nur sochar, jazirama, og‘ir kun yetib kelmoqda edi. Juda ko‘p qon yo‘qotgandim, lekin o‘sha quti va Kazbek cho‘qqisidagi qorlar to‘g‘risida o‘ylardim, meni qorga ko‘mib qo‘yishlarini istardim. Shunday qilishsa, qon oqishi to‘xtaydi va nafas olishim yangillashadi, deb o‘ylardim. Quyosh tobora baland ko‘tarilmoqda, men qulab tushgan to‘sin soyasida yotardim. Bu soya daqiqa sayin kichrayib borardi. Oxiri quyosh oyoqlarimni, so‘ng qo‘limni kuydira boshladi. Men kaftim bilan ko‘zimni to‘sish uchun qo‘limni uzoq vaqt ko‘tarib harakatga keltirdim. Hali unchalik og‘riq sezmasdim. Lekin doim o‘sha «Kazbek» qutisini o‘ylab, tashvishlanganimni aniq eslayman.

– Uni yo‘qotib qo‘yishdan nega bunchalik qo‘rqardingiz?

– Sizga nima desam ekan... Frontda deyarli barcha yosh askarlarining bir ahmoqona odati bor – o‘zlari bilan nimaniki olib yurishsa, hammasiga yaqin kishilarining manzillarini yozib tashlayverishadi. Gazniqob g‘ilofi bormi, dala xaltasi, chodir astari bormi – hammasiga yozaverishadi. Doimo jangda seni o‘ldirishadiganday va hech qanday izing qolmaydiganday tuyulaveradi. So‘ngra, bularning hammasi o‘tib ketadi, albatta.

– Papiros qutingizda kimning manzilini yozgan edingiz? – so‘radi mezbon va ko‘zlarini ayyorona qisdi.

Dengizchi qizarib ketdi, hech nima demadi.

– Xo‘p, mayli, – dedi shifokor shosha-pisha. – Bu masalani qo‘yaturamiz.

Shu asnoda eshik qo‘ng‘irog‘i jiringladi. Uy egasi dahlizga chiqib, eshikni ochdi. Qorong‘idan yosh ayolning harsillagani keldi:

– Hozir mushakbozlik boshlanadi. Sizning ayvoningizdan tomosha qilsam maylimi?

– Mayli, bemalol! – javob berdi shifokor. – Nima, siz uchinchi qavatdan sakkizinchiga yugurib chiqdingizmi? Yuragingizni ishdan chiqarmoqchimisiz! Chiroqni o‘chiring, – dedi so‘ngra shifokor dengizchiga dahlizdan turib, – yuring ayvonga chiqamiz. Faqat, shinelni yelkangizga tashlab oling, yomg‘ir hali tingani yo‘q.

Dengizchi o'rnidan turib, chiroqni o'chirdi. Dahlizda u notanish ayol bilan salomlashdi. Qorong'ida ularning barmoqlari to'qnashdi, ayol dengizchining qo'lini paypaslab, so'ng sekingina qisib qo'ydi.

Ayvonga chiqdilar. Ho'l tunuka tomlar, kuz hidi kelardi. Ertabahor, aksariyat hollarda kuzga o'xshab ketadi.

– Xo'sh, – dedi mezbon, – yomg'irdan junjikib, – oxir-oqibat, «Kazbek» qutingiz nima bo'ldi?

– O'zimga kelganimda, quti yo'qolgandi. Sanitarlarmi, yoinki, yaramni bog'lagan hamshira tashlab yuborganmi? Lekin ajablanarlisi shundaki...

– Nimasi ajablanarli?

– O'sha qiz... ya'ni qutida manzili yozilgan kishi, yaralanganligim to'g'risida maktub olgan. O'zim unga xat yozmagandim.

– Ajablanadigan yeri yo'q, – dedi uy egasi. – Kimdir qutini olgan, manzilga ko'zi tushib, xat yozib yuborgan. Juda oddiy voqea, lekin siz, aftidan, uni mubolag'a qilmoqchisiz.

– Yo'q, nega endi? – uyalib ketdi dengizchi – Umuman olganda, o'sha paytda men to'g'rimdagi maktub hech kimga kerak bo'lmagan.

– Nega?

– Bilasizmi, – dedi dengizchi biroz ikkilanib, – sevgi dengizdan esgan shabadaga o'xshaydi. Kunduzi dengizdan qirg'oqqa qarab essa, kechasi qirg'oqdan dengizga tomon esadi. Hamma ham bizni istaganimizdek, sadoqat, sabr-toqat bilan kutavermaydi-ku.

– Nafsilamriga, – dedi kulimsirab kekxa shifokor, – siz xuddi zo'r shoirdek gap qilyapsiz.

– Ey, xudoyim! – dedi ayol hayajon bilan. – Naqadar nozikta'b kishisiz, doktor!

– Yo'q, ruxsatingiz bilan, unday emasman! – qizishdi shifokor.

Shu onda qip-qizil olovday bo'lib, birinchi zalp yarqiradi va tomlar uzra zambarak guldurosi o'tib ketdi. Yuzlab raketalar yomg'ir ostida vishillab osmonga ko'tarildilar. Ular shahar va Kremlni turli ranglar bilan yoritdilar. Raketalar aksi asfalt yuzida ham o'ynardi.

Shahar bir necha soniya qorong'ilik qa'ridan yorib chiqdi. Baland uy sohiblari har kun ko'rib yurgan narsalar – Kreml, keng ko'priklar, cherkovlar, Zamoskvoreche uylari ko'zga tashlanib qoldi.

Lekin bularning hammasi kunduzdagidan boshqacha edi. Kreml havoda muallaq qolganday, juda yengil tuyulardi. Raketalarining tutqich bermas yarqirashi, yomg'irning harir pardasi uning cherkovlari, qal'a minoralari Ivan Velikiy qo'ng'iroqxonalari tasvirini ko'rsatardi. Ulug'vor imoratlar o'z og'irliklarini yo'qotib qo'yishgan, ular raketalar tutuni aro nurdek porlab, qirmizi olov bilan yoritilgan oq toshdan barpo etilgandek ko'rinishardi.

Navbatdagi nur bo'roni o'chishi bilan, binolar ham ko'zdan g'oyib bo'lar, ularning o'zlari ana shu besaranjom olov manbayi edilar, go'yo.

– Xuddi allaqanday afsonaga o'xshaydi-ya! – dedi ayol. – Faqat, esizgina, mushakni bir yuz yigirma to'rt marotaba emas, yigirma to'rt marotaba otishadi, xolos.

U biroz jim turgach, qo'shib qo'ydi:

– Sevastopol! Eslaysizmi, u yerning suvi naqadar tiniq va yam-yashil? Ayniqsa, kemalar quyrug'i ostida. Yana, portlashlardan singan quruq akas daraxtlarining hidi yodingizdami?

– Ya'ni, qanaqasiga, «eslaysizmi»? – dedi shifokor. – Siz kimdan so'rayapsiz, o'zi? Men Sevastopolda bo'lganman.

Ayol hech nima demadi.

– Men bo'lsam, bularning hammasini juda yaxshi eslayman, – dedi dengizchi. – Siz Sevastopolda bo'lganmisiz?

– Taxminan, siz bilan bir vaqtda bo'lganman u yerda, – javob berdi ayol.

Mushakbozlik tugadi. Ayol ketdi, lekin bir necha daqiqa o'tgach, qaytib keldi. Bosh og'rig'idan nolib, uy egasidan dori so'rab oldi va uyalinqirab xayrlashganicha, yana chiqib ketdi.

Kechasi mehmon uyqudan uyg'onib, deraza ortiga nazar tashladi. Yomg'ir tingan, bulutlar oralig'idagi yirtiqalarda yulduzlar mil-tirardi. «Ob-havo o'zgaryapti, – o'yladi dengizchi, – shuning uchun ham uxlayolmayapman». U yana pinakka ketgan edi, yonginasidagi ovoz: «U yerda suv naqadar, naqadar tip-tiniq!» – dedi. Dengizchi uyg'onib, ko'zlarini ochdi. Xonada hech kim yo'q edi, albatta.

Yigit papiros qutisiga qo'l uzatdi. Quti bo'sh edi. U shineli cho'ntagida yana papiros borligini eslab, o'rnidan turdi. O'rindiq yelkasiga osig'liq xalatni yopinib, dahlizga chiqdi-da, chiroqni yoqdi.

Oyna yonidagi furajkasi ustida yirtilgan, majaqlangan «Kazbek» qutisi yotardi. Qorli cho‘qqi suratini katta qora dog‘ bekitib turardi.

Dengizchi hali hech nimaning fahmiga bormay, qutini olib, ochdi. Unda papiros yo‘q edi. Lekin quti qopqog‘ining ichki tomonida o‘z qo‘li bilan yozilgan tanish manzilni ko‘rdi. «Qayerdan kelib qoldi bu? – o‘yladi dengizchi. – Nahotki...» U negadir qo‘rqib ketib, tezda chiroqni o‘chirdi va qutini qo‘lida g‘ijimlaganicha xonaga qaytdi. Ertalabgacha ko‘zlariga uyqu inmadi.

Ertalab mehmon uy egasiga hech nima demadi. U soqolini uzoq qirtishladi, so‘ngra sovuq suvda yuvindi. Yigitning qo‘llari qaltirardi. «Ahmoqlik! – o‘yladi u. – Meni nima jim urdi o‘zi!»

Quyosh nuriga yo‘g‘rilgan tuman Moskva osmonini qoplab yotardi. Derazalar lang ochiq, ulardan tun salqinligi oqib kirar, yaqinda tingan yomg‘irning shalabbo yaltir-yulturi aro tong tug‘ilardi. Bu tongda allaqachon uzun yoz, issiq yomg‘irlar, tiniq shafaqlar, oyoq ostiga uchib tushayotgan arg‘uvon gullarining hissi bor edi.

Dengizchi negadir bu tong boshqacha bo‘lishi mumkin emasligiga qattiq ishonardi. Moskvada kamdan kam uchraydigan tonggi sukunat uni xotirjam etmas, aksincha, hayajonini oshirardi.

– Haqiqatan ham, nima bo‘lyapti o‘zi! – dedi dengizchi past to‘vush bilan. Axir, hayotda bundan zo‘rroq voqealar ham bo‘ladi-ku.

«Bu ayol, aftidan, Sevastopolda hamshiralik qilgan, uning yarasini birinchi bo‘lib bog‘lagan, manzil yozilgan qutini topib olgan. Sevgan yigitini juda tez va osongina yodidan faromush etgan o‘sha qizga xat yozib yuborgan», – taxmin qilardi dengizchi. «Kecha esa mening hikoyamni eshitgach, tanigan va qutini ataylab olib kelgan».

«Ha, lekin uni nega asrab qo‘yibdi? Nega o‘zi hech nima demadi? Yosh-u g‘o‘rligidan shunday qilgan, – bir qarorga keldi dengizchi. – Axir, o‘zim ham har xil sirli narsalarni yaxshi ko‘raman-ku. Albatta, uning uyiga kirib, minnatdorhilik bildirish kerak.» Lekin shu zahotiyuq uning eshigi qo‘ng‘irog‘ini bosish uchun favqulodda bir jasorat talab qilinishi, bunga jur‘at etishi dar-gumonligini anglab yetdi.

Bir soatdan so‘ng dengizchi do‘stining uyidan chiqib, zinalardan juda sekinlik bilan tusha boshladi. Uchinchi qavatda to‘xtadi. Maydonchaga qarab uch eshik ochilardi.

Dengizchi ayol qaysi xonadonda istiqomat qiladi, ismi nima deya do'stidan so'ramaganini o'ylab, yengil tortdi. So'rashning o'zi juda noqulay edi. Endi bo'lsa, ketma-kef hamma eshiklar qo'ng'irog'ini bosib, kimni so'roqlashingni bilmay o'tirsang!

Shu asnoda u eshiklardan biri ortida tanish ovoz eshitdi.

«Men bir soatdan so'ng qaytib kelaman, Masha, – dedi o'sha ovoz. – Tunda juda yomon uxladim. Bu yer juda diqqinapas. Daryo bo'yiga boraman».

Yigit hozir, shu lahzada ayol chiqib kelib, o'zini maydonchada ko'rib qolishini angladi. U eshik tomonga otildi-da, yuragi jon holatda dukillab, qo'ng'iroqni bosdi.

Eshik o'sha zahotiyuq ochildi. Uning ortida kechagi ayol turardi. Eshikdan shamol esar, ayolning yengil ko'ylagini hilpiratib, sochlari-ni to'zgitardi.

Yigit jim turardi. Ayol eshikdan chiqib, uni yopdi, yigitning qo'lidan ushladi-da, shunday dedi:

– Yuring. Men sizni kuzatib qo'yaman.

– Sizga minnatdorchilik bildirmoqchi edim, – dedi dengizchi. – Siz meni u yerda... Sevastopolda o'limdan qutqarib qolgansiz. Va bu manzilga xat yozib yuborgansiz...

– Va, aftidan xat yozib yuborganimning hech qanday nafi bo'lmagan? – jilmaydi ayol. – Mendan xafa emasmissiz?

– Nima uchun? – so'radi dengizchi. – Bularning hammasi juda qiziq hamda yaxshi.

Ayol to'xtadi va dengizchining ko'zlariga tikildi.

– Hayajonlanishning keragi yo'q, – dedi u sekingina. – Nimalar deyapman o'zi. Sirasini aytganda, o'zim ham sizdan kam hayajonlanmayapman.

Ular sohilga chiqib, cho'yan panjaralar oldida to'xtashdi. Tong g'ira-shirasi aro Kremlning qirmizrang devorlari nurlanib turardi.

Ayol qo'llari bilan ko'zini bekitganicha jim turar, dengizchi esa uning qo'llariga tikilganicha ana shu barmoqlarga ehtimolki, o'zining qoni tekkani haqida xayol surardi. Ha, ana shu ingichka va aziz barmoqlarga tekkan uning qoni.

Ayol qo'llarini ko'zidan olmay turib, shunday dedi:

– Bu shunday, tez orada yuz berishiga hech ishonmagandim. Boz ustiga, Sevastopoldan so'ng sizni yana ko'raman, deb xayolimga ham keltirmagandim.

Dengizchi uning qo'lini qo'lga oldi. Atrofdagilarga e'tibor qilmay, bu kichkinagina, kuchli qo'lni o'pdi. Yo'lovchilar xuddi hech nimani ko'rmaganday o'tib ketishar, faqat juda uzoqqa borishgach, ortlariga o'g'rincha qarab qo'yishar va ibo bilan jilmayishardi.

Yoz bilan vidolashuv

Bir necha kun tinimsiz sovuq yomg'ir yog'di. Bog'da jiqqa ho'l shamol shovqin solardi. Kunduzi soat to'rtlarda biz kerosin chiroqlarini yoqardik. Yoz butunlay tugaganday, zamin esa sidirg'a tumanlar, fayzsiz zulumat va izg'irin qa'riga tobora chuqurroq kirib borayotganday tuyulardi.

Noyabrning oxiri – qishloqda eng g'amgin palla edi. Mushuk eski oromkursida uzzu kun uxlar, loyqa suv shatirlab deraza oynasiga urilganida seskanib tushardi.

Yo'llar yuvilib ketgan, daryodan tuxum oqiga o'xshash ko'pik oqardi. Qushlar bo'g'ot taglariga bekinishdi. Mana, bir haftadir-ki, bizni Mitriy chol ham, Vanya Malyavin ham, o'rmonchi ham yo'qlashmasdi.

Eng yaxshi payt, bu – kechqurunlari edi. Biz pechkalarni yoqardik, olov gurillar, to'q-qizil shu'lalar xari devorlar, rassom Bryullov suratida dirillab turardi.

U oromkursiga yastanganicha bizga boqar, xuddi o'zimizdek ochiq kitobni bir chekkaga qo'yib, o'qilgan narsalar to'g'risida xayol surar va yomg'irning tomda guvillashiga quloq tutardi.

Chiroqlar yorqin nur sochar, nogiron mis samovar o'zining sodagina qo'shig'ini kuylagani kuylagan edi. Uni uyga olib kirishimiz bilan xona fayzli tus olar, derazalar terlab, tun-u kun oyna chertib turadigan qayin butog'i ko'zga tashlanmay qolardi.

Choyxo'rlikdan so'ng pechka yoniga o'tirib olib, kitob o'qishga tushardik. Bunday oqshomlarda Charlz Dikkensning uzundan uzoq, ta'sirchan romanlarini o'qish, yoki «Niva» va «Jivopisnoe obozrenie» jurnallarining eski taxlamlarini varaqlash ko'ngilga xush yoqardi.

Tunlari Funtik ismli sariq kuchukcha uyqusida yig'lar, o'rindan turib uni issiq jun lattaga o'rashga to'g'ri kelardi. Funtik uyqu aralash minnatdorchilik bildirib, qo'lni yalar va xo'rsinganicha uxlab qolardi.

Devorlar ortida zulumat, yomg'ir shaloplashi, shamol guvillashiga qo'shilib shovqin solar, ana shu yomg'irli tunda qalin o'rmonzorlarda qolib ketgan kishilar to'g'risida o'ylash qo'rqinchli edi.

Tunlarning birida g'alati hissiyotdan uyg'onib ketdim. Uyquda kar bo'lib qolgandim go'yo. Ko'zlarimni yumib yotganimcha, uzoq vaqt quloq tutdim va nihoyat angladimki, kar bo'lganim yo'q, balki, uy devorlari ortida ajabtovur sukunat hukmron bo'libdi. Bunaqa sokinlikni «o'lik sukunat» deyishadi. Yomg'ir o'lgan, shamol o'lgan, sershovqin, besaranjom bog' o'lgan edi. Faqat mushukning uyqusida pishillagani eshitilib turardi.

Ko'zlarimni ochdim. Oq va bir tekis nur xonani to'ldirgan edi. O'rimdan turib deraza yoniga bordim: oyna ortidagi hamma narsa oppoq va sokin. Tumanli osmonda, boshni aylantiradigan yuksaklikda yakka-yolg'iz Oy nur sochar, uning atrofida sarg'imir doira tovlanardi.

Birinci qor qachon yog'di ekan-a? Men devor soati yoniga bordim. Shunchalar yorug' ediki, soat millari aniq-ravshan ko'zga tashlanib, ikkini ko'rsatardi.

Men yarim tunda uxlagan edim. Demak, ikki soat mobaynida zamin ana shunday favqulodda o'zgarib qolibdi, shu qisqagina vaqtda izg'irin dalalar, o'rmonlar va bog'larni sehrlab qo'yibdi.

Derazadan zarang daraxti shoxiga kulrang qush o'tirganiga ko'zim tushdi. Butoq salanglab, qor to'kildi. Qush sekin parvoz etib, ko'zdan g'oyib bo'ldi, qor esa archadan yog'ilayotgan shisha yomg'iriga o'xshab, hamon to'kilmoqda edi. So'ng yana hammayoq jimib qoldi.

Ruvim uyg'ondi. U deraza ortiga uzoq tikildi, xo'rsindi va shunday dedi:

— Birinci qor zaminga juda yarashib tushibdi.

Zamin yasan-tusan, xuddi uyatchan kelinchakka o'xshardi.

Ertalab esa muzlagan yo'llar, zinapoyadagi barglar, qor ostidan chiqib turgan qichitqi o't ham g'arch-g'urch etardi.

Choy vaqtiga qarab Mitriy chol mehmonga kelib qoldi, bizni qordagi birinci iz bilan qutladi.

— Mana, yer ham kumush tog'oradagi qor suvi bilan yuvinib oldi, — dedi u.

– Bunaqangi so‘zlarni qayerdan topding, Mitriy? – so‘radi Ruvim.

– Nima, noto‘g‘rimi? – jilmaydi chol. – Mening onam, rahmatlik, shunday hikoya qilardi: qadim zamonlarda go‘zal, sohibjamol qizlar kumush ko‘zachadagi birinchi qor suvi bilan yuvinishgan, shu bois ularning chiroyi hech zavol ko‘rmagan. Bu, azizim, shoh Pyotr zamonasida bo‘lgan, o‘shanda qaroqchilar shu o‘rmonlarda savdogarlarni xonavayron etib yurishgan.

Qishning birinchi kunida uyda o‘tirish juda qiyin edi. Biz ko‘lga qarab ketdik. Chol bizni o‘rmon etagigacha kuzatib bordi. Cholning ham ko‘lga borgisi kelardi, lekin «suyaklarining zirqirab og‘rishi» bunga yo‘l qo‘ymasdi.

O‘rmonlar juda tantanavor, yorug‘ va sokin edi.

Kun mudrab o‘tirardi go‘yo. Bulutli osmondan ba‘zi-ba‘zida yolg‘iz qor zarralari tushib turar, biz sekin puflardik va ular toza suv tomchilariga aylanishar, so‘ng loyqalanib, muzlab, munchoqdek bo‘lib yerga to‘kilishardi.

O‘rmonlarda qorong‘i tushguncha kezib, barcha tanish yerlarni aylanib chiqdik.

Hurpaygan chumchuq galalari qor qoplagan ryabina butalarida o‘tirishardi.

Biz bir necha shingil sovuq urgan qizil ryabina uzib oldik – bu yozning, tiramohning so‘nggi yodgori edi.

Larin hovuzi atalmish kichkina ko‘lda har doim ko‘plab suv o‘tlari suzib yurardi. Hozir ko‘l suvi qop-qora, juda tiniq, bari o‘tlar tubga tushishgandi.

Qirg‘oqlarni shishadek muz tasmasi qoplagan, muz shu qadar shaffof ediki, uni yaqin masofadan ilg‘ash mumkin emasdi. Men qirg‘oq yaqinidagi suvda kichik baliqchalar galasini ko‘rib qoldim va ularga toshcha otdim. Toshcha muz ustiga tushib, jarangladi, baliqchalar tangalarini yaltiratib, chuqurga sho‘ng‘idilar. Muz ustida esa zarbning oq, mayda izi qoldi. Faqat shundan so‘nggina qirg‘oqda muz qatlari hosil bo‘lganini fahmladik. Biz muz bo‘laklarini qo‘llarimiz bilan maydaldardik. Ular g‘ichirlashar, barmoqlarimizda qor va brusnikaning omixta hidini qoldirishardi.

Yalangliklarning u yer, bu yeridan qushlar uchib o‘tishar, noliganday chiyillab qo‘yishardi.

Boshimiz tepasida osmon juda yorug‘, lekin ufq qo‘rg‘oshinrang edi. O‘sha yoqdan imillagan qorli bulutlar kelardi.

O‘rmonlar borgan sari qorong‘ilashib, sokinlashib borardi. Nihoyat, qalin qor yog‘a boshladi. Qor ko‘lning qora suvida erib ketar, betlarimizni qitiqlar, o‘rmonlarga kulrang tutun purkardi.

Qish zamin uzra hukmronlik qila boshladi, lekin agar yumshoq qorni qo‘limiz bilan supursak, hali yangi o‘rmon gullarini topish mumkinligini bilardik. Pechkalarda doimo olov gurillaydi, chittaklar biz bilan qishlagani qolishgan, qish ham xuddi yoz singari go‘zal va dilbar tuyuladi.

Yomg‘irli tong

Navolokiga kema tunda keldi. Mayor Kuzmin sahnga chiqdi. Yomg‘ir shivalar, bandargoh bo‘m-bo‘sh, yolg‘izgina chiroq nur sochib turardi.

«Shaharning o‘zi qayerda? – o‘yladi Kuzmin. – Zulmat, yomg‘ir. Jin ursin!»

U junjikdi, shinelni tugmalarini o‘tkazdi. Daryodan sovuq shamol esardi. Kuzmin kapitan yordamchisini qidirib topib, kema Navolokida uzoq turadimi, deb so‘radi.

– Uch soatcha turamiz, – javob berdi yordamchi. – Yukni ortishlariga bog‘liq. Sizga buning nima ahamiyati bor, hali yo‘lda davom etasiz-ku?

– Xat eltib berishim kerak. Gospitaldagi tanishimdan. Uning xotini shu yerda, Navolokida yashaydi.

– Ha, vazifangiz og‘ir! – xo‘rsindi yordamchi. – Shunday qorong‘iki, ko‘zing teshilay deydi. Siz kema bongiga quloq tuting, bo‘lmasa qolib ketasiz.

Kuzmin bandargohga tushdi, sirpanchiq zinadan tik qirg‘oqqa ko‘tarildi. Butazorlarda yomg‘ir shatir-shuturi eshitilardi. Ko‘zlari qorong‘ilikka o‘rgansin uchun bir muddat turdi. Keyin nigohi boshi egik horg‘in ot, qiyshiq izvosh-aravaga tushdi. Izvoshda nimadir do‘mpayib turar, uning ostidan xurрак tovushi eshitilardi.

– Ey, oshna, – dedi Kuzmin baland tovushda, – xudoning marhamatidan benasib qolasan, bunaqa uxlayversang!

Izvoshchi u yoq-bu yoqqa ag'anadi, so'ng o'rnidan turib, burnini qoqdi, kamzuli etagi bilan artindi va shundan keyingina so'radi:

– Ketdikmi?

– Ketdik, – rozi bo'ldi Kuzmin.

– Qayoqqa boramiz?

Kuzmin ko'chaning nomini aytdi.

– Uzoq, – bezovtalandi izvoshchi, – Tepalikda. Eng kamida cho-rakta araqning pulini to'lashingizga to'g'ri keladi.

U yuganni tortdi, lablarini shapillatdi. Arava istamaygina o'rnidan qo'zg'aldi.

– Nima, bu, sen, Navolokida yakka-yu yagona izvoshchimisan?

– Biz qariyalar ikki kishimiz, qolganlar jang qilishyapti. Kimning uyiga boryapsiz?

– Bashilovanikiga.

– Taniyman, – izvoshchi chaqqon o'girildi. – Olga Andreyevna, doktor Andrey Petrovichning qizinikiga. O'tgan yili qishda Moskva-dan kelib, otasining uyida joylashgandi. Andrey Petrovichning qazo qilganiga esa ikki yilcha bo'ldi, u kishining uylari...

Arava chayqalib ketdi, g'ijirlab chuqurdan chiqdi.

– Sen yo'lga qara, – maslahat berdi Kuzmin. – Alanglama.

– Yo'l haminqadar-da o'ziam... – g'o'ldiradi izvoshchi. – Bu yo'ldan kunduz kuni yurish, qo'rqinchli, albatta, kechasi bir amallasa bo'ladi. Qorong'ida chuqurlar ko'rinmaydi.

Izvoshchi jim bo'lib qoldi. Kuzmin tamaki tutatdi, so'ng izvosh ichkarisiga cho'zilib yotdi. Izvosh tepasida yomg'ir do'mbira chalar, olis-olislarda itlarning hurishi eshitilardi. Kashnich, shilta ho'l devorlar, daryo rutubatining hidi kelardi. «Eng kamida tungi soat 1 bo'lib qolgandir», – o'yladi Kuzmin. Xuddi shu asnoda olis-olislarda qo'ng'iroqning bo'g'iq, yakka-yu yagona bongi eshitildi.

«Ta'tilning hammasini shu yerda o'tkazganimda edi, – o'yladi Kuzmin. Birgina havosining o'zidan yaradorlikdan keyingi bari no-xushliklar o'tib ketgan bo'lardi. Bitta uydin derazalari boqqa qaragan xonani ijaraga olsang-da, xuddi hozirgiday tunda oynalarni lang ochib, ko'rpagga o'ranib olib, yomg'irning shatir-shaturiga quloq solib yotsang».

– Siz Olga Andreyevnaning erlari emasiz? – so‘radi izvoshchi. Kuzmin javob bermadi. Izvoshchi bo‘lsa, harbiy savolni eshitmadi deb o‘yladi, lekin ikkinchi marotaba so‘rasha botinmadi. «Hammasi ravshan, eri», fikrladi izvoshchi. – Odamlar bo‘lsa, «U erini urushdan oldin tashlab ketgan», deya valdirashadi. Demak, yolg‘on aytishar ekan.

– Hoy, shaytoni lain! – qichqirdi u va qoqsuyak otga qamchi tushirdi, – nima, sen xamir qorishga yollanganmisan!

«Kema kechikib, tunda kelgani ahmoqona ish bo‘ldi-da», – o‘yladi Kuzmin. Nega endi Bashilov Kuzmin Navoloki yonidan o‘tishini bilgach, xatni shaxsan xotining qo‘liga topshirishni iltimos qilib qoldi? Odamlarni uyg‘otishga, bezovta qilishga to‘g‘ri keladi. Xudo biladi, nima deb o‘ylashlari mumkin».

Bashilov sho‘x, o‘yinqaroq, barvasta ofitser edi. U juda ko‘p gapirar, nimanidir aytishdan oldin juda uzoq, sassiz kulardi. Armiyaga chaqirilguncha Bashilov kinoda rejissor yordamchisi bo‘lib ishlagan. Har oqshom u o‘z xonadoshlariga mashhur filmlar haqida batafsil hikoya qilib berardi. Yaradorlar uning hikoyalarini yaxshi ko‘rishar, Bashilovning xotirasiga qoyil qolishardi. Odamlar, voqealar, kitoblarni baholashda u juda qat‘iy va o‘jar, e‘tiroz bildirmoqchi bo‘lgan har bir kishining ustidan kular, masxaralardi. Masxaralaganda ham ayyorlik bilan – imo-ishoralar, shama, hazil-huzul orqali niyatini amalga oshirardi. Odatda, masxaralangan kishi bir-ikki soatdan so‘ng Bashilov uning ustidan kulganini anglab yetar, javob o‘ylab topar, lekin tabiiyki, vaqt o‘tib ketgan bo‘lardi.

Kuzminning jo‘nab ketishiga bir kun qolganda Bashilov xotini niga yozilgan xatni uning qo‘liga tutqazdi. Shunda Kuzmin birinchi marta uning yuzida uyalgannamo tabassum ko‘rdi. Kechasi Kuzmin Bashilov o‘rinda u yoqdan-bu yoqqa ag‘anab, burnini tortib yotganini eshitib turdi. «Ehtimol, u unchalik quruq ham emasdir, – o‘yladi Kuzmin. – Mana, aftidan, yig‘layapti. Demak, sevadi, sevgandayam juda qattiq sevadi».

Ertasiga kun bo‘yi Bashilov Kuzminning yonidan jilmadi, unga tikilib yurdi. Ofitserlar suvdonini sovg‘a qildi. Jo‘nab ketishi oldidan Bashilov yashirib qo‘ygan bir shisha musallasni ichishdi.

– Nega menga bunaqa qarayapsiz? – so‘radi Kuzmin.

– Siz juda yaxshi odamsiz, – javob berdi Bashilov. – Siz, azizim, mayor, rassom bo‘lishingiz mumkin edi.

– Men xarita tuzuvchiman, – dedi Kuzmin. – Ular esa tabiatan rassomlardan farq qilishmaydi.

– Nega?

– Negaki, ular ham rassomlarga o‘xshagan daydilar-da.

– «Quvg‘inga uchraganlar, daydilar va shoirlar, – kulimsirab qi-roat qildi Bashilov, – ular buyuklikka da‘vogar edilar va lekin hech narsaga erisha olmadilar».

– Bu kimning ijodidan?

– Voloshindan. Lekin gap bunda emas. Sizga havasim keladi. Shu boisdan tikilib turibman. Bo‘lgan gap shu.

– Mening nimamga havasingiz keladi?

Bashilov qo‘lidagi stakanni aylantirdi, stul suyanchig‘iga tayandi va kulib qo‘ydi. Ular gospital yo‘lagi so‘ngidagi to‘qima stolchada o‘tirishardi. Deraza ortida shamol uvillar, yosh nihollarni egar, xazonlarni uchirib, chang-to‘zon ko‘tarardi. Daryo ortidan ko‘tarilgan yomg‘irli bulut shahar tomonga kelmoqda edi.

– Nimangizga havasim keladi, deysizmi, – qayta so‘radi Bashilov va o‘zining qip-qizil qo‘lini Kuzminning qo‘llariga qo‘ydi. – Hammasiga, hatto qo‘llaringizga ham havas qilaman.

– Hech narsa tushunmayapman, – dedi Kuzmin va ehtiyotkorlik bilan qo‘lini tortib oldi. Bashilovning sovuq qo‘llari unga yoqimsiz edi. Lekin Bashilov buni sezib qolmasligi uchun Kuzmin shishani olib, musallas quya boshladi.

– Tushunmasangiz, tushunmay qo‘ya qoling! – dedi jahl bilan Bashilov. U biroz jim turdi va nigohini yerga qadab, shunday dedi: – Siz bilan o‘rin almashtirish mumkin bo‘lganda edi! Lekin umuman, buning ahamiyati yo‘q. Ikki kundan so‘ng Navolokida bo‘lasiz, Olga Andreyevnani ko‘rasiz. U sizning qo‘llaringizni siqadi. Mana shunga mening havasim keladi. Endi tushungandirsiz, axir?

– Qo‘ysangiz-chi! – dedi Kuzmin o‘zini yo‘qotib. – Siz ham xotiningizning diydoriga muyassar bo‘lasiz.

– U mening xotinim emas! – qo‘pol javob qildi Bashilov, – yaxshiyam rafiqangiz demadingiz.

– Kechirasiz, bo‘lmasa, – g‘o‘ldiradi Kuzmin.

– U mening xotinim emas! – avvalgiday qo‘pollik bilan takrorladi Bashilov. – U mening butun borlig‘im. Jon-u jahonim. Xo‘p, mayli, bo‘ldi endi!

U o‘rnidan turib, Kuzminga qo‘lini uzatdi.

– Xayr, sog‘ bo‘ling. Mendan xafa bo‘lmang. Men ham hamma qatori odamman...

Arava ko‘tarma ustidan yurib keta boshladi. Qorong‘ilik yanada quyuqlashib qoldi. Yomg‘ir barglardan sirg‘alib tushar, quruqlashgan butoqlarda uyqusirab shovqin solardi.

«Haqiqatan ham, uzoq ekan!» – xo‘rsindi Kuzmin va izvoshchiga so‘z qotdi:

– Sen meni uy yonida kutib tur. Bandargohga qaytib oborib qo‘yasan...

– Bo‘pti, – darhol rozi bo‘ldi izvoshchi va o‘ylandi: «Yo‘q, demak, eri emas ekan. Eri bo‘lganda bir-ikki kunga qolardi. Demak, bu begona kishi».

Qayroq tosh yotqizilgan yo‘ldan keta boshladilar. Arava larzaga tushib, g‘ichiray boshladi. Yo‘l chekkasiga burildilar, g‘ildiraklar ho‘l qumda aylanardi. Kuzmin yana xayolga toldi.

Mana, Bashilov unga havas qildi. Albatta, bu o‘rinda hech qanaqa havas degan gap yo‘q. Faqat Bashilov o‘z fikrini to‘g‘ri ifoda etolmadi. Gospital derazasi oldida bo‘lgan suhbatdan so‘ng Kuzmin qaytanga Bashilovga havas qila boshladi. «Yana qayerdagi bo‘lmag‘ur gaplarni o‘yLAYAPMAN?» – dedi Kuzmin o‘zicha alam bilan. U havas ham, hasad ham qilmasdi. Unga qirq yoshga kirib qolgan bo‘lsa-da, Bashilovnikiday sevgi nasib etmagani alam qilardi. U doim yolg‘iz, bir o‘zi edi. «Tun, kimsasiz bog‘larda yomg‘ir shovqin soladi, begona shahar, dalalardan tuman sasi keladi, mana shu tariqa hayot o‘tib ketganini ham bilmay qolasan», – negadir shunday xayolga bordi.

Uning yana shu yerda qolib ketgisi keldi. U daryo ortidagi dalalar, kengliklar, beda ortilgan aravalar ko‘rinib turgan rus shaharlarini yaxshi ko‘rar, bu tuyg‘udan o‘zi ham hayron bo‘lardi. U janubda, dengizchi oilasida o‘sdi. Qidiruvlar, geografiya xaritalari, darbadarlikka bo‘lgan ishtiyoq unga ota meros. Shu boisdan u xarita tuzuvchilik kasbini tanlagandi. Bu kasbni Kuzmin o‘zi uchun baribir tasodifiy deb hisoblar, boshqa paytda tug‘ilganida, ovchi, yangi yerlar

ochuvchi bo'lishiga imoni komil edi. O'zi haqida shunday xayollarga borish unga xush yoqar, lekin fikrlari noto'g'ri edi. Tabiatida bu toifa kishilariga xos bo'lgan biror xususiyat yo'q, juda uyatchan, atrofdagi kishilar bilan nihoyatda muloyim. Oqargan sochlari yoshini bildirib turar, lekin bu past bo'yli, oriqqina ofitserni ko'rgan kishi o'ttiz yoshlarda, deb o'ylashi mumkin.

Arava oxir-oqibat qorong'i bir shaharchaga kirib keldi. Faqatgina bir uyda, ehtimol, dorixonada bo'lsa kerak, shisha eshik ortida ko'k chiroq yonib turardi. Ko'cha balandlikka qarab o'rladi. Ot qiynalmasin deb, izvoshchi egardan tushdi. Kuzmin ham aravadan tushdi. U aravadan sal ortda yurib borar ekan, butun hayoti naqadar g'ayritabiyligini his etdi. «Qayerdaman o'zi? – o'yladi u. – Qandaydir Navoloki, pastqam bir go'sha, otning taqasi ostidan uchqunlar sachraydi. Qayerdadir, shu atrofda – noma'lum bir ayol yashaydi. Xuddi shu kecha unga juda muhim, shu bilan birga, g'amnok maktubni topshirish lozim. Bundan ikki oy muqaddam esa frontda edi.

Polsha, keng va sokin Visla daryosi, juda mavhum, tushuniksiz. Lekin yaxshi, yoqimli».

Tepalikka ko'tarildilar, izvosh yon tomondagi ko'chaga burildi. Bulutlarning etagi yirtilib ketib, tepada, qorong'ilikning u yer-bu yeridan yulduzlar miltiray boshladi. Ularning nuri ko'lmaklarda bir jimirlab so'nib ketardi.

Arava boloxonali uy oldida to'xtadi.

– Yetib keldik, – dedi izvoshchi. – Qo'ng'iroq darichaning o'ng tomonida.

Kuzmin paypaslanib, qo'ng'iroqning yog'och dastasini topdi va tortib qo'ydi. Hech qanday tovush eshitilmadi, faqat zang bosgan sim g'ichirladi.

– Qattiqroq torting! – maslahat berdi izvoshchi.

Kuzmin dastani yana tortdi. Uy ichkarisida qo'ng'iroqcha jiringlab qoldi. Lekin hovli hamon sokin edi, aftidan, hech kim uyg'onmagandi.

– Oh-ho-ho! – esnadi izvoshchi, – bunday yomg'irli tunda uyqu juda qattiq bo'ladi.

Kuzmin biroz kutib turdi. Yana qattiqroq qo'ng'iroq chaldi. Yog'och yo'lakda qadam tuvushlari eshitildi. Kimdir eshik yoniga kelib quloq soldi va norozi ohangda so'radi.

– Kimsizlar! Nima kerak sizlarga?

Kuzmin javob bermoqchi edi, lekin izvoshchi uni gapirtirmadi.

– Eshikni och, Marfa, Olga Andreyevnada ishlari bor. Frontdan kelishdi.

– Frontdan kim kelgan ekan? – eshik ortidan hamon o‘sha noxayrixoh tovush eshitildi. – Biz hech kimni kutayotganimiz yo‘q.

– Kutmasangiz ham kelib qolishdi!

Eshik qiya ochildi. Kuzmin qorong‘ilikka qarab, o‘zining kimligini, nima uchun kelganligini aytdi.

– Ey, xudoyim! – dedi eshik ortidagi ayol qo‘rqa-pisa. – Shuncha tashvish chekishga ne hojat edi! Hozir eshikni ochaman, Olga Andreyevna uxlayapti. Siz kiravering, men uni uyg‘otaman.

Eshik ochildi va Kuzmin qorong‘i yo‘lakka kirdi.

– Bu yerda zinapoyalar bor, – ayol endi boshqacha, mehribon tovush bilan ogohlantirdi. – Tunning qorong‘iligini-ya, shunday paytda sizning kelib qolganingizni qarang-a? Sabr qiling, biror yeringizni urib olmang, men hozir chiroqni yoqaman, bizda kechalari elektr yo‘q.

U ketdi, Kuzmin esa yo‘lakda qoldi. Xonalar tomondan choy va yana allaqanday mayin, yoqimli hid kelardi. Yo‘lakka mushuk chiqib keldi. Kuzminning oyog‘iga suykaldi, miyovlab qo‘ydi va ortidan taklif etganday, yana tun sukunatidagi xonalarga singib ketdi.

Nim ochiq eshik ortida mo‘jazzgina nur titradi.

– Marhamat qiling, – dedi ayol.

Kuzmin ichkari kirdi. Ayol unga ta‘zim bajo keltirdi. Ro‘parasida baland bo‘yli, yuzi qoramtir kampir turardi. Kuzmin sassiz yechindi, kiyimlarini eshik oldidagi ilgakka ildi.

– Siz tashvish chekmang, baribir Olga Andreyevnani uyg‘otishga to‘g‘ri keladi, – jilmaydi kampir.

– Bu yerdan bandargohdagi bong tovushi eshitiladimi? – so‘radi Kuzmin shivirlaganday.

– Eshitiladi, otaginam! Juda yaxshi eshitiladi. Nahot, kemandan tushib, yana kemaga chiqib ketsangiz! Mana bu yerga, divanga o‘tiring.

Kampir ketdi. Kuzmin yog‘och yelkali o‘rindiqqa cho‘kdi, tamaki tutatdi. U hayajonlanar, o‘ziga tushunarsiz bu holat g‘ashini keltirardi. Kechasi, begona uyga, sir-asrorga to‘la birovning hayotiga kirib

qolganda paydo bo'ladigan tuyg'u uning vujudini qamrab olgandi. Bu hayot qandaydir oltmish beshinchi sahifasida stolda unutilib qoldirilgan kitobga o'xshab yotibdi. Shu sahifaga qarab, kitob nima haqida yozilganligini anglashga harakat qilasan.

Stolda haqiqatan ham, ochiq kitob yotardi. Kuzmin o'rnidan turib, engashdi, eshik ortidagi shoshilinch shivir-shivir va ko'ylak sasiga quloq tutib, allaqachon unutilgan misralarni ichida takrorladi:

*Har narsaga qodir erurman,
O'lis yo'llar ozori abas.
O'sha yo'llar ortida, erkam,
Nigohingni ko'rib tursam, bas.*

Kuzmin boshini ko'tardi. Atrofga boqdi. Pastakkina issiq xona uning yuragidagi shu shaharchada qolish istagini tag'in ham kuchaytirdi.

Yemak stoli tepasida oq qalpoqli chiroq osig'lik, bemor qizcha to'shagi yonidagi it tasvirlangan surat uzra bug'-u shoxlari turgan bunday xonalarning o'ziga xos shinamligi, fayzi bor. Bu go'shalardagi hamma narsa juda tanish, ko'hna va allaqachon unutilgan.

Atrofdagi narsalar, hatto pushti chig'anoqdan qilingan kuldon ham uzoq va osoyishta kechgan hayotdan darak berib turardi. Kuzmin shu yerda qolsa, qish-u bahorlarni, yomg'irli va quyoshli kunlarni boshidan o'tkazib umr-basar qilsa, qanchalar yaxshi bo'lishini yana xayolidan o'tkazdi.

Lekin xonadagi eski buyumlar orasida boshqa narsalar ham bor, stolda dala chechaklaridan saralangan guldasta turibdi. Gullar, aftidan, yaqindagina dastalangan, qaychida kesib tashlangan ortiqcha butoqlari sochilib yotibdi.

Yonginasida ochib qo'yilgan kitob, Aleksandr Blok kulliyoti. Royal ustidagi ko'k baxmal albomda ayollarning kichkina, qora qalpog'i, zanjirchali qo'l soati. Soat sassiz ishlab turar, millari tungi bir yarimni ko'rsatardi. Har doim, ayniqsa, vaqt allamahol bo'lib qolganda biroq g'amgin tuyuladigan atir bo'yi.

Derazaning bir tabaqasi ochiq, uning ortidagi ulkan gultuvaklar osha tushib turgan kuchsizgina nur ta'sirida ho'l nastarin yaltirardi. Qorong'ilikda yomg'ir shivirlar, tunuka tarnovda og'ir tomchilar tovuhi eshitilardi.

Kuzmin tomchilar ovozig a quloq tutdi. Bu begona uydan u bir necha daqiqadan so'ng jo'nab ketadi va hech qachon qaytib kelmaydi. Xuddi shu asnoda, notanish go'shada, uning miyasiga asrlar davomida insonlarni qiynagan, daqiqalarning ortga qaytmasligi to'g'risidagi fikr keldi.

«Qarilik alomatimi bu, nima balo?» – o'yladi Kuzmin va o'girildi.

Ostonada qora ko'ylak kiygan yosh juvon turardi. Ayol, aftidan, uning huzuriga chiqishga shoshilib, sochini naridan-beri taragan, bir o'rim kokili yelkasiga tushib turardi. Ayol uyalinqirab, jilmayganicha mehmondan ko'zini uzmay, sochini tuzatdi.

– Ma'zur tutasiz, – dedi u va Kuzminga qo'lini uzatdi. – Sizni kuttirib qo'ydim.

– Siz Olga Andreyevna Bashilovamisiz?

– Ha.

Kuzmin ayolga tikildi. Uning yoshligi, ko'zlarining chuqur, sal nimtobroq yolqini mayorni ajablantirdi.

Tungi mehmon bezovta qilgani uchun uzr so'rab, cho'ntagidan Bashilovning maktubini olib, ayolga uzatdi. U xatni oldi, minnatdorchilik bildirdi va o'qib o'tirmay, royal ustiga qo'ydi.

– Nega tikka turibmiz! – dedi u. – O'tiring! Stolga yaqinroq o'tiring. Bu yer yorug'roq.

Kuzmin stol yoniga o'tirdi, chekishga ruxsat so'radi.

– Bemalol, chekavering, – dedi ayol, – men ham chekaymi, deb turibman.

Kuzmin unga papiros taklif etdi, gugurt chaqib tutdi. Ayol papirosni o't oldirganida, gugurt nuri yuziga tushdi. Nimadandir taradudlangan bu tiniq, toza chehra Kuzminga tanishdek tuyuldi.

Olga Andreyevna mehmonning qarshisiga o'tirdi. U to'xtovsiz savollar kutgandi, lekin ayol indamas, hamon bir maromda yomg'ir to'vushi kelib turgan deraza ortiga tikilardi.

– Marfusha, – dedi Olga Andreyevna va eshikka nigoh tashladi, – samovarni qo'yib yubor, azizim.

– Yo'q, keragi yo'q! – qo'rqib ketdi Kuzmin, – men shoshilyapman, izvoshchi ko'chada kutib o'tiribdi. Men faqat sizga xatni topshirishim, eringiz haqida ayrim narsalarni hikoya qilib berishim kerak edi, xolos...

– Hikoya qilishga ne hojat! – dedi Olga Andreyevna va guldastadan bir dona moychechakni sug‘urib olib, shafqatsizlik bilan yaproqlarini uza boshladi: – Sog‘-salomat ekan, xursandman.

Kuzmin jim turardi.

– Shoshilmang, – dedi Olga Andreyevna betakalluf, xuddi eski qadrdonlardek. – Bongni, albatta, eshitamiz. Kema baribir tong otmasdan jo‘namaydi.

– Nega?

– Bizda, otaginam, Navolokidan quyiroqda, – qo‘shni xonadan ovoz berdi Marfa, – daryoning katta nishablighi bor. Undan kechasi o‘tish juda xavfli. Shuning uchun ham kapitanlar tonggacha kutishadi.

– Marfa to‘g‘ri aytayapti, – tasdiqladi Olga Andreyevna. – Bandargohgacha, agar shahar bog‘i orqali borilsa, hammasi bo‘lib chorak soatlik yo‘l. Men sizni kuzatib qo‘yaman. Izvoshchiga javob berib yuboring. Kim sizni olib keldi? Vasiliymi?

– Bu kishini Timofey olib keldi, – eshik ortidan xabar berdi Marfa. Uning samovar atrofida kuymanayotgani eshilib turardi. – Hech bo‘lmasa, choy ichib keting. Axir, yomg‘irda ivib kelib, yana yomg‘irda bo‘kib ketaverasizmi?

Kuzmin rozi bo‘ldi, darvoza yoniga chiqib, izvoshchining haqini to‘ladi. U bo‘lsa, anchagacha jo‘nab ketmay, ot yonida kuymanib yurdi, yuganini to‘g‘rilagan bo‘ldi.

Kuzmin xonaga qaytganida stol bezatilgan edi. Unda oqish hal yuritilgan qadimiy ko‘k finjonlar, qaynatilgan sut solingan ko‘zacha, asal, oz-moz ichilgan musallas shishasi turardi. Marfa samovarni olib kirdi.

Olga Andreyevna g‘aribgina dasturxon uchun uzr so‘radi. Yana Moskvaga qaytish uchun hozirlik ko‘rayotganini, vaqtincha Navolokidagi shahar kutubxonasida ishlayotganini hikoya qilib berdi. Kuzmin hamon u Bashilov haqida so‘rab-surishtirishini kutar, lekin Olga Andreyevna indamasdi. Bu Kuzminni juda noqulay ahvolga solmoqda edi. Hali gospitaldayoq u Bashilov xotini bilan xafalashib qolgani sezgandi. Lekin hozir, ayol xatni o‘qimay, royal ustiga qo‘ygach, bunga uzil-kesil ishonch hosil qildi va Bashilovning oldidagi burchini bajarolmagani uchun o‘zini gunohkor seza boshladi. «Albatta, xatni keyinroq o‘qiydi», – o‘yladi u. – Faqat bir narsa ayon edi: Bashilov

shuncha ahamiyat bergan xatning, – Kuzmin o‘shani deya alla-pallada bu yerga kelgan edi, – endi hech kimga keragi ham, qizig‘i ham yo‘q. Sirasini aytganda, Kuzmin Bashilovga yordam berolmadi, qaytanga o‘zini noqulay ahvolga solib qo‘ydi, xolos. Olga Andreyevna xuddi buni sezgandek dedi:

– Siz xafa bo‘lmang. Pochta bo‘lsa, telegraf bo‘lsa, – bilmadim, nega sizni bunchalik tashvishga qo‘ydi ekan.

– E, tashvishi bormi! – shoshilinch javob qildi Kuzmin va biroz jim turgach qo‘shib qo‘ydi: – Qaytanga juda yaxshi bo‘ldi.

– Nimasi yaxshi?

Kuzmin qizarib ketdi.

– Nimasi yaxshi? – baland tovush bilan qaytadan so‘radi Olga Andreyevna va ko‘zlarini mehmonga tikdi. U Kuzmin nima haqda o‘ylayotganini bilmoqchi bo‘lganday, qat‘iy nigoh tashlab turar, sal oldinga egilib, javob kutardi.

Lekin Kuzmin hamon jim edi.

– Ammo, baribiram, nimasi yaxshi? – yana so‘radi ayol.

– Sizga nima desam ekan, – dedi Kuzmin xayol surib, – bu haqda bafurja gaplashish kerak bo‘ladi. Biz yaxshi ko‘radigan, yuragimizga yaqin narsalar juda kamdan-kam hollardagina o‘zimizga nasib etadi. Boshqalarni bilmayman-u, men o‘z boshimdan kechirganlarimdan kelib chiqib aytayapman. Hamma ezguliklar deyarli hamma vaqt shunday, yonginangizdan o‘tib ketaveradi. Tushunyapsizmi?

– Unchalik emas, – dedi Olga Andreyevna va qovog‘ini soldi.

– Sizga qanday tushuntirsam ekan, – dedi Kuzmin o‘z-o‘zidan achchiqlanib. – Ehtimol, sizning boshingizdan ham shunday holatlar kechgandir. Vagon oynasidan ko‘zingiz birdan qayinzor o‘rtasidagi maydonchaga tushadi, kuz po‘panaklari quyoshda yarqirab ketadi va siz yurib borayotgan poyezddan sakrab tushib, shu joyda qolib ketgiz keladi. Lekin poyezd bularning yonidan o‘tib ketaveradi. Oynadan boshingizni chiqarib, ortda qolib ketayotgan dalalar, o‘tloqlar, yo‘llarga tikilasiz, qulog‘ingizga allaqanday tushunarsiz jarangli ohang chalinadi. Bu nimaning tovushi ekanini anglayolmaysiz. Ehtimol, o‘rmon, yoinki havoning tovushidir. Yoki telegraf simlari ovozimikan? Bo‘lmasa, po‘lat izlar poyezd yurishidan jaranglayotgandir? Bularning hammasi bir zumda sodir bo‘ladi. Keyin esa shu haqda bir umr eslab yurasiz.

Kuzmin jim bo'lib qoldi. Olga Andreyevna musallas quyilgan stakanni mehmon tomonga surib qo'ydi.

– Hayotda men, – dedi Kuzmin va qizarib ketdi. U qachon o'zi haqida gapirishga to'g'ri kelsa, shunday bo'lardi. – Doim ana shunaqangi kutilmagan va oddiy narsalarni qo'msab yurganman. Shunaqasi uchrab qolganda, juda baxtiyor edim. To'g'ri, bu baxt unchalik uzoqqa cho'zilmasdi. Lekin harqalay, shunday onlar bo'lgan.

– Hozir ham shunday baxtiyormisiz? – so'radi Olga Andreyevna.

– Ha!

Olga Andreyevna yerga boqdi.

– Nega? – so'radi u.

– O'zim ham aniq bilmayman. Shunday bir his ta'siridaman. Visla qirg'oqlarida yarador bo'ldim, gospitalda yotdim. Hammaga xat kelar, men esa maktub olmasdim. Chunki menga xat yozadigan odamning o'zi yo'q edi. O'rinda yotganimcha, hamma qatori men ham urushdan keyingi kelajagimni to'qib-bichardim. Bu kelajak, albatta, baxtiyor, g'ayritabiiy bo'lishi kerak edi. Sog'aydim, meni dam olgani jo'natishga qaror qilishdi. Qaysi shaharga borishim lozimligini ham aytishdi.

– Qaysi shahar ekan? – so'radi Olga Andreyevna.

Kuzmin shaharning nomini aytdi. Olga Andreyevna hech nima demadi.

– Kemaga chiqdim, – davom etdi Kuzmin – qirg'oqlarda qishloqlar, bandargohlar. Va jonga tekkan yolg'izlik hissi. Xudo haqi, meni noliyapti, deb o'ylamang. Yolg'izlikning ham o'ziga yarasha yaxshi tomonlari bor. So'ngra, desangiz, Navoloki. Men uxlab qolib, bu yerdan o'tib ketishdan qo'rqdim. Qoq yarim kechada kema sahniga chiqib, xayol surdim: mana shu ulkan, butun Rossiyani qamrab turgan qorong'ilik qo'ynida, yomg'irli osmon ostida minglab, har xil kishilarning xotirjam uxlab yotishgani naqadar ajablanarli. So'ngra izvoshda bu yoqqa kelayotganimda nuqul kimni uchratar ekanman, – deya taxmin qildim.

– Lekin shunday bo'lsa-da, ayting-chi, nimadan bunchalar baxtiyorsiz? – so'radi Olga Andreyevna.

– Shunday, o'zim... – esini yig'ib oldi Kuzmin – umuman olganda, yaxshi.

U jim qoldi.

– Nega jim bo‘lib qoldingiz? Gapiravering!
– Nima ham derdim? Haliyam juda ko‘p gapirib qo‘ydim.
– Nimani istasangiz, shuni gapiravering, – dedi Olga Andreyevna uning keyingi so‘zlarini eshitmaganday, so‘ng qo‘shib qo‘ydi, – sira-sini aytganda, bularning hammasi sal g‘alatiroq tuyulsa-da, gapiravering.

U o‘rnidan turib, deraza yoniga bordi, pardani surib qo‘ydi. Yomg‘ir hamon tinmagandi.

– Nima g‘alati? – so‘radi Kuzmin.
– Hamon yomg‘ir yog‘yapti! – dedi Olga Andreyevna va o‘girildi. – Mana shunaqangi uchrashuv, tungi suhbatimiz g‘alati, ajabtovur emasmi, axir!

Kuzmin uyalganidan jim o‘tirardi.
Deraza ortidagi rutubatli qorong‘ilik qa‘ridan, tepalik tomondan kema o‘kirigi eshitildi.

– Xo‘sh, nima qildik endi, – dedi Olga Andreyevna yengil tortganday – mana, bong ham chalinib qoldi.

Kuzmin o‘rnidan turdi. Olga Andreyevna qimir etmadi.
– Sabr qiling, – dedi u xotirjamgina – keling, qadimdagidek, yo‘l oldidan birpas o‘tiraylik.

Kuzmin yana o‘tirdi. Olga Andreyevna xayolga cho‘mdi. Kuzmin uning baland yelkalari, orqasiga tashlab qo‘yilgan yo‘g‘on sochlari, chiroyli bo‘yniga qarab, agar Bashilov bo‘lmaganda, bu shaharchadan hech qayoqqa ketmasligini, ta‘tili tugaguncha shu yerda qolib, shu yoqimtoy, juda g‘amgin ayol bilan yashashi, hayajon-la kun kechirishi mumkinligini xayolidan o‘tkazdi.

Olga Andreyevna o‘rnidan turdi. Kichkinagina dahlizda Kuzmin unga yomg‘irpo‘shini kiyishga yordamlashdi. Ayol boshiga ro‘molini tashlab oldi.

Hovlidan chiqib, qorong‘i ko‘cha bo‘ylab jimgina keta boshladilar.

– Tez orada tong ham otadi, – dedi Olga Andreyevna.
G‘arb tomonda namchil osmon ko‘karib kelmoqda edi. Kuzmin hamrohi junjikib ketganini sezib qoldi.

– Sovqotyapsizmi? – tashvishlandi u. – Meni kuzatib qo‘yaman, deb bekorga ovora bo‘layapsiz. O‘zim yo‘lni topib olardim.

– Yo‘q, bekorga emas, – qisqa javob qildi Olga Andreyevna.

Yomg'ir tingan, lekin tomlardan hamon tomchilar tushib, yog'och yo'lkada sado berardi.

Ko'cha so'ngida shahar bog'i yastanib yotardi. Daricha ochiq, undan o'tishingiz bilanoq daraxt, butalar qalin o'sgan qarovsiz yo'lkalar boshlanadi. Bog'dan tungi izg'irin, ho'l qum hidi kelar, adil arg'uvon daraxtlari qop-qora tus berib turgan bu bog' qartayib qolgan, gullab bo'layozgan daraxtlar mayin hid taratib turardi. Ular yurib borishar ekan, shamol faqat bir marotabagina yo'lkalarni oraladi va bog' uzra sharros yomg'ir yog'ib, bir zumda tinib qolganday shovqin ko'tarildi.

Bog' adog'ida daryo uzra tik qirg'oq yastanib yotibdi, uning ortida esa subhidamning yomg'irli manzarasi, pastda bakenlarning xira chiroqlari miltiraydi, tuman, yozgi yomon ob-havoning butun g'amanduhi jamuljam.

– Qanday tushamiz endi? – so'radi Kuzmin.

– Bu yoqqa keling!

Olga Andreyevna so'qmoqdan to'g'ri tik qirg'oq tomonga burildi-da, pastga, qorong'ilik qa'riga singib ketgan yog'och zinapoyaga yaqinlashdi.

– Qo'lingizni bering! – dedi u. – Bu yerda chirigan zinalar ko'p.

Kuzmin ayolga qo'lini uzatdi, ehtiyotkorlik bilan pastga tusha boshladilar. Zinalar orasida jiqqa ho'l o't-o'lanlar o'sib yotardi.

Zinapoyaning oxirgi maydonchasida ular to'xtadilar. Bandargoh, kemanding yashil, qizil chiroqlari ko'zga tashlanib qolgan, pishqirib bug' chiqarib turardi. Mana, hozir ana shu begona, lekin o'ziga shunchalar yaqin bu ayol bilan xayrlashishadi va unga hech nima deyolmaydi – hech nima! Shularni o'ylab, Kuzminning yuragi zirqirab ketdi. Hatto minnatdorchilik bildirishning ham iloji yo'q. Yo'lida uchrab qolgani, kichkinagina, chayir ho'l qo'lqopli qo'lini uzatib, shalvirab qolgan zinapoyadan ehtiyotkorlik bilan tushirib qo'ygani uchun. Har gal zinalar uzra ho'l butoq paydo bo'lib, Kuzminning yuziga tegish xavfi tug'ilganda ayol sekingina: «Boshingizni eging!» – deb qo'yar va mayor itoatkorlik bilan bosh egardi.

– Shu yerda xayrlashamiz, – dedi Olga Andreyevna, – bu yog'iga men bormayman.

Kuzmin unga nigoh tashladi. Ro'mol ostidan tashvishli, qat'iyat to'la ko'zlar boqib turardi. Nahotki, hozirning o'zida, xuddi shu daqi-

qada bularning hammasi o'tmishga aylansa va har ikkalasining hayotida og'ir, toliqtiruvchi xotiralardan biri bo'lib qolsa?

Olga Andreyevna qo'lini Kuzminga uzatdi. Kuzmin uzatilgan qo'lni olib o'pdi, dastavval o'sha qorong'i xonada, yomg'ir shiviri ostida dimog'iga urilgan atirning mayin hidini tuydi.

U boshini ko'targach, Olga Andreyevna nimadir dedi. Lekin shunchalar sekin gapirdiki, Kuzmin u nima deganini anglay olmadi. Nazarida, ayol bir kalima so'z aytgan: «Nima keragi bor...» – degandi. Ehtimol, yana biror nima degandir, lekin daryodan kema o'kirigi eshitildi. Kema shalabbo tong dastidan, yomg'irlar, tumanlarda kechgan sargardon umridan shikoyat qilardi go'yo.

Kuzmin ortiga qaramay, qirg'oqqa yugurib tushdi, qoramoy va yana allanimalar hidi anqib turgan bandargohdan o'tib, kemaga chiqdi va o'sha zahotiy oq kimsasiz sahnga ko'tarildi. Kema parraklarini sekin-asta aylantirib, jo'nab ketmoqda edi. Kuzmin kemanding quyruq tomoniga o'tdi, tik qirg'oqqa, zinapoyaga tikildi. Olga Andreyevna hali o'sha yerda, g'ira-shira bo'lganidan uni tanib olish qiyin edi.

Kuzmin qo'lini ko'tardi, lekin Olga Andreyevna javob bermadi.

Kema tobora uzoqlashib borar, uzun to'lqinlarni qumli qirg'oqlar tomon haydab, bakenlarni chayqaltirar, sohildagi butazorlar parraklar zarbalariga shoshilinch bir shovqin-suron bilan javob qaytarishardi.

Ingliz ustarasi

Tun bo'yi qor aralash yomg'ir yog'di. Shimol tomondan esgan shamol makkajo'xorining irigan poyalarida hushtak chalar, nemislardan sado chiqmasdi. Qirg'oq yaqinida turgan qiruvchi kema onda-sonda to'plaridan Mariupol tomonga o'q otib qo'yardi. Shunda qora bir guldarak cho'lni larzaga solar, snaryadlar boshingiz tepasida tarang tortilgan bo'z yirtilganday tovush chiqarib, qorong'ilik qa'riga uchishardi.

Yomg'ir ta'sirida yaltiroq bo'lib qolgan kaska kiygan ikki jangchi tongda mayor istiqomat qiladigan loysuvoq uyga kekxa, past bo'ylil bir kishini olib kelishdi. Uning ho'l katak kamzuli badaniga yopishib qolgan, oyoqlarida katta-katta loy bo'laklari osilib yotardi.

Jangchilar mayor oldidagi stolga tintuv chog'ida qariyaning yonidan topilgan bud-shud narsalar – pasport, ustara va soqol qirishda ish-

latiladigan cho'tkachani jimgina qo'ydilar-da, chol jarlikdagi quduq oldida qo'lga olinganini aytdilar.

Qariya so'roq qilindi. U Mariupol teatri sartaroshi armani Avetis ekanini aytdi va keyinchalik qo'shni qismlarda ham uzoq vaqt tildan-tilga ko'chib yurgan voqeani hikoya qilib berdi.

Sartarosh nemislar kelguncha Mariupoldan qochib ketishga ulgur-madi. U qo'shnisi – yahudiy ayolning ikki o'g'ilchasi bilan birga teatr yerto'lasiga yashirindi. Qo'shni ayol bundan bir kun oldin non olib kelish uchun shaharga ketgani ko'yi qaytib kelmadi. Aftidan, u bombardimon paytida halok bo'lgandi.

Sartarosh yerto'lada bolakaylar bilan bir kecha-kunduzdan ko'proq vaqtni o'tkazdi. Bolalar bir-birlarining pinjlariga tiqilib o'tirishar, uxlashmas, nuqul nimagadir quloq tutishardi. Tunda bolalarning kichkinasi baralla yig'lab yubordi. Sartarosh unga do'q-po'pisa qilgandi, bolakay jimib qoldi. Shunda sartarosh kamzuli cho'ntagidan iliq suvli shishani olib, bolaga ichirmoqchi bo'ldi, lekin u ichmadi, labini chetga burdi. Sartarosh bolakayning iyagidan ushladi – uning yuzi ho'l, issiq edi – va zo'rlab suv ichirdi. Bola hiqillab, yutoqib ichar, loyqa suv bilan qo'shib ko'z yoshlarini ham yutmoqda edi.

Ikkinchi kecha-kunduz deganda nemis yefreytori hamda ikki askar bolalar va cholni yerto'ladan chiqarib oldilar-da, o'z boshliqlari – leytenant Fridrix Kolberg huzuriga olib keldilar.

Leytenant tish vrachi tashlab ketgan xonadonda yashardi. Qo'porib olingan oyna romlari taxta bilan bekitilgan, xonalar qorong'i, sovuq – Azov dengizi ustidan rutubatli bo'ron o'tmoqda edi.

– Qanaqa tomosha bu o'zi?

– Uch juhudni tutib oldik, janob leytenant! – axborot berdi yefreytor.

– Yolg'onning nima hojati bor, – dedi leytenant muloyimlik bilan. – Bolakaylar juhud, to'g'ri, lekin mana bu qari mayib borib turgan grek, ellinlarning buyuk avlodi, polepones maymuni, garov o'ynayman. Nima deding! Sen armanimisan? Menga buni nima bilan isbot etasan, irigan mol go'shti?

Sartarosh indamadi. Leytenant etigining uchi bilan zarhal romning oxirgi bo'lagini pechkaga tiqdi va asirlarni qo'shni bo'sh xonadonga

olib borishni buyurdi. Kechga tomon leytenant do'sti, xo'ppasemiz uchuvchi Erli bilan shu yerga keldi. Ular qog'ozga o'rog'liq ikkita katta shisha olib kelishgandi.

– Ustara yoningdami, – so'radi leytenant sartaroshdan. – Shunaqami? Unday bo'lsa, bu farishtasurat juhudvachchalarning boshlarini tarashlab qo'y!

– Nima keragi bor, Fri? – erinchoqlik bilan so'radi uchuvchi.

– Bolakaylar juda chiroyli, – dedi leytenant. – Shunday emasmi? Men ularning chiroyini biroz buzmoqchiman. Ana shunda ularga kamroq achinamiz.

Sartarosh bolalarning sochini tap-taqir qilib oldi. Ular boshlarini eggancha yig'lab o'tirishar, sartarosh esa kulimsirab qo'yardi. Doimo boshiga baxtsizlik tushsa, u shunaqa qiyshiq jilmayardi. Bu jilmayish Kolbergni aldadi, – leytenant o'zining beozor hazili qari armanini zavqlantiryapti deb o'yladi. Leytenant o'g'ilchalarni stol atrofiga o'tqazdi, shishaning og'zini ochdi va to'rt stakanni to'ldirib aroq quydi.

– Senga araq bermayman, Axilles, – dedi u sartaroshga, – kechqurun soqolimni qirishingga to'g'ri keladi. Sizlarning go'zal jononlarinigiznikiga mehmonga bormoqchiman.

Leytenant bolakaylarning tishlarini kuch bilan ochib, har qaysining og'ziga bir stakandan aroq quydi. Bolakaylarning aftlari burishar, nafasleri tiqilar, ko'zlaridan yosh oqardi. Kolberg stakanni uchuvchi bilan urishtirib, aroqni ichdi va shunday dedi:

– Men doimo yumshoq usullarning tarafdori edim, Erli.

– Senga, axir, bekorga ajoyib Shillerimizning nomini berishmanganda, – javob berdi uchuvchi, – hozir ular raqs tusha boshlashadi.

– Bo'lmasam-chi!

Leytenant bolalarning og'ziga yana bir stakandan aroq qo'ydi. Bolakaylar o'zlarini himoya qilishdi, lekin leytenant va uchuvchi qo'llarini qisib, aroqni sekin-asta quyib, boyaqishlar oxirigacha ichishini kuzatishar, qiyqirib turishardi:

– Xo'sh! Ana shunday! Shirinmi? Qani, yana bir marta! Juda zo'r!

Bolalarning kichigi qayt qila boshladi. Uning ko'zlari qizarib ketgandi. U o'rindiqdan sirg'alib tushdi-yu, yerga yotdi. Uchuvchi uning

qo'ltig'idan ushlab, o'tirg'izib qo'ydi va og'ziga yana bir stakan aroq quydi. Shunda bolalarning kattasi birinchi marta chinqirib yubordi. U quloqni teshgudek qichqirar, qo'rquvdan dum-dumaloq bo'lib qolgan ko'zlarini leytenantdan uzmasdi.

– Jim bo'l, itvachcha! – baqirdi leytenant.

U bolalardan kattasining boshini orqaga tashlab, shishadan to'ppa-to'g'ri og'ziga aroq quydi. Bola o'rindiqdan qulab tushdi, devor tomonga emaklab ketdi. U eshikni axtarar, aftidan, ko'r bo'lib qolgandi, shuning uchun boshi bilan kesakiga urildi, oh tortdi va jim qoldi...

– Kechga tomon, – dedi sartarosh bo'g'ilib, – bolakaylarning ikkalasi ham o'ldi. Ular xuddi yashin urgandek qop-qora, g'ujanak bo'lib yotishardi.

– Keyin nima bo'ldi? – dedi mayor va stolda yotgan buyruqni yoniga tortdi. Qog'oz baland ovoz chiqarib shig'illadi. Mayorning qo'llari titrardi.

– Keyinmi? – so'radi sartarosh – maylingiz – keyin leytenant soqolini qirib qo'yishimni buyurdi. U mast edi, bo'lmasa bunday ahmoqlikka bormasdi. Uchuvchi ketdi. Biz leytenant bilan uning isitilgan uyiga bordik. U oyna oldiga o'tirdi. Temir shamdondagi shamni yoqdim-da, uning yuzini sovunlay boshladim. Shamdonni oyna oldidagi o'rindiqqa qo'ydim. Siz bunaqa shamdonlarni ko'rgan bo'lishingiz kerak: sochlari yoyilgan ayol qo'lida gul ushlab turibdi, shu gul kosasiga sham qo'ndirilgan. Men mag'zavali cho'tkani leytenantning ko'zlariga bosdim. U qichqirdi, lekin men temir shamdonni olib, bor kuchim bilan nemisning chakkasiga urishga ulgurdim.

– Til tortmay o'ldimi? – so'radi mayor.

– Ha, til tortmay o'ldi. Keyin men sizlar tomonga o'tib olish uchun ikki kun yo'l bosdim.

Mayor ustaraga nigoh tashladi.

– Nega ustaraga qaraganingizni tushunib turibman, – dedi sartarosh. – Siz ustaradan foydalansa bo'lmasmidi, demoqchisiz. Shunday qilsam ma'qulroq edi. Ammo bilasizmi, ustarani ko'zim qiymadi. Bu eski ingliz ustarasi. O'n yildan beri shu bilan ishlayman.

Mayor o'rnidan turib, sartaroshga qo'l uzatdi.

– Bu kishining qornini to'yg'azinglar, – dedi u jangchilarga, – va quruq engil-bosh topib beringlar.

Sartarosh eshikka chiqdi. Jangchilar uni dala oshxonasi tomon olib ketishdi.

– Eh, og‘ayni, – dedi jangchilarning biri va qo‘lini sartaroshning yelkasiga qo‘ydi, – ko‘z yoshlari yurakni holsizlantiradi. Buning ustiga, mo‘ljalni ham ko‘rib bo‘lmaydi. Ularni bitta qo‘ymay qirib tashlash uchun ko‘zlarda nam bo‘lmasligi kerak. To‘g‘rimi gapim?

Sartarosh bosh qimirlatib uning fikriga qo‘shildi.

Qiruvchi kema to‘plardan o‘t ochdi. Qo‘rg‘oshinrang suv to‘lqinlandi, qoraydi, lekin shu onning o‘zida osmon aksi – tumanli yashil rangiga qaytdi.

Kechikkan bahor

Estoniyaning bu shaharchasi oldida Boltiq dengizi hech qachon muzlamasdi. Bo‘ronlar vaqtida dengizga qaytgan har bir to‘lqinga ergashgan mayda qayroqtoshlar tovushi uylarda eshilib turardi.

Qo‘shinlar jon-jahdi bilan qarshilik qilayotgan nemislarni ta‘qib eta borib, allaqachon G‘arbgga jo‘nab ketishgan, shaharchada dengizchilarning kichik guruhi qolgandi. Guruh qirg‘oq soqchiligi bilan shug‘ullanardi.

Shu guruh ofitserlaridan biri leytenant Lugovoy shaharcha chekasida, qum tepalaridagi egalari tashlab ketgan uyga joylashib oldi. Qumtepalar archagul va pastak qarag‘aylar bilan qoplangandi.

Bahor kechikkan, havo sovuq edi.

Har kuni Boltiq dengizidan yomg‘irli bo‘ronlar bostirib kelar va namlikdan bo‘lsa kerak, Lugovoyning yarador qo‘li og‘rirdi.

– Jin ursin bunday iqlimni! – deyishardi dengizchilar so‘kinganlaricha.

Lekin xuddi shu iqlimga o‘chakishganday, qo‘shni uy derazalari ortida sunbul va yana allaqanday oq gullar ochilib yotardi. Lugovoy bu yerning xo‘mraygan bahori aro shunday gullarni yetishtirgan odamlarning sabr-bardoshiga hayron qolardi. Bu gullarning egasi – oq-sariq sochli, kipriklari oqish kasalmand eston qizi qo‘shni uydanda-sonda ko‘chaga chiqib turardi.

Aprelning oxirlarida moskvalik qo‘shiqchi Natalya Samoylova dengizchilar uchun konsert berarkan, degan xabar keldi. Lugovoyga bu xabarni yuzlari shamoldan yorilgan, doimo nimadandir hayajonlanib yuradigan sershovqin kichik leytenant Osipov yetkazdi.

– Tushunasizmi! – qichqirdi u baland tovushidan Lugovoy aftini burishtirayotganini sezmay. – U o‘z qo‘shiq-lari bilan dunyoning allaqaysi burchagidagi xuddi biznikiga o‘xshagan kichkina guruh-larni kezib yuradi. Qandini ursin-ye! Ha, yana aytishadiki, u lo‘li oilasi-da tug‘ilgan-mish. Nega aftingizni burishtiryapsiz? Yana qo‘lingiz og‘riyaptimi?

– Ha... Sal-pal og‘riyapti. Buning ustiga, siz shunday qichqiryap-sizki...

– Qo‘ysangiz-chi? – hayron bo‘ldi Osipov. – Favqulodda vaziyat tufayli shunday gapiryapman. Menga Samoylovani kutib olish va joy-lashtirishni topshirishdi. Siz uning qo‘shiq-larini eshitganmisiz?

– Eshitganman.

– U haqiqatan ham lo‘limi?

– Men qayerdan bilay!

– Hamma xursand, – dedi kichik leytenant og‘rinib, – siz esa xafa bo‘lyapsiz.

– Xafa bo‘layotganim yo‘q. Faqat biroz mazam yo‘q, xolos.

– Kofe iching, – maslahat berdi Osipov.

– U qayerda ashula aytar ekan?

– Shahar teatrida.

– Axir u yerda elektr yo‘q-ku!

– Ho-ho! – kalondimog‘lik bilan javob berdi Osipov. – Shamni nimaga chiqarib qo‘yibdi bo‘lmasa? U shamlar yorug‘ida kuylaydi. Biz o‘n sakkizinchi asrga qaytamiz, dengizchi o‘rtoqlar!

Osipov ketdi. Lugovoy deraza oldida bir muddat turdi, ko‘pik bi-lan qoplangan dengizga, pastak osmonga boqdi, so‘ng shinelini kiyib, tashqariga chiqdi. Lekin u shaharcha tomonga emas, sohil yoqalab, qum tepalari tomon ketdi.

Shalabbo qarag‘aylar shoxlarida shamol guvillar, ignabarglarda suv tomchilari to‘planar, so‘ng uzilib archagul ustiga tushardi. Shu taxlit, kun bo‘yi tomchilar tomaveradi. Go‘yoki, pastak qarag‘aylar yakkam-dukkam ko‘z yoshlarini to‘xtovsiz to‘kayotganday.

«Ha... – dedi Lugovoy – juda ajabtovur ish bo‘lyapti-ku. – Yax-shisi, konsertga bormaganim ma‘qul».

Lekin u shu zahotiy oq nima bo‘lsa ham, baribir konsertga bo-rishni o‘yladi. «Oxirgi qatorga o‘tiraman. Sham yorug‘ida meni

hech kim ko‘rmaydi». Lugovoy qirg‘oqqa tushdi. Dengiz yashil, loyqa to‘lqinlarni sohilga qanday haydashini tomosha qilib, uzoq turib qoldi.

Samoylova mehmonxonaning sovuq xonasiga kirib, yechinmay oromkursiga o‘tirdi va tamaki tutatdi. Bo‘ron bir maromda guvillar, pech mo‘risi qo‘shiq aytardi.

Samoylovaning bu yerlarda birinchi bo‘lishi, shu bois atrofdagi narsalar unga yoqardi. Kichik-kichik uylar, dengiz guldurosi, zulumat osmon, qarag‘aylar va tutun hidi. Juda toza, sovuq uylar, xuddi shu uylardek toza, sovuq sochiqlar, choyshablar, oq ko‘zachelardagi sovuq suv – bularning hamma-hammasi unga ma‘qul edi.

Xodima, kasalmand eston qizi xonaga kirdi, stoldagi idishga bir necha dona sunbul gulidan soldi.

– Yangi ochilgan sunbul bu yerga qayerdan kelib qolibdi?

Unga javoban qiz jilmayib qo‘ydi, xolos. Aftidan, Samoylova nima deganini tushunmadi, pechka yoniga o‘tirib olib, o‘tin qalay boshladi.

Olov chirsillab, xonaga issiqlik yugurdi. Mehmon po‘stinini, etikchalarini yechdi. Qiz unga ko‘maklashganicha past tovushda gapiradigan, ko‘k ko‘zlari quvnoq bu yosh ayolni qiziqish bilan tomosha qilardi.

– Yurtingiz juda yaxshi ekan! – dedi ayol jomadonini tartibga keltirar ekan. – Men bu yerda uzoq vaqt yashasam derdim...

– Yaxshi! – bosh qimirlatdi qiz va tabassum qildi. – Ha, ha, yaxshi!

Qiz ketgach, Samoylova stulga o‘tirdi, boshini kaftlari orasiga oldi. Shu ko‘yi uzoq vaqt qimir etmadi.

– Ertaga Birinchi may, – dedi u nihoyat va boshini ko‘tardi, – men esa yana yolg‘izman. Yomon bu!

Eshik taqilladi. Xonaga Osipov kirib keldi. U hammasi joyida, royal sozlandi, eng yaxshi pianinochi starshina Bugachev sizga jo‘r bo‘ladi, tomosha zali esa hayajonlangan tinglovchilar nafasidan bir lahzada isib qoladi, dedi.

– Darvoqe, – qo‘shimcha qildi Osipov, – siz omad olib keldingiz. Harorat ko‘tarilyapti. Yanglishmasam, bayram kuni havo ochiq bo‘ladi.

U jim turib qoldi.

– Bayram arafasini birga kutib olsak, nima deysiz? Kechqurun, konsertdan so‘ng.

– Bajonudil. Men axir, yakka o‘zimman.

– Juda oddiy, harbiychasiga nishonlaymiz. Yig‘ilmoqchi bo‘lgan uyimiz shinam, hatto, sirli ham. Shahar tashqarisida, qumliklardagi kichik uy. U yerda leytenantimiz Lugovoy istiqomat qiladi.

– U shu yerdami, – so‘radi birdan Samoylova va Osipovning yoniga kelib, qo‘llaridan ushladi. Yonoqlari qizarib ketdi.

– Ha, shu yerda, – javob berdi Osipov xijolat chekib.

U qo‘llarini nima qilishni bilmasdi.

Samoylova yigitning qo‘llarini qattiq qisdi, so‘ngra qo‘yib yubordi. Qutidan papiros olib, ezg‘iladi, yana boshqasini oldi. Osipov gugurt chaqdi, lekin ayol uni puflab o‘chirdi, papirosni uloqtirib tashlab, past tovush bilan shunday dedi:

– Hozir chekolmayman. Keragi yo‘q.

Uning barmoqlari titrardi.

– Agar mumkin bo‘lsa, – dedi u yalinchoq ohangda, suhbatdoshiga qaramay, – bu to‘g‘rida Lugovoyga gapirmang.

– Nima to‘g‘risida?

Mehmon indamadi.

– Siz bilan birga kutiladigan bayram to‘g‘risidami? – ehtiyotkorlik bilan so‘radi kichik leytenant.

– Ha.

– Yest! – dedi Osipov.

– Ey xudoyim! – shivirladi qo‘shiqchi, biroz jim turgach. – O‘zimni naqadar ahmoqona tutyapman. Ma‘zur tutasiz.

Osipov shosha-pisha xayrlashib, chiqib ketdi. Yo‘lakda tamaki tutatdi, gugurt oloviga uzoq, barmoqlari kuyguncha tikilib turdi, bosh chayqadi, «Sira tushunib bo‘lmaydi!» – dedi va zinadan tusha boshladi. Qarshisidan issiq suv to‘la ko‘zacha ko‘targan oq-sariq sochli qiz ko‘tarilmoqda edi. Osipov bir chekkaga o‘tib, so‘z qotdi.

– Bugun biz hamma gullaringizni sotib olamiz, Marta.

– O-o! – dedi qiz. – Rahmat. Lekin buncha gulning nima keragi bor? Bayram uchunmi?

– Hammasi birvarakayga, – dedi Osipov. – Bayram ham, konsert ham va yana... Xullas, gullarning barisini sotib olamiz. Kechga tomon odam yuboraman.

U ketdi. Marta hayron bo'lganidan, qoshlarini chimirganicha qora shinelli quvnoq dengizchi g'oyib bo'lgan shisha eshik ortiga tikilardi.

... Samoylova tez yurib sahnaga chiqdi va chiroqlar oldida to'xtadi. Uning oq shohi ko'ylagi ko'targan epkindan shamlar alan-galari larzaga tushib, o'zlarini to'rt tomonga urishdi. So'ng chirsillab yonganlaricha, yana balandga o'rladilar. Ularning sarg'imgir yorug'li-gi ostida qo'shiqchi zalga hayajonli nigoh tashladi, lekin Osipovdan bo'lak biror tanish chehrani ko'rmadi. Nahotki, u kelmagan bo'lsa! Nahotki, ro'y bergan xatolikni tuzatish imkoni bo'lmasa? Nima bo'lgandi o'zi? Xato, vaziyatning ahmoqona chigallashib ketishi, xo-los.

– Bilmayman! Hech nimani bilmayman! – dedi o'zicha Samoylo-va va egilib, guldastani oldi. Gullarni birinchi qatorda o'tirgan sochla-ri oq dengizchi – guruh komandiri taqdim etgandi.

Samoylova jilmaydi, atrofga nigoh tashladi va shundagina o'zini o'rab turgan vaziyat naqadar xayoliy, go'zal ekanligini his etdi.

Shamlar erib borardi. Ularning nurlari tebrantar, qandillardagi chang bosgan billur, qizil baxmallar ichiga joylashib olgan qorong'i-lik bilan bekinmashoq o'ynardi.

Shamoldan dag'allashgan chehralar Samoylovaga faxr bilan bo-qishardi. U moskvalik tomoshabinlar orasida bunaqasini ko'rmagandi.

Dengizning bo'g'iq guvillashi quloqqa chalinar, parda ortidan esayotgan yengilgina shamol uning ko'ylagi qatlarini qimirlatardi. Shamol oxir-oqibat og'ir bulutlarni chetga surib, ularni shimol to-monga olib ketgan, osmon uzra kechki yashil nur ummonlari ochil-gandi.

O'zi qachonlardir sevgan, so'ngra yo'qotgan, urush yillari tinmay izlagan kishisi shu yaqin orada yashayotganini bilib turish quvonchi, va andakkina alami uni to'liqlantirardi.

Qo'shiqchi royal yonida o'tirgan dengizchiga ishora qildi. Zal ji-mib qoldi.

* * *

Lugovoy teatrga kirishdan oldin, shaharchani aylanib chiqdi. U hech kimga bildirmay, konsert o'rtasida kirib kelishga qaror qilgan-di. Ko'chalarda bekordan bekorga kezib yurar ekan, cheksiz sog'inch hissi yuragini ezmoqda edi. Oqshom davomida o'zi kechikkan-u, ho-

zir konsert tugab qoladigandek tuyulaverdi. U qadamini tezlatar, lekin shu zahotiy oq to'xtar, o'zini bo'lib o'tgan voqealarni eslashga majbur etardi. Shunday qilsam, eski ranj-alamim qo'zg'alib, izzat-nafsim junbushga keladi va bu meni keraksiz azoblardan xalos etadi, deb o'ylardi.

Lekin ajablanarlisi shundaki, bo'lib o'tgan voqealar hech qanaqa g'am, alam qo'zg'amasdi. Ha, Lugovoy uni sevar, bu muhabbat juda boshqacha edi. Bu sevgi hayotni yangilik, nur bilan to'ldirar, yurakda andak tumanli bo'lsa-da, ajoyib tong tug'ilardi go'yo. Ular kamdan-kam uchrashishar, lekin har bir uchrashuv his-tuyg'ularga g'ulg'ula solib, bo'rondek bostirib kelardi. Har bir vidolashuv esa g'am-tashvishga to'la, uning ko'zlari tezroq qaytib kelish, o'zi to'g'risida o'ylab turish, unutmastlikni iltijo etardilar. So'ngra hammasi chippakka chiqdi. U jo'nab ketdi – tamom-vassalom. Ular biror nima bilan bog'langan emasdilar.

Lugovoy baribir teatrga kirdi. Qarsaklar yangrab turardi. U og'ir pardani surib, duch kelgan joyga o'tirdi. Oldini dengizchilarning keng yelkalari to'sib turardi.

Lugovoy mahbusini ko'rmaslik uchun yerga boqdi. U faqat ovozig quloq tutar va bu tovushda o'sha-o'sha tashvish-tahluka, til-yog'lamalik, qandaydir serjarang bir g'am tuyardi.

*Uchraganmi sizga sokin tun
Gung sahrolar, o'rmonlar aro
Hijronzada, dilxasta majnun,
Motamzada, mahzun diloro.*

*So'ylaganmi ko'ksida sog'inch,
Qayg'usini etganmi izhor.
Ko'z yoshlari ortida ilinj,
Tabassumi ortida ozor.*

Uchraganmi sizga?..

Yo'qotilgan kunlar alami yuragini shunaqangi kuch bilan siqdiki, Lugovoy «oh» tortib yuborishdan o'zini zo'rg'a saqladi. U o'rnidan turib, zaldan chiqdi. Ostonada o'girilib qaradi – uning borlig'i iliq nur

bilan chulg'anganday, yuzlari oqarinqiragan, har doimgidek go'zal qiyofada royal yonida turardi.

Lugovoy o'zining qum tepaliklaridagi uyiga qaytib keldi. Kechqurungi gashtak uchun stol tuzab qo'yilgan edi. U chiroqni o'chirdi va shineline yechmay xona o'rtasida uzoq turib qoldi.

* * *

Samoylova teatrdan bir necha ofitser hamrohligida chiqdi. Dengiz tinchib qolgan, faqat onda-sonda bo'g'iq «uf» tortib qo'yardi, xolos.

Guruh komandiri ishi borligi, kechroq kelishini aytib, uzr so'radi va ketib qoldi. Xuddi shu bahona bilan yana ikki ofitser unga ergashdi.

So'ngra bir malla ofitser uyda unutib qoldirilgan konyakni olib kelgani jo'nadi.

Shahar chekkasiga yaqinlashib qolishganida Osipov idish yetishmay qolishini o'ylab, bezovtalana boshladi va yoshgina leytenantdan stakan olib kelishni iltimos qildi.

Leytenant hech qanday e'tirozsiz rozi bo'ldi. Osipov Samoylova bilan yolg'iz qoldi. Ular indamay ketib borishardi.

– Eh, jin ursin! – dedi birdan Osipov. – Kechirasiz, og'zimdan be-xos chiqib ketdi. Juda yomon odat-da bu.

– Nima bo'ldi?

– Dadamga telegramma yuborishni unutibman. Tabrik telegrammasi. Azaldan oilamizda shunday an'ana bor.

U qo'lidagi soatga qaradi. Soatning raqamlari nurlanib turardi.

– Hali ulguraman. Darvoqe, yetib keldik. Huv ana, ko'ryapsizmi – kichkinagina uy? Zinasini-chi? Bu o'sha uy.

Va shu zahotiyoyq o'zini o'zi fosh etgib, qo'shib qo'ydi:

– Agar qo'rqsangiz, men shu yerda kutib turaman.

– Ketavering! – dedi Samoylova va hatto jilmaymadi ham.

Osipov ketdi. Lekin qarag'ay ortiga o'tib to'xtadi va ayol zinadan ko'tarilib, peshonasini yog'och to'singa tiramaguncha kutib turaverdi.

Ayol shu alpozda bir necha daqiqqa o'tirdi, so'ng birdan o'rnidan turdi-da, eshikni taqillatdi.

Osipov pastak qarag'aylar orasida archagullarni bosib, uydan tez uzoqlashdi.

Samoylova eshikni juda sekin taqillatdi.

O'sha zahotiy oq erkak kishining «Kiring!» degani eshitildi.

Samoylova eshikni ochib, ostonada to'xtab qoldi, kesakini ushladi. Lugovoy ortiga chekindi. U ayolning yosh to'la ko'zlarinigina ko'rib turardi, xolos.

– Kolya, azizim, – dedi Samoylova. – O'shanda hech nima bo'lgani yo'q, hech nima. Nega bunday qildingiz?..

U gapini tugatolmay, ovozi tutilib qoldi. Lugovoyning bo'ynidan quchib, horg'inlik bilan cho'ka boshladi. Leytenant uni avaylab oromkursiga o'tirg'izdi va ayolning sovuq, oqish yuziga tikilib qoldi.

– Men faqat birgina narsani – kechirishingizni istayman, – dedi u bo'g'iq tovushda.

– Men sizni topdim.... o'zim keldim... demak, kechirdim... butunlay kechirdim, butunlay, – dedi Samoylova holsizgina jilmayib. – Bu yer juda dim ekan! Tashqariga chiqaylik.

Ular zinaga chiqdilar. Samoylova Lugovoyning yelkasidan quchib, uning qaltirayotganini his etdi va sekin, zo'rg'a eshitiladigan qilib, shunday dedi:

– Bo'ldi, o'zingizni bosing. Men endi doimo siz bilan birga bo'laman. Doimo!

Dengiz xiragina jilvalanib turardi. Bulutlar ortidagi Oy zo'r-bazo'r ko'zga tashlanar, chor atrofda nilto'tiyo tun chuqur sukut saqlardi.

Faqat uzoqdan ofitserlarning ovozlari quloqqa chalinar, ular ku-lishib, bir-birlariga gap otganlaricha har tarafdin qum tepalaridagi uy tomonga oshiqishardi.

Mashaning bog'i

Yillar o'tishi bilan, keladigan har bir qish Tixon Petrovichga avvalgisidan uzunroqdek tuyulardi. Taqvim bo'yicha hammasi to'ppa-to'g'ri, bahor o'z vaqtida, o'z mavridida kelardi. Lekin bu fasl qanchalik uzoq kutilsa, kutish shunchalik qiyinlashardi.

– Bu qarilik alomati, – derdi Tixon Petrovich o'z-o'ziga. – Qari kishi bahor kutadi, o'ziga ko'klam issig'idan qancha nasib etishini hisob-kitob qiladi. Shuning uchun ham asabiylashaveradi. Yoshlik – bu boshqa gap!

Lekin Tixon Petrovich bahorni sabrsizlik bilan kutishining boshqa jiddiy sabablari ham bor edi, albatta.

Bahor taftiga u faqatgina o'zi uchun emas, balki o'simliklari, o'z ta'biri bilan aytganda, «daraxtlar oilasi» uchun intiq bo'lardi. Chunki, uning boshqa hech qanaqa oilasi yo'q – azaliy bo'ydoq edi. Bu hatto uning tashqi ko'rinishidan ham bilinib turardi. Tixon Petrovich ozg'in, qiyofasi jiddiy, o'z-o'zi bilan gaplashish, ba'zan so'kinib qolish odati bor.

Tixon Petrovich tuman tasarrufidagi Razgovorovo shaharchasida meva ko'chatlari yetishtirar, bog' va issiqxonalarini bo'lgan hovlisi bor edi. By hovlida u namunali, yoki yanada balandparvoz maqomda aytganda, «tajriba uchun» o'simliklar yetishtirardi. Hovli tor, lekin dovdaraxtning ko'pligi va balandligidan keng-mo'ldex tuyulardi.

Tixon Petrovich ko'p yillardan beri tajribali bog'bon sifatida chor-atrofga dong taratgandi. «Bu kishi – bizning Michurin, – deyishardi faxrlanib shaharcha odamlari, – o'z ishiga sodiq, hammaning maslahatchisi, yordamchisi. Faqat birgina qusuri bor – ish bilan bo'lib, oila qurishni unutib qo'ygan, shekilli, yolg'iz yashaydi».

Tixon Petrovich ishlaydigan niholxona kichkina shaharda joylashgan bo'lsa-da, viloyat tashqarilarida ham mashhur edi. Tixon Petrovichning yoniga Rossiyaning turli burchaklaridan bog'bonlar kelib turishar, hatto Moskvadan tashrif buyurishgan paytlari ham bo'lardi. U o'z bilimlarini ayamay, ishtiyoq bilan o'rtoqlashardi. Shu bois u uncha katta bo'lmagan uyining boloxonasida istiqomat qilar, pastdagi ikki xona esa kelib-ketuvchilarga ajratilgan edi. Tixon Petrovich bu xonalarni ba'zan «mehmonxonaga», ba'zida «amaliyotchilar xonasi» deb atar, chunki har yoz u yerda viloyat qishloq xo'jalik texnikumi talabalari istiqomat etishardi.

Ma'lumki, o'z sevimli mashg'ulotidan vaqtincha ajralgan kishi doimo unga intilib yuradi. Ovchilar qish davomida yaroqlarini qayta-qayta tozalab, o'q joylashadi, baliqchilar qarmoqlarini bog'lab, po'kaklarni ranglashadi, dengizchilar xarita chizish bilan band bo'lishadi. Tixon Petrovich bo'lsa, qishda o'zining tang-u tor boloxonasida o'tirib, «Mevali daraxtlar, butalar, sabzavot va gul yetishtirish bo'yicha qo'llanma» yozardi.

Tixon Petrovichning tajribasi ko'pligi tufayli «qo'llanma» o'z nomini bemalol oqlardi. Chunki kitob havaskor bog'bonning qo'lidan

mahkam tutib, jo'yakma-jo'yak olib yurgandek, batafsil yozilayotgan edi.

– Naqadar ajoyib, – derdi Tixon Petrovich, – inson hayrat qobiliyatini hech qachon yo'qotmasligi kerak. U g'azna hisobotlari bilan to'ldirilgan qopchiq emas, haqiqiy inson ekan, hayrat hissidan begona bo'lmaydi.

Bularning hammasi to'g'ri edi, albatta. Lekin yillar o'tgan sari, nafaqat kelayotgan qishlar uzun tuyular, balki, o'zi ham endi hech kimga kerak bo'lmay qolishi mumkinligini tobora ko'proq his etardi.

Ma'lum bo'ldiki, buydoq hayot – ozod, erkin kechib, foydali, yaxshi mehnatga baxshida etiladi. Biroq shunga qaramay, oila quvonchlarisiz baribir tatimas ekan. Hatto o'z-o'zingga g'amxo'rlik qilish ham yil sayin zerikarli bo'lib qoladi.

«Yaxshi ko'rgan narsalarimni aqalli biror kishiga sovg'a qilolsam ham mayliga edi, – o'ylardi Tixon Petrovich. – Aziz kishimni xursand qilgan bo'lardim. Mening esa sovg'a qiladigan odamim yo'q. Boshqalarning xotini, bolalari bor, men esa yolg'izman».

Lekin Tixon Petrovich shu zahotiyoyq ko'ngil qo'ygan mashg'uloti uchun bolalar boshga balo bo'lardi, deya o'ylab, o'zini ovutardi. Hammasini toptab tashlashadi, tovuqdan xam battar ular. Tixon Petrovich singan butoq yoki gul u yoqda tursin, toptalgan maysani ko'rsa ham, «oh» tortib, aftini burishtiradi-yu, bolalarga balo bormi?

Bahor har galgidek erta tongda tashrif buyurdi. U boloxonaning sinch devorida to'q-sariq, iliq, chorqirra quyosh nurida namoyon bo'ldi. Sinch tirqishidagi uzun qish davomida ko'zga tashlanmagan mum tomchisi shu tong xuddi marvariddek nurlanib ketdi.

– Vaqt yetdi! – dedi Tixon Petrovich tomchiga nigoh tashlab va «qo'llanma»ning tugallanmagan qo'lyozmasini yanagi qishgacha stol tortmasiga solib qo'ydi. Va taqsimchalarga ekilib, deraza tokchalari va dahlizda o'stiriladigan urug'larni saralay boshladi.

Keyin esa quyuq, og'ir tumanlar tushdi, qishki yo'llar sarg'ayib, o'rmondan rutubat anqidi, taxta tomlarni bug' qopladi. Aprel tunlarining birida daryodagi yax chok-chokidan «so'kilib», ertalab har galgidek muz ko'chishi boshlandi va daryo yetti chaqirimga yoyilib ketdi.

Bahor suvlaridan neft va qor hidi kelardi. Qirg'ovdagi daraxtlarning butoqlari yonma-yon o'tirgan qqish arilarga monand yosh kur-taklar bilan qoplandi.

Viloyat markazidan birinchi kema keldi. Tixon Petrovich shu kema niholxonaning yumushi va yana allaqanday ko'chatlar olish uchun shaharga tushdi. Shahargacha hammasi bo'lib besh soatda su-zib borilardi. Shahardan qaytishda, kema qorong'i tushay-tushay de-ganda yo'lga chiqdi va suv toshgan joylardan suzib ketdi. Bakenlar¹ hali yoqilmagandi.

Suvdan sovuq ufurib turganiga qaramay, Tixon Petrovich kema sahnida o'tirar, oyoqlari ostida ko'chat to'la qopchiq yotardi. Pastdagi umumiy xona iliq, hatto juda issiq edi, lekin Tixon Petrovich u yer-ga tushmas, ko'chatlarni ko'zi qiymasdi. Ko'chatlar issiqda tez so'lib qolishi hammaga ma'lum.

Kema sahnida yo'lovchilar unchalik ko'p emasdi. Arrakashlar, o'ralib-chirmalgan ayollar, yigirma yoshlar chamasidagi qiz va qiza-loq. Oriq, rangpar va qiziquvchan qizaloq olti yoshlarda bo'lib, kema sahnidan pastga tushishni sira istamasdi.

Arrakashlar shunaqangi zo'r berib chekishardiki, hatto kuchli sha-mol ham tamaki hidini yo'qotolmasdi. Ular chakmon kiygan yoshi ulug' o'rtoqlarining so'zlarini tinglashardi.

– Bu nima degan gap! – derdi u bo'g'iq tovush bilan. – Ahmoqlar hamma narsaga kulaverishadi, aqlli kishi esa o'ylab ko'radi. Farqiga bormay turib, raisimiz Batenkovning ustidan kulishga shoshilmasang-lar bo'lardi.

– Biz bo'lsak, farqiga borib kulyapmiz, – dedi yosh arrakash.

– Hozir sen nimaning farqiga borganingni isbotlab beraman! – dedi achchiqlanib keksa arrakash. – Nimaning ustidan kulyapsanlar, o'zi?! Batenkov muz ko'chganda beshta tovushqonni qutqarib qolganigami? Shundaymi, axir?

– Biz buning ustidan kulayotganimiz yo'q, axir, Zaxarich, – e'tiroz bildirdi yosh arrakash.

– Tushunib turibman! – dedi qariya tahdidli ovozd. – Senlar-ni juda yaxshi tushunaman. Batenkov o'sha tovushqonlarni piyoz bilan qovurib, araqqa gazak qilish o'rniga, chakalakzorga qo'yib

¹ *Baken* – daryo va dengizlarda sayoz joylardan ogohlantiruvchi mash'ala.

yuborganidan kulyapsanlar. Nazarlaringda, bu xurmacha qiliq hisoblanadi-a?

– Batenkov haddan tashqari rahmdil, – dedi qorong‘ilikdan kimdir.

– Y-o‘-o‘-q, ukam. Hech qanaqa rahmdillik yo‘q bu yerda. Bundan oddiy xulosa chiqarish kerak. Tovushqonlar bekordan bekorga nobud bo‘lib ketguncha, o‘z-o‘zidan ko‘paysin. Qush uyasini ko‘rganmisan? Qum zarralari, patlardan yasalgan. Boylik ham, ukaginam, xuddi shunday bunyod bo‘ladi. Umumxalq mulki ana shunday vujudga keladi. Uy ham bitta-bitta g‘isht bilan ko‘tariladi. Bir vaqt qarabsanki, xuddi Moskvadagidek butun boshli yigirma sakkiz qavatli imorat qad rostlaydi.

– Obbo sen-ey! – dedi yosh arrakash.

– Ha-a! «Obbo sen-ey!» – javob berdi kekxa arrakash. – Buning fahmiga yetish kerak. Biz tomonlarda shunday rivoyat bor. Asalari daryoga tushib ketib, qanotlari ho‘l bo‘libdi. Bir so‘z bilan aytganda, asfalasofilinga ravona bo‘lishi tayin bo‘lib qolibdi. – Omin, yo parvardigor! Atrofdan esa qizilqanotlar uchib yurishgan ekan. «Meni qutqaringlar, – iltijo qilibdi asalari, – haqini, albatta, to‘layman».

– E, seni boshimizga uramizmi, – deyishibdi qizilqanotlar. – Biz asalni og‘zimizga ham olmaganmiz.

Asalari «uf» tortibdi. «Bu gap ham to‘g‘ri! Na iloj». Qarasa, daryoda qurbaqa suzib kelyapti. «Kutqar meni, – tavallo qilibdi asalari. – Qarzdor bo‘lib qolmayman». «Men bo‘lsam, – debdi qurbaqa, – hatto asalning hidiga ham toqat qilolmayman». Shunda asalari butunlay g‘amgin tortibdi. Lekin qarabdiki, daryo uzra qora chug‘urchuq uchib yurgan ekan. Asalari undan ham «qutqazgin» deya iltimos qilibdi. «Xo‘p, mayli, – debdi chug‘urchuq, – seni qutqazganim bo‘lsin. Chunki sen odamlarni asal bilan siylaysan, ular esa menga makon qurib berishadi».

– Chug‘urchuq asalarini qutqaribdimi? – so‘radi yosh arrakash.

– Albatta-da. Foydali jonzotlarga doimo yordam berish kerak.

– Nastyusha, – dedi qizaloq o‘z hamrohiga, – men asalarini shundoq ham qutqazgan bo‘lardim, asal evaziga emas.

– Juda to‘g‘ri qilgan bo‘larding, qizaloq, – dedi Tixon Petrovich sekingina. Nimjongina, ko‘zlari katga-katta bu qizcha uning yuragi-

da rahm emas-u, allaqanday ezgin tuyg'ularni qo'zg'atdi. – Mana, onangdan so'rab ko'r, u ham xuddi shunday deydi.

– U mening onam emas, opam, – javob berdi qizaloq.

Tixon Petrovich qizdan uzr so'radi.

– Qo'ysangiz-chi, zarari yo'q, – dedi qiz.

– Opa-singil sayr-u sayohatga chiqibsizlar-da?

– Biz Razgovorovoga boryapmiz, – iymanib javob qaytardi qiz.

Qorong'ida Tixon Petrovich qizning yuzini aniq ilg'amasdi-yu, lekin uning uyatchan ko'zlarini ham, boshiga tashlangan issiq ro'mol shokilalarini tortqilayotganini ham ko'rayotgandek edi.

– Qarindoshlaringiznikiga boryapsizlarmi?

– E, yo'q, – dedi qiz, – Men Razgovorovoga o'qituvchilikka tayinlandim. Mana, boryapman, singlim Masha bilan birga. Biz u bilan endi ikkovlonmiz. Dadam Uzoq Sharqda xizmat qiladi, oyim qirq ikkinchi yili, Leningrada...

– Hammasi ravshan, – dedi Tixon Petrovich va qiz gapini tugatmayoq jimib qoldi. Qiz ham indamasdi.

Tixon Petrovich oyog'i ostidan qopchiqni oldi, negadir ko'chatlarni ushlab ko'rdi. Barglari so'lg'in bo'lsa-da, issiq edi. «Tutadi», – o'yladi u, so'ng qizga o'girilib, dedi:

– Dehqonlar uyiga borishingizning hojati yo'q. Bekordan bekor-ga ovora bo'lasiz. Razgovorovoda boshpana topish osonmas. Mening uyim bo'lsa, hozircha bo'sh. Bitta xonani sizlarga beraman, boshqasi talabalar uchun. Yozda talabalar kelishadi, men ularga bog'dorchilik ilmini o'rgataman.

– Yo'q, qo'ysangiz-chi, kerak emas... – sekingina e'tiroz bildirdi qiz.

– Yo'q, siz qo'ying bu gapingizni, – dedi Tixon Petrovich achiqlanib, – mening uyimga joylashasiz. Yuz yil yashasangiz ham, mayli.

Bong chalindi. Qirg'oqda chiroq silkita boshlashdi – qayerda to'xtashni ko'rsatishardi. Arrakashlar o'rinlaridan qo'zg'alishib, maxorkadan o'ralgan sigaralarini qop-qora suvga uloqtirishdi. Tepadon, kapitan ko'prikchasidan «To'xta!» degan yo'g'on tovush eshitildi. Shu lahza hammayoq jimib qoldi va bu sukunat aro kema chig'iriqlarining suvni shildiratayotgani eshitalardi, xolos.

Tixon Petrovich kutilmagan ijarachilariga pastdagi xonalarining birini ajratib berdi. Har ikki xona eski, otasidan qolgan mebellar bilan jihozlangandi. Xonalar hammasi bo'lib ikkita, lekin har xil yo'lak, dahliz, qaznoq, eshiklar shu qadar ko'p ediki, avvaliga Masha bu yerda xuddi o'rmondagidek adashib qolar va jon holatda qichqirardi:

– Nastya, qayerdasan? Chiqolmayapman, N-a-ast-ya!

Tixon Petrovich Nastya bilan uchrashib qolganda uyalib ketardi. Nastya bilan Masha uni uyning xo'jayini deb hisoblashlaridan qiynalardi. Xo'jayin! Qandaydir yoqimsiz so'z.

Oxir-oqibat, u chiday olmay, Nastyaga shunday dedi:

– Siz, Anastasiya Mixaylovna, xuddi uyingizdagidek yashayvering. Tasavvur etingki, men bu yerda yo'qman. Ko'rib turibman, iymanib yashayapsizlar. Mana, siz chorbog'imga qadam bosmaysiz va Mashani ham borishga qo'ymasmishsiz.

– Yo'g'-ye, qo'ysangiz-chi, – dedi Nastya gunohkorona jilmayib.

Lekin ertasiga ertalab Masha bog'da paydo bo'ldi. Demak, Nastya uni boqqa chiqqani qo'ymagani rost ekan.

Ertalablari, ishga ketguncha Tixon Petrovich o'z bog'ida kuymardi. Bu tong u yangi ekilgan ko'chatlarni sug'orayotgandi.

Hali juda barvaqt, quyosh bosh ko'tarmagan, bog' salqin edi. Lekin devor tirqishlari aro uzun, ingichka nurlar taralar va ular yoritgan bari narsalar ajabtovur tus olardi.

Tixon Petrovichning yordamchisi Arxip bobo yer ag'darardi. Ag'darilgan tuproqdan bug' ko'tarilib, havoga singib ketardi. Tepadagi butoqda o'tirgan chumchuqlar dam bir, dam ikkinchi ko'zlari bilan tuproqqa tikilib, chuvalchang poylashar, lekin chuvalchang chiqishiga hali vaqt erta edi.

– Siz, azizlarim, – derdi Arxip chumchuqlarga, – bu yerda be-kordan bekorga o'tirguncha, kolxoz otxonasiga borsangiz bo'lardi. Yorug' dunyoda birinchi yil umrguzaronlik qilayotganlaring yo'q-ku, nega hech nimaning fahmiga yetmaysizlar? Sizlardan gina qilishga ne hojat, miyangiz tirnoqdek bo'lsa.

Lekin chumchuqlar cholga quloq solishmas, hamon butoqlarda o'tirishar va go'yo Arxip bilan bahslashmoqchi bo'lishardi.

Arxip juda besaranjom chol edi. Suhbatdoshsiz qolish uning uchun ulkan baxtsizlik hisoblanardi. Shu bois u tomoq qirdi, bir muddat o'ylab turdi va Tixon Petrovichga dedi:

– Bog'ingga quyosh juda kam tushar ekan.

Tixon Petrovich indamadi.

– Judayam kam deyapman senga, – takrorladi Arxip. – Ko'chatxonada bo'lsa hammayoq yopiq.

Lekin Tixon Petrovich bu gapga ham javob bermadi.

«Xafa bo'lyapti, – o'yladi Arxip, o'z navbatida, andak og'rinib, – Negadir keyingi ikki kunda Tixon Petrovich g'alati bo'lib qoldi, sira tushunib bo'lmaydi».

Arxipning oldiga mayin qirmizi nur – quyosh aksi tushdi.

– Ha-a, – g'o'ldiradi Arxip. – Men quyosh to'g'risida bekordan bekorga valdiradim. Bekordan bekorga! Hali so'z aytib ulgurmasim-danoq, quyosh shu yerda paydo bo'lib qoldi.

Arxip boshini ko'tardi va qo'lida belkurak bilan qotib qoldi: ortida qizil ko'ylak kiygan, sochlari bog'ichli olti yoshlardagi qizcha turardi. U sovuq suvda yuvinganidan, yonoqlari kulrang ko'zlaridan ham shiddatliroq yonib turardi.

Arxip belkurakni yerga suqdi, kaftini peshonasiga qo'ydi va qizchaga xuddi quyoshga tikilganday qaradi.

Tixon Petrovich ham qad rostlab, Mashaga qarab turardi.

– Xo'sh, qani, Arxip, – so'radi Tixon Petrovich va uning ko'zlari atrofida ajinlar to'plandi, – haliyam mening bog'imga quyosh tushmaydi deysanmi?

– Bekordan bekorga valdirashning nima keragi bor! – javob berdi Arxip va uning ko'zlari atrofida ham xuddi Tixon Petrovichnikidek jiggarrang ajinlar to'plandi. – Sen mehrga juda boysan, Tixon Petrovich. Bunaqa niholni qayerdanam topa qolding? Voyaga yetsa bormi, boqib ko'zing to'ymaydi.

Masha, albatta, Tixon Petrovich bilan Arxip nima to'g'risida gapirayotganlarini tushunmasdi. U jilmaydi va uyalinqirab so'radi:

– Bu bog'ning nomi nima?

– «Mashaning bog'i» deb ataladi, – javob berdi Tixon Petrovich.

Masha hech nima tushunmay, qoshlarini chimirgancha unga boqardi.

Arxip chol belkurakni yerga chuqur botirdi, tuproqni o'tgan yilgi ajriq bilan birga ag'dardi va sekin-asta uvalar ekan, shunday dedi:

– Haqiqatan ham, inson, qayerda baxtini topib, qayerda yo'qotishini bilib bo'psan. Omadlisan, Tixon Petrovich. Qara-ya, tirik-chiligimiz qanday mazmun kasb etdi.

Chumchuqlar Arxipning oyog'i yonidagi yakka-yu yagona chugalchangni ko'rib qolishdi, hammalari birdaniga chirqillab unga tashlanishdi va shu zahotiy oq janjallashib qolishdi. Masha esa ularga boq-qanicha chapak chalar, kulardi.

Sevgi degani, nima u o'zi?

Napoleon sarkardalaridan birining taqdirini, – tarixchi va tartib-qoida bandalarining jig'iga tegmaslik uchun, uning ismini aytmaymiz, – Sizga, inson his-tuyg'ularining qashshoqligidan nolib yuruvchilarga hikoya qilib bersa arziydi.

Bu lashkarboshi hali yosh, oqara boshlagan sochlari, yonog'ida-gi chandiq unga o'zgacha husn baxsh etib turar, yuzlari muhtojlik va yurishlar ta'siridan qorayib ketgandi.

Askarlar urush yukini o'zlari bilan birga tortadigan sarkardani yaxshi ko'rishardi. U ko'pincha dalada, gulxan yonida yomg'irpo'shiga o'ralib uxlar va burg'uning bo'g'iq tovushidan uyg'onar, askarlar bilan bir idishdan suv ichar, changga botgan, nimdoshgina libos kiyib yurardi.

Qo'mondon toliqtiruvchi yurishlar, jang-u jadallardan bo'lak hech nimani bilmasdi. Egardan egilib, oti toptagan o't nima deb atalishini dehqondan dabdurustdan so'rash, yoinki o'z askarlari Fransiyaning shon-sharafi deya egallagan shaharlar nima bilan mashhurligini surishtirish hech qachon xayoliga kelmasdi. To'xtovsiz urush uni kam-suqumlik, shaxsiy hayotini unutishga o'rgatgandi.

Qish kunlarining birida qo'mondonning Lombardiyada turgan otliq askarlar korpusi zudlik bilan Germaniyaga kirib borib, «katta armiya»ga qo'shilish to'g'risida buyruq oldi.

O'n ikkinchi kun deganda qo'shin tunash uchun kichkinagina nemis shaharchasida to'xtadi. Qor qoplagan tog'lar tun qo'ynida oqarib turishar, atrofda o'rmonlar yastanib yotar, sukunat aro faqat osmondagi yulduzlarga jimir-jimir etishardi, xolos.

Qo‘mondon mehmonxonaga joylashdi. Kamtaringina kechki ovqatdan so‘ng kichkina zaldagi kamiq yoniga o‘tirdi va yordamchilariga javob berib yubordi. U juda charchagan, yolg‘iz qolgisi kelardi.

Qulog‘igacha qorga botgan shaharcha sukunati unga bolaliginimi, yoinki, yaqindagina ko‘rgan tushinimi (tush ko‘rganmidi o‘zi?) eslatardi. U imperator yaqin kunlar ichida hal qiluvchi jang boshlashini bilar, shu boisdan: «bu odatdan tashqari yolg‘iz qolish istagi shiddatli hujum oldidan so‘nggi hordiq sifatida menga juda zarur», – deya o‘zini yupatardi.

Olov kishilarda hayrat hissini uyg‘otadi. Yonayotgan tarashalardan ko‘z uzmay o‘tirgan sarkarda huzuriga qushyuz, oriqqina kishi kirib kelganini sezmedi. Notanish kimsa yamoqli ko‘k frak kiygan edi. U kaminga yaqinlashib, sovuq qotgan qo‘llarini isita boshladi. Sarkarda boshini ko‘tarib, norozi ohangda so‘radi:

– Kimsiz, janob? Nega bu yerda sassiz paydo bo‘lib qoldingiz?

– Men musiqachi Baumveys bo‘laman. Sassiz paydo bo‘lganimning boisi shundaki, bu qish kechasida beixtiyor shovqinsiz harakat qilgiz keladi.

Musiqachining yuzi, ovozi o‘ziga tortardi. Sarkarda biroz o‘ylab turib, shunday dedi:

– Olovga yaqinroq o‘tiring, janob. Ochig‘ini aytganda, hayotda bunaqa sokin oqshomlar menga kamdan-kam nasib etadi. Siz bilan suhbatlashsam, behad shod bo‘lardim.

– Minnatdorman, – dedi musiqachi, – lekin ruxsat etsangiz, men yaxshisi, royal chalib beraman. Mana, ikki soatdirki, bir musiqiy mavzu tinchlik bermayotir. Men uni chalib ko‘rishim kerak, tepada, xonamda esa royal yo‘q.

– Mayli... – dedi lashkarboshi, – lekin sirasini aytganda, bu tun sukunati jamiki ilohiy ohanglardan ham yoqimliroqdir.

Baumveys royal yoniga o‘tirib, sekin chala boshladi.

Qo‘mondonning nazarida shaharcha atrofidagi baland va yengil qorlar ohang taratar, daraxtlarning og‘irlashib qolgan butoqlari, qish kuylamoqda, hatto, kamindagi olov ham jaranglardi go‘yo. Marshal chimirilib, chirsillab yonayotgan tarashalarga nigoh tashladi va jaranglayotgan olov emas, balki, etigidagi shporlar ekanini sezdi.

– Har xil balo-battarlar ko‘zimga ko‘rina boshladi, – dedi u. – Siz ajoyib mashshoq bo‘lsangiz kerag-a?

– Yo‘q, – javob qaytardi Baumveys royal chalishdan to‘xtab, – men to‘ylarda, kichik knyazlar, nomdor kishilarning bazmlarida musiq chalaman.

Tashqarida zina g‘ichirladi, otlar kishnashi eshitildi.

– Mana, – dedi Baumveys o‘rnidan turar ekan, – meni olib ketgani kelishdi. Siz bilan xayrlashishga ijozat bergaysiz.

– Qayoqqa boryapsiz? – so‘radi sarkarda.

– Bu yerdan ikki chaqirim narida, tog‘da o‘rmonchi istiqomat qiladi, – javob berdi Baumveys. – Uning uyida urush mojarolaridan bekinib yurgan bizning go‘zal xonandamiz Mariya Cherni mehmon bo‘lib turibdi. Bugun Mariya yigirma uch yoshga to‘ldi. Shu munosabat bilan u kichkinagina bazm uyushtiryapti. Axir bayram keksa mashshoq Baumveyssiz bayram bo‘larmidi?!

Qo‘mondon o‘rnidan turdi.

– Janob, – dedi u, – biz ertaga ertalab bu yerdan jo‘nab ketamiz. Agar shu tunni siz bilan birga o‘rmonchining uyida o‘tkazsam, nopisandlik deb hisoblamaysizmi?

– Ixtiyoringiz, – javob qaytardi Baumveys xiyol ta‘zim qilib, lekin sarkardaning so‘zlaridan hayron bo‘lgani bilinib turardi.

– Ammo, – dedi marshal, – bu haqda hech kimga og‘iz ochmang. Men yashirin eshikdan chiqib, quduq yonida chanaga o‘tiranman.

– Ixtiyoringiz, – takrorladi Baumveys va yana ta‘zim qilib, tashqariga chiqdi.

Marshal kulib yubordi. Bu oqshom u may ichmagan bo‘lsa-da, lekin haddan ziyod beparvo sarxushlik adadsiz kuch bilan chulg‘ab olgandi.

– Qish bag‘riga singamiz! – dedi u o‘z-o‘ziga. – Jin ursin, o‘rmonga ketamiz, tun qo‘ynidagi tog‘larga! Juda ajoyib!

U yomg‘irpo‘shini yelkasiga tashladi-da, mehmonxonadan hech kimning ko‘ziga ko‘rinmay, bog‘ orqali chiqib ketdi. Quduq oldida chana turar, Baumveys marshalni kutmoqda edi.

Otlar xurillab, soqchi yonidan uchib o‘tishdi. Soqchi kechikib bo‘lsa-da, odatdagidek miltig‘ini yelkasiga olib, marshalga hurmat bajo keltirdi. U uzoqlashib borayotgan qo‘ng‘iroqchalarning tovushiga ancha vaqt quloq solib turgach, boshini sarak-sarak qilib dedi:

– Qanday ajoyib tun! Eh, bir qultumgina qaynoq musallas bo‘lganda edi!

Otlar kumush qoplangan yo‘ldan yelib borishar, issiq tumshuqlaridagi qor erib ketardi. Sovuq o‘rmonlarni sehrlab qo‘ygan, qora baxmal daraxtlar tanasini mahkam qisib, ular vujudidagi tirik sharbatni isitmoqchi bo‘lardi go‘yo.

Otlar birdan irmoq yonida to‘xtab qolishdi. Muzlamagan irmoq tog‘dagi g‘orlar, nishab daraxtzorlardan qochib chiqib, toshdan toshga sakrab, shovqin solar, ko‘pik sochardi.

Otlar irmoqdan suv icha boshladilar. Birdan ularning tuyog‘i ostidan nimadir yaltirab, o‘tib ketdi. Otlar hurkib, torgina yo‘ldan yelib keta boshladilar.

– Xonbaliq, – dedi izvoshchi, – juda sho‘x-da jonivor!

Lashkarboshi jilmayib qo‘ydi. Uning sarxushligi hamon tarqamasdi. Otlar chanani tog‘lar qo‘ynidagi maydonchaga olib chiqib, balland tomli eski uy yoniga keltirishganda ham marshalning kayfi tarqamagandi.

Uyning derazalari yorug‘ edi. Izvoshchi chanadan sakrab tushib, yopinchiqni ko‘tardi.

Eshik lang ochildi, marshal Baumveys bilan qo‘l ushlab, shamlar nuri bilan yoritilgan pastakkina xonaga kirib, ostonada to‘xtadi. Xonada yasan-tusan kiyingan bir necha ayol va erkak bor edi.

Ayollarning biri o‘rnidan turdi. Chaqirilmagan mehmon ayolga nazar soldi va u Mariya Cherni ekanini angladi.

– Meni ma‘zur tutgaysiz, – dedi sarkarda sal qizarinquirab. – So‘roqsiz kirib kelganim, chaqirilmagan qo‘noq bo‘lganim uchun uzr so‘rayman. Lekin biz askarlarmiz, oilani ham, bayramlarni ham, tinchgina ko‘ngilxushliklarni ham bilmaymiz. Olovingiz taftida biroz isinishga ruxsat bering.

Qari o‘rmonchi yangi kelgan mehmonga ta‘zim bajo etdi, Mariya Cherni bo‘lsa, uning yoniga kelib, ko‘zlariga tikildi va qo‘lini uzatdi. Marshal Mariyaning qo‘lini o‘pdi. Qo‘l unga muzdek sovuq tuyuldi. Hamma jim edi.

Mariya Cherni lashkarboshining yonog‘iga sekingina qo‘l tekkizdi, barmoqlari bilan chuqur chandiqni siypalab, so‘radi:

– O‘shanda qattiq og‘riganmidi?

— Ha, — javob qaytardi sarkarda uyalib, — qilich bilan qattiq urishgandi.

Shunda Mariya Cherni uni qo‘ltiqlab oldi-da, mehmonlarning yoniga boshlab borib, xuddi o‘z qaylig‘idek iymanibgina, yuzidan nur yog‘ilib, mehmonlarga tanishtira ketdi. Mehmonlar hayron bo‘lib shivirlashga tushdilar.

Mariya Chernining qiyofasini tasvirlashning hojati bormi-yo‘qmi, buni bilmayman, aziz kitobxon. Agar siz ham men singari uning zamondoshi bo‘lgan ekansiz, ehtimol, bu ayolning yengil xiromi, injiq, lekin asir etuvchi tabiati, yorqin go‘zalligi haqida eshitgan bo‘lishingiz kerak. Mariya Chernining muhabbatiga loyiq bo‘la oladigan erkak yo‘q edi. Faqat Shillerga o‘xshagan odamlargina uning sevgisiga munosib bo‘la olishardi, ehtimol.

Xo‘sh, keyin nima bo‘ldi, deysizmi? Sarkarda o‘rmonchining uyida ikki kun qolib ketdi.

Keling, yaxshisi, sevgi haqida gapirmay qo‘ya qolaylik. Chunki shu choqqacha uning nima ekanini bilmaymiz. Ehtimol, sevgi bu — tun bo‘yi yoqqan qalin qor, yoki xonbaliq o‘ynagan qishki irmoqlardir? Yoki kulgi va qo‘shiq, eski qatronning xush bo‘yi, shamlar yonib bo‘lgach, tong oldidan yulduzlarning Mariya Cherni ko‘zlarida chaqnash uchun oynaga qapishishimikan? Kim biladi, deysiz? Ehtimol, qattiq epoletdagi yalang‘och qo‘l, sovuq sochlarni silayotgan barmoqlar, Baumveysning seryamoq kamzulidir? Bu — hech kutilmagan noz-u ado, mehribonlik, tungi o‘rmon aro telba shivir-shivirlar haqida er kishining ko‘z yoshlarimikan? Yo bo‘lmasa, bolalikning qaytishimi? Kim biladi, deysiz? Ehtimol, bu ayriliq oldidan ilojsizlik, yuragi uvishib qolgan Mariya Chernining o‘z muhabbati guvohi bo‘lgan xona devorlari, stollar, eshik qabzalarini silashlari bo‘lsa kerak? Va nihoyat, imperatorning shaxsiy buyrug‘iga binoan sarkardani qamoqqa olish uchun uyga kelayotgan Napoleon mulozimlarini ko‘rganda, ayolning chinqirig‘i, hushidan ayrilishidir...

Shunday voqealar bo‘ladiki, ular uchqur qushday bir ko‘zga tashlanib, so‘ng g‘oyib bo‘lib ketsalar-da, beixtiyor ana shu tarix shohidi bo‘lgan kishilar xotirasida mangu saqlanib qoladilar.

Atrofdagi hamma narsa avvalgiday edi. Hamon o‘rmonlar shamol paytida shovillab, irmoq kichkina girdoblarida qoramtir barglarni

chirpirak qilib aylantirar, hamon tog'lardan bolta zarbasi aks sadosi kelar, shaharcha ayollari esa quduq yonida to'planib, valaqlashardi.

Lekin negadir bu o'rmonlar, erinibgina yog'ayotgan qor va irmoqdagi baliqlar yaltirashi Baumveysni orqa cho'ntagidan nimdosh bo'lsa-da, qorday oppoq dastro'molini chiqarib, uni ko'zlariga bosishga, Mariya Chernining qisqagina sevgisi, hayot vaqt-vaqti bilan musiqaga o'xshab ketishi haqida g'amgin, poyintar-soyintar so'zlar aytishga majbur etardi. Lekin shivirlardi Baumveys, yurakdagi adad-siz dardga qaramay, o'zi ana shu voqeada ishtirok etgani, qalbida hayajon tuyganidan behad shod. Bunaqasi kekxa, qashshoq musiqachiga kamdan-kam nasib etadi.

To'rtovlon

Biz to'rt kishi edik.

Pastqam bir go'shada, bobomizning eski qo'rg'onida yozni o'tkazish uchun jamoat jam bo'lgandi.

Bu yerda arg'uvon daraxtlari o'sgan bog' va o'rmonlar bo'lib, azaliy sukunat va xotirjamlik hukmronlik qilar edi.

Shaharlar ortda qolib ketgan, oramizda yuzlab chaqirim masofa bor.

Biz to'rt kishi: ikki tolibi ilm, gimnaziya o'quvchisi va yosh, boshlovchi rassom. Shahar jonimizga tekkan, zaif, holsiz edik. Rad etishlar, zaharxandalardan bezillab diqqat bo'lardik va nima qilishni bilmay hayron edik.

Shu taxlit, «buyuk bosh olib ketish» rejasi pishib yetildi.

Olis o'rmon qorovulxonasiga borib, butun yozni qorovul Andranikida o'tkazishga, hech kim bilan ko'rishmaslik, uchrashmaslikka qaror qilindi.

Rassom bizga shunday dedi:

«Hamma xafagazakligingizni, charchog'ingizni bir chekkaga yig'ishtirib qo'ying. Yetar. Nahotki siz, hammangiz yosh, aqlli kishilar faqat g'ingshish va hayotga o'z nafratingiz o'lchovi bilan qarashdan bo'lak hech nimani bilmasangizlar? Va buning ilojini qilishga intilmay, eng yaxshi vaqtni shunga sarf etib o'tirsangizlar! O'ylab ko'ring, bu naqadar zerikarli, azoblanarli. Hamma gap shundaki, siz – baringiz lattachaynarsiz. Bunday qilish yaramaydi!»

Xullas, biz jo‘nab ketdik.

Huzurida paydo bo‘lishimiz Andranni ajablantirmadi. Hamma gapni tushuntirib berganimizdan so‘ng, u biroz o‘ylab turdi va javob berdi: «Bo‘pti, yigitlar, yaxshi ish bu!»

Kechqurun, o‘rmon sokin tun uyqusiga botib, shimolda yulduzlar miltiray boshlagach, rassom bizga shunday dedi:

«Bu yerda, tanholikda sizlarni qasam ichirmoqchiman. O‘tmishni unuting, yuragingizda to‘planib qolgan kirni, tashvish-tahluka, kundalik yugur-yugurlarni, xafaqon tuyg‘ularni yodingizdan chiqaring. O‘zingizni yolg‘izlikka, o‘z ruhingizga topshiring. Shu yo‘l bilan egilgan, bukilgan, yer bilan bitta bo‘lgan qalbmizni yuksakka ko‘taramiz, o‘z-o‘zimizni qayta ijod etamiz. Izlanamiz, o‘yga tolamiz, dunyoga sinovchan, sergak nigoh tashlaymiz. O‘z-o‘zimizga quloq tutishimiz kerak. Dunyo va ollohning bus-butun, ko‘z ilg‘amas go‘zalliklarini, qalblarimiz qa‘rida, qat-qatida yashirin o‘sha ertakni anglab yetish, sevish kerak. Ko‘proq zavqlanish, o‘ylash, dadil fikrlash zarur. Bu qiyin, juda qiyin. Lekin shu yo‘l bilan o‘zligimizni anglab yetamiz.

Bizning hammaga ham nasib etadigan, lekin ko‘pchilikning yodidan chiqib ketgan baxtimiz – barkamollik, kerak bo‘lsa, g‘oyat nozik tuyg‘ular, oliy ma‘naviyat sari yo‘limiz bor. Kitoblar, ro‘znomalar, o‘zimiz tashlab ketgan odamlarni unutaylik. Ularning hech biri kerak emas. Biz bir-birimizga yordam beramiz.

Bir-birimizni yaxshi bilamiz va o‘zaro hurmat-e‘tiborimiz ham yetarli».

U hayajonlanganidan poyintar-soyintar, andak noaniq gapirayotgan bo‘lsa-da, biz yaxshi tushundik va yorqin, sokin bir quvonch qalblarimizda to‘lqin ura boshladi.

Buni juda uzoq kutganday edik, go‘yo.

Uzzukun adoqsiz va yovvoyi o‘rmonlar oralab o‘tgan so‘qmoqlarni kezdik, tez oqar daryolar, yorqin suvlar bo‘yida tunadik, yetilayotgan, issiq javdar hidi anqib turgan osmon ostida, dalalarda gulxanlar yoqdik. Tonglar kular, serjarang shovqinlar bilan kumush yomg‘irlar yog‘ib o‘tar, mudroq o‘t-o‘lanlar ko‘kka bo‘y cho‘za boshlardi.

Hayot chuqur va tiniq buloq suvidek vujudimizga singib, yorqin orom, sokin hamda muqaddas quvonch bilan qamrab oldi. Bu qu-

vonch bizni o‘rab turgan barcha narsalar: unut bo‘lgan ibodatxonalar, yo‘l yoqasidagi uyatchan, seribo moychechak, rangpar va dilbar osmon aksida mujassam edi.

Kechqurunlari to‘planishib, nimalarni qayta fikrlaganimiz to‘g‘risida gaplashardik.

Kutilmaganda, charchoq va mudroq qalblarimiz xuddi mo‘jizadek, chuqur aql-farosat, go‘zal, serjilo ertak, komil ishonch, yengilgina murosa-madora g‘amlari bilan to‘lib-toshdi. Qalblarimizda ta‘riflab bo‘lmaydigan darajada ko‘p qirralar ochildi, qandaydir yangi, allaqanday yorug‘ bir tuyg‘u dunyoga keldi, yashay boshladi. Endi uni mahv etish sira mumkin emasdi. Bir birimizga aka-ukalardek qadrdon bo‘lib qoldik.

Birgalikda g‘am chekardik, quvonardik, og‘ir so‘qmoqlarda birga kezardik va bir-birimizning ko‘zimizga tik boqa olardik.

Musavvir rasm chizardi. U zamin bilan yaqinligidan mast edi go‘yo, shu bois qoramalaridagi bo‘yoq va nur bo‘roni telbavor, tizginsiz ko‘rinardi. Kuz kelgach esa tiramoh rassom bo‘yoqlarida oltin jimjima, xotirjam joziba, g‘ira-shira, rangpar olis manzillar bo‘lib tovlana boshladi.

Gimnaziya o‘quvchisi izlanardi. U faqat bir narsa to‘g‘risida juda ko‘p o‘ylar, bu xayollarini juda qiyinchilik bilan qalbida allalar, asrab-avaylardi. O‘tib ketgan har daqiqa – moziy, arvohek bo‘lib, kelajak lahzalar, borlig‘imiz, hayot esa yo‘qsizlikning ikki tubsiz jarligi o‘rtasidagi yupqagina parda, tush, shundoq «lip» etib ko‘zdan g‘oyib bo‘ladigan sarob bo‘lib tuyulardi unga. Chekilgan jafolar xuddi tushdek, hayot ham, muhabbat ham haminqadar. Uning ko‘zlari ich-ichiga botib borar, ko‘nglida ishonch hislari hukmron edi. Tez-tez moviy ko‘llar sohillaridagi ko‘hna ibodatxonalarga ketib qolar, xudo yo‘liga umrini sadr aylagan kamsuqum va aftodahol rohiblarning ko‘zlariga soatlab tikilib o‘tirardi. Harakatlarida bachkanalik ko‘p bo‘lsa-da, endi ulug‘vorlik yetilib kelmoqda edi.

Men dalalarda yashardim, o‘nlab chaqirim olisdagi ko‘hna qo‘rg‘onlarga, katta qishloqlarga ketib qolardim. Ko‘llar bilan qishloq yo‘llarini kezib, ularning qo‘shiqlarini chanqoqlik bilan tinglardim. Ustunli oq uylar, aslzodalarning tashlandiq qarorgohlarini tark etgan go‘zal hayot to‘g‘risida xayol surardim. Qishloq ibodatxonalaridagi uzundan-uzoq duoxonliklarni sabr-toqat bilan tinglardim.

Bozorlarda turtinib-surtinib, garmonika nolasi, baland pardadagi qo‘shiqqlarga quloq tutardim. Shu taxlit asriy-azaliy g‘am-anduh, Iso payg‘ambar mungi, kamsuqumlik bilan limmo-lim chuqur, rangbarang yangi hayot ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘ldi. Yangi xayollar, yangi qo‘shiqqlar vujudimda to‘lqin urdi.

Talaba bizga juda ko‘p narsalar to‘g‘risida gapirib berar, lekin ak-sariyat hollarda so‘z sevgi haqida bo‘lardi. Sevgi – yakka-yu yagona, tavsiflab bo‘lmas darajada toza va ehtimol, mingdan bir kishigina uning ilohiy mohiyatini his eta oladi. Talaba insonlar sevgini qanday qilib sharmanda-yu sharmisor etganlari va shu bilan uni nazdimizda qay taxlit ulug‘laganlari haqida fikr yuritardi.

Sevgi – bu ijod demakdir. Sevgi – bu zamin-u zamon mohiyati, mazmuni demakdir.

Kun sayin yangi savollar tug‘ilar, ularning javoblari vujudga keldi. Biz haddan tashqari samimiy edik, faqat suxandonlik uchungina gapirish juda erish tuyulardi.

Kunlar o‘tar, ularga qo‘shilib xayollarimizdagi ko‘plab g‘o‘rlik, norasoliklar ham yo‘qolib borardi. Bizda endi barkamollik ishtiyoqi, go‘zallikka intilish kuchayib, fikrlar mo‘lligidan azoblanardik.

Kulgi, quvonch, sershovqin xursandchilik kunlari bo‘lardi. Qorong‘i kunlarda o‘rmon yo‘llarida qaroqchilar qo‘shiqqlarini telbavor kuylardik yoki Andranning uychasida o‘tirib olib, uni ko‘zlaridan yosh chiqquncha kuldirardik, o‘zimiz ham jinnilardek xoxolardik.

Shunday kunlar ham bo‘lardiki, kechqurun kelishib olib, tarqalardik va notanish so‘qmoqlarda hech qanday maqsadsiz tonggacha yo‘l bosardik.

Bizning iltimosimiz qondirilgandi. Hech kim yo‘qlab kelmas, hat-to xat ham yozishmasdi.

Yoz tez o‘tib ketdi. Qayinzorlar rangpar, jilosiz oltinga burkandi, o‘rmon yangroq ohanglarga to‘lib, ko‘m-ko‘k suvlar qoramtir tus oldi. Kuchsizgina quyosh nurlari ostida shamol mezon darakchilarini uchirib o‘ynatar, dala-dasht oq, binafsharang gullarga to‘lib borardi.

Tunlari chiriyotgan barglarning achchiq hidi kelar, tiramoh yulduzlari telbavor bir shu‘la bilan yonib tushardilar.

Biz aka-ukalardek xo‘shlashdik. Xayrlashuv onlari g‘amga to‘la edi.

Uyga kelganimizda butunlay boshqa kishilarga aylangandik, hayotni to'g'ri qabul qilishga, kundalik ikir-chikirlardan baland turishga qodir edik. Qalblarimizga qaytadan j'on ato etilgan, uydagilar bizni tayin olmay hayron edilar.

Endi xafaqon, toshga burkangan shaharda, horg'inlik daqiqalarida o'rmon qorovulxonasidagi o'sha ikki oyni xuddi tushimdagidek eslayman. Shu ikki oy butun umrga tatisa, ajabmas.

Fenyaning baxti

Poyezd Moskvadan kechasi jo'nab ketdi. Vagonda odam juda ko'p edi. Biz nafas rostdash uchun qorong'i dahlizchaga chiqdik. Kemtik Oy poyezddan ortda qolmay, qayinzorlar uzra uchib borardi. Eshikdan achchiq izg'irin – daryo suvi va shalabbo barglar hidi ufurardi.

Bekatlarda Oy ham poyezdga qo'shib to'xtar, shunda u yanada yorqinroq nur sochib imlar, bu vujudga kelgan sukunat sharofati edi go'yo. Faqat parovoz og'ir harsillar, vagonlardan bolalar yig'isi eshilib turardi. Tungi poyezdlarda bolalar doimo yig'lashadi.

Dahlizchaga ro'mol o'ragan, qopchiqli ayol chiqdi. Uning ortidan ayol kishining zardali tovushi eshitildi.

– Bu yerda shundoq ham qimirlayolmaysan-u, buning qopchig'ini salanglatganiga o'laymi! Oyimtillani qaranglar-u!

– Qo'ying, shu suxandonligingizni, menga ko'rsatmang! – dedi ro'mol o'ragan ayol va ortidan eshikni yopdi.

Biz bu yerlarga endi kelishimiz edi. Poyezd bekatga tun allamahal bo'lganda kelishi kerak, hech qaysimiz yo'lni bilmasdik.

– Bobilinoga qanday borsa bo'ladi, bilmaysizmi? – so'radim ayoldan.

– Adashib qolasiz, – javob berdi ayol. – Yo'l – o'rmon yo'li, ko'zni aldashi hech gapmas. Men Suglinkagacha boraman, sizga yo'lni ko'rsataman. O'zim ham kechasi yolg'iz yurishga qo'rqaman. Suglinkadan Bobilinogacha esa bor-yo'g'i uch chaqirim.

Bekatda zog' ham yo'q, tun qo'ynida yolg'iz chiroq nur sochib turardi. Temir izdan o'tish joyidagi qorong'i uy dahlizida xo'roz qanot qoqdi-yu, qichqirib yubordi.

O'rmon yo'lidan keta boshladik. Oy daraxtlar ortiga yashirindi. Yaqinda yoqqan yomg'ir suviga to'lgan izlar soyada yarqirardi.

Keyin o'rmon bir chekkaga surildi va biz Dubna daryosi adog'iga chiqdik.

Bu go'sha chakalak va o'rmonzorlari, qirg'oqlardagi ulkan oq-soch tollar, muyulishlar uzra yoyilgan tuman, tik jarliklari-yu, yulduzlar jimiri bilan o'zimiz ko'rishni orzu qilgan sirli mamlakat bo'lib tuyulardi. Allaqanday uzoq mamlakat sari intilayotgan sayyohlar edik go'yo. Biz intilgan manzilda majnunvor o'simliklar beaded, beadoq gullashadi va Quyosh kun bo'yi ko'm-ko'k osmon uzra nur sochadi, shamol o'rgimchak uyalarini uchirib yuradi...

– Mana, – dedi hamrohim, – odamlar yoz mumkin qadar uzoq davom etishini orzu qilishadi. Men bo'lsam, xuddi mana shunaqangi iliq tumanli kuz cho'zilishini orzu qilaman.

Ayol kuldi.

– Gapning indallosini aytyapsiz, – dedi u. – Nafaqat siz, shaharliklar, balki biz, qishloq ahlida ham shunday istak bo'ladi. Ba'zan shunday kun tug'iladiki, quvonching ichingga sig'maydi. Hosili yig'ib olingan yerdagi har bir boshhoq xuddi quyma oltindek. Quyosh nuridan taft olgan boshhoqni qo'lga olasiz. Kechikib qolgan qo'ng'izcha unga o'rnashib olib, isinib, mo'ylovlarini qimirlatib o'tiribdi. Uy issiq, bog'ning oltinrang nuridan charog'on. Deraza yoniga o'tirib olib, bog'dagi bodrezakka boqqanimcha hech qayoqqa jilmay xayol surardim... Kuzda suv tegirmonimiz ish boshlaydi, un tortadi. Men o'sha yerda ishlayman, tegirmonchiga ko'maklashaman. To'g'ri, tegirmon juda eski, lekin unda faqat shaytonning o'zi g'allani yanchishi mumkin, deyishlari noto'g'ri.

– Deraza yonida nimalarni o'ylagan bo'lardingiz, – so'radi hamrohim.

Ayol uzoq vaqt jim qoldi, so'ng qo'ng'iroqdek tovush bilan javob berdi.

– Odamlar baxt-saodati haqida xayol surardim. Bu – bizning vazifamiz.

– Kimning vazifasi?

– Ayollarning.

– Nahotki, faqat ayollarning vazifasi bo'lsa?

– Gapingiz to'g'ri, bu hammaning vazifasi, – rozi bo'ldi ayol. Faqat ayol bunga ko'proq moslashgan.

– O‘zingizning kishilarni baxtiyor qila olgan paytlaringiz bo‘lganmi? – so‘radi hamrohim.

Ayol yana kuldi:

– Oh, juda qiyin bu! O‘zim ham bilmayman. Ehtimol, shunday bo‘lgandir ham. Buning uchun ilmim yetishmaydi. Men, axir, o‘qimaganman. Gardnerning chinni fabrikasida ishlardim, endi bo‘lsa, tegirmonda un tortaman. – Mana, eshityapsizmi? – qo‘shib qo‘ydi u suhbat mavzusini o‘zgartirish uchun. – Tegirmon yonida, to‘g‘ondan suvning ovozi kelyapti.

Biz to‘xtab, quloq tutdik. Tong yaqinligidan oq tollarning qora devori ortida osmon yashil tus ola boshlagan, o‘sha tomondan suvning bir maromdagi shovillashi eshitalardi. Bu shovqin – tun sukunati aro yagona tovush – tabiatning to‘xtovsiz harakatini ta‘kidlab turardi. Har birimiz, shamolda yiqilgan daraxtlar, chirigan barglar ostidan oqadigan o‘rmon irmoqchalari, Dubna kamarlaridagi yulduzlar jimiri, suv yuzida suzib, tubida baliqlar uxlab yotgan chuqurlar uzra girdob solgan oq ko‘pik haqida o‘ylab ketdik. Shu bois men ham, sherigim ham odamlarga baxt ato etish uchun nega ko‘p bilim kerakligini ayoldan so‘rashni faromush etdik. Biz bu aqidaga tushunolmasdik.

Tuman qoplagan tong tug‘ilardi. Balandlikda bulut yarqiradi. Ana shu bulut va ufq oralig‘idagi bo‘shliqni oqish, keng-mo‘l nur to‘ldirdi. Bu nur hali uxlayotgan, g‘ira-shira mamlakat osmonidagi sunbula havosini qamrab olib, ilita boshladi. Lekin yarim soatdan so‘ng zamin dalalarning za‘faron, kuzgi ekinlarning ho‘l yashil, tog‘terak barglarining qirmizi, qayinlarning shamolsiz titrab turgan oltinrang liboslariga burkana boshladi.

– Mana, Suglinkaga ham yetib keldik! – dedi ayol.

Yo‘l asriy qorateraklar oralab, daryo tomonga tushib borardi.

– Uyga kiringlar, yo‘lda davom etishdan oldin sut ichib olinglar, – iltimos qildi ayol. – Mening o‘z uyim yo‘q. Dugonam Varvaranikida turaman. Biz u bilan butun umr birgamiz.

Biz ko‘chalariga g‘o‘la yotqizilgan toza-ozoda Suglinka qishlog‘iga kirib bordik. Derazalar ortida qizil gullar ochilib yotar, olisda, xirmon tomondan, traktor ovozi eshitalar, qora daryo qishloq yonidan yoydek bukilib o‘tardi.

Uy ostonasida dumi kesilgan oq it vovilladi. «Tuzik!» – ichkari-dan erkak kishining ovozi eshitildi va it zinapoya ostiga kirib ketdi. Bu yerga ezig'ilangan somon to'shab qo'yilgandi.

Uyda, to'sin ortida kimdir kuymanar, u, aftidan, kiyimlarini kiyimoqda edi. Shiftdan tushib turgan uzun ipga qog'oz shar osilgan, ko'zlari ko'm-ko'k, sariq mushukcha uni xuddi futbol to'pidek o'ynardi. Pechka oldida samovar biqillardi.

– Senmisan, Fenya? – to'sin ortidan yoshgina erkak tovushi eshitildi. – Onam daryoga kiyimlarni chaygani ketdi. Seni kutave-rib charchadik. Moskva seni butunlay domiga tortib ketdimi, deb o'yladik.

– Bu – Misha, Varvaraning o'g'li, – shivirladi Fenya. – Artilleriya kapitani. Sovet Ittifoqi Qahramoni. Og'ir yarador bo'lgan edi, hozir tuzalyapti.

Fenya jilmaydi. Uning ko'zlari kulrang tusda, lekin jilmayganida qora tus olib, ko'kimtir yaltiray boshlardilar.

Fenya ro'molini yechib, malla sochlarini tartibga keltirdi, so'ngra sut olib kelish uchun yerto'лага ketdi. To'sin ortidan harbiy kamzul kiygan, qora ko'zoynakli barvasta kishi chiqib keldi. U oqko'ngillik bilan jilmayib, o'zini «Kapitan Ryabinin» deya tanishtirdi. Kamzulida «Oltin yulduz» va og'ir yaralanganlikni bildiradigan ikkita belgi yaltirab turardi. Bu oltin jilo shu toza, mo'jazgina xonada juda o'rniga tushgan, u sokin kuz tongi, osmon tiniqligi va atrofdagi sukunat bilan uyg'unlashib ketgandi.

Biz sut ichib bo'lib, xayrlasha boshlaganimizda, kapitan Bobilino muyulishigacha kuzatib qo'yish istagini bildirdi.

– Faqat aybga buyurmaysizlar, – dedi u, – men tez yurolmayman. Oyoq emas, ko'zlarim yo'l qo'ymaydi. O'zi, sirasini aytganda, endi-gina yorug' jahonni ko'ra boshladim. Ko'zim yarasi juda murakkab edi, jarrohlik amaliyoti ham haminqadar bo'ldi. Yarim yil xuddi yer-to'ladagiday qorong'ilikda yotdim. Endi bo'lsa hamma narsani ko'ra olaman, faqat, hozircha sal xiraroq, albatta. Yuringlar, ktdik!

Yo'lda kapitan ko'zlari ko'rmay qolishi tarixini so'zlab berdi.

– Mana, siz – ijodkorlarsiz, – dedi kapitan, – lekin men aytib be-radigan voqeani tasvirlashning sira iloji yo'q. Bu – qo'lingizdan kel-maydi, deganim emas, aksincha. Men tuzukroq tushuntirib berolma-

sam kerak. Buning uchun, fikrimcha, alohida iqtidor kerak bo'ladi. Menda esa bunaqa qobiliyat yo'q.

– Nima, bu allaqanday murakkab jarrohlik amaliyoti haqidami? – so'radi hamrohim.

– Yo'q. Amaliyot o'z yo'liga. Qaytanga, uni tushuntirish nisbatan oson. Hozir hamma gap Fenya haqida. Fenyamiz juda ajoyib ayol. Lekin u albatta, o'z o'rnida emas, o'z ishi bilan shug'ullanayotgani yo'q.

– Bo'lmasa, u nima ish bilan shug'ullanishi kerak? – so'radim men.

– Bilmayman, – ikkilandi kapitan. – Uning tabiiy iqtidori nima-da ekanini aniq aytolmayman. Qandaydir, sizlarning yozuvchiligingiz singari ish bilan shug'ullanishi kerak. Nima bo'lganda ham, uning qobiliyati yozuvchilik bilan juda yaqin, shundoq yonginasida turadi.

– Qiziq! – dedi hamrohim.

– Bo'lmasam-chi! – dedi kapitan. – Hamma gap shundaki, Moskva yaqinida gospitalda yotganimda, Fenya xola meni ko'rgani bordi, albatta. U hamma uchun kuyib-yonadigan ayol. Lekin chehrasidan juda qattiqqo'l, rahmdilligini ko'z-ko'z qilmaydi. So'qqabosh ayol o'zi uchun emas, o'zgalar deya umr-basar qiladi. O'shanda, o'zingiz tushunasiz, juda og'ir ahvolda edim. Butun olam men uchun qorong'i, xuddi aksiga olgandek, ko'rgan-kechirgan xotirotlarim qiy-noqqa solardi. «Nahotki, o'ylardim men, – endi hech qachon quyoshni, suvni, osmondagi bulutlarni, o'zim yaxshi ko'rgan insonlar yuzini ko'rolmasam!» Shunday paytlar bo'lardi, deraza ortida kakku sayraydi, men bo'lsam mushtlarimni qisib olib, so'kina boshlayman, – kakuga havasim kelardi. U butoqda o'tirib olib, yerdagi qum zarrasigacha ko'ra oladi, men bo'lsam xuddi ko'rsichqondek, zamin xuddi zindondek. Shu vaziyatda Fenya kelib qoldi. O'shanda juda besaranjom, injiq edim va uni hol-joniga qo'ymasdim: «Fenya, atrofda nimalar bo'layotganini menga aytib ber. Juda zerikib ketyapman». U bo'lsa, doktorlar urishib berishidan va hikoyalarini tinglagach, ahvolim og'irlashib qolishidan cho'chirdi. Lekin baribir, uni ko'ndirdim. Va u hikoya qila boshladi. Derazadan qaraydi, nimani ko'rsa, hammasini aytib beraveradi: «Mana, deraza ortida ko'l bor, quyosh nuri tufayli ko'l yuzini issiq tuman qopladi. Ana shu tuman aro mis va oynalarini yaltiratib, oq shatak kemasi qayin tarashalari ortilgan barjalarni

tortib ketyapti. Tarashalar ustida paxmoq kuchukcha yugurib yuradi va chag'alaylarga vovillab qo'yadi. Barja o'rtasida uycha bor. Uycha derazalarida yorongul o'sgan tuvaklar turibdi. Yorongullar qiyg'os ochilgan. Qizil ko'ylakli, oyoqlari yalang qiz tryumdan suv chiqarmoqda. Suv bort ortiga to'kilyapti. Mayda baliqchalar to'kilayotgan suv oldida o'ynab, tryumda xotirjam yashab, irigan qayin po'stloqlari bilan qorin to'yg'azgan chuvalchaglarni ovlashadi. Qiz kuylaydi: «Kim biladi – nimaga shama qiladi, nimaga shama qiladi, nimaga shama qiladi». Uycha barjada buyuk Rus bo'ylab Moskvagacha suzib ketdi. «Yana nimani ko'ryapsan?» – so'rayman Fenyadan. «Ko'ldan sening xonang shiftiga qarab nurli quyonchalar chopqillab borishyapti. Bir-birlarini har qancha quvishmasin, baribir yetisholmaydi. Shift qarag'ay yog'ochidan, yaxshilab randalangan va hali u yeridan, hali bu yeridan qatron oqadi. Bolaligingda bu qatrandan chaynagan bo'lishing kerak?» «Yo'q, – deyman, – men gilos qatronini chaynaganman». «Gilosniki shirinroq, – deydi Fenya. – Senga ertaga gilosnikidan olib kelaman».

Ana shunday qilib, u uzzukun ko'rganlarini hikoya qilib berardi. Men uning hamma gaplariga ishonar, xotirjam, hatto baxtiyor bo'lardim. Faqat yonimizda bu hikoyalarni yozib oladigan biror kishi bo'lmaganiga achinaman. Ulardan kitob qilsa bo'lardi. Faqat bu kitobni qanday atash kerakligini bilmayman, xolos.

– «Fenyaning ertaklari», – dedi hamrohim.

– Yo'q, bular ertak emas, – ishonch bilan e'tiroz bildirdi kapitan. – Zo'rroq, haqqoniyroq nom topish kerak.

– Xo'p, bo'lmasa «Fenyaning baxti» deya qolaylik.

– Buyam to'g'ri emas. Fenyaning emas, mening baxtim, – yana e'tiroz bildirdi kapitan. – Nafsilambriga, Fenyaning baxti desa ham bo'ladi – u menga ozgina bo'lsa-da, taskin bera olganidan baxtiyor edi.

Fenyaning: «Men o'qigan emasman, shu bois odamlarga baxt ato etishim qiyin», – degan so'zlarini esladim, bu haqda kapitanga aytdim va so'radim:

– Fenyaning bu so'zlarini qanday tushunasiz?

– Bu o'rinda, menimcha, tushunarsiz narsaning o'zi yo'q. – Hammasi ravshan.

– Biz esa hech nimani tushunmayapmiz.

– Bilasizmi, – dedi kapitan, – har kim baxtni o‘zicha tushunadi. Har kimning o‘z baxti bor. Lekin shunday narsalar borki, ular ham-mada baravariga yuksalish va baxt tuyg‘ularini qo‘zg‘atadi.

– Nima ekan u?

– Hech bo‘lmaganda, musiqa. Yoinki ajoyib imorat. Yoki surat. Men Tretyakov galereyasidagi Nesterov suratlari oldida soatlab tura olaman. Fenya mana shu baxt haqida gapirgan. Odamlarga bunday baxt ulashish uchun faqat iqtidorning o‘zigina kamlik qiladi. Katta bilim ham talab etiladi.

– Menimcha esa, – dedi hamrohim, – ba‘zan iqtidorning o‘zi ham yetib ortadi. Fenya sizning timsolingizda buni isbotlagan ham.

– Ha, ehtimol shundaydir, – dedi kapitan ishonchsizlik bilan va birdan jilmaydi. – Ha shunday. Gapingiz to‘g‘ri, – takrorladi u endi ishonch bilan. – Faqat Fenyaning hikoyalari Suglinkadan nariga o‘tmasligiga, ularni hech kim bilmasligiga achinaman, xolos.

Kapitan yurishdan to‘xtadi, pastlikda, majnuntollar orasidagi kul-rang tomni ko‘rsatdi.

– Ko‘ryapsizmi, – dedi u, – tom, uning oldida, aftidan, marjon da-raxti qizarib turibdi. Bobilino tegirmoni mana shu bo‘ladi. Men ham kechga tomon, ehtimol o‘sha yerga boraman. Sohilda sizlar bilan chaqchaqlashib o‘tiraman. Ajoyib joylar!

Biz kapitan bilan xayrlashdik-da, qorag‘at butalarini oralab, so-hilga tusha boshladik. Pastda, tegirmon yonida suv nurlanar, shovqin solar, qishloq tomondan poxol tutuni – Rus kuzining siyrak tutuni o‘rlardi.

Eski qayiq

Poyezd to‘xtadi. Deraza pardasiga o‘ralashib qolgan arining g‘ing‘illashi eshitila boshladi.

– Qaysi bekat? – so‘radi kupedan uyquli ovoz.

– Yo‘lda to‘xtab turibmiz, – javob berdi vagon nazoratchisi. U qo‘lini arta-arta o‘tib ketmoqda edi.

Natasha derazadan boshini chiqardi. Temir yo‘l ko‘tarmasidan to ufqqa qadar o‘rmonzor yastanib yotardi. O‘rmon uzra karaxt bir bu-

lut osmonning yarmini to'sib turar, oqqushlar to'dasi qoqio't parchalariday bo'lib, uning oldida o'zlarini u yoq-bu yoqqa urishardi.

Zaminning bir chekkasida momaqaldiroq guldirdi va beso'naqay harakat bilan o'rmon ustidan o'tib ketdi. Guldirdak shunchalar uzoq cho'zildiki, butun yer yuzini aylanib kelayotgandek tuyulardi. U o'rmonning qalin joyida o'ralashib qolganida jim bo'lar, lekin yo'l va maydonchalarga chiqib olgach, avvalgidan battarroq gumburlardi.

– Qanday zo'r momaqaldiroq! – dedi kimdir Natashaning ortida.

U o'girildi: bo'lma eshigida hamrohi – yosh rejissyor turardi.

– Qanday zo'r momaqaldiroq! Juda zo'r gumburladi! – takrorladi u qovog'i soliq osmonga xuddi teatr manzarasiga tikilganday nazar tashlab. – Bular qanaqa qush ekanini bilmaysizmi?

– Bilmayman, – javob berdi Natasha.

– Bular yovvoyi kaptarlar, – dedi ko'zoynakli keksa o'rmonchi va Natashaga jilmayib qo'ydi. – Nega bilmaysiz? Yana bu kishi o'ninchida o'qirmishlar!

– Men shaharlikman, – dedi Natasha uyalinqirab.

Poyezd titrab ketdi, orqaga yura boshladi. Bir pasda qorong'i tushib qoldi.

Shamol pardalarni tortqilab, stolchadagi gul to'la stakanni to'ntarib yubordi. Sariq rangli suv ovoz chiqarib polga to'kildi.

Derazalar bo'ylab yashin chaqnadi va shu zahotiyuq o'rmonda nimadir qarsilladi, katta qarag'ay daraxti singandi go'yo.

– Nima bo'ldi o'zi? – yig'loqi tovush bilan so'radi nofarmon pijama kiygan, kichkinagina ayol. Uning yasama go'zalligi momaqaldiroqning birinchi gumburidan keyinoq g'oyib bo'lgandi.

Yo'lovchilar shosha-pisha deraza oynalarini berkitishar, bulutga nigoh tashlashardi. Yashin bulut ko'ksida qo'rqinchli g'orlar, girdoblar, loyqa yomg'ir oqimlari hosil qilardi. Qora qurum va kulning katta-katta orollari yerga tushib turardi. Qo'rqinchli qorong'ulik aro har gal yashin chaqnaganda birgina quruq oq qayin qayta-qayta yarqirab ko'zga tashlanardi.

Atrofida minglab daraxtlar shamolda shovqin solib turganda bu o'tkinchi nur nega endi faqatgina shu qayinni qorong'ilik qa'ridan yulib olishini tushunib bo'lmasdi.

– Nazoratchi, nima voqea yuz berdi o‘zi, axir? – qichqirdi nofarmon pijamali ayol. – Nega orqaga ketyapmiz?

– Oldinda yo‘lni yomg‘ir yuvib ketgan, – qovog‘ini solib javob berdi nazoratchi. – Ko‘ryapsiz-ku momaqaldiroqni! Sinezyorkiga ketyapmiz. Yo‘lni tuzatgunlaricha o‘sha yerda turamiz.

– Bemazagarchilik! – dedi kichkina ayol, u qo‘rqqanidan ko‘zini yumdi va bo‘lma eshigini yopdi.

Jonsiz o‘rmon xira nurdan seskanib ketdi va tirik ekani ma‘lum bo‘ldi: shoxlar qora yirtiq yenglarga o‘xshab shamolda titrashar, bulutlar pastak chodirining oralig‘iga qarab yo‘nalgandi. Daraxtlar balandlayotgan tiniq osmon etagiga osilib olib, uni yordamga chaqirishardi go‘yo.

Sharros yomg‘ir vagon tomini do‘mbira qilib chala boshladi.

– «Yashinning yugurigi juda tez va u og‘ir zarba bilan mahv etar», – dedi o‘rmonchi kutilmaganda.

– Kimning she‘ri bu? – so‘radi Natasha.

– Lukretsiyniki, – javob berdi o‘rmonchi va qizarib ketdi.

Bularning hammasidan ko‘rinib turardiki, o‘rmonchi ham baxtiyor, ham xijolatda edi. Baxtiyorligi – bolaligida xayrlashgandan beri qaytib ko‘rmagan Qrimga dam olgani ketyotganidan... Xotirasida tikan bosgan burunlarning poyidagi suvning shaloplashi saqlanib qolgandi.

Hamrohlaridan xijolatda edi. Ularning o‘zi bilan atayin nazokatli muomalasi, kurort hayoti haqidagi suhbatlaridan xijolat chekardi. Ular hech qachon unga murojaat etmay, bir-birlari bilan kurort hayoti haqida valaqlashishardi. U hamrohlarining mehmonxonalar, eshik og‘alari va «linkoln»lar haqidagi bepisand gaplarini eshitar, bular butunlay boshqa hayot odamlari ekanini, ularning yangi kulrang kostum kiygan o‘rmonchi bilan hech qanaqa ish-pishi yo‘qligini his etardi. Bu hamrohlar, juda sinchkov odamlar edi va aftidan, o‘rmonchining egnidagi kostum yagona ekanini, uni kostromalik o‘rtamiyona bir tikuvchi tikkanini bilishardi. O‘rmonchi kostumini juda avaylar va rejissyorga havasi kelardi. Rejissyor oqish qo‘llarini juda nafis shimi cho‘ntaklariga tiqib, divanda yastanib yotgani cha «Elit» papirosi chekar, oldi ochiq kostumi g‘ijimlanayotgani, emin-erkin bog‘langan ko‘zni qamashtiruvchi bo‘yinbog‘iga kul to‘kilayotgani bilan ishi yo‘q edi.

O'rmonchini xijolat etmaydigan yagona hamroh – bu oriqqina, iboli qiz Natasha edi. Derazalardan esib turgan shamol uning sochlarini muttasil to'zg'atib turardi.

«O'rmonshunos, – dedi o'z-o'ziga o'rmonchi, – jin urgur, qishloqi».

– Qanday ajoyib nom – «Sinezyorki» – g'o'ldiradi rejissyor. – Sinezyorki! Sinezyorki! Ko'k ko'llar! Buni eslab qolish kerak.

– Bu yerlarda, bu o'rmonlarda ko'llar juda ko'p, – dedi o'rmonchi.

– Siz bu yerlarni bilasizmi?

– Ha, shu, oz-moz... O'n besh yilcha burun bu yerda ishlaganman: o'rmon barpo etganman.

– Ha-a, bu juda qiziq, – dedi cho'zib rejissyor, lekin o'rmonchi uning yuzidan angladiki, unga buning hech qizig'i yo'q. – Bizning haddan tashqari omadimiz yurishmayapti. Shu yerda bugun emas, ertaga momaqaldiroq bo'lsa nima qilardi?!

– Ha, haqiqatan ham, kishiga alam qiladi, – dedi o'rmonchi.

U anchadan beri Sinezyorkiga, o'zi ishlagan yerlarga bormoqchi bo'lib yurganini, lekin hech qo'li tegmayotganini o'ylardi. Mana, hozir ham, yo'lni tuzatgunlaricha poyezd Sinezyorkida bir-ikki soat turadi va u bo'm-bo'sh bekatta sanqib yurgan tovuqlardan bo'lak hech nimani ko'rolmaydi.

– Eh, attang! – xo'rsindi o'rmonchi.

Natasha ham hayajonda edi. U hali hech qachon Qrimda bo'lmagan, bu o'lka unga ko'm-ko'k, tumanli, chinnigul hidiga burkangan yer bo'lib tuyular, tezroq dengizni ko'rgisi kelardi. Aytishlaricha, dengiz kutilmaganda ko'zga tashlanadi va u cho'ng bulutga o'xshaydi.

Sinezyorkida hech kim yo'q edi. Navbatchi derazasida kerosin chiroq yonar, kech tushdimi, yoki yomg'ir tufayli qorong'i bo'lib qoldimi, bilib bo'lmasdi.

Yomg'ir tindi. O'rmon tomondan ho'l payraxa hidi kelardi.

Chol Vasiliy aravadagi ho'l bedani qoqishtirar, poyezd tomonga qarab-qarab qo'yardi: «Buncha bordi-keldi, bordi-keldi qilib, bu odamlar nima qilishar ekan-a?!»

Uning oti boshini qulog'igacha suli to'rvasiga tiqib, shosha-pisha kavshanar, cholning g'o'ldirashiga quloq tutib, uning odatdagi po'pisasini kutardi: «Qani, tek bo'l, iblis! Tekin oziqadan qorning to'yib qopti chog'!» Bu po'pisadan so'ng og'ir xo'rsinib, boshini eggancha qumloq yo'ldan aravani yana ko'l tomon tortib ketishdan o'zga iloj qolmasdi. Lekin Vasiliy bobo kutilmaganda jilovni tashladi-da, poyezd tomonga shoshildi. U yumshoq vagonning yorug' derazasi yoniga keldi-yu, qamchi dastasi bilan oynani taqillatdi.

– Petr Matveyev! – qichqirdi u past bo'g'iq tovush bilan. – Hoy, Petr Matveyev!

Deraza ortidagi yo'lakda o'rmonchi tik turganicha Natasha bilan suhbatlashardi. O'rmonchi cholga tikilib turdi-da, derazani ochdi.

– Tanimayapsanmi? – so'radi chol va mayin tovush bilan kuldi. – Men uzoqdan, aravadan turib seni tanidim. Xudoning marhamati bilan, uchrashganimizni aytmay-sanmi?!

– Vasiliy! – qichqirdi o'rmonchi, u tezda maydonchaga chiqdi, qum ustiga sakrab tushdi va cholni quchoqlab oldi. – Tirikmisani?

– Tirikman, – dedi chol yengi bilan yuzini artib. – Tirik yurishga harakat qilyapman. O'lim atrofimda aylanib yuribdi, qorovulxonamga kirishga esa fahmi yetmayapti. Sen bizlarni unutding, Petr Matveyev, to'g'risi, unutding! Bizning hayotimiz esa, ochig'ini aytaman, sensiz kemtik bo'lib qoldi.

– Nega bunday deysan? Nima bo'ldi sizlarga?

– Xuddi bilmaganday gapirasana? – ishonqiramay so'radi chol. – Umringda gazeta o'qimagansan go'yo, Petr Matveyev?

– Nima gap o'zi? Sen gapiraver, alanglama.

– Alanglaganimda ham qaraydigan odamning o'zi bo'lmasa-chi? Bizning tuman gazetamizda necha marta bosib chiqarishdi, – dedi chol xo'rsinib. Bosishdi, bosib chiqaraverishdi, tekshirib ko'radigan bo'lsangiz, hammasi bekordan bekorga ekan. O'zi, aftidan, qalam bilan ishni o'rmidan jildirib, o'rmonni muhofaza etib bo'lmas ekan.

– Nima haqida gapiryapsan o'zi? – so'radi o'rmonchi. – Aylantirma, to'g'risini ayt!

Chol telpagini yechib, neftdan qorayib turgan qumga tashladi.

– Eh, Petr Matveyev, Petr Matveyev! Sening o'sha yoshgina o'rmoning adoyi tamom bo'ldi.

– Yonib ketdimi? – so‘radi qo‘rqib ketgan o‘rmonchi.

– Nega yonadi? Xudoning o‘zi asrasin, bizda yong‘in bo‘lgani yo‘q. Shu yil bahordan boshlab kapalak qurt yeyapti, xuddi topshiriq olganday, yamlab yutyapti, la‘nati! Hozirgacha yarmini yeb bo‘ldiyov. Yangi o‘rmonchi bo‘lsa hech uddasidan chiqolmayapti. Hali unga yo‘l berishmaydi, hali qarabsiz, dorivor berishmaydi, o‘zi bo‘lsa to‘rt tomonga qog‘oz yozishdan nariga o‘tmaydi. Qachon yoniga kirsang, bir gapni takrorlayveradi: «Viloyatdan javob kelgani yo‘q». Ana shu tariqa o‘tiribmiz, ketimizni yag‘ir qilib. «Javob kelgani yo‘q, javob kelmayapti». Lekin o‘rmonchi! – dedi chol behad baland ovoz bilan xo‘rsinib. – O‘ziyam, Petr Matveyev, o‘rmonmisan o‘rmon ekanmiz-da! Qarag‘aylar xuddi sohibjamol opa-singillarday yonmayon turishadi! Xudo shohid, ishonasanmi, shu o‘rmonga kirishim bilan telpagimni boshimdan olaman-da, xuddi karaxtday turib qolaman, shunchalar go‘zal u!

Chol telpagini yerdan oldi, ko‘zdan kechirdi va parishon oq sochlariga qo‘ndirdi.

– Na iloj, Vasiliy? – dedi o‘rmonchi orqasiga o‘girilib, vagon zinasida turgan Natasha peshonasini tirishtirganicha cholning arzododiga quloq solardi.

– Ota bolalarini tashlab, yordam bermay qo‘ysa, uni vijdon qiynaydi, boz ustiga xalq sudi jazolaydi. Daraxt-chi? Daraxt tilzabonsiz, u kimga arz qiladi? Yolg‘iz, men tentakka, o‘rmon nazoratchisiga!

– Nima qilish kerak, bo‘lmasa? – so‘radi o‘rmonchi parishon alpozda.

– Changlatish kerak, – g‘o‘ldiradi chol o‘rmonchiga quloq solmay. Shu yil bahorda gulchanglar yetildi, shamol esib, ularni ko‘l uzra oltin tutundek haydab ketdi. Umrimda bunaqa gulchangni ko‘rmaganman.

Chol jim qoldi.

– Petr Matveyev, – dedi u yalinchoq tovushda va o‘rmonchining yengidan ushladi. – Cholning gapini inobatga ol: ko‘lga boraylik, bir nazar tashlaylik. Sen menga faqat, shu o‘rmonni nima bilan qutqazib qolish mumkinligini aytgin-u, yo‘lingdan qolma, xudo yor bo‘lsin, o‘zim bir amallayman.

– G‘alati odamsan! – dedi o‘rmonchi. – Axir, ikki-uch soatdan ke-
yin poyezd jo‘nab ketadi-ku. Sen nimalar deyapsan, o‘zi!

– Ke-etmaydi! – dedi chol ishõnch bilan. – Ketadigan joyning
o‘zi yo‘q. Yo‘lning ikki chaqirimini yomg‘ir yuvib ketgan. Erta tush
paytigacha jo‘nab ketsa ham, yaxshi gap.

O‘rmonchi yana Natashaga qaradi. U hamon peshonasini tirishtir-
ganча cholga tikilib turardi.

– Yur, navbatchining oldiga boramiz, – dedi chol qat‘iy. – Agar
uning zarracha vijdoni bo‘lsa, so‘zlarimni tasdiqlaydi.

– Obbo, toza balo bo‘lding-ku, a! – achchiqlandi o‘rmonchi. –
Gaplaring bilan rosa boshimni qotirding.

– Boring, Petr Matveyevich, – dedi kutilmaganda Natasha. – Ul-
gurasiz.

– Sizningcha, ulguramanmi? – so‘radi o‘rmonchi va ko‘nglida
nogahoniy bir yangilanish tuydi. – Ulguraman, deb o‘ylaysizmi?

– Men ham sizlar bilan borsam, maylimi? – so‘radi Natasha.

– E, go‘zal oyimqiz, qimmatli o‘rtoq, – dedi chol va Natashaga
chuqur ta‘zim bajo keltirdi. – Shu to‘g‘ri so‘zing uchun seni olib bor-
maslikning sira iloji yo‘q. Ketdik. Biz o‘rmonda u yoq-bu yoqqa san-
diroqlagunimizcha, sen ko‘l sohilida hordiq chiqar. Ko‘limizning suvi
naq nuqraday, bunaqasi butun dunyoda yo‘q.

– Xo‘p, qani yur, navbatchining oldiga boraylik! – dedi o‘r-
monchi. – Sen, chol meni butunlay ovora-yu sarson qilding.

Navbatchi haqiqatan ham yo‘l ertaga peshinda tuzatilishini aytdi.

O‘rmonchi, chol va Natasha ko‘lga jo‘nab ketishdi. Ularning
jo‘nab ketishi yo‘lovchilarni hayron qoldirdi va odatda bunday paytda
aytiladigan «Qo‘ysangiz-chi?», «Bilasizmi, buni sira kutmagandim!»
xitoblariga sabab bo‘ldi.

O‘t bosgan qorong‘i yo‘llarda g‘ildiraklar g‘ichirlardi. O‘rmon su-
kumat qo‘ynida edi va bu sokinlik Natashaga oxiri yo‘qdek tuyular-
di. Faqat o‘rmonlar oralig‘idagi shilta ho‘l yalangliklarda allaqanday
qushlar onda-sonda uyqusirab qichqirib turishardi.

Yarim tunga borib bulutlar g‘oyib bo‘ldi, qarag‘aylar uchlari so-
vuq jimirlay boshladi. Lekin Natasha yulduzlarni ajratolmay qoldi,
yulduz turkumlari daraxtlarning shox-shabbalariga ilashib, tanish

shakllarini yo‘qotgandilar. Chirindi va ho‘l barglar hidi, inson qadami yetmagan chakalakzorlardagi o‘tkir havo, osmonning tinimsiz jimir-jimiri aro ummonga monand ulkan o‘rmon o‘lkasi tun qorong‘isida yastanib yotardi. Natasha, chol, o‘rmonchi sekin gaplashdilar.

– Biz tomonlar juda bokira yerlar, – g‘o‘ldirardi chol xo‘rsingancha. – Bu o‘rmonlar dunyoning narigi chekkasigacha cho‘zilib ketgan. Jahonda ulardan yaxshisi yo‘q.

– Uxla-uxla! – qichqirdi uyqudan uyg‘ongan qush. – Uxla-uxla!

– «Men shundoq ham uxlayapman», – o‘yladi Natasha. U nogahoniy baxt hissidan kulib yubordi. Sevinchdan u hatto junjikib ketdi va bu tun adoqsiz bo‘lsin, arava ildizlarga tegib to‘xtovsiz taraqlayversin, o‘rmon tobora qalinlashaversin, qaroqchilar maskaniga o‘xshab ketaversin, degan istak tug‘ildi ko‘nglida.

– Mana, yetib keldik chog‘i, – dedi chol.

Aтроf yorishib ketdi. Natasha u yoq-bu yoqqa qaradi-yu, hech nimaga tushunmadi: yulduzli osmon shundoqqina yo‘l yoqasida yotar, sekin shaloplab ko‘zga ko‘rinmas qirg‘oqqa urilardi.

– Ko‘l, – dedi o‘rmonchi. – Ichida yulduzlar shunchalar ko‘pki, xuddi kuzgi pishiqchilik deysiz!

It bo‘g‘iq tovushda vovulladi. Arava qorovulxona yonida, qora majnuntollar ostida to‘xtadi. Qo‘ndoqdagi tovuqlar patirlab qolishdi. Chol qorovulxonaga kirib, tunuka kerosin chiroqni yoqdi-da, hamrohlarining yo‘lini yoritib turdi.

Natasha uyga kirdi. Xonada kul va quruq yalpizning o‘tkir hidi anqir, eski yog‘och uy issiqqina edi. Natasha sut ichib oldi-yu, eskiligidan yarqirab turgan keng yog‘och so‘rida o‘sha zahotiyuq uyquga ketdi. Chol uning boshi tagiga yashil chakmonini qo‘ydi.

Qiz juda erta uyg‘ondi. O‘rmon uzra oppoq quyosh charaqlab turardi. Xonada hech kim yo‘q, faqat qora it stol tagida yotar, Natashaga hayratli nigohini tashlaganicha kanalarini qo‘rirdi.

– Kechikib qolmasam go‘rga edi! – dedi birdan Natasha va o‘rnidan sakrab turib, sochlarini tuzatdi.

Devor soatining to‘xtab qolganiga ancha bo‘lgan bo‘lsa kerak: tosh o‘rniga osilgan suv to‘la shishaga o‘rgimchak uya qo‘ygandi.

Natasha salqin dahlizga chiqdi. It uning ortidan kelar, xushomad qilib, chelaklar, polga qalashtirib tashlangan bo'yinchalarni dumi bilan urardi.

Hech kim yo'q edi. Natasha eshikni ochib, zinaga qadam qo'ydi-yu, xo'rsindi. Oynadek yorqin ko'l shundoq ostona ortida, ko'z zo'rg'a ilg'aydigan tuman ostida yotardi. Baland o'rmonlar aksi ko'lga tushgan, qirg'oq yaqinidagi oq qum yonida suv shunchalar toza-tiniq ediki, juda yengil, vaznsizday tuyulardi. Bunda dumchalarini sal-pal qimirlatganlaricha kumushrang baliqlar suzishardi.

Ko'hnaligidan kulrang tusga kirib, quruqshab qolgan qayiq qirg'oqqa chiqarib tashlangandi. Natasha ko'lda cho'mildi, kiyimlarini kiydi-yu, qayiq yoniga keldi. Qayiqning o'tirg'ichi hali butun edi. Natasha unga o'tirdi. O'tirg'ichni quyosh nuri ilitgandi.

Qayiq yoriqlarida baland bo'yli gul va o'tlar o'sib yotardi. Natasha oyoqlarining uchi qirmizi gulli durkun butaga tegib turardi. Qayiq burnida gulhamishabahor o'sar, tubidagi qum ichidan «kakkuning ko'z yoshlari» yorib chiqqandi. Qarag'ay payraxasining o'tkir, shirin hidi anqirdi. Qora it qayiq yoniga kelib yotdi va homuza tortdi. Churda, yer ostida chigirtkalar chirillashardi.

«Poyezd nima bo'ladi?» – o'yladi Natasha va hayron qoldi: chunki bu fikr unda hech qanaqa tashvish, xavotir uyg'otmasdi. U biror soat chamasi shu taxlitda o'tirdi. Qiz ko'l ortidagi o'tloqlarda turnalarning o'zaro chaqchag'ini tingladi, keyin birdan o'rdakning jon holatda chinqirgani eshitildi-yu, yana hammayoq jimib qoldi.

Birinchi bo'lib chol keldi. U Natasha bilan mehribonlarcha salomalik qildi, qayiq yonidagi qumga o'tirdi-da, dedi:

– Sen poyezddan kechikaman deb xavotir bo'lma. Hozir chekib bo'laman-da, «O'g'il bola»ni aravaga qo'shib, seni bekatga oborib qo'yaman, yaxshi yetib bor, Zolotie Makovki shahridagi iliq suvlarda maza qilib dam ol, baxtingni top, deb qolaman.

– Petr Matveyevich qayerda?

Chol jilmaydi:

– Hozir keladi. Endi unga ikki dunyo bir qadam.

– Nima bo'ldi? – qo'rqib ketdi Natasha.

– O‘zi aytib beradi, – javob qildi chol yoriq trubkasini qayiq che-
tiga qoqib tozalar ekan. – Sen quloq sol. Shu qayiq necha yoshda,
bilasanmi? Mening yoshimdan kam emas. U bilan tengqurmiz. Har
xil gul, har xil o‘t-o‘lan bilan qoplanganini qara. Mana bu gul biz-
da «pinak» deb ataladi, – chol «kakkuning ko‘z yoshlari»ni ko‘rsatdi.
– Uni qara, kunduzi pinakka ketib, kech tushishi bilan esa ochiladi,
asal bo‘yini taratadi va tonggacha shu taxlit turadi. To‘g‘risini ayt-
sam, bu qayiq xizmatini qilib bo‘ldi. O‘rmonshunos kechagina kelib,
kildi: «Sen Vasiliy, uning oloviga kartoshka pishirsang bo‘lmaydimi,
o‘tin bekor yotganidan nima naf». Men bo‘lsam, shunday o‘ylayman:
«Yo‘q, hali uning o‘tinidan kartoshka pishirish vaqti kelgani yo‘q,
buning uchun sabr qilish kerak bo‘ladi».

– Ko‘zingiz qiymaydimi? – so‘radi Natasha.

– Albatta, ko‘zim qiymaydi-da. O‘ylab ko‘r: butunlay chirigan,
lekin baribir, bir kunga yarab qoladi.

– Qanaqasiga yaraydi? – so‘radi Natasha. – Men tushunmay-
man.

– Tushunadigan nimasi bor buning! – achchiqlandi chol. – Bu
qayiq shundoq chirindidan iborat, lekin har bir yorig‘idan gul bo‘y
cho‘zib turibdi. Xo‘sh, shunday qilib, qayiqqa qaradim deguncha
xayolimdan bir fikr kechadi: «Ehtimol, men, chol ham hayot uchun
biror foyda keltirarman». Shuning uchun ham tirishib-tirmashaman.
Sen sochlarning oqidan qo‘rqma, muhimi, yuraging joyida bo‘lsa,
bo‘lgani. Gapim to‘g‘rimi, yo yo‘qmi?

– To‘g‘ri, – dedi Natasha va kulib yubordi.

– Ha, ana shunaqa! Sen mening so‘zlarimga inon!

O‘rmonchi keldi. Chol inqillab o‘rnidan turib, «O‘g‘il bola»ni
aravaga qo‘shgani ketdi. O‘rmonchining qovog‘i soliq, o‘zi xijolatda
edi. U Natashadan qanday uxlagani, ertalab sut ichgan-ichmaganini
surishtirdi-yu, jimib qoldi.

– Kechikib qolmaymizmi? – so‘radi Natasha.

– E, yo‘q, kechikmaymiz, nazarimda, – javob berdi o‘rmonchi
va Natashaga qaramay qo‘shib qo‘ydi: – Hamma gap shundaki, men
hech qayoqqa ketmayman.

Natasha hayron bo‘lganicha jim turardi.

– Ha, hech qayoqqa ketmayman! – dedi o‘rmonchi achchiqlanib.
– Bu yerda shunday bir mojaro chiqqan ekanki... Xullas, bir so‘z bilan aytganda, mensiz bu ishni uddalay olmasliklari mumkin. O‘rmon adoyi tamom bo‘ladi. O‘zim barpo qilganman, bilasizmi, hech ko‘zim qiymaydi...

– Men-ku, tushunaman, – dedi Natasha.

– Umuman, ochig‘ini aytsam, bu yerda, o‘sha Qrimdagidan ko‘ra dimog‘im chog‘roq bo‘ladi. Faqat, yo‘llanma kuyib ketganiga achi-naman, xolos. Mayli, bo‘lar ish bo‘ldi, endi! Sizdan faqat bir iltimos, mening jomadonimni cholga bering, olib keladi.

– Xo‘p, mayli, – xo‘rsindi Natasha. – Sizga havasim kelyapti.

– Te-e-k, iblis! – bo‘g‘iq ovozda qichqirdi chol qorovulxona tomondan. – Davlatning tekin ozig‘idan qorning to‘yib qopti!

– Xo‘p, mayli, xayr! – dedi Natasha va o‘rmonchining qo‘lini uyalinqirab, jur‘atsizgina qisib qo‘ydi.

Poyezd muyulishdan shiddat bilan o‘tgach, Natasha esladi: xuddi shu yerda ular momaqaldiroq ostida qolgan edilar. Vagonlar kichkinagina daryo ustidan shaqir-shuqurlab o‘tib ketdi. Natasha ko‘prik yonidagi taxtadan «Moshka daryosi» degan chang bosgan yozuvni o‘qishga ulgurdi, xolos.

O‘rmonlar uzra keng kamalak ko‘tarilganda, qayerdadir, ko‘l ortida kuchsiz yomg‘ir yog‘ardi. Kamalak Natashaga Petr Matveyevich va chol xo‘jayinlik qiladigan, tongda turnalar chinqiradigan, odam oyog‘i yetmagan sirli mamlakatlar darvozasi bo‘lib tuyuldi.

Olisda, buta va qamishzorlar ortida oppoq suv yaltiradi. Nahotki, bu o‘sha ko‘l bo‘lsa? Natasha derazadan boshini chiqardi, barglar aro suv yaltir-yulturiga, kamalak jilosiga uzoq vaqt tikilib turdi va yuragi hapriqib ketdi: koshki edi bu yerda kuzgacha qolishning iloji bo‘lsa?!

Parovoz o‘kirigi eshitildi. O‘rmonlar uning tovushini bir-birlariga oshirib, o‘tib bo‘lmas chakalakzorlarga olib ketdilar-da, kutilmaganda jarangdor aks sado bilan qaytardilar.

Qari oshpaz

1786-yil qish oqshomlarining birida Vena shahri chekkasidagi mo'jazgina yog'och uyda grafinya Tunning sobiq oshpazi – ko'zi ojiz qari chol jon bermoqda edi. Sirasini aytganda, bu kulbani uy deb bo'lmas, balki bog' adog'idagi shalviragan qorovulxona edi. Bog' esa qurigan va chirigan shox-shabbaga to'la, har bir qadamdan so'ng ular qasir-qusur qilar, shunda zanjirband ko'ppak o'z inida g'ingshiy boshlardi. U ham xo'jayiniga o'xshab qarigan, shu bois vovullashganda madori yo'q edi.

Bundan bir necha yil muqaddam oshpaz pechlar issig'idan ko'r bo'lib qolgandi. Grafinyaning ish boshqaruvchisi o'shanda uni qorovulxonaga joylashtirgan, vaqt-vaqti bilan bir tanga-yarim tanga berib turardi.

Oshpaz o'n sakkiz yashar qizi Mariya bilan birga yashardi. Qorovulxonaning bor-yo'q anjomi, zeb-ziynati – karavot, cho'ltoq o'rindiqlar, eski stol, darz ketgan chinni idishlar va nihoyat, Mariyaning yakka-yu yagona boyligi bo'lmish klavesin¹dan iborat edi.

Klavesin shu qadar eski ediki, torlari hap qanaqa tovushga javoban uzoq vaqt aks sado berib turar, oshpaz hazillashib uni, «qorovul» deb atardi. Uyg'a kim qadam ranjida qilmasin, klavesin uni titroq, qarimsiq nola bilan qarshilardi.

Mariya jon berayotgan dadasini yuvintirib, toza ko'ylak kiygizgach, chol shunday dedi:

– Ruhoniylar-u rohiblarni hech qachon jinim suygan emas. Ularga tavba-tazarru qilgim kelmaydi. Lekin shunga qaramay, o'limim oldidan vijdonim pok bo'lishini istayman.

– Nima qilay, bo'lmasa? – so'radi Mariya qo'rqa-pisa.

– Ko'chaga chiqqin-da, duch kelgan kishidan uyg'a kirib, jon berayotgan odamning tavbasiga quloq tutishni iltimos qil. Senga hech kim yo'q demaydi.

– Ko'chamiz shunaqangi kimsasiz, huvillaganki... – shivirladi Mariya va ro'molini yopinib, chiqib ketdi.

¹ Klavesin – fortepyanoning ajdodi bo'lmish klaviaturali cholg'u asbobi. Hozirgi kunda ishlatilmaydi.

U bog'dan chopqillab o'tib, zang bosgan darichani zo'rg'a ochdi-yu, to'xtab qoldi. Ko'cha bo'm-bo'sh edi. Shamol xazonlarni chirpirak qilib uchirar, zim-ziyo osmondan sovuq yomg'ir tomchilardi.

Mariya uzoq kutdi. Ovozlariga quloq tutdi. Nihoyat, devor yonida kimdir xirgoyi qilib kelayotganday tuyuldi. Qiz uning istiqboliga bir necha qadam tashladi-da, haligi kishi bilan to'qnashib, chinqirib yubordi. Kishi to'xtab qoldi va:

– Kim bor bu yerda? – deya so'radi.

Mariya uning qo'lidan mahkam ushlab oldi-da, titroq tovush bilan dadasining iltimosini aytdi.

– Yaxshi, – dedi notanish kishi xotirjamgina. – Men ruhoniy emasman, lekin buning ahamiyati yo'q. Yuring.

Ular uyga kirdilar. Mariya sham yorug'ida o'zi boshlab kelgan ushoqqina, oriq kishini yaxshiroq ko'rib oldi. Notanish kimsa ho'l yomg'irpo'shini o'rindiqa tashladi. U g'oyat oddiy va kamtaron kiyingan, qora kamzulining billur tugmali yoqasida sham nuri o'ynardi.

Tungi mehmon hali juda yosh yigit edi. Boshini xuddi yosh bolalarday qimirlatib, upalangan yasama sochini to'g'rilab qo'ydi. So'ngra kursichani karavotga yaqin surib, o'tirdi-da, jon berayotgan bandaning yuziga diqqat bilan razm soldi.

– Gapiravering! – dedi u. – Men ruhoniy emasman, biroq san'at ato etgan huquq tufayli balki so'nggi soniyalaringizni yengillashtiraman, balki qalbingizni og'ip g'amdan xalos etarman.

– Men bir umr, ko'r bo'lib qolguningacha mehnat qildim, – shivirladi qariya va notanish yigitning qo'lidan ushlab, o'ziga tortdi. – Mehnat qiladigan kishilarning esa gunoh ishlarga vaqti qolmaydi. Xotinim, uning ismi Marta edi, sil kasaliga chalingach, tabib qimmatbaho dorilar yozib berdi, uni qaymoq, hap xil anvoyi mevalar, qizil may bilan parvarish qilishni buyurdi. Ana shunda men grafnya Tunning chinni idishlari orasidan kichkina oltin taqsimchani o'g'irlab oldim-da, bo'laklarga bo'lib sotdim. Endi bularni eslash, qizimdan yashirish juda og'ir. Uni bironvning stolidagi hatto g'uborga ham qo'l tekkizmaslikka o'rgatdim.

– O‘sha voqeadan so‘ng grafinyaning xizmatkorlaridan birortasi aziyat chekmadimi? – so‘radi notanish yigit.

– Ont ichaman, janob, hech kim aziyat chekkani yo‘q, – dedi chol va yig‘lab yubordi. – Mening Martamga oltin foyda qilmasligini bilganimda, o‘g‘irlik qilarmidim? Aslo!

– Ismingiz nima? – so‘radi yigit.

– Iogann Meyer, janob.

– Demak, bunday, Iogann Meyer, – dedi notanish yigit va kaftini cholning so‘qir ko‘zlariga qo‘ydi, – odamlar oldida gunohingiz yo‘q. Bu gunoh ham, o‘g‘irlik ham emas, balki, sevgi yo‘lidagi qahramonlikdir.

– Omin! – shivirladi chol.

– Omin! – takrorladi tungi mehmon. – Endi so‘nggi istagingizni ayting.

– Kimdir Mariyaga g‘amxo‘rlik qilishini istardim.

– Buni men o‘z zimmamga olaman. Yana nima istaysiz?

Chol kutilmaganda jilmaydi-yu, baland ovoz bilan iltijo qildi:

– Martani yoshlikda uchratganimda qanday bo‘lsa, shundayligicha yana bir ko‘rsam edi. Quyoshni va ana shu eski bog‘ni bahorda gullagan paytida ko‘rmoqchiman. Lekin buning iloji yo‘q, janob. Ahmoqona so‘zlarimdan xafa bo‘lmang. Kasallik butunlay esimni og‘dirib qo‘yibdi, aftidan.

– Yaxshi, – dedi yigit va o‘rnidan turdi. – Yaxshi.

So‘ng klavesin yoniga kelib kursichaga o‘tirarkan, baland ovozda uchinchi marotaba «yaxshi!» – dedi va birdaniga qorovulxona shiddatli jarangga to‘ldi. Polga yuzlab billur zo‘ldirchalar to‘kildi go‘yo.

– Quloq solinglar, – dedi notanish yigit. – Quloq tuting va tasavvur qiling.

U klavesin chala boshladi. Keyinchalik Mariya, yigitning barmoqlari tekkan birinchi parda sado bergan paytda, uning yuzi qay tarzda-ligini ancha vaqtgacha eslab yurdi. Shu soniyada yigitning peshonasi haddan tashqari oqarib, ko‘zlari esa yanada qorayib ketdi. Ularda sham nuri o‘ynardi.

Klavesin ko‘p yillardan beri birinchi marotaba bor ovozi bilan kuylamoqda edi. Uning sadolari faqat qorovulxonani emas, balki

butun bog'ni to'ldirib yubordi. Qari ko'ppak uychasidan chiqdi. U boshini yonboshiga solintirib, hushyor tortganicha dumini asta likilatardi. Ho'l qor yog'a boshladi. Ko'ppak esa quloqlarini silkitardi, xolos.

– Men ko'ryapman, janob! – dedi chol va karavotdan sal ko'tarildi. – Marta bilan uchrashgan kunni ko'ryapman. O'shanda u uyalganidan sut to'la ko'zachani sindirib qo'ygandi. Bu voqea qishda, tog'da yuz bergandi. Osmon ko'm-ko'k shishaday musaffo edi, Marta kulardi. Ha, kulardi, – takrorladi chol torlar sadosiga quloq tutar ekan.

Notanish yigit zim-ziyo derazaga tikilganicha hamon klavesin chalardi.

– Endi-chi, – so'radi u, – biror nimani ko'ryapsizmi?

Chol jimgina quloq solar, hech nima demasdi.

– Nahotki ko'rmayotgan bo'lsangiz, – dedi yigit chalishdan to'xtamay, – qop-qora tun ko'k tus oldi, so'ngra havorang bo'lib qoldi va iliq nur endi yuqoridan tushyapti. Daraxtlarning eski shoxchalarida oppoq gullar yuz ochyapti. Ular bu yerdan katta kapalaklarga o'xshab ko'rinsalar-da, menimcha, bu – olma gullari. Boz ustiga, lolaga ham monand. Siz ko'rib turibsiz, iliq nur tosh devorga tushdi, uni qizdirdi va devordan bug' ko'tariyapti. Erigan qorda bo'kkan mox quriyotgan bo'lishi kerak. Osmon esa yanada balandlashib, tiniqlashib, go'zallashib borayotir. Ko'hna Venamiz uzra qushlar shimol tomonga uchib ketishyapti.

– Men hammasini ko'ryapman! – deya qichqirdi chol.

Klavesin pedali g'ijirladi va kuy tantanavor tus oldi. Go'yo klavesin emas, yuzlab quvnoq ovozlari kuylardi.

– Yo'q, janob, – dedi Mariya, – bu gullar lolaga sirayam o'xshamaydi. Bular – olma daraxtlari, ular bir kechadayoq gulga burkandi.

– To'g'ri, – dedi yigit, – bular olma daraxtlari, lekin gullarining yaprog'i katta-katta.

– Derazani och, Mariya, – iltimos qildi chol.

Mariya derazani ochdi. Xonaga sovuq havo yopirilib kirdi. Notanish kishi sekinlik bilan klavesin chalardi.

Chol yostiqa yiqildi. U og‘ir nafas olar, qo‘llari choyshab ustida nimanidir izlardi. Mariya dadasi tomon otildi. Mashshoq chalishdan to‘xtadi. U o‘z musiqasidan o‘zi sehrlanganday, klavesin oldida qimir etmay o‘tirardi.

Mariya qichqirib yubordi. Musiqachi o‘rnidan turib, karavot yoniga keldi. Chol nafasi qisilib shunday dedi:

– Men hammasini, xuddi ko‘p yillar avvalgidek juda aniq, ravshan ko‘rdim. Lekin men, sizning ismingizni bilmay turib, o‘lishni istamayman. Ismingizni aytsangiz!

– Mening ismim Volfgang Amadey Motsart, – dedi yigit.

Mariya ortiga chekindi, tizzalari yerga tekkudek bo‘lib, buyuk musiqachiga ta‘zim bajo keltirdi.

U qad rostlaganda qariyaning joni uzilgandi. Deraza ortida tong qizara boshlagan, ho‘l qor «gullari» qo‘ynidagi bog‘ subhidam nurlaridan munavvar edi.

Qor

Qariya Potapov uyiga Tatyana Petrovna joylashganidan so‘ng, oradan bir oy o‘tgach, qazo qildi. Tatyana Petrovna qizi Varya va qartaygan enaga bilan qoldi.

Bor-yo‘g‘i uch xonadan iborat kichkina uy shundoq shahardan chiqaverishda, shimol daryosi uzra yuksalgan tepalikda joylashgandi. Uy orqasida, barglari to‘kilgan bog‘ ortida, qayinzor oqarib turardi. Bu yerda ertalabdan kech shomgacha zag‘chalar chinqirishar, yalang‘och tepaliklar uzra bulutlarday gala-gala, telba-teskari parvoz etib, yog‘in-sochinni chorlashardi.

Tatyana Petrovna Moskva olag‘ovuridan so‘ng bo‘m-bo‘sh, huvillagan shaharchaga, uning kichik uychalari, g‘achir-g‘uchir darichalari, kerosin chiroqda olovning chirsillashlari eshutilib turadigan unisiz-karaxt oqshomlariga uzoq vaqt ko‘nikolmay yurdi.

«Qanchalar tentakman-a! – o‘ylardi u, – Nega Moskvadan ketdim, teatrni, do‘stlarimni tark etdim! Varyani enaganikiga, Pushkinoga eltib qo‘yishim, – u yerda hech qanaqa havo hujumi yo‘q, – o‘zim esa Moskvada qolishim kerak edi. Ey, xudoyim, qanchalar tentakman-a!»

Lekin endi Moskvaga qaytishning iloji yo‘q edi. Tatyana Petrovna lazaretlarda – lazaretlar shaharchada bir nechta edi – konsert berishga qaror qildi va ko‘ngli taskin topdi. Qish kelib shaharchani qorga ko‘mgach, u Tatyana Petrovnaga ayniqsa, ma‘qul bo‘la boshladi. Kunlar muloyim, kulrang edi. Daryo uzoq vaqt muzlamadi, uning yashil suvidan bug‘ ko‘tarilib turardi.

Ayol shaharchaga ham, begona uyga ham ko‘nikib ketdi. Sozlanmagan royalgga, devorlardagi qirg‘oq mudofaasining beso‘naqay bronenosetslari (zirhbardor kemalar) tasviri tushirilgan, sarg‘ayib ketgan suratlariga o‘rganib qoldi. Qariya Potapov o‘tmishda kema mexanigi bo‘lgan. Uning rangi o‘chgan yashil movutli yozuv stolida o‘zi ishlagan «Gromoboy» kreyserining namuna-nusxasi turardi. Varyaning unga tegishiga ruxsat berishmas, umuman, biror narsaga qo‘l tekki-zishga qo‘yishmasdi.

Tatyana Petrovna Potapovdan bir o‘g‘il qolganini, u hozir Qora dengiz flotida ekanini bilardi. Stolda kreyser namuna-nusxasi bilan uning surati yonma-yon turardi. Tatyana Petrovna ba‘zi-ba‘zida suratni qo‘liga olib, ko‘zdan kechirar, mayin qoshlarini chimirganicha xayolga tolardi. Unga o‘zi bu yigitni qayerdadir uchratganday, lekin bu turmush qurganidan oldin ro‘y bergandek tuyulaverardi. Lekin qayerda, qachon uchrashgan edilar?

Dengizchi unga xotirjam, andak zaharxandali ko‘zlari bilan boqar va: «Xo‘sh, nima qildik endi? Nahotki qayerda uchrashganimizni eslayolmasangiz?» deya so‘rardi go‘yo.

– Yo‘q, eslayolmayman, – sekin javob qilardi ayol.

– Ona, kim bilan gaplashyapsan? – qichqirardi Varya qo‘shni xonadan.

– Royal bilan, – kulib javob berardi Tatyana Petrovna.

Qish o‘rtalariga borib, Potapovning nomiga hammasi bir kishining qo‘li bilan yozilgan xatlar kela boshladi.

Tatyana Petrovna ularni yozuv stoliga taxlab qo‘yaverdi. Tunlarning birida u uyg‘onib ketdi. Derazalardan qorning xira shu‘lasi tushib turar, Potapovdan meros bo‘lib qolgan kulrang mushuk Arxip divanda xurrak otardi.

Juvon yelkasiga xalatini tashlab, Potapovning ish bo‘lmasiga kirdi, deraza oldida bir muddat turdi. Daraxtdan bir qush sassiz parvoz

etib, qorlarni to'zg'itib yubordi. Uzoq vaqt oq chang yog'ilib, oynalarni qopladi.

Tatyana Petrovna stoldagi shamni yoqib, oromkursiga o'tirdi va olov tilchasiga uzoq tikilib turdi – u hatto lipillamasdi. So'ngra ehtiyotkorlik bilan xatlarning birini olib, ochdi va atrofga alanglagach, o'qiy boshladi.

* * *

«Mening aziz cholginam, – o'qirdi Tatyana Petrovna, – mana, gospitalga tushganimga ham bir oy bo'ldi. Yara unchalik og'ir emas, tezda bitib ketadi. Xudo haqi, xavotir olma, papiros ketidan papiros chekaverma. O'tinaman!»

«Men seni tez-tez eslayman, dada, – o'qishda davom etardi ayol, – uyimizniyam, shaharchamizniyam. Bularning hammasi juda olisda, dunyoning bir chekkasida go'yo. Ko'zlarimni yumaman, nigohlarim oldida shunday manzara gavdalanadi: mana, darichani ochib, boqqa kiryapman. Qish, qor, lekin jar yoqasidagi eski shiyponchaga boradigan yo'lka tozalangan, nastarin butalarini esa butunlay qirov qoplagan. Xonalarda pechlar chirsillab yonadi. Qayin tarasha tutunining hidi anqiydi. Royal, oxir-oqibat, sozlanibdi va sen shamdonlarga men Leningraddan olib kelgan sariq shamlarni o'rnatibsan. Hali-hamon royal ustida o'sha notalar: «Pikovaya dama»ga uvertyura va «Olisdagi Vatan qirg'oqlari uchun» romansi turibdi. Eshik yonidagi qo'ng'iroqcha jiringlaydimi? Uni tuzatishga ulgurmadim. Nahotki, bularning hammasini yana ko'rish nasib etsa? Nahotki, yo'ldan kelib, o'zimizning quduq suvi bilan yuvinaman? Eslaysanmi? Eh, olis-olislardan turib, bularning hammasini qanchalar yaxshi ko'rib qolganimni bilsang edi! Sen hayron bo'lma, mutlaqo jiddiy gapiryapman. Bular to'g'risida jangning eng dahshatli daqiqalarida esladim.

Bilardimki, nafaqat butun mamlakatni, balki, uning men uchun juda aziz kichik go'shasini – seni, bog'imizni, o'zimizning sochlari hurpaygan bolakaylarimizni, daryo ortidagi qayinzorlarni, va hatto mushugimiz Arxipni ham himoya etyapman. Mumkin bo'lsa, kulmagin va boshingni sarak-sarak ham qilma.

Ehtimol, gospitaldan tuzalib chiqqanimdan so'ng, uyga borishim uchun oz muddatga ruxsat berishar. Bilmadim. Lekin yaxshisi, kutmay qo'yaqolganing ma'qul.

* * *

Tatyana Petrovna stol yonida uzoq o'tirdi. U katta-katta ochilgan ko'zlarini deraza ortidagi nilto'tiyo bo'shliqda tug'ilayotgan tong manzarasidan uzmas va bugun-erta frontdan kelayotgan notanish odam uchun bu yerda begona kishilarni uchratish, narsalarni o'zi istagan tarzda ko'rolmaslik og'ir bo'lishi to'g'risida o'ylardi.

Ertalab u Varyaga yog'och belkurakni olib, jar yoqasidagi shiyponchaga boradigan yo'lkani tozalashni buyurdi. Shiyponcha butunlay shalvirab qolgan, ustunlari oqarib, qurbaqa o't bosgandi. O'zi bo'lsa, eshik tepasidagi qo'ng'iroqchani tuzatdi. Unda kulgili so'zlar yozilgandi: «Men eshik yonidaman, qo'ng'iroqni tortinmay tortaver!» Tatyana Petrovna qo'ng'iroqchaga qo'l tekkizdi, u baland tovush bilan jarangladi. Arxip norozi bo'lib quloqlarini qimirlatdi, xafa bo'ldi va dahlizdan chiqib ketdi. Qo'ng'iroqchanning quvnoq jarangi unga bezbetlik bo'lib tuyulgandi, aftidan.

Choshgohda yonoqlari qirmizi, sergap-sershovqin, hayajondan ko'zlari qop-qora tus olgan Tatyana Petrovna shahardan royalni sozlash bilan shug'ullanadigan usta – ruslashib ketgan chex cholni boshlab keldi. Sozlovchining familiyasi juda kulgili edi: Nevidal. Chex royalni sozlab bo'lgach, u eski, lekin juda yaxshi royal ekanini aytdi. U aytmasa ham, Tatyana Petrovna buni bilardi.

Qariya ketgach, Tatyana Petrovna yozuv stolining hamma tortmalarini ehtiyotkorlik bilan ko'zdan kechirib, bir dasta burama sham topib oldi. Ularni royaldagi shamdonlarga o'rnatdi. Kechqurun shamlarni yoqib, royal yoniga o'tirdi va uy jarangdor tovushga to'lib ketdi.

Tatyana Petrovna royal chalishdan to'xtab, shamlarni o'chirgach, xonalardan xuddi archanikiga monand shirin tutun hidi anqiy boshladi.

Varya chidab turolmadi.

– Sen nega birovlarining narsasiga egalik qilasan? – dedi u Tatyana Petrovnaga. – Meni qo'l tekkizgani qo'ymaysan, o'zing

bo'lsa xohlaganingni qilasan? Qo'ng'iroqchagayam, shamlargayam, royalgayam – hammasiga teginding. Yana birovning notalariniyam royalga qo'yib qo'yibsan.

– Chunki men katta kishiman, – javob berdi Tatyana Petrovna.

Varya xo'mrayganicha unga ishonchsiz nigoh tashladi. Hozir onasi katta kishiga sira ham o'xshamasdi. Uning butun vujudidan nur yog'ilar, saroyda billur shippagini yo'qotib qo'ygan o'sha oltinsoch qizaloqqa o'xshab ketardi. Bu qizaloq haqida Tatyana Petrovnaning o'zi Varyaga hikoya qilib bergandi.

* * *

Hali poyezddayoq leytenant Nikolay Potapov hisob-kitob qilib, otasining huzurida bir kecha-kunduzdan ortiq tura olmasligini bilib olgandi. Ta'til juda qisqa, vaqtning bor-yo'g'i yo'lga ketardi.

Poyezd shaharchaga kunduzi yetib keldi. Leytenant, vokzalda tanish bekat boshlig'idan otasi bir oy burun qazo qilganini, uylariga moskvalik yosh qo'shiqchi ayol qizi bilan joylashganini eshitdi.

– Evakuatsiya qilinganlardan, – dedi bekat boshlig'i.

Potapov hech nima demas, derazadan paxtalik, piyma kiygan, qo'llarida choynak ko'tarib, yugurib yurgan yo'lovchilarni kuzatar, boshi aylanardi.

– Ha, – dedi bekat boshlig'i, – pok qalbli inson edi. Sizni ko'rish nasib etmagan ekan, boyaqishga.

– Qaytishga qachon poyezd bo'ladi? – so'radi leytenant.

– Tunda, soat beshda, – javob berdi bekat boshlig'i va biroz jim turgach, qo'shib qo'ydi: – Menikida o'tirib turing. Kampirim choy damlab beradi, qorningizni to'yg'izadi. Uyingizga borishning hojati yo'q.

– Rahmat, – dedi Potapov va xonadan chiqdi.

Bekat boshlig'i uning ortidan qarab turar ekan, boshini sarak-sarak qildi.

Potapov shahar orqali daryo bo'yiga chiqdi. Daryo uzra zangor osmon osilib turardi. Yer va osmon oralig'ida yakkam-dukkam qor uchqunlari yonlamasiga uchishar, go'nglangan yo'lda zag'chalar

yurishardi. Qorong‘i tushmoqda, shamol o‘rmonlar tomondan, narigi qirg‘oqdan esar, ko‘zlardagi yoshni uchirib tushirardi.

«Nachora! – dedi Potapov, – kechikdim. Endi bularning hammasi men uchun begona – shaharcha ham, daryo, uy ham».

U o‘girilib, shahar chekkasidagi jarlikka nigoh tashladi. U yerda qiroy bosgan bog‘ yastanib yotar, va birgina uy qorayib ko‘rinib turardi. Uy mo‘risidan ko‘tarilayotgan tutunni shamol qayinzorga olib ketardi.

Nikolay uy tomon sekin yurib ketdi. U uyning yonidan o‘tib, birrov boqqa kirib, eski shiyponchada ozgina tik turishga qaror qildi. Otasining uyida begona, loqayd odamlar yashayotgani to‘g‘risidagi fikrga sira toqat qilib bo‘lmasdi. Yaxshisi, hech nimani ko‘rmagani, yuragini zaharolud qilmagani ma‘qul. «Jo‘nab ketish va o‘tmishni yoddan chiqarish kerak, vassalom!»

«Nailoj, – o‘yladi yigit, – kun sayin ulg‘aya borasan, atrofga borgan sari jiddiy nazar tashlay boshlaysan».

Potapov qosh qorayganda uyi yoniga kelib qoldi. Darichani ehtiyotkorlik bilan ochsa-da, u baribir g‘ichirladi. Bog‘ seskanib ketganday bo‘ldi. Butoqlardan shig‘irlab qor tushdi. Nikolay alangladi. Qordan tozalangan yo‘lka shiyponchaga olib borardi. U shiyponchaga chiqdi, qo‘llarini eski panjaraga qo‘ydi. Olisda, o‘rmon ortida osmon xira-qirmizrang tus olmoqda, aftidan, bulutlar ortidan Oy ko‘tarilardi. Leytenant bosh kiyimini yechdi, sochlarini siladi.

Atrof juda sokin, faqat tepalik ostida suvga borayotgan ayollar bo‘sh chelaklarini daranglatishardi.

Potapov tirsaklarini panjaraga tirab, sekingina shivirladi:

– Bu qanaqasi bo‘ldi?

Kimdir yigitning yelkasiga ehtiyotkorlik bilan qo‘l tekkizdi. U o‘girildi. Ortida boshiga issiq ro‘mol tashlab olgan, jiddiy, oq yuzli yoshgina ayol turar, ziyrak, qora ko‘zlari so‘zsiz boqardi. Ayolning kipriklari, yonoqlarida butoqlardan tushayotgan qor zarralari erib ketardi.

– Qalpog‘ingizni kiying, – dedi ayol astagina, – shamollab qolasiz. Yuring, uyga kiraylik, bu yerda turishning keragi yo‘q.

Potapov jim turardi. Ayol uning yengidan ushlab, qordan tozalangan yo‘lkadan boshlab ketdi. Zinapoya oldida Potapov to‘xtadi. To-

mog'iga achchiq yig'i tiqilgan, nafas ololmasdi. Ayol hamon o'sha mayin tovush bilan dedi:

– Zarari yo'q. Mendan aslo uyalmang. Hozir hammasi o'tib ketadi.

Ayol kalishidan qorni tushirish uchun oyoqlarini tapillatdi. Shu zahotiyuq bunga javoban dahlizda qo'ng'iroqcha jiringladi. Potapov chuqur xo'rsinib, nafasini rostlab oldi.

U uyalinqirab, nimalarnidir g'oldiraganicha uyga kirdi, dahlizda shinelini yechdi, qayin tarasha tutunining kuchsiz hidini tuydi va Arxipga ko'zi tushdi. Arxip o'rindiqa esnab o'tirar, yonidagi sochlari o'rilgan qizcha quvonch to'la ko'zlarini Potapovdan uzmasdi. Lekin u leytenantning yuziga emas, yengidagi zarhal belgilarga boqardi.

– Yuring! – dedi Tatyana Petrovna va Potapovni oshxonaga olib o'tdi.

Oshxonada muzdek quduq suvi solingan ko'zacha turar, eman barglari tasviri tushirilgan sochiq osig'liq edi.

Ayol chiqib ketdi. Qizcha mehmonga sovun olib keldi-da, kamzulinini yechib, yuvinishini kuzatib turdi. Potapov o'zini hamon noqulay his etardi.

– Sening onang kim o'zi? – so'radi u qizchadan, so'ngra qizarib ketdi.

Bu savolni u faqatgina nimanidir so'rash uchun bergandi.

– U o'zini katta kishi deb o'ylaydi, – sirli shivirladi qizcha. – O'zi bo'lsa, sirayam katta emas, mendan ham battar.

– Nega? – so'radi Potapov.

Lekin qizcha javob bermadi, kulib yubordi-yu, oshxonadan yugurib chiqib ketdi.

Leytenant butun oqshom davomida g'alati bir tuyg'udan xalos bo'lolmadi. U go'yoki tush ko'rayotgandek, uydagi hamma narsa o'zi qanday ko'rishni istagan bo'lsa, shunday edi. Royal ustida o'sha notalar yotar, o'sha burama shamlar chirsillab yonib, otasining mo'jazzgina bo'lmasini yoritardi. Hatto, stolda o'zining gospitaldan yozgan maktublari turar, ular otasi doimo xatlarni saqlaydigan eski kompas ostida edi.

Choy ichib bo'lishgach, Tatyana Petrovna Potapovni otasining qayinzor ortidagi qabriga boshlab bordi. Tumanli Oy allaqachon baland-

lab ketgan, qayinlar uning yog'dusidan kuchsizgina nurlanib, qorga yengil soya tashlashardi.

Kech oqshom Tatyana Petrovna royal yonida o'tirib, klavishlarni ehtiyotkorlik bilan bir-bir bosganicha, Potapovga o'girildi va shunday dedi:

– Avval ham sizni qayerdadir ko'rgandayman, menga nuqul shunday tuyulayotir.

– Ha, ehtimol, shundaydir, – javob berdi Potapov.

U ayolga qaradi. Shamlarning nuri yon tomondan tushib, ayol yuzining yarmini yoritib turardi. Yigit o'midan turdi, xonaning u burchagidan bu burchagiga yurdi, to'xtadi.

– Yo'q, eslay olmayapman, – dedi u bo'g'iq tovush bilan.

Tatyana Petrovna o'girilib, leytenantga xavotirli nigoh tashladi, lekin hech nima demadi.

Potapovga bo'lmadagi divanga joy solib berishdi, lekin u uxlayolmadi. Bu uydagi har bir daqiqa juda qimmatli tuyular, ularni yo'qotib qo'yishni istamasdi. U Arxipning o'g'rincha qadamlari, soat darangdurungi, Tatyana Petrovnaning shivir-shiviriga quloq solib yotardi. Ayol yopiq eshik ortida enaga bilan allanimalar to'g'risida gaplashardi. So'ngra ovozlari jimib qoldi. Enaga ketdi, lekin eshik tagidagi nur yo'lakhasi o'chmadi. Potapov varaqlar shig'ir-shig'irini eshitib yotar, chamasi, Tatyana Petrovna kitob o'qirdi. Yigit ayol uni tezda uyg'otish uchun uxlamayotganini sezib turardi. Uning o'zi ham uxlamayotganini aytgisi kelardi. Lekin ayolni chaqirishga jur'at etolmadi.

Soat to'rtida Tatyana Petrovna astagina eshikni ochdi-yu, Potapovni chaqirdi.

– Vaqt bo'ldi, endi turishingiz kerak, – dedi u. – Sizni uyg'otgani hech ko'zim qiymayapti!

Tatyana Petrovna tungi shahar orqali Potapovni bekatgacha kuza-tib keldi. Ikkinchi qo'ng'iroqdan keyin, ular xayrlashdilar.

Juvon ikki qo'lini ham Potapovga uzatib, shunday dedi:

– Xat yozing. Biz endi xuddi qarindoshlardaymiz. Shunday emasmi?

Potapov javob bermadi, faqat bosh qimirlatdi, xolos.

Bir necha kundan so'ng Tatyana Petrovna uning yo'ldan yozgan maktubini oldi.

«Qayerda uchrashganimizni men albatta, esladim, – yozardi Potapov, – lekin bu to‘g‘rida o‘sha yerda sizga aytishni istamadim. Yigirma yettinchi yili, Qrimni eslaysizmi? Kuz, Livadiya bog‘idagi qari chinorlar. Xiralashib borayotgan osmon, oqish, rangpar dengiz. Men so‘qmoqdan Oreandaga borayotuvdim. So‘qmoq yonidagi o‘rindiqa bir qiz o‘tirar, u, aftidan, o‘n olti yoshlarda edi. Qizning ko‘zi menga tushdi, o‘rnidan turib, istiqbolimga yurdi. Yonma-yon kelib qolganimizda, unga qaradim. U qo‘lidagi ochiq kitobni ushlaganicha, yonimdan tez, yengilgina o‘tib ketdi. Men to‘xtadim va uning ortidan uzoq tikilib qoldim. O‘sha qiz siz edingiz. Adashi-shim mumkin emas. Ortingizdan qarab turdim va yonimdan o‘tib ketgan ayol butun hayotimni ostin-ustun qilib yuborishi ham, menga ulkan baxt ato etishi ham mumkinligini his etdim. Uni o‘zimni butunlay unutar darajada sevib qolishim mumkinligini angladim. O‘shanda nima bo‘lsa ham, sizni topishim kerakligini bilardim. Lekin baribir, o‘rnimdan qimir etmadim. Negaligini o‘zim ham bilmayman. O‘shandan beri Qrimni, sizni faqat bir lahza ko‘rib, manguga yo‘qotgan so‘qmoqni yaxshi ko‘rib qoldim. Lekin hayot menga marhamatli bo‘lib chiqdi, sizni yana uchratdim. Oxiri baxayr bo‘lsin, hayotim kerak bo‘lib qolsa, u, albatta, sizniki bo‘ladi. Ha, men otamning stolidan o‘zimning ochilgan maktubimni topib oldim. Hammasini tushundim. Olisdan turib sizga faqatgina minnatdorchilik bildira olaman, xolos...»

Tatyana Petrovna xatni bir chekkaga qo‘ydi, deraza ortidagi qorga ko‘milgan boqqa tumanli nigoh tashladi va shunday dedi:

– Ey, xudoyim, men hech qachon Qrimda bo‘lmaganman! Hech qachon! Lekin endi buning zarracha ahamiyati yo‘q! Uni va o‘zimni bu ishonchdan mahrum etishning hojati bormikan?

U kulib yubordi, ko‘zlarini kafti bilan bekitdi. Deraza ortida xiragina shafaq yonar, o‘chishning hech uddasidan chiqolmayotgan edi.

Qor ostidagi vodiy

Kechga tomon yog‘a boshlagan qor qorong‘i tushguncha chor-atrofnı oqartirib yubordi.

Ummon uzun to‘lqinlarnı qumloq sohilga haydar, ular oylar, yillar hormay-tolmay shovqin solishar, bunga ko‘nikib ketgan Allan hech narsa sezmasdi. Qaytanga atrofdagi sukunat uni hayratlantirar, bu jimjitlik qor bilan birga yoqqandek edi go‘yo.

Sovuq qor va sham aksi tushgan derazaning qora oynalari. Aftidan, bu shamchiroq to‘lqinlar baliqchilarning og‘ir kemasini chayqatib o‘ynayotgan ummondan ko‘zga tashlanib tursa kerak. Baliqchilar ana shu mo‘jazgina nurga tikilib, qaynab turgan qozon, issiqqina to‘shak to‘g‘risida xayol surishardi.

Allan zaharxanda qildi. Azal-azaldan inson o‘z-o‘zini aldab keladi, uning orzu-umidlari mudom ana shunaqa sodda, go‘l! Ana shu baliqchilar amallab qirg‘oqqa chiqib olib, uning uyiga kelishsa, ko‘rardik, o‘shanda ularning ahvolini! Xo‘sh, ular bu yerda nima ni ko‘rishardi? Bo‘m-bo‘sh xona, shamchiroq, askariy chorpoya, o‘choqda sovub qolgan kulni, albatta. Va yirtiq shol ro‘molga o‘ralgan, sovuq qotgan, g‘amginligidan hatto og‘iz ham ocholmaydigan Allanni ko‘rishardi. U hammadan ham g‘arib, so‘qqabosh edi. Hatto, kulda g‘imirlab yurgan sichqon ham undan baxtliroq. U kulrang va quvnoq sichqon, Allan bo‘lsa, hozir kengliklarida ana shu uzundan uzoq qish boshlanayotgan, Amerika atalmish ulkan mamlakatning buyuk va hech kimga keragi bo‘lmagan shoiri.

Odamlar baxt haqida xayol surishni yaxshi ko‘radilar. Lekin hech kim bilmaydiki, eng katta baxt – bu seni tushunishlarida. Unga shon-shuhrat ham, orom-u e‘tibor ham kerak emasdi. U faqatgina bir narsani – atrofidagi kishilar o‘zidagi tasavvurot olami, xursand qila olish qobiliyati ikki-uch kishiga emas, balki necha minglab kishilarga yetishini anglashlarini istardi.

Uning to‘xtovsiz, har doim in‘om etgisi kelardi. Va qanchalik ko‘p in‘om etsa, shunchalik boyib borardi.

U chorraha oldidagi xarsangtoshga o‘tirib olib, habash bolakayga o‘zining yangi rejalarini aytib bera olardi. Bu niyat ertakka shuncha-

lar o'xshardiki, hikoya qilayotib, hayronlikdan Allanning o'zi ham kulib yuborardi. Habash bolakay ham xoxolar va qora qo'lchalari bilan sonlarini shapatilardi.

U izvoshda tasodifan yonida o'tirib qolgan yo'lovchi ayolga hozirning o'zida, qo'qqisdan boshlangan muhabbatini izhor eta olar, bu sevgining intihosi ham juda yaqin, hamroh ayol tushib qoladigan birinchi bekatgacha edi. Lekin shu bilan birga, bu sevgining poyoni yo'qligini Allan bilardi. Chunki xotira bor va u tinchlik bermaydi.

Allan bu uchrashuvni shunchalar aniq tasavvur etardiki, go'yo hoziroq stolga o'tirib, yozishi kerak. Navjuvon ayolning yo'l charchog'i aks etgan chehrasi, xira tortgan suv uzra chag'alay chinqirig'i, otlar pishqirishi, g'ildirak ostida qum g'ichir-g'ichiri va o'zining bir necha og'iz so'zidan keyin chor atrof-borliqning allaqanday mo'jiza tufayli gulga burkanishi...

Ayol boshini ko'taradi, tabassum qiladi va Allan uning yuzida hurkak bir ibo, taraddudlanish ifodasini ko'radi. Bu odam kim bo'ldiykin? O'sha biz jimgina xayol suradigan, lekin borligiga o'zimiz ham ishonmaydigan mamlakatdan kelgan mehmonmikan? Yoinki, telbami?

Nega quyosh shalabbo bulutlar qatini yirtib yubordi va dengiz mavji titib tashlangan qordek yarqirab, ko'zni qamashtiradi? Nega izvoshchi sevgi haqida bir so'z demay, qalbi oromini o'g'irlagan mahvash haqida kuylay boshladi? Nega olis tepaliklardan o'rmon shovullashi eshitilib, bitta-yarimta yomg'ir tomchilari izvosh yopinchig'iga qattiq uriladi? Nega kamalak chegara to'siniday bo'lib tekislik uzra to'ntarilib tushdi. Nima bunchalar g'o'ng'illayotir. Nahot, deraza ortidan tillaqo'ng'iz uchib o'tgan bo'lsa?

Nega yo'lovchi ayolning qo'llari titrab, dudoqlari pichirlamoqchi bo'ladilar: «Kimsiz o'zi? Menga bu haqda gapirmasligingiz kerak edi».

Allan biladiki, ayol haq, u yillar yoritib turgan hayot oqimini vayron etdi, bundan buyon uning yo'l-yo'l guldor qog'oz yopishtirilgan xonasi, erining ovozi, qahva yanchgich taraqlashi, boodob, batartib mehmonlar – bularning hammasi tashvishlarga to'la odatdagi kun singari o'lik va zerikarli bo'lib qoladi.

«Meni modabozlik yoki bachchabozlikda ayblashlari mumkin», – o‘yladi Allan.

Xo‘p, yaxshi. Boshqa voqeani, Morristondagi kasalxonani eslaylik. Yonidagi karavotda daraxt kesuvchi hayot bilan vidolashmoqda, uni qarag‘ay bosib tushgan, cholning o‘limdan o‘zga chorasi qolmadi.

Va albatta, u o‘ldi. Lekin kechasi, o‘limidan ikki soat oldin, u ko‘zlarini ochib, Allandan so‘radi:

– Qo‘shni! Hoy, qo‘shni! Siz o‘rmon nima ekanini bilasizmi?

– Bilaman, – javob qaytardi Allan biroz o‘ylab turgach. – Bu, agar bir xil balandlikdan nazar tashlansa, ummondan farq qilmaydi. O‘rmon shovqin soladi, chayqaladi va quyosh xuddi tubsiz jarga botgandek, yaproqlar qo‘yniga yashirinadi. Agar qush boshingiz tepasida besh marotaba qichqirsa, bilingki, shu atrofda, besh chaqirim narida qadimiy xazina ko‘mib qo‘yilgan.

Temir qoplangan bu sandiqni axtarib topib, qumdan qazib olishdan osoni yo‘q. Uni sindirganingizdan so‘ng, siz u yerdan oltin tangalar emas, qizingizning nikoh kechasi kiyadigan ko‘ylagini topib olasiz. Yanglishmasam, uning ismi Charmen, shundaymi?

– Ha, – dedi daraxt kesuvchi, – uning ismi Charmen.

– Siz ayiq bilan yuzma-yuz bo‘lganmisiz, – so‘radi Allan.

– Bo‘lmasam-chi! – dedi daraxt kesuvchi. – U o‘zining yashil diydalari bilan menga uzoq tikildi, so‘ng bir-birimizga ko‘z qisishdik-da o‘z yo‘limizga ketdik. Biz o‘rmon sokinlarimiz, san-u manga borib o‘tirishimizning hojati yo‘q. – Charmen bo‘lsa, – kutilmaganda qo‘shib qo‘ydi daraxt kesuvchi, – endigina o‘n to‘qqizga kirdi. Men unga tezda tuzalib ketaman, deb yozib yubordim. Uni qanday yupatish mumkin edi? Faqatgina yolg‘on bilan.

– Bilasizmi, – dedi Allan, – ko‘zingizni yumib, chuqurroq nafas olib, xayolan Charmenni chorlasangiz kifoya, hammasi istaganingizdek bo‘ladi. Harakat qilib ko‘ring! Qani, bo‘ling! Shamol har doim kechga tomon pasayib, quyosh kulbangiz uzra qarag‘aylarni yoritadi. Ko‘nglingizga siqqanicha osmonga tikilavering. Lekin siz qush yo‘qotgan patdek yakka-yolg‘iz bulutdan bo‘lak narsani ko‘rmaysiz.

Ha, boshqa hech narsa ko'rinmaydi. Siz qorong'ilik quyuvlashishini, uning qo'ynida yulduzlar miltir-miltirini ko'rishga intiqsiz. Bu – kechki ovqat mahali bo'ldi, degani. Va albatta, – kechki ovqat tayyor – Charmen idishlarni dang'ir-dung'ur etkizib, xirgoyi qilayotir. Eh, jin ursin! Qo'shiq so'zlari xayolimdan ko'tarilibdi.

– Ha-a, – dedi daraxt kesuvchi, – bu qizchadan sadaqa so'ragan tilanchi ayiqcha haqidagi qo'shiq bo'lsa kerak.

– Ha-ha! Xuddi o'sha qo'shiq! Yodimga tushdi. Men uni aytib beraman. Lekin juda past aytaman, enagalar eshitmasinlar. Ular bizga quvonch baxsh etadigan jamiki narsalarning zarari bor, deb o'ylaydilar.

U qo'shiq ayta boshladi:

*«To'q! – To'q! – To'q –
Allaqanday ho'l hayvon –
Ochiqqan ayiqpolvon,
Eshikni chertar hamon:
«Ma'zur tutinglar meni
Charmenjondan men agar,
Pul qarz olsam, maylimi?»*

Daraxt kesuvchi qo'shiqni eshita-eshita uxlab qoldi va shu ko'yi qaytib uyg'onmadi. Uning hayoti olisda yangragan bongday so'nib ketdi.

Daraxt kesuvchini kasalxonada yaqinidagi qabristonga ko'mishdi. Yashil qabrlar oralab tushovlangan otlar o'tlab yurishardi.

Allan yog'och xochga marsiya bitish istagini bildirdi. U shunday deb yozdi:

«Bu yerda 63 yashar daraxt kesuvchi, qarag'ay tagida qolib o'lgan Tomas Birn yotibdi. U bir umr mehnat qilgan, shu bois olijanob odam edi. Joyi jannatda bo'lsin, Olloh o'z dargohiga qabul qilsin».

* * *

Allan tuzala boshlagan, kasalxonada so'nggi kunlarni o'tkazmoqda edi. U Birning qabriga tez-tez borib turardi. Hali o't o'sib ulgurmagan tepacha ostida o'ziga do'st bo'lishi mumkin bo'lgan kishi yotgani to'g'risida o'ylash unga juda yoqar edi.

Ular albatta yaqinlashib ketgan bo'lardilar. Chunki Allanning butun borlig'ini egovlayotgan hayotning barcha iker-chikir, murakabliklarini daraxt kesuvchiga tushuntirib o'tirishning hojati yo'q edi.

U bilan arrani peshlash, qushlarni qanday tuzoqqa ilintirish haqida suhbatlashayotib, hordiq chiqargan bo'lur edi.

Kasalxonani tark etishdan oldin Allan daraxt kesuvchining qiziga otasining so'nggi daqiqalari haqida xat yozib yubordi. Va Charmen Morringtona kelib, uni uchratib qolishidan qo'rqqanday o'sha zahoti-yoq g'oyib bo'ldi.

* * *

Allan deraza yoniga keldi. Ummon junbushga kelib, qirg'oqlarni larzaga solmoqda edi.

– Hech qachon! – dedi Allan va sovuqdan junjikdi. – Hech qachon! – takrorladi u.

O'tgan umr – hech qachon qaytib kelmaydi. U umriga achinardi. Agar u insonlar bilan muloqotda bo'lganida, deyarli har safar paydo bo'ladigan qashshoqlik, yo'qotishlar va chalkashlik yillarini olib tashlaganda ham, baribir, hozir yog'ayotgan qorga o'xshash mayin va mehribon bir necha o'n kun qoladi, xolos.

Virjiniya vafot etdi. Uni «Troitsa guli», deyishardi. Bu viloyatda mo'jaz bahorgi gulni shunday atashardi.

Uning o'limida Allan aybdor. U tabib chaqirish, bu eski kulbani isitish, Virjiniya uchun aqalli oromxonaga o'xshagan bir go'sha yaratish uchun hatto o'n so'm ham ishlab topolmadi. U faqat xayol sura olardi, xolos. Bu uning hayotdagi yakka-yu yagona mashg'uloti edi.

Uning qo'lidan yana nima ish kelardi? Faqatgina Virjiniya isitmada yonib, poxol to'shakda yotganida ustiga yirtiq kamzulini yopib qo'yish va o'girilib ko'z yoshlarini ichga yutish. Hatto uylariga o'rganib qolgan daydi mushuk ham nima qilish lozimligini Allandan yaxshiroq bilardi. So'nggi kechalarda u Virjiniyaning ko'ksida yotib, o'z harorati bilan ayolni isitdi.

O'shanda xuddi hozirgidek qish fasli, ummon ham hozirgidek shovqin solar, Virjiniya chekayotgan azob-uqubat bilan ishi yo'q

edi. Minglab yillar mobaynida tog‘-tog‘ suvni yerga qarab haydar, mashg‘uloti shunaqangi ulug‘vor ediki, buning oldida insonlar g‘am-anduhi qum zarrasi shig‘iriday bir gap.

– Nahot, hech qachon qaytmasa? – so‘radi Allan qorong‘i xona tomonga o‘girilar ekan.

Bu g‘aribgina narsalar bilan yashayotganiga ham necha yillar bo‘ldi! Ular itoatkorlik bilan tirikchilik tashvishlarini birga tortishadi! Virjiniya hayotligida ham shu yerda edilar, bu narsalarga u qo‘l tekkizgan. Bu buyumlar bilan past tovushda gaplashish ham mumkin, lekin ulardan bir og‘iz javob eshitmaysan.

– Nega siz umr-basar etyapsiz-u, Virjiniya yo‘q? – baland tovushda so‘radi Allan.

Buyumlar jim edilar.

– Mayli, zarari yo‘q, – dedi Allan, – xafa bo‘lmanglar. Hech qachon sizlarni tashlamayman.

Buyumlar javob berishmasdi.

– Ey, xudoyim! – dedi Allan. – Bu tunni qanday o‘tkazsam ekan?

U stolga o‘tirib, yoza boshladi. Ko‘ngli biroz taskin topdi. Lekin uning har bir yangi hikoyasi badbin, yaxshilikka ko‘ringanida esa, ehtiromli bir tushunmovchilik, hayratni yuzaga keltirardi. Amerikada unga xuddi o‘zga sayyora odamidek qarashardi.

Bu qashshoq shoir o‘zining yarqiroq o‘tkir so‘zi bilan odob-u tartibotni, mustahkam tushunchalarni vayron etishga, aqli raso dunyoni masxaralashga qanday jur‘at etadi! O‘z xayolotini haqiqatan ham mavjud bo‘lgan mahkamalar, yulduzli bayroq, cherkov va idoralar deya atashga qanday haddi sig‘adi!

Bu qisqagina, yolg‘ondakam quvonch yurakda sanchiq uyg‘otuvchi beaded g‘amdan bo‘lak nima beradi odamlarga? Qalblarni zahrlash, ajoyib uydirmalarni hikoya qilishning nima keragi bor? Ortiqcha ko‘z yoshlari, chippakka chiqqan orzu-umidlar olami uchunmi? Nima uchun?

«Noto‘g‘ri!» – derdi o‘z-o‘ziga Allan. – Men quvnoq va ochiq odamman. Qovog‘ingizni osmang! Istiqbolimga jilmaying. Baxtingizni bir zarragina oshirmoqchiman, xolos. Siz bo‘lsangiz, o‘z baxtingizdan ajaldan qochganday qochasiz. Tentaklar!»

«Inson mo'jizalar yaratishga qodir, men aminman, – yozardi Allan. – Agar buni hozir isbot etolmasam, oradan ellikmi, yuz yilmi, o'tib, boshqa odam paydo bo'ladi-da, mendan ham yaxshiroq tushuntirib, isbotlab beradi. Faqatgina o'zim mo'jiza yaratishga qodirman demoqchi emasman, aslo, xudo saqlasin! Lekin shunga qaramay, sezyapmanki, odamlar men to'qigan voqea, hodisalarga jon-jon deb ishonishadi va o'sha zahotiyoyq bir-birlariga aytib berishadi. Shunday qilib, kishilar ongida mening xayolotim mahsuli, lekin hayotda sodir bo'lmagan voqealarning mavjudligi to'g'risida komil ishonch paydo bo'ladi. Axir, shuning o'zi mo'jiza emasmi? Biz Magellan kemalari butun dunyoni aylanib o'tgani, admiral Nelson Trafalgar jangida o'ldirilganini bilamiz. Lekin shahzoda Hamlet borligiga, Makbet xonim esa qo'llaridan qon dog'larini ketkizolmaganiga ham xuddi shunday ishonch bilan qaraymiz...»

* * *

Aftidan, kimdir devorni qattiq mushtladi. Allan yozayotgan sahifasini stolda yotgan egri-bugri raqamlar bitilgan sariq qog'oz bilan bekitib, o'rnidan turdi va dahlizga chiqdi. Siniq oynalardan shamol esar, ostona ortida suvori toqatsizlanayotgani, ot tuyog'i bilan muzlagan yerni tepib, pishqirayotgani eshilib turardi.

Allan tungi mehmonning kimligini ham surishtirmay, eshikni lang ochdi.

– E, ha, doktor Gregori! – dedi u. – Bu zim-ziyo tunda kelishga qanday jazm etdingiz?

Gregori egilib dahlizga kirdi, qalpog'ini yechib, qorini qoqdi. U yonoqlari g'isht rangli, quruq, barvasta kishi edi. Tungi mehmon shusiz ham kichik ko'zlarini qisib, jilmayganicha Allanga qo'l uzatdi.

– Burchim taqozo etdi, – javob berdi u bo'g'iqroq tovush bilan. – Men shu yaqin o'rtada, Friderning uyida edim. U sariq suv kasalidan jon taslim qilyapti. Mana, ikki haftadirki, Vest-Poyntda sizni hech kim ko'rgani yo'q. Yo'l-yo'lakay kirib, sog'ligingizni bilmoqchi bo'ldim, Allan.

Ular xonaga kirdilar.

– Baxtga qarshi... – Allan g‘o‘ldirab, qora, sovuq pechkaga nigohtashladi.

– Tashvishning hojati yo‘q, – dedi Gregori, – hamonki cho‘ntakda doim mana bu bor ekan... Qadahni esa, topsa bo‘ladi.

U cho‘ntagidan bir shisha viski olib, stolga qo‘ydi.

Avvaliga ular hech so‘z demay, sekin-asta ichdilar. Ummon borgan sari quturib, shovqin solar, sham nuri eski javonda turgan ma‘buda Pallada haykalchasining marmar chehrasida titrab turardi.

– Uyingizning hamma yog‘i chang, – dedi nihoyat Gregori, – Chang va sovuq!

U Pallada tomonga o‘girildi.

– Bu ayol boshini, g‘alaba ma‘budasini majaqlab tashlang!

– Nega?

– Negaki, u sizga na g‘alaba va na muvaffaqiyat keltirdi.

– Bilmasam, – bosiq javob qildi Allan.

– Bilishning hojati ham yo‘q! – dedi ko‘tarinkilik bilan Gregori. – Sizning taqdiri azalingiz mana shu qadahdek aniq-ravshan. O‘zingizni kim deb hisoblasangiz, hisoblayvering. Falakning yerdagi noibimi, yoinki, do‘zax maloikasimi, menga baribir. Siz yana nima o‘ylab topishingiz mumkin? Ko‘p narsami? Juda yaxshi! Xo‘sh, buning evaziga nimaga ega bo‘lasiz? Chang va sovuqqami? Va ana u o‘choqdagi sichqonlar chiyillashigami?

Allan Gregoriga sinchiklab tikildi. Doktor kam ichgan, lekin mast bo‘lib qolgan va har galgidek, janjal chiqargisi kelardi. Allan zaharxanda qildi.

– Siz o‘z xayolotingiz bilan faxrlanasiz, – dedi Gregori achchiqlanib. – Lekin nafslambriga, bu matohingizdan sariq chaqa ham undirolmaysiz-ku! Siz hayot nima ekanini bilmaysiz. Menga o‘xshab qor ostida, qari ot bilan kechalari yurib ko‘ring. Xo‘sh, nima uchun dersiz? Qashshoq gadolar, bekorxo‘jalardan minnatdorchilik eshitish uchunmi? Ma‘lumingizkim, bu minnatdorchiliklardan, xuddi sizning she‘riyatingiz singari, bir tiyinlik foyda yo‘q.

– Sizni juda e‘tibor bilan tinglayapman, – dedi Allan.

Doktor stolni mushtladi.

– Jin ursin! Lekin men bundan ham yaxshiroq yashashga loyiqman, axir! General Teylor armiyasiga tabilikka olishlarini so‘radim. Bu Meksika urushi menga ma‘qul edi. U yerda ancha-muncha pul ishlab olishdi.

– Amerikada sarguzasht izlovchilar, yaramas kishilar to‘lib yotibdi, – dedi Allan muloyimgina.

– Oltin izlovchilar, – tuzatdi Gregori. – Bizning zamonamizda bunchalar sodda bo‘lish yaramaydi.

U Allanga baqrayib qaradi.

– Men, oz-moz kayf qilibman, aftidan. Ha, xo‘p, nima qildik endi, Allan? Siz o‘z orzu-umidlaringizdan loqal bir dollar qoqishtirib ola bilasizmi? Bunaqada boshingizning narxi qancha bo‘ladi, o‘zi.

– Gapiravering!

– Ha! – qichqirdi Gregori, – men hatto o‘zimning yirtiq soyabonimni boshingizga alishmayman!

– Menda, – dedi xotirjamgina Allan, – mast-alast valdirashlarni eshitish ishtiyoqi yo‘q. Siz menga xalaqit berdingiz.

– Baribir, sizda hamsuhbat tanlash imkoni yo‘q-ku, – g‘o‘ldiradi Gregori. – Nimaga xalaqit berdim? Falsafa tamal toshi ixtirosigami? Yoinki, yoshlikni qaytaruvchi dori kashf etayotganmidingiz?

G‘azabdan Allanning ko‘zlari qorayib ketdi.

– Yaxshi! – qichqirdi u. – Hamonki, xayolot dunyosi ustidan kulayotgan ekansiz, mana bu raqamlar yozilgan yirtiq varaqni ko‘ryapsizmi?

– Ko‘ryapman. Baqqoldan olgan qarzlaringiz ro‘yxati, – dedi Gregori va o‘ziga viski quydi. – Ko‘ramiz, shu turish-turmushingizda yana nimalarni o‘ylab chiqarar ekansiz?

– Yo‘q, bu qarzlarning hisobi emas. Gregori, siz nuktadon odam emassiz. Ayniqsa, ichib olib, qo‘pollik qilayotganingizda fahmingiz haminqadar. Buni admiral Ponse de Leonning Floridani kashf etishi tavsiflangan saxtiyon muqovalari eski kitob ichidan topib oldim. Kitobni Vest-Poyntda bir habashdan sotib olgandim. Undan qalampir va asrlar hidi anqiydi.

– Bor-yo‘g‘i habashning hidi keladi, – e‘tiroz bildirdi Gregori.

– Bu varaq ikki sahifa orasiga yelimlangan edi. Siyoh, qog‘oz va husnixatga qaraganda, uning yozilganiga ikki yuz yil bo‘lgan. Maxfiy yozuv. Siz uni o‘qiy olarmidingiz?

– Zarur keptimi menga?

– Sirasini aytganda, bunga aqlingiz yetmaydi ham, – dedi Allan odob bilan jilmayib. – Buning kalitini topish kerak bo‘ladi. Men ana shu kalitni topdim va yozuvni bir necha soat mobaynida tikladim.

– Ha-a, – dedi Gregori bee’tibor ohangda. – Xo‘sh, pichoqqa ilinadigan biror match bor ekanmi?

– Maktabda Amerikaning istilo etilish tarixini o‘qigansiz. Siz, albatta, qaroqchilar to‘dasi to‘g‘risida eshitgansiz. Qaroqchilardan birining ismi Bleyk bo‘lib, o‘zi angliyalik, lekin Ispan qiroliga xizmat qilardi.

– Yangiligingiz uchun rahmat! – g‘o‘ldiradi Gregori. – Bleyk emish! U zamindagi eng badavlat ablah edi.

– O‘limi oldidan u jami boyliklarini ko‘mib tashlagan, qayerga ko‘mganini hech kim bilmaydi. Bu boyliklarni yuz yil izlashdi va...

– Topishdimi? – so‘radi Gregori.

– Yo‘q. Lekin hozir ularni topish juda oson.

Gregori umidsiz qo‘l siltadi.

– Oh, Allan! Bu eski ertaklaringizni qo‘l-oyoqdan qolib, o‘choq oldida yotgan kampilarga ayting.

– Yozing! – dedi Allan qat‘iy. – Men bu eski yozuvning mag‘zini chaqib, aytib turaman. Siz dorixatni qanday osonlik bilan o‘qisangiz, men ham bu raqamlarni shunchalar oson o‘qiyman. Lekin shu choq-qacha bu matematik raqamlarni so‘zga aylantirishga qo‘lim tegmay yuruvdi.

– Ajabo! – Gregori g‘o‘ldirab, qo‘liga qalam oldi, Allanning qo‘l-yozmasini shaxt bilan nari itarib, yozishga chog‘landi.

– Yozing! «Men, xudoning marhamati bilan, hammaga ma‘lum-mashhur Bleyk, o‘limim oldidan yozilgan bu maktubni o‘qiy olgan kishiga shuni vasiyat qilamanki, ushbu xatni kishilarga yomonlik emas, balki yaxshilik qilish uchun ishlatsin. Uning qasamini Ollohning taxti a‘losi oldida qabul etaman. U mening dengiz olishuvlarida orttirgan boyliklarimni topgan taqdirda, –

gunohsiz to‘kilgan qonlar uchun Oллоh meni kechirgay, – o‘ziga mayli, yuzdan bir bo‘lagini olsin-da, qolgan hammasini shu atrofda birinchi uchragan qizaloqqa bersin. Shu shart bilankim, qizchaning egnida yirtiq ko‘ylakdan boshqa, hech vaqo bo‘lmasligi kerak.

Agarda buyrug‘im amalga oshmas ekan, ro‘zi mahsharda qabrdan chiqib, o‘sha aldoqchini inson zakovati o‘ylab topishga qodir bo‘lgan eng dahshatli jazoga mahkum etaman.

Xazinam Brunsvik qal‘asidan janubroqda, Djekil orolida. Uning shimoliy chekkasidan, Nina burnidan hisoblaganda, uchinchi tepalik ostiga ko‘milgan. Tepalikning o‘rtasini topib, janubi-g‘arbgacha tomon bir yuz-u o‘n yetti qadam tashlansa, pala-partish qorishtirib tashlangan toshlar orasidan qora marmar bo‘lagi chiqadi. Ana shu bo‘lak yonidan ikki yuz-u qirq bir darajada yana o‘ttiz qadam sanaysiz-da, ishni boshlaysiz.

Bu xazina butun insoniyatni tong qoldiradi. Hatto hammaga marhamatli qirol ham bu boylikning uchdan bir qismiga ega emas. Holbuki, qirolning mulkida hech qachon quyosh botmaydi, har qanday kuchli to‘fon ham uning yarmiga yetmayoq tinib qoladi».

– Yozib bo‘ldingizmi? – so‘radi Allan, Gregori so‘nggi so‘zni yozgach.

– Ha. Juda qiziq narsa ekan.

– Tashakkur! – Allan Gregori yozgan qog‘ozni uning qo‘li ostidan oldi-yu, nopisandlik bilan eski kitob qatiga suqdi. – Xo‘sh, endi tasavvur kuchiga ishondingizmi?

Gregori Allanga sokin nigoh tashlab, eski kitobga qaradi, qip-qizil, semiz qo‘llari bilan tizzalariga urdi va xaxolab yubordi.

– Siz boshni aylantirishga juda usta ekansiz, – oqko‘ngillik bilan tan oldi u. – Nega bo‘lmasa, shu choqqacha bu xazinani qazib olmandingiz, Allan? Nima, vaqtingiz yo‘qmi? Ehtimol, boyligingiz ko‘pligi tufayli sizga xazinaning keragi yo‘qdir?

Allan javob bermadi.

– Xo‘p, mayli! – dedi Gregori yarash ohangida. – Bo‘ldi endi. Bu bachkana alahlashni bas qilaylik. Meni hozir boshqa narsa qiziqtiradi: ahvolingiz qanday?

– Uyqusizlik qiynayapti, – javob berdi Allan. – Hammasidan og‘iri shu: tun bo‘yi miyamda kechadigan hamma fikrlarni yozib ol-gim keladi. Lekin yoza boshlashim bilan fikrlar to‘xtab qoladi.

– Darmonsizlik sezasizmi?

– Ha. Darmonsizlik ham azob beradi.

– Asablar tordek tarang tortilgan, – dedi Gregori. – Ularning mus-tahkamligi esa o‘rgimchak to‘ridan qattiq emas. – U xayolga tdi. – Nima qilsam ekan? Ochig‘ini aytaman – kasalxonaga yotishingiz kerak.

– Yanami! – g‘amgin norozilik bildirdi Allan. – Yo‘q! Aslo yot-mayman!

– Ey, xudoyim! – Xo‘rsindi doktor. – Sizga gap uqtirib bo‘larmidi! Uyqu-dori berishim mumkin. Lekin bu sizni qutqazib qololmaydi.

– Meni hech narsa qutqazolmaydi.

Gregori Allanga qattiq tikildi, nimchasi cho‘ntagidan bir necha qog‘oz xaltachalar oldi, ularni titkiladi va birini Allanga uzatdi.

– Hozir iching. Shunda tongga yaqin ko‘zingiz ilinadi. Viski bilan qo‘shib ichsangiz ham bo‘ladi. Unda qattiqroq ta‘sir etadi.

Allan oq dorini viskili qadahga soldi-da, bir ko‘tarishda ichib yubordi.

– Tun qariyapti, – dedi Gregori. – Ahvolingizni kuzatish uchun ertalabgacha yoningizda o‘tirishim mumkin edi, lekin siz uxlab qol-sangiz, ortimdan eshikni kim yopadi?

– Men uni hoziroq yopib qo‘yishim mumkin.

– Siz har doimgidek, juda sertakallufsiz.

Gregori shunchalar shaxt bilan o‘rnidan turdiki, uning harakatidan paydo bo‘lgan shamol shamni o‘chirdi. Shu asnoda tun rangi oqardi, Allan devor ortida oynning sovuq yaltirashiga o‘xshash yorug‘lik aro ummon mavjini va qora daraxtni ilg‘adi.

– Xo‘sh, nimaga qarab turibsiz? – dedi qahr bilan Gregori. – Eshikni yopasizmi, yo‘qmi? Shamni yoqishingizni maslahat berar-dim.

Gregori qorong‘i dahlizda o‘rindiqa qoqilib ketdi. Tashqariga chiqib, bog‘loqlik otini yechdi, uning bo‘yniga shapatiladi-yu, qich-qirdi:

– Xayrli tun, Allan!

Allan javob bermadi. Dahlizga chiqqanida ochiq eshikdan uzoqlashib borayotgan ot tuyog‘i tovushi eshitalardi.

– Vodiya tuyoqlarning bir maromdagi tovushi eshitalardi! – dedi Allan. U har bir urg‘u ot tuyog‘i tovushiga mos kelishiga harakat qilardi. So‘ng yana takrorladi: – Vodiya tuyoqlarning bir maromdagi tovushi eshitalardi!

U xonaga qaytib kirib, shamni yoqdi. Saxtiyon muqovali kitobni stol ustida silkitib ko‘rdi. So‘ngra to‘liq varaqlab chiqdi. Gregori yozgan xat yo‘q edi. Allan kulib yubordi.

– Men yengdim. Hatto shu qurumsoq to‘nkani ham yengdim. Endi butun Djekil orolini ag‘dar-to‘ntar qilaversin. U yerda qum shunchalar ko‘pki, ming yil qazisa ham tugamaydi.

Allan raqamlar bitilgan varaqni oldi. Bu daftardan yirtib olingan sahifa edi. Yog‘li dog‘ izlari qolgan bu qog‘ozga allaqaysi do‘konchada Allanga pishloq o‘rab berishgandi. «Bechora bolakay! U ikki noma‘lum tenglamani sira yecholmagan».

Birdaniga ummon uzra olisda otilgan to‘p sadosi gumburlab o‘tdi. Qontalash bir nur yaltiradi.

Allan shamni o‘chirib, qorong‘ilik qa‘riga tikildi. U yerda nima bo‘lyapti o‘zi? Tezqadam shafaq tund mis rangidagi to‘lqinlarni qizartirdi va qirq zambarakli kema ko‘zga tashlanib qoldi. Kema barcha yelkanlarini shishirganicha yelib borar, zambaraklaridan o‘t ochardi. Uning machtasida qo‘l tasviri tushirilgan qora bayroq hilpirardi.

Bleyk! U kimni ta‘qib etayotgan ekan? Tutun to‘lqinlarni to‘sib qo‘ydi. Ha, bu, albatta, o‘tgan asrdan kelgan mehmon – qaroqchi Bleyk edi.

Lekin nega u qirg‘oqdan darhol Allanning uyiga qarab kelyapti? Bleyk qumga bota-bota qadam tashlayapti, shamol esa kamzulining jimjima kashtali etaklarini tortqilaydi. Yuzlari jizg‘anak, burni katta-kon Bleyk – bayrog‘iga inson qo‘li tasvirini tushirishni o‘ylab topgan hazilkash qaroqchi.

«Men u bilan osongina til topisha olaman», – dedi Allan va ko‘zlarini yumib, boshini stolga qo‘ydi.

Atrofni zulumat qopladi, nafasi qisa boshladi. Lekin Allan tekislikning u boshidan bu boshigacha binafshalar gul ochayotganini shu qorong'ilik qa'ridan ko'rib turardi. Gullar mayin tovush chiqarishar, har birining bag'riga nozik torlar yashiringandi go'yo.

«Bu axir, tush-ku! – yengil tortib o'yladi Allan. – Qanchalar shirin zahri qotil. Yashaging keladi, lekin zahri qotilga monelik qilishga kuch topolmaysan.

Virjiniya, sening Troitsa chechaging allaqachon ochildi. Qo'lingni ber! Ana shunday. Nega qo'ling muzday, ovozingni taniyolmayapman? Men sening har bir barmog'ingni taniyman. Ularga navbatmanavbat ertaklar aytib berganman. Bu qanday jarlik, jahannamki, meni xuddi Malstremdek o'ziga tortyapti?

Ko'mak ber menga! Ko'zlarimni och, Virjiniya!»

Ertalab Allanning uyi yoniga oriqqina, uyatchan qiz – Charmen Bim keldi.

Shamol tingan, lekin havo bulut, ummon uzra ko'kintir bir nur jilvalanardi.

Charmen eshikni taqillatdi, lekin hech kim javob bermadi.

Eshik qulf emasligini sezgan qiz, ohista uyga kirdi.

Stolda oriq, pastakkina kishi o'tirar, boshi ochiq kitob ustida yotardi.

– Janob Allan! – chaqirdi Charmen.

Javob bo'lmadi.

Shunda yuragi gurs-gurs urayotgan Charmen Allanning yoniga kelib, uning boshini ko'tardi. Bechoraning joni uzilgan edi.

Charmen bir amallab uni askariy chorpoyaga yotqizdi.

Marhumning bo'ynida zanjirga osig'liq tumor bor edi. Charmen uni ochdi. Tumorda juda noyob go'zallik sohibasi bo'lmish yoshgina ayolning surati bo'lib, yon tomoniga Allanning qo'li bilan «Onaizorim» deb yozib qo'yilgandi.

Charmen egilib, uning boshini ohistagina kaftlari orasiga oldi, lablaridan mehr bilan o'pdi.

Allanning chehrasi bag'oyat go'zal, u hech qachon bunchalik muhabbatga sazovor bo'lmaganday tuyulardi.

Marhumni ummon yaqinidagi qum tepaga koʻmdilar. Uning qabriga ismi sharifi, bu yorugʻ dunyoda qirq yilgina umr koʻrgani toʻgʻrisidagi yozuv bitilgan tosh qoʻyildi.

* * *

Allanning oʻlimidan soʻng bir yil oʻtgach, sovuq, boʻronli kechalarning birida doktor Gregori qari suvori otida uning qabriga keldi. U otdan sakrab tushdi-da, u yoq-bu yoqqa alanglagach, qabrga yaqinlashdi, yomgʻirpoʻshi ostidan ogʻir bolgʻa chiqarib, qulochkashlab toshga urdi. Qabr toshi bir necha boʻlakka boʻlinib ketdi.

Ot zarbadan hurkib, bir siltandi-yu, qirgʻoq boʻylab loʻkillab keta boshladi.

Gregori uning ketidan yugurdi, lekin bolgʻani ummonga uloqtirish uchun biroz ushlanib qoldi. Soʻngra ot ham, Gregori ham koʻzdan gʻoyib boʻlishdi.

Bahorda qabr toshi yoriqlaridan troitsa chechagi boʻy koʻrsatdi. Koʻp oʻtmay toshning hamma yogʻi ana shu yengilgina gullar ogʻushida qolib ketdi...

Qum zarrasi

Koʻpchilik, hikoyalar nasihatimiz boʻlishi kerak, deya qattiq ishonishadi. Lekin bu haqiqatni soʻzsiz eʼtirof etishni istamaydigan kishilar ham (asosan, yozuvchilarning oʻzlari) bor. Ularning taʼkidlashicha, ayrim hikoyalar kitobxonlarga hech nima oʻrgatmasalar-da, misol uchun, quyosh nurini sindirib, undan turfarang yogʻdular, kamalaklar hosil qila oladigan moʻjazgina qum zarrasi goʻzalligini koʻrsatish bilan xursand qilishlari mumkin.

Tanishim, keksa yozuvchi bilan Qrim tosh yoʻli panjaralariga oʻtirib olib, shu toʻgʻrida gaplashardik.

Shundoq qarshimizdagi mayda toshli qiyalikda quyuyq oltin tomchilarday boʻlib butalar gullab yotar, ortimizda esa koʻm-koʻk tubsiz boʻshliqqa monand Qora dengiz harir parda aro jimirlardi. U minglab mayda, koʻpikli toʻlqinlarni qirgʻoqqa haydardi.

To‘lqinlar janubi-sharqdan qirg‘oqqa intilishar va shu bois qirg‘oqqa tekis, sershovqin po‘rtana shaklida emas, balki bir maromda yugurgilaydigan egri to‘lqinchalar bo‘lib bostirib borardilar.

– Bunaqa po‘rtana xuddi Arximed parragiday ishlaydi, – dedi kekxa yozuvchi.

By yozuvchi bir vaqtlar muhandis bo‘lgan, shu bois u hayotda ham, o‘z nasriy asarlarida ham texnik chog‘ishtirishlardan foydalarnardi.

Uzumzorlar sariq gulli butalar osha, toshloq ilang-bilang muyulishlar bo‘ylab tepaga o‘rlagan. U yerda oq durrachalarini shundoq qoshlari ustiga tushirib bog‘lagan qizlar ishlashar, shamol ularning rangi o‘chgan, yengil ko‘ylaklari etaklarini hilpiratardi.

Qizlarning biri sakrab-sakrab dengiz tomonga tushib kelardi. Bizdan bir necha qadam narida u qoqilib ketib, yiqildi. Oyog‘i qattiq lat yedi. Qiz o‘rnidan sakrab turdi va bir oyog‘ida panjara tomon hakka-lay ketdi.

U bizning yonimizga o‘tirdi, og‘riqdan qattiq qisilgan tishlari orasidan nafas oldi, lat yegan oyog‘ini ko‘tarib, qo‘llari bilan quchdi va uyalgannamo kulib yubordi. U butun harakatlari bilan hech nima bo‘lmadi, oyog‘im deyarli lat yemadi demoqchi bo‘lardi. Lekin qizning xiralashib qolgan ko‘zlaridan og‘riq juda qattiq ekanligini bilish mumkin edi.

Men yo‘lni kesib oqayotgan, asfaltda allaqachon toza yirik qum hoshiyasi hosil qilib ulgurgan irmoqcha tomon ketdim. Ro‘molchamni ho‘llab, qizga keltirib berdim. U minnatdorchilik bildirdi, aftini burishtirib, lat yegan barmoqlarini ho‘l dastro‘mol bilan o‘radi.

– Og‘riq hech bosilmayapti, – zorlandi u gunohkorona tovush bilan. – Bu bemazagarchilikni ko‘ring!

– Jimgina o‘tiring! – dedi kekxa yozuvchi jiddiy qiyofada. – Hozir birinchi uchragan mashinani to‘xtatamiz-da, sizni Mixxorga olib boramiz. Poliklinikaga.

– Keragi yo‘q! – Iltijo qildi qiz. – Yaxshisi, ko‘proq o‘tirganim bo‘lsin. Ehtimol, o‘tib ketar.

Biz rozi bo‘ldik.

Qiz harirgina, bir vaqtlar yashil bo'lib, endi esa rangi o'chib kulrang tus olgan kalta, nimdosh ko'ylak kiygandi. U nigohini ko'tarmay oyog'iga tikilib o'tirar, shu bois uzun, qora kipriklarigina ko'zga tashlanardi, xolos. Oq durrachasi ostidan qo'ng'ir sochlari chiqib turardi.

– Qayerda yashaysiz? – so'radi kekxa yozuvchi.

– Butun brigadamiz chodirlarda yashaydi, – javob berdi qiz. – Huv ana, uzumzor ortida. Biz o'sha uzumzorda ishlaymiz.

U nigohini ko'tardi. Men hayron qoldim: kiprik va sochlari qora bo'lgan qizning ko'zlari ham qora bo'lsa kerak deb o'ylagandim, lekin uning ko'zlari och yashil tusda, yosh nami bilan qoplangan, yarqirab turardi.

Qizning har ikkala tizzasini ham tosh tilib yuborgan, ularda kichik-kichik qon dog'lari ko'rinib turardi.

Qiz yarador oyog'idan diqqatimizni chalg'itish uchun shunday dedi:

– Qanday ajoyib... Sap-sariq gullagan butalar.

– U nimaga o'xshaydi? – so'radi yozuvchi. – Bilmaysizmi?

– Yo'q, fahmlayolmayapman.

– Bo'lmasa, men sizga aytib beraman.

Kekxa yozuvchi butkul texnikaviy o'xshatish keltirishiga imonim komil edi. Lekin u butaga boqdi, o'ylandi va shunday dedi:

– Agar dengiz qayroqtoshini oltin halli suvga tashlasangiz, ana shunday favvoralar hosil bo'ladi. Tomchilar va shaloplash. To'g'rimi?

– Ha, to'g'ri, – dedi qiz astagina. – Siz binoyidek shoir she'riga o'xshash gap qildingiz. Men she'rni juda yaxshi ko'raman. Lekin hozir she'r o'qigani vaqtim yo'q.

U bir yil burun Poltavshinada o'n yillik maktabni tugatganini, shaharcha Xorol deb atalishini, yonidan issiq suvli, qamish bosgan unchalak chuqur bo'lmagan daryocha oqib o'tishini aytib berdi. Otasi allaqachonlardir o'lib ketgani, onasi esa tibbiyot hamshirasi – tunlari band ekanini, hatto, yakka-yu yolg'iz qizi, ya'ni Lelya uchun ham vaqt topolmasligi haqida hikoya qildi. Maktabni bitirgach urug'chibotanik bo'lishga ahd qilgani, shu boisdan, hozir Qrim uzumzorlarida ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotganini aytdi. Bu mehnat mashaq-

qatli va nozik, ularning dalasidagi uzum navi juda injiq, lekin eng muhimi, yer juda toshloq.

– Qanaqa? – hayron bo‘lib, qayta so‘radi yozuvchi.

– Toshloq! Yer xuddi toshdek, tok ildizi ham toshdek qattiq, atrof qizigan toshlar issig‘idan yonay deydi. Avvaliga issiqdan shunchalar qiynaldimki, hatto obidiyda ham qildim. Endi bo‘lsa bu jaziramani yaxshi ko‘rib qoldim. Ana shu issiqlik zaminni bezayotgandek tuyuladi menga. Lekin kechga tomon jazirama qiyomiga yetib, sal-pal pasaya boradi va havo shunchalar sokin, nafis bo‘lib qoladiki, o‘z ko‘zingga o‘zing baxtli ko‘rinib ketasan.

– Ha, haqiqatan ham baxtli ko‘rinib ketasan! – takrorladi u va xiyol qizardi. – Maktabda direktor ayol hissiyotlarga berilish kerak emas, deya bizga qayta-qayta uqtirardi. Endi bilsam, unig bu qiligi‘i ahmoqlik ekan. Sizlar yozuvchi ekanligingizni fahmlagandim. By yerda, Yaltada yozuvchilar uyi bor. Yozuvchilar hamma narsani boshqalarga nisbatan xotirjamroq, yaxshiroq tushunishlari kerak. Qani, menga aytinglar-chi, yaxshi kishi bo‘lish, odamlar ahvolini, atrofdagi go‘zallikni chuqur his etishning nimasi yomon? Meni esa hissiyotlarga beriluvchanlikda ayblashadi, hatto, ba‘zan, shu yerda, brigadada ham.

Huv, ana, oldinda, havorang tutun qo‘ynidagi Ayiqtog‘ ko‘m-ko‘k osmon bilan qo‘shilib, hatto unga singib ketsa, bunda mening nima aybim bor? Men esam, bu manzarani ko‘rib, juda xursand bo‘lib ketaman. Shunchalar xursand bo‘lamanki, o‘sha zahotiy oq xursandchilikni yanada oshirish uchun har xil bo‘lmag‘ur narsalarni o‘ylab chiqara boshlayman. Men, masalan, yaqinda eski bir kitobdan «lojuvard ufq» degan jumlaning o‘qidim. Va o‘z-o‘zimga dedim: «Ayiqtog‘ ko‘m-ko‘k emas, balki lojuvard ufqda». Yoinki, «lojuvard» emas, «nilto‘tiyo»mikin? Qaysisi to‘g‘riroq, yaxshiroq, bilmayman. So‘ngra esa, tasavvurimda Ayiqtog‘ cho‘qqisiga tirmashib chiqq boshlayman, atrofda xuddi qordek bo‘lib, mo‘jazgina tog‘olcha gullab yotadi, dengiz esa jarlikdan jarlikka itqitadi. Va men Qora dengizning ana shu ko‘m-ko‘k nurlariga singib ketishni ixtiyor etaman, hatto, o‘lishga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, faqatgina shu yerda jon bergim keladi.

Qiz birdan uyali b ketdi va jim bo‘lib qoldi.

– Bularning hammasi tentaklik bo‘lsa kerak, – dedi u. – Kechiringlar meni. Iltimos, ustimdan kulmanglap.

– Yo‘q, – javob qildi yozuvchi, – ustingizdan kulmaymiz, garchand, serkulgi va yoqimtoy bo‘lsangiz-da. Mening ham xuddi sizga o‘xshagan serkulgi va yoqimtoy qizim bor. Qachonki, erga tekkaningizdan so‘ng...

– Men hech qachon erga tegmayman! – jahl bilan uning so‘zini bo‘ldi qiz.

– Hamma shunday deydi, – kuldi yozuvchi. – Jumladan, siz ham. Chunki hali sevganingiz yo‘q. Sizga havasim keladi. Chin so‘zim! Juda havasim keladi. «Yevgeniy Onegin»ni o‘qimagan, lekin tezda o‘qishi kerak bo‘lgan kishiga qanday havasim kelsa – shunday. Siz Kuprinning «Yoqut ko‘zli bilaguzuk» hikoyasini o‘qiganmisiz? Yo‘qmi? Juda soz! Ana shu ajoyib hikoyani o‘qiyotgan paytdagi holatingizni kuzatib turish uchun juda ko‘p narsaning bahridan o‘tgan bo‘lardim. Ko‘zlaringiz qora tortib, yoshga to‘lishini, qoshlaringizni chimirib, lablaringizni tishlashingizni va birdan jilmayib, nim kulgi tomog‘ingizda titrab qolganini ko‘rishni juda-juda istardim.

– Yaxshi kitoblarni shunday o‘qishimni siz qayerdan bilasiz?

– Mening qizim kitobni xuddi shunday o‘qiydi. Haqiqiy, nurli va xokisor sevgi esa xuddi yovvoyi gulday, xuddi mana bu kamsuqum tog‘olchaday, yuragingizga albatta mehmon bo‘ladi. Siz buni istaysizmi, yo‘qmi – baribir. Men nima deyaotganimni yaxshi bilaman.

– Siz bilan hamsuhbat bo‘lish naqadar qiziq! – dedi qiz. – Mana, endi oyog‘im ham unchalik qattiq og‘rimayapti. Endi Mixxopga yetib bora olaman.

Lekin u hali yurolmas, hech bo‘lmaganda qo‘ltiq tayoq kerak edi. Biz qizni ikki biqinidan suyardik, u yelkalarimizga qo‘llarini tashladi va oqsay-oqsay, sekin-asta yurib ketdi.

Biz uni xuddi qimmatbaho buyumdek avaylab borardik. Sirasini aytganda, u haqiqatan ham Qrimning qizil changi urgan, uyatchan, yashil ko‘zlari iboga to‘lgan tirik marvaridi edi. Men, ehtimol, andakkina balandparvoz xayolga berilib o‘yladimki, uning shippakli oyoqchasi tekkan har qarich yer biz, qariyalar uchun qimmatli bo‘lishi kerak. Shu bir qarich issiq yerga yoshlikning qadami teg-

di – ana shu yoshlik uchun biz umr-basar etdik va ko‘p yillar og‘ir mehnat qildik.

«Yoshlar buni bilisharmikin? – o‘yladim men. – Bu qiz ham bilar-mikin? Yoshlar kekxa avlod mehnatini bilishmasa, hayot mazmunini deyarli yo‘qotgan bo‘ladi».

Qiz xayollarimni fahmlagandek edi. Yelkamdagi qo‘lini to‘g‘rilayotib, u astagina kaftini yonog‘imga tekkizdi va bexos qilingan bu harakatdan men birdan mehr tuydim. Ehtimol, menga shunday tuyulgandir, tez-tez shunaqa holga tushib turaman. «Hayotiy intilishlarning haqiqiy hikmati, aftidan, shunda bo‘lsa kerak, – o‘yladim men. – Mana u – lojuvard osmon, dengiz bo‘shliqlari uzra mayin zulmat jimiri, tog‘lar cho‘qqisi ustidagi birinchi yulduzning ko‘zga elas-elas tashlanadigan titrog‘i». Men o‘sha yulduzni qizga va kekxa yozuvchiga ko‘rsatib, negadir, negaligini o‘zim ham bilmayman, shunday dedim:

– Bu, aftidan, bahorgi vodiylarni kumush nurga burkagan o‘sha yulduz bo‘lsa kerak.

Kekxa yozuvchi soddagina javob qildi:

– Men hayotni yaxshi ko‘raman.

Qiz esa bugungi kun o‘zi uchun juda-juda ajoyib kun bo‘lganini aytdi. Garchand, nega shundayligini hali o‘ziyam tushunmasa-da.

Mana, bor-yo‘q hikoyamiz shundan iborat. Unda hech qanaqa pand-nasihat yo‘q, lekin kishilarni xushnud etib, ushbu kichkina hikoyatdan chuqur mazmun izlamay, jilmayishga majbur etadigan o‘sha yakka-yu yagona «zarra» bo‘lsa, ajabmas.



MUNDARIJA

BIRINCHI QISM

| | |
|--|----|
| Hayot. Keksa Oskar | 4 |
| Ijod haqida | 8 |
| Oskarning o'limi | 10 |
| Juchok | 12 |
| Santurin mayi | 17 |
| Notanish shahar..... | 23 |
| Xadicha | 26 |
| Ko'cha musiqachisi..... | 30 |
| Kema tutunlari | 32 |
| Qora qayin yaproqlaridan yaratilgan shaharlar..... | 33 |
| Po'rtaxol po'chog'i..... | 35 |
| Shamlar va chiroqlar | 37 |
| Bayram sukunati | 39 |
| Yashasin Garibaldi! | 41 |
| Sevgi | 42 |
| Gullar | 44 |
| Katta ayiq..... | 47 |
| Vinkler | 50 |
| Adabiy to'garakdagi mojarro | 53 |
| Xayr-xo'sh | 57 |

IKKINCHI QISM

| | |
|---------------------------------------|-----|
| Ibtido va intiholar. Yolg'izlik | 60 |
| Gazeta | 62 |
| Mana u, Moskva! | 67 |
| Shahar chekkalari..... | 72 |
| Maktub | 77 |
| Norvegiyalik darg'a | 80 |
| Bezgak..... | 84 |
| Dangasalar..... | 89 |
| Serebryanka daryosi..... | 91 |
| Tungi uchrashuv..... | 96 |
| Abadiy shahar | 101 |
| Nikoh..... | 103 |
| Janub poyezdi..... | 107 |
| Bog'chasaroy | 108 |
| Vinklarning o'limi | 111 |
| Kundalik | 116 |
| Issiq choshgohlar | 121 |
| Baliqchilar qishlog'i..... | 123 |
| Munojot..... | 129 |

UCHINCHI QISM

| | |
|--|-----|
| Urushning oddiy kunlari. Shishadayin tiniq tiyramoh..... | 142 |
| Jang maydonlari..... | 145 |
| Bernard ibodatxonasi..... | 147 |
| Jimjitlik..... | 149 |
| Shahar osmonidagi yulduzlar..... | 152 |
| Gelena xonim..... | 156 |
| Katta favvora..... | 159 |
| Sizning shamingiz qisqaroq..... | 163 |
| Daryodagi murdalar..... | 164 |
| Makenzen..... | 166 |
| Shopen mamlakati..... | 168 |
| Begona guruh..... | 170 |
| Intiho..... | 173 |
| Olmazor..... | 175 |
| Dalalar gul ochganda..... | 177 |
| Arzimus jarohat..... | 179 |
| Dalalar qo'ynidagi shahar..... | 182 |
| Zarang bargidan gulchambar..... | 183 |
| Oradan bir hafta o'tgach..... | 185 |

HIKOYALAR

| | |
|---------------------------------|-----|
| Bove xonimning duosi..... | 188 |
| Dengizdan esgan shabada..... | 193 |
| Yoz bilan vidolashuv..... | 199 |
| Yong'irli tong..... | 202 |
| Ingliz usturasi..... | 216 |
| Kechikkan bahor..... | 220 |
| Mashaning bog'i..... | 227 |
| Sevgi degani, nima u o'zi?..... | 235 |
| To'rtovlon..... | 240 |
| Fenyaning baxti..... | 244 |
| Eski qayiq..... | 250 |
| Qari oshpaz..... | 261 |
| Qor..... | 265 |
| Qor ostidagi vodiy..... | 274 |
| Qum zarrasi..... | 288 |

Adabiy-badiiy nashr

Konstantin Georgiyevich Paustovskiy

DENGIZDAN ESGAN SHABADA

Roman va hikoyalar

Nashr uchun mas'ul *M. Bo'ronov*

To'plab nashrga tayyorlovchi *Y. Abdullayev*

Tarjimon *Jo'ra Fozil*

Muharrir *Y. Abdullayev*

Rassom-dizayner *B. Zufarov*

Texnik muharrir *L. Xijova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Musahhah *Sh. Hojiyeva, D. G'aybullayeva*

Kompyuterda sahifalovchilar: *F. Hasanova, N. Ahmedova*

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009. Bosishga 2021-yil 19-fevralda ruxsat etildi.
Bichimi 60×90¹/₁₆. Ofset qog'ozi. «Times New Roman» garniturasida
ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 18,5. Nashr tabog'i 17,89.
Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 20-129.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa
ijodiy uyi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.


Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.

www.iptd-uzbekistan.uz





21 385,40 ugr.





K.G. Paustovskiy

«O‘ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-6583-6-3

